

G.E.DJANPEISOVA, M.A.RASULXOJAYEVA

# TABIAT BILAN TANISHTIRISH



22.11 ya 73  
D45

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**G.E.Djanpeisova, M.A.Rasulxo'jayeva**

# **TABIAT BILAN TANISHTIRISH**

*o'quv qo'llanma*

**Toshkent  
"Innovatsiya-Ziyo"  
2021**

UDK: 517  
BBK: 22.11  
O-21

**G.E.Djanpeisova, M.A.Rasulxo'jaeva. Tabiat bilan tanishtirish. /o'quv qo'llanma/. Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2021, 224 b.**

Mazkur o'quv qo'llanmada «Tabiat bilan tanishtirish» fanining maqsadi, vazifalari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, metodlari, ish shakllari hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ilmiy-amaliy asoslari. Tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni tabiatga nisbatan mas'ullik, vatanga muhabbat kabi tuyg'ularini shakllantirish, bilim va mahoratga ega bo'lishini ta'minlaydi.

O'quv qo'llanma pedagogik Oliy ta'lim tashkilotlarining 5111800 - Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi – pedagoglari uchun mo'ljallangan.

### **Taqrizchilar**

**Sh S Shodmonova** - Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrası p.f.d.professor

**M X Tadjieva** - Toshkent pedagogika kolledji direktori  
p.f.n.dotsent

**USHBU O'QUV QO'LLANMA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI TOMONIDAN  
NASHRGA TAVSIYA ETILGAN.**

ISBN 978-9943-6214-7-3

© Djanpeisova G. va boshq., 2021.

© "Innovatsiya-Ziyo", 2021.



## KIRISH SO'ZI

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori (29.12.2016 y.) "Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli qarori (30.09.2017) "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3276 - sonli qarori (15.09.2017y). "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori (09.09.2017 y) "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli qarori (30.09.2017 y.) "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-sonli Farmoni (30.09.2017 y.) qabul qilindi.

Qabul qilingan me'yoriy hujjatlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, tabiat bilan tanishtirish orqali ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish; maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish imkoniyatini yaratadi.

Ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish taqozo etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bo'lajak tarbiyachi shaxsini o'qitishning ta'lim yo'nalishlaridan biridir. Oliy ta'lim muassasasida o'qitishning asosiy maqsadi - maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat hodisalari haqidagi ilk tushunchalarini shakllantirish jarayonida turli metod

va usullarni qo'llash mahoratini oshirish; bolalarni jonli va jonsiz tabiat bilan tanishtirishda tarixiy materiallarini tahlil qilish, haqiqiy pedagogik vaziyatlarni to'g'ri baholash va turli sharoitlarda nazariy bilimlarni qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishi g'oyat muhimdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish ishini tashkil etish va o'tkazish metodikasini talabalar "Tabiat bilan tanishtirish" fanini o'zlashtirish orqali egallab boradilar.

Shunga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya berayotgan tarbiyachi-pedagoglarning oldida eng muhim vazifalaridan biri ham bolalarning tabiat go'zalliklarini ko'ra bilishi, uni sevishi, tabiatda yuz beradigan voqea-hodisalar haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lishi, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish ruhida tarbiyalash muhim pedagogik muammo hisoblanadi

O'quv qo'llanmada Respublika Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan joriy etilgan "Ilk qadam" maktabgacha davlat o'quv dasturida tabiat bilan tanishtirish mazmuni yoritilgan bo'lib, O'zbekistonning o'ziga xos etnik xususiyatlari, geografik iqlimi, tabiiy xususiyatlari o'rin olgan hamda amaliyotda erishilgan yutuqlar asosida ta'lim-tarbiya haqida nazariy g'oyalar berilgan.

Qo'llanma maktabgacha yoshdagi bolalarning har bir yosh bosqichiga xos psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda kichik guruhdan to maktabgacha tayyorlov guruhi uchun mo'ljallangan bilim va ko'nikmalar hajmini o'z ichiga oladi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari uchun eng muhimi, ta'lim-tarbiya tizimini tushunib olish, tabiat bilan tanishtirishning shakl, metod va uslublarini shu bilan birga bolalarning faoliyatlariga rahbarlik qilishni o'rganib oladilar.

O'quv qo'llanma bayonida quyidagi tartibga e'tibor qaratildi:

- mavzu nomi;
- tayanch iboralar;
- mavzuning matni;
- mavzuni mustahkamlovchi savol va topshiriqlar;
- foydalanilgan adabiyotlar.

Mazkur o'quv qo'llanma adabiyotlarini yangi avlodini yaratishga oid qo'yilgan talablar asosida yaratildi.

# I BOB.MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA TABIAT HAQIDA TUSHUNCHA

## Reja:

I.1.Tabiat, inson va jamiyat haqida tushuncha.

I.2. Inson rivojlanishida tabiatning roli haqida qadimgi  
qo'lyozmalarda yoritilishi.

I.3. Sharq faylasuflarining tabiat, uning inson hayotidagi o'rni  
haqidagi qarashlari.


I.4. Inson rivojlanishida tabiatning roli haqida g'arb olimlarining  
tabiat, uning inson hayotidagi o'rni haqidagi qarashlari.

## 1. Tabiat, inson va jamiyat haqida tushuncha.

**Tayanch iboralar:** jonsiz va jonli, inson va jamiyat,  
mikroorganizmlar, biosfera,ekologiya, hayvonot va o'simliklar, atrof-  
muhitga mas'uliyat,

Tabiat - bitmas-tuganmas xazinadir. O'simliklar dunyosi,  
hayvonot olami yosh qalbning to'g'ri o'sib shakllanishida, tabiatda  
bo'ladigan voqea-hodisalarning sir-asrorini o'rganib voyaga yetishida katta  
manba bo'lib xizmat qiladi.

Tabiatdagi narsalar ikki qismdan; jonsiz va jonli tabiatdan iboratdir.  
Jonsiz tabiatga yer, quyosh, oy, yulduzlar, suv, havo, toshlar, tuproq, jonli  
tabiatga esa o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, odamlar kiradi. Jonsiz tabiat  
deyilishiga sabab ular oziqlanmaydi, o'smaydi, ko'paymaydi, rivojlanmaydi. Masalan, toshni  
olsak, unga suv ham, havo ham kerak emas.



Jonli tabiatga kiruvchilar esa oziqlanadilar, nafas oladilar, o'sadilar va ko'payadilar. Jonli tabiat vakillari o'simlik, havo, suv, yorug'lik, issiqlik va ozuqa bo'lmasa yashay olmaydi.

Jonli tabiatdagi barcha mavjudotlardan eng qudratlisi insondir. Inson fikrlaydi, mehnat qiladi, turli kashfiyotlar ixtiro qiladi. Tabiat insonni ma'naviy boyitishning bitmas-tuganmas manbaidir.

Tabiat bilan inson o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda ekologik ta'lim-tarbiyaning roli nihoyatda katta. Ta'lim tizimining barcha

bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya insonning tabiatiga, qolaversa,) o'ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otish ona Vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an'analariga hurmat ruhida tarbiyalashga, yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

Biosfera yerda hayot paydo bo'lgandan boshlab, uzoq tarixiy davrlar davomida rivojlanib kelmokda. Yerning tirik organizmlar va biogen cho'kindi tog' jinslari tarqalgan qismini rus olimi akademik V.I.Vernadskiy biosfera (yunoncha - «bios» - hayot, «sfera» - shar) deb nomlagan. Biosfera sayyoramizning «hayot qobig'i» hisoblanib, tirik organizmlarning o'zaro chambarchas aloqa, munosabatlaridan iborat murakkab ekosistemalar majmuini tashkil etadi.

V.I.Vernadskiy tushunchasiga ko'ra hozirgi vaqtda biosferaning tarkibiga faqatgina yerning qobig'ida tarqalgan tirik organizmlar kirib qolmay, balki qadimgi davrlarda organizmlar ishtirokida hosil bo'lgan litosfera qismi ham kiradi. Shuning uchun ham biosfera neobiosfera va polebiosfera kabi tarkibiy qismlarga ajratiladi.

Biosfera murakkab harakatdagi tizim ekan, unda moddalar almashinuvi natijasida energiyaning qabul qilinishi, to'planishi va o'tkazilishi kabi jarayonlar boradi. Biosfera funksional nuqtai nazardan bir necha qatlamlardan tashkil topgan.

Biosfera yer sharidagi eng yirik ekotizim bo'lib, u quyi darajalardagi kichik tizimlarga bo'linib ketadi. Bular quruqlik va suv havzalari, okeanlar, metosferaning yuqori qatlami, atmosferaning quyi qatlamlari, bundan tashqari quruqlikda evolyusion-tarixiy tizimlar sifatida biogeografik tabiiy mintaqalar, biomlar, landshaft zonalar, ayrim landshaftlar va hokazolarga ajraladi.

Biosfera tushunchasi fanga 1875 yilda avstraliyalik zoolog E.Zyuss tomonidan kiritilgan. Biosfera haqidagi ta'limot esa akademik V.I.Vernadskiy tomonidan yaratilgan. Sayyoramizdagi barcha tirik organizmlar yig'indisini V.I.Vernadskiy «tirik modda» deb atadi. «Tirik modda»ning eng muhim xususiyatlari uning umumiy vazni, kimyoviy tarkibi va energiyasi hisoblanadi. Biosferaning ikkinchi tarkibiy qismi to'liq modda bo'lib, V.I.Vernadskiyning aytishi bo'yicha tirik organizmlar qatnashadigan biosferadagi moddalar yig'indisidan hosil bo'ladi. Biosferada «oraliq moddalar» ham mavjud bo'lib, ular o'lik va tirik moddalarning birgalikdagi faoliyatidan hosil bo'ladi.

Tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirish qoidalari ahloqiylikning o'zagini tashkil etadi. Bu norma va qoidalar kishilarning hatti – harakatlarida, ularning hulq – atvorida namoyon bo'lib, o'zaro ahloqiy munosabatlarini boshqaradi.

Inson tabiatdan olgan muayyan bilimlarga ega bo'lganda va tabiat hodisalarini yetuk estetik his qilgandagina u bilan ijobiy munosabatga krishib, uni yanada go'zalroq qiladi.

Insonda tabiatga muxabbat uni tushunishning asosida tabiatdagi hayotning yuksak go'zalliklarini anglagan, tabiat bilan munosabatga kirishgan, u bilan qo'shilib ketgan bir paytda boshlanadi. Ana shu paytda tabiatga munosabat shu darajaga yetadiki, u inson shaxsi madaniyatining muhim belgisi bo'lib qoladi.

Inson va tabiat o'zaro munosabatlarining haqiqiy qulay shakllari tabiat va jamiyat borasida g'amxo'rlik ko'rsatiladigan jamiyatdagina mavjud bo'la oladi. Bunday jamiyatda ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiatni muhofaza etish maqsadlari o'rtasida hech qanday zaruriyat bo'lmaydi. Atrof-muhitni muhofaza etish uchun kurashish, so'zsiz mustaqil respublikamizdagi xar bir bolaning burchiga aylanmog'i lozim. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bolalarning tabiat haqidagi tushunchalarini shakllantirish nixoyatda muhim. Chunki, yosh bolaning tabiat bilan muloqoti unda axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. Bolalarning tabiat bilan muloqoti rivojlanadi. Uning qonunlari, qadriyat va go'zalligi haqidagi bilimga ega bo'ladilar. Buning natijasida ularda tabiatga – ezigulik, mehr-muruvvat, xamdardlik va boshqa fazilatlar kamol topadi.

Ekologiya. Bugungi kunda ekologiya fani tushunchasi har bir kishining ongiga singib bormokda. Deyarli har kuni gazeta sahifalarida, radio va oynaijahon ko'rsatuvlarida hozirgi sharoitdagi ekologik muammolar hamda ularni hal etish borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Ekologiya tushunchasi yunoncha so'z bo'lib, «eko» - uy, makon va «logos» - fan degan ma'noni bildiradi. Tabiiy uyimizni o'rganish deganda, albatta, undagi barcha tirik organizmlar va jarayonlarni o'rganish, ya'ni ushbu uyni yoki maskanni hayot uchun yaroqli holda saqlash kabi masalalar tushunilishi kerak. Ekologiya fani ham biologiya, geografiya fanlari singari mustaqil fan hisoblanadi. U tirik organizmlarning yashash sharoiti va ularni o'zi yashab turgan muhit bilan o'zaro murakkab munosabatlari hamda shu asosda vujudga keladigan qonuniyatlarni o'rganadi. Ekologiya muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar majmuasidir.

Kishilik jamiyatining ilk davrlardayoq tabiat va inson birligi masalasi chuqur anglangan, insonlar faoliyati bevosita tabiat bilan aloqadorlik va o'zaro bog'liqlikda tushunilgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida insonlar o'zlarini tabiat bilan birlikda tasavvur etganlar va uni mukaddas, ilohiy kuchga ega maskan, deb hisoblashgan. Insoniyatning tabiatga nisbatan bunday yondashuvining asosiy sababi, birinchidan, tabiat uning uchun turar-joy, kiyim-kechak va oziq-ovqat manbai ekanligi bo'lsa, ikkinchidan, tabiat hodisalari va ularning sodir bo'lish sabablarini yetarli darajada bilmasligi, «ilohiy kuch tomonidan sodir etilayotganligi»ga bo'lgan ishonchning mavjudligi edi. Mazkur yondashuv diniy marosimlar, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalari - afsona, ertak, topishmoq, maqol, doston, she'r va qo'shiqlarda ham o'z ifodasini topgan.

Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish negizida ma'naviy- axloqiy me'yorlar mavjud bo'lib, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish nafaqat tabiiy biotsenozni aslidek saqlab qolishga imkon beribgina qolmay, balki insoniyat hayoti havfsizligi va salomatligini ta'minlashning muhim sharti ham sanaladi. Shu sababli, asrlar davomida tabiat va inson munosabatlari, uning oqilona bo'lishiga erishishga e'tibor qaratib kelingan. Atrof-muhit, geografiya hamda va ekologiyaga oid mavjud manbalar bilan tanishish tabiat va atrof-muhitga mas'uliyatli yondashish masalalari juda qadimdan o'rganilib kelinganligiga ishonch hosil qilinadi. So'nggi yillarda ta'kidlangan yo'nalishda bir qator tadqiqot ishlarining amalga oshirilganligi, tabiat va jamiyat, shaxs va ekologik o'zgarishlar masalalarining qay darajada dolzarb ekanligidan dalolat beradi.<sup>1</sup>

## **2. Inson rivojlanishida tabiatning roli haqida qadimgi qo'lyozmalarda yoritilishi.**

**Tayanch iboralar:** ekologik ta'lim, tabiatni e'zozlash, xalq hikmatlari, zardushtiylik dini, ekologik masala, tarixiy manba, avesto, tabiat va insonni asrash

Ilmiy izlanishlar natijasida asarlarda ilgari surilgan qarashlarga tayangan holda ekologik ta'limning tarixiylik xususiyatiga egaligi yuzasidan ayrim mulohazalarni bildirish maqsadga muvofiqdir.

Xalq ijodiyoti namunalarining aksariyatida tabiatni e'zozlash, uni muhofaza qilish, hayvonot va o'simliklar dunyosini asrash g'oyalari

---

<sup>1</sup> Ш.А.Содикова, М.А.Расулхужаева Болаларни табиат билан таништириш методикаси «Fan va texnologiya» nashriyati, 2013.

yetakchi mavzu qilib olingan. Jumladan, xalq hikmatlarida ham tabiat va atrof-muhitga to'g'ri munosabatda bo'lish talabi o'z ifodasini topgan. Masalan «Suvga tupurma!», «Quduqqa tosh tashlama!», «Suvga mag'zava oqizma!», «Yerni tepma!», «Nonni tashlama - uvol bo'ladi!», «Qushlarni o'ldirma, qarg'aydi!», «Idishda ovqat qoldirma, savob bo'ladi!» kabi.<sup>2</sup>

Manbalarda keltirilgan quyidagi rivoyatda ham insonning tabiatga bo'lgan noto'g'ri munosabati va bu munosabatning insonlarga yetkazuvchi zarari yoritilgandir:

Bir kishi jinoyat qilib, dorga osiladigan bo'libdi. Podsho undan: «O'liming oldidan nima tilaging, armoning bor?» - deb so'rabdi. Gunohkor esa: «Tilagim yo'q, armonim bor», - debdi.

- Nima u armoning? - so'rabdi podsho.

- Dunyoda uch kishining boshini tanidan judo qilolmay ketayotirman, -debdi gunohkor.

- Ular kimlar?

- Ular yo'lni suv urdirgan dehqon, yo'lda mol boqib yurgan cho'pon, yo'lni qazigan nokasdir, - debdi gunohkor (R.Usmonov, «Saodatnoma»).

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqi qadimdan ekologik madaniyat merosiga ega.

Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz «Avesto» xalqimizning bebaho mulki sanaladi. Bu nodir kitob bundan o'ttiz asr muqaddam shu zaminda yashagan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy tarixiy merosidir.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» da inson va tabiat munosabatlariga keng o'rin ajratilgan bo'lib, ayni o'rinda geografik ma'lumotlar ham yoritilgan. Jumladan, Markaziy Osiyo hududidan oqib o'tuvchi ikki daryo – Amudaryo va Sirdaryo, ular oralig'ida joylashgan hududning tabiati, iqlimi, tabiiy boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi, insonlarning tabiatga munosabatlari va mavjud davlatlar haqida ma'lumotlar berilgan.<sup>3</sup>

Asarda ekologik masalalar umumiy tarzda «Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov, umuman, dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir» degan g'oya negizida yoritiladi.

Manbada, shuningdek, yer, suv, zamin, xona, badan, kiyim-kechak, oziq-ovqatlarni toza tutish va saqlashga alohida e'tibor berilgan. «Avesto»da qabrisonlarni shahar va qishloqlardan yiroqda tashkil etish,

<sup>2</sup> М.А.Расулхужаева Ознакомления детей дошкольного и младшего школьного возраста с животным миром «Узлукииз тилим» 6 – сон. 60-63 бетлар.

<sup>3</sup> F.U.Jumanova Kash-hunar kollejlari o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish 13.00.01.Pedagogika nazariyasi va tarixi pedagogika fanlari nomzodlik dissertatsiyasi Toshkent. 2010 yil

uni o'rab qo'yish, maxsus tozalikka rioya qilish, murda tekkan libos, yerni qatron qilish xususida fikrlar mavjud. Inson yoki hayvon o'ligi tushgan soy, ariq, hovuz, quduqlarni bir necha marta qatron qilish (suvga to'ldirib bo'shatish) ta'kidlanadi. Shuningdek, tuproqni iflos qilgan va uni asrash qoidalarini buzgan shaxslar "400 qamchi jazosi"ga giriftor qilingan.

"Avesto" da<sup>4</sup> muhit tozaligini saqlash va kasalliklarning oldini olish vositalari sifatida quyidagilar ta'kidlangan:

1. Axlatlarni berkitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh, kul bilan ko'mib tashlash.

2. Otash va sovuqlik bilan ofat va balolarni yo'qotish.

3. Kul, sirka, sharob, turli giyohlar (isfand, misxak, sadaf, piyoz, sandal) tutatish.

Asarda turli kasalliklarning qushlar, hayvonlar va parrandalar orqali tarqalishi va ularning zararli oqibatlarga olib kelishi ham qayd etiladi. Biroq, kasallik tarqatadigan hayvon va hashoratlarni yo'qotish maqsadga muvofiqligi bilan birga uy hayvonlarini ehtiyot qilish zarurli aytiladi.

"Avesto", ayni zamonda, bu qadim o'lkada buyuk davlat, yuksak ma'naviyat va madaniyat bo'lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdir.

"Avesto" tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlarini ma'naviy, ruhiy va axloqiy mezonlar orqali uyg'unlashtiruvchi, kishini qurshab olgan olamni o'rganishga chorlaguvchi falsafadir.

"Avesto"da insoniyatni mehnatga chorlaguvchi va tabiatni muhofaza qilishga oid *«U yerning tog', yaylov va soylari ko'p, u yaylovlarda qo'ylar suruvi o'tlab yuradi; chuqur ko'l va daryolar ko'p. O'rta Osiyo so'g'dlari, maroqandliklar, baqtriyaliklar makonidir» yana bir joyda esa «O'z vaqtida yerga toza urug' sepmoq o'n ming ibodatdan har qanday qurbonlikdan afzal» deyiladi.*

"Avesto"da noyob dorivor giyohlar haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, uy-joy, atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish, uni asrash to'g'risida tavsiyalar berilgan.

"Avesto"da yer, suv, xona, inson tana a'zolari, kiyim-kechaklarni toza tutish haqida yozilgan. Atrof-muhit, ko'chalarni, butazorlaru o'tloqlarni, yerni iflos qilgan kishilar jazolanganlar. Shuningdek, muhit tozaligini saqlash va kasalliklarni oldini olish maqsadida axlatlarni, ifloslangan joylarni tosh, tuproq, qum bilan ko'mib tashlash buyurilgan.

Asarda kasallik tarqatuvchi hasharotlarni yo'qotish, shuningdek, uy hayvonlarini to'g'ri parvarish qilish yo'llari ham ko'rsatilgan.

<sup>4</sup> Расулхўжаева М.А. Болаларни хайвонот олами билан таништириш орқали ахлоқий сифатларини шакллантириш технологияси. Услубий кўланма. Тошкент.: "Илим-Зиё-Заковат" 2020 йил

Shuningdek, turli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omil sifatida issiqlik, sovuq havo, ochlik va poraxo'rlik, ruhiy iztirob, buzilgan taomni yeyish, tozalikka rioya qilmaslik, Axriman yuborgan qurt, pashsha va boshqa hashoratlar hamda yomon havo ko'rsatiladi.

Manbada tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar borasidagi g'oyalar, aytish mumkin, o'sha davrning o'ziga xos «ekologik konsepsiyasi» bo'la olgan. «Avesto» asarida berilgan ekologik ta'lim-tarbiyaga oid ma'lumotlar hozirgi kunda ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Moddiy va hatto ma'naviy boyliklardan foydalanishga nisbatan ham ma'naviy-axloqiy nuqtai nazardan yondashilar, ijtimoiy sub'ektlarning tabiatga munosabatlari «savob», «uvol», «qarg'ish», «harom», «halol», «ko'pchilikning mulki», («ko'pchilikning haqqi») kabi mezonlar bilan baholanar va bu mezonlarning salmog'i yuqori edi. Turar-joylarning ozodaligi va pokizaligiga katta e'tibor berilar, nuragan joylar muntazam ta'mirlanardi.

Qur'oni Karim va Hadislarda ham tabiat va insonni asrash, ular o'rtasidagi munosabatning oqilona bo'lishiga erishish masalalariga alohida o'rin berilgan. Xususan, mazkur manbalarda inson omili (demakki, inson ekologiyasi) masalasiga alohida o'rin ajratilgan bo'lib, bu boradagi g'oyalarni mazmuniga ko'ra quyidagi yo'nalishlar bo'yicha turkumlashtirish mumkin:<sup>5</sup>

1. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofazalash (masalan, "Soyasidan xalq foydalanib turgan daraxtni kesib yurgan odamni Tangri do'zaxga mahkum etadi", "Bu dunyoda jonivorlarga qattiq azob beradigan kishilarni Tangri qiyomat kuni qattiq azoblaydi", "Yoqmoq niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda behosdan qiyomat-qoyim bo'lishi aniq bo'lganida ham ulgursangiz uni ekib qo'yavering", "Agar hayvonlarga berayotgan azoblaringiz kechirilsa, sizning ko'p narsalaringiz kechirilgan bo'ladi", "Joni bor narsani o'q otishda nishon qilmanglar", "Qo'y boq, zero, u ayni barakadur", "... tilsiz hayvonlar to'g'risida allohdan qo'rqinglar. Ularni yaroqli holda mininglar va yaroqli qilib so'yib yenglar", "O'ning peshonasiga qiyomatgacha yaxshilik yozilgandir. Uni boqqan yaxshilik oladi", "Qaysi bir musulmon biror daraxt yoxud biror ekin eksa-yu, uning hosilidan inson, qush yoki hayvon yesa, buning uchun unga ajru savob ato etilur")<sup>6</sup>.

<sup>5</sup> Расулходжаева М.А. Иллюстрация этического отношения человека к животному миру в трудах древних историков и философов востока. International Scientific review of the problems and Prospects of Modern Science and Education/Boston, USA. November 2019 year. 86-87 стр

<sup>6</sup> М.А.Расулхўжаева Ознакомление детей дошкольного и младшего школьного возраста с животным миром "Узлуксиз таълим" 6-сон. 2013 й. 60 бет.

2. Sanitariya va gigiena qoidalariga rioya qilish («Tangri pokdir. Pokizalikni yaxshi koʻradi. Tangri saxiydirki, saxiylikni yaxshi koʻradi», «Hovli sahni va turgan joylaringizni toza tutinglar», «Taomning barakasi uni yeyishdan oldin va keyin qoʻl yuvishdadir»).

3. Mavjud neʼmatlardan tejab-tergab foydalanish, ularni isrof qilmaslik va koʻpaytirish («Kimki hayotda tejamkor boʻlsa, zinhor qashshoqlikka tushmaydi», «Englar, ichinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrofarchilikka oʻtmanglar», «Dunyo yam-yashil, goʻzaldir, kimki undan haqli ravishda halollik bilan olsa, baraka topadi, kimki nafs xohishi bilan boylikka mukkasidan ketsa, qiyomat kuni doʻzaxdan boshqa narsaga erisha olmaydi»).

4. Inson hayoti va salomatligini muhofazalash («Ozor beradigan narsalarni musulmonlarning yoʻlidan uzoqqa olib tashla», «Dunyoni buzib, bulgʻab yurgan kishi mening ummatim emas», «Erda halal berib yotgan biror tosh, tikanak yoki suyakni bir chekaga olib qoʻyishing ham – sadaqa»; «Chelagingdagi suvdan boshqalarning idishlariga solib berishing ham sadaqa hisoblanadi»; «Sadaqaning afzali chanqoq odamlarga suv ulashmoqdir», «Qaysi joyda vabo tarqalganini eshitsangiz, u yerga kirmanglar. Agar sizlar turgan yerga tushsa undan qochib ketmanglar», «Hilol qilinglar (tish, soqol, panja oralariga barmoq tiqish), chunki u pokizalidir», «Qoʻlidagi ovqat moylarini yuvmay uxlagan odamga biror ofat yetsa oʻzidan koʻrsin», «Kishilarni xayrli va yaxshi ishlar qilishga daʼvat etishing va zulmdan qaytarishing sening sadaqangdir».

Ushbu tarixiy manbalarda insoniyatni tabiatga boʻlgan munosabatlarni tarbiyalashdagi qimmatli fikrlar hozirgi kungacha yosh avlodning taʼlim-tarbiyasida oʻz negizini topgan.

Yoshlarni taʼlim-tarbiyalash bugungi kunda maktabgacha taʼlim tizimi xodimlari, tarbiyachi pedagoglarining zimmasiga yuklatilgan oliy vazifa sanalar ekan avvalo, ularning oʻzlari ayni paytda tabiatni avaylab asrashga doir tarixiy manbalarni bilishlari zaruriy ahamiyatga egadir.

### **3. Sharq faylasuflarining tabiat, uning inson hayotidagi oʻrni haqidagi qarashlari.**

**Tayanch iboralar:** sharq mutafakkirlari, tabiat va atrof-muhit, jamiyat va tabiat, ijtimoiy-falsafiy, tabiiy qonuniyatlar, geografik va ekologik,

Sharq mutafakkirlari asarlarida ham insonning tabiat va atrof-muhitga

bo'lgan munosabati, jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro uzviy birlik, aloqadorlik va bog'liqlik geografik va ekologik yondashuv negizida tahlil etilgan.



### **Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850)**

Buyuk alloma Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy risolalaridan birida bunday deb yozadi: 847-yilda Muhammad al-Xorazmiy «Kitob sur'at al-arz» nomli asarini yozdi. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit'alar, qutblar, ekvatorlar, cho'llar, tog'lar, daryo va dengizlar, ko'llar va o'rmonlar, ulardagi o'simlik, hayvonot dunyosi, shuningdek, yerning asosiy boyliklari hamda boshqa tabiiy resurslar, aholisi, urf-odatlar, ijtimoiy faoliyatlari, zichligi va boshqa muhim ma'lumotlar keltirilgan. Asarda bir necha izohlar, haritalar mavjud bo'lib, Orol dengizining tasviri ham berilgan. Bundan tashqari 637 ta muhim joylar, 209 ta tog'ning geografik tafsilotlari o'z aksini topgan. Olim tomonidan dars suvlari qurib, ifloslanib, inson boshiga turli falokatlar yog'ishi mumkinligi ta'kidlangan.

*«Bilingki, daryoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig' tutmanglar!»* Daryoning «yoshli ko'zlari» deganda Muhammad Muso al-Xorazmiy nimalarni ko'zda tutgan ekan? Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bulishini nazarda tutgandir? Vaholanki, buyuk bobomiz eng avvalo daryo bilan odamlarning «bir-birlarini tushunishlari», o'zaro mehr-muhabbat qo'yishlarini nazarda tutgan.

Ushbu risolada matematika, geologiya, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, shuningdek, dunyo xalqlarining tabiiy ko'nikmalari va tarixiy-huquqiy bilimlari umimlashtirilgan.



### **Abu Nasr Forobiy (873-950)**

O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrlarining eng yirik va mashxur vakillaridan biri Abu Nasr Forobiyning ilmiy-falsafiy merosi nihoyatda boy. Uning asarlari hozirgacha to'liq aniqlanmagan. Nemis olimi M.K.Brokkelmanning ro'yxatida Forobiyning turli sohalarga oid 180 ta

asarining nomi keltirilgan. Forobiy tabiatshunoslisning turli tarmoqlari bilan shug'ullangan bo'lib, uning «Kitob al-hajm va al-minor», «Kitob al-mabodi al-insonia» («Insoniyatning boshlanishi haqida kitob»), «Kitob al-a'zo al-hayvon» («Hayvon a'zolari to'g'risida kitob») nomli asarlari bunga dalil bo'la oladi.

Tabiatshunoslikka oid «Odam a'zolarining tuzilishi», «Hayvon a'zolari va ularning vazifalari haqida» kabi asarlarida odam va hayvonlardagi ayrim a'zolarining tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida ham to'xtab o'tilgan.

Odam a'zolarining tuzilishi va vazifalari haqida so'z yuritilganda o'zgarishlar, ya'ni kasalliklar birinchi navbatda ovqatlanish tartibining buzilishi oqibatida kelib chiqadi, deb tushuntiriladi.

Forobiy tabiiy va inson qo'li bilan yaratiladigan sun'iy narsalarni ajratgan.<sup>7</sup> Shuningdek, u tabiiy narsalar tabiat tomonidan yaratilganligini va bunda inson omilining ta'siri katta ekanligini, tabiiy va sun'iy tanlash hamda tabiatga ko'rsatiladigan boshqa ta'sirlarni atroflicha baholagan.



**Abu Rayhon Beruniy**  
(973-1048)

Abu Rayhon Beruniy koinotdagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari, narsa va hodisalarning o'zaro ta'siri bilan tushuntirishga urinadi. Olim yerdagi ba'zi hodisalarni quyoshning ta'siri orqali izohlaydi. Beruniyning fikricha, yerdagi o'simlik va hayvonot olamining yashashi uchun zarur imkoniyatlar cheklangan. Lekin o'simlik va hayvonlar doimo kupayishga intiladi va shu maqsadda kurashadi. Beruniyning tabiatshunos sifatida quyidagicha fikrlari hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan:

“Ekin va nasl qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi. Garchi dunyo cheklangan bo'lsada, kunlar o'tishi bilan bu ikki o'sish natijasida ko'payish cheklanmaydi. Agar o'simliklardan yoki jonivorlardan biror xilining o'sishiga sharoit bo'lmay, o'sishdan to'xtasa ham, boshqalarida bu ahvol bo'lmaydi. Ular birdaniga paydo bo'lib, birdaniga yo'qolib ketmaydi. Bordi-yu, yer yuzini bir xil daraxt yoki bir xil hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvonning ko'payishiga ham, daraxtning o'sishiga ham o'rin qolmaydi. Shu sababdan dehqonlar ekinlarni o'toq qilib, keraksizini yulib

<sup>7</sup> Расулходжаева М.А. Иллюстрация этического отношения человека к животному миру в трудах древних историков и философов востока. International Scientific review of the problems and Prospects of Modern Science and Education/Boston. USA. November 2019 year. 87 стр

tashlaydilar”.

Beruniy asarlarida o'simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va ho'jalikdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar topish mumkin.

Beruniyning ilmiy qarashlari, asosan, “Saydana”, “Mineralogiya”, “Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar” asarlarida o'z aksini topgan. Unda Eronning turli tropik o'simlik va hayvonlarining tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvori yil fasllarining o'zgarishi bilan bog'liqligi misollar bilan tushuntirilgan.

“Agar hayvonlarda sezgilar oziq topishi va o'z-o'zini himoya qilish uchun yaratilgan bo'lsa, odam zoti hayvonot dunyosini juda ortda qoldirib ketgan, chunki unga xudoning yerdagi noibi bo'lish, uni obod qilish va uyda targ'ibotni amalga oshirish topshirilgan”

Beruniy yer yuzining o'zgarishi o'simlik va hayvonot dunyosining o'zgarishi bilan, tirik organizmlarning turli hayoti yer tarixi bilan bog'liq bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Qumni kavlab, uning orasidan chig'anoqni topish mumkin. Buning sababi, bu qumlar qachonlardir okean tubi bo'lgan, deb ta'kidlaydi alloma. Beruniy “Saydana” degan asarida 1116 xil dori-darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750 tasi turli o'simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 107 tasi esa minerallardan olinadi. Beruniyning “Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar” va “Hindiston” asarlarida o'simlik va hayvonlarning tuzilishi hamda ularning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasi haqida ham qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan.

Beruniy o'zining tabiiy-ilmiy kuzatishlari, tajribalari asosida tabiatdagi hodisalar ma'lum tabiiy qonuniyatlar asosida boshqariladi, ularni tashqaridan ta'sir etuvchi har qanday kuch o'zgartirish qobiliyatiga ega emas, degan xulosaga keladi.



**Abu Ali ibn Sino  
(980-1037)**

Yirik qomusiy olim sifatida tanilgan Abu Ali ibn Sinoning 450 ta asari mavjud bo'lib, bizgacha 240 tasi yetib kelgan. Ibn Sino asarlari orasida «Tib qonunlari» tibbiyot ilmining shox asari, o'rta asr tibbiyot ilmi tarqalishining oliy cho'qqisi bo'lib hisoblanadi.

Ibn Sinoning falsafiy va tibbiy ilmiy qarashlari uning jaxonga mashhur “Kitob ash-shifo”, ya'ni “Davolash kitobi” asarida bayon etilgan, Bu asarda materiya, fazo, vaqt, shakl, harakat, borliq kabi falsafiy

tushunchalar, shuningdek, matematika, kimyo, botanika, ekologiya, geologiya, astronomiya, psixologiya kabi fanlar haqida fikrlar bayon etilgan.

Abu Ali ibn Sino tomonidan yaratilgan asarlarning 80 dan ortig'i tabiat va insonning unga bo'lgan munosabati masalasiga bag'ishlangan bo'lib, ularda tabiiy muhitning inson salomatligi va hayotidagi ahamiyati, tabiiy jarayonlarning kechishi, inson salomatligini saqlash shartlari, turli kasalliklarni keltirib chikaruvchi geoeologik omillar – suv, yer va havoning tozaligi, yashash muhitining holati (turar-joylarning keng yoki tor bo'lishi), sanitariya va gigiena qoidalariga amal qilmaslik, turli yuqumli kasalliklar (moxov, chechak, vabo isitmasi, yiring, toshma kabilar)ning paydo bo'lishi va tarqalishida muhit, xususan, yashash joylarining muhim o'rin tutishi kabi qimmatli ma'lumotlar beriladi.

Alloma inson salomatligini ta'minlovchi muhim omillar sifatida quyidagilarni qayd etadi: 1) badan-tarbiya; 2) to'g'ri ovqatlanish va dam olish; 3) yetarli va samarali bo'lgan uyqu.

Abu Ali ibn Sino inson salomatligini saqlashning eng kulay va oson usuli sifatida jismoniy harakat va jismoniy mashqlar bilan doimiy ravishda faol shug'ullanishni tavsiya etadi hamda jismoniy tarbiya bilan shugullangan kishi hech qanday dard yaqin yo'lamasligini, tabib va dori-darmonlarga muhtoj bo'lmasligini aytadi.

Ibn Sinoning tog'larning vujudga kelishi, yer yuzining davrlar o'tishi bilan o'zgarib borishi, zilzilaning bo'lishi kabi turli tabiiy jarayonlar haqidagi fikrlari geologiya ilmining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy o'z asarlarida tasvirlagan qahramonlar kabi yuksak ma'naviy-axloqiy fazilat egasi bo'lgan. Alloma sulton Husayn Boyqaro saroyida vazirlik lavozimida ishlagan vaqtda ham xalq farovonligi yo'lida amaliy harakatlarni olib borgan. Chunonchi, bog'rog'lar barpo etish, kanallar qazib, suvsiz yerlarga suv chiqarish, aholi yashash joylarini obod qilish kabi harakatlar bevosita mutafakkir faoliyati negizida ekologik yondashuv mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi. Tarixchi Xondamirning «Makorim ul-axlok» asarida keltirilgan quyidagi hikoyatda esa allomaning tabiatga oqilona yondashuvi, hayvonlarga bo'lgan g'amxo'rligi yaqqol aks etgan: Alisher Navoiy ovga chiqqanda uning chodiriga g'urrak uya quradi va jo'ja ochadi. O'shanda to g'urrak bolalarini uchirma qilmaguncha chodir yig'ishtirilmagan ekan. Hatto ularga qarab turgani uchun Hoji Hasan Baxtiyorga maosh tayinlangan ekan.

Muallif shuningdek, ulug' allomaning bir kuni egniga ilashib qolgan chumolini o'z iniga, joyiga qo'yib, so'ngra namoz uchun masjidga kirgani haqida yozadi.

Xorazmlik ulug' olim Abul Qosim Maxmud az-Zamaxshariy asarlarida ham insonning tabiatga va atrof-muhitga bo'lgan munosabati masalasi yoritiladi. Allomaning "Kitob al-jibol val-ankina val-miyoh" ("Tog'lar, joylar va suvlar haqida kitob") nomli asarida tabiiy geografik muhit, turli o'lkalar, tog'lar va dengizlar to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

O'z qarashlarida islom ta'limoti g'oyalari yetakchilik qilgan allomaning tabiat va atrof-muhitga yondashuvi islomiy qadriyatlar ustuvor o'rin tutadi. Jumladan, allomaning "Ayvoni atrofida qushlar uchib qo'nadigan joyi bo'lmagan uyga yomg'ir ham baraka bermaydi, uning egasi ham erkinlik bilmaydi, u joy faqirlikka giriftordir" degan fikrlari negizida ham insonning tabiat va atrofga munosabatini belgilovchi ijobiy ma'naviy-axloqiy sifat va uning samarasi bo'lgan "baraka" tushunchasi asosiy mezon sifatida yoritilgan.




**Zahiriddin Muhammad Bobur**  
(1483-1530)

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat shoir, balki podsho, ovchi, tarixchi, bog'bon va tabiatshunos bo'lgan. "Boburnoma" asarida o'zi ko'rgan-kechirganlari, yurgan joylari tabiati, boyligi, urf-odati, hayvonoti, o'simliklarini tasvirlagan. Asarda yer, suv, havoga tegishli xalq so'zlari ko'plab uchraydi.

Bobur o'z asarida joyning geografik o'rni, qaysi iqlimga mansubligi, o'simliklari, hayvonlari haqida bayon etgan va O'rta Osiyoda qadim vaqtlardan buyon qovun, bug'doy, o'rik, nok va mevalarning bir necha navlari borligi haqida ta'kidlagan.

Asarda Bobur borgan joylarning tabiati va o'ziga xos xususiyatlarini Andijon bilan taqqoslagan hamda O'rta Osiyo, Afg'oniston, Xuroson va Hindistondagi hayvonot dunyosi haqida batafsil bayon etib bergan.

Tarixiy adabiyotlar bilan tanishish shundan dalolat beradiki, o'zbek xalqi tarixida tabiat va atrof-muhit muhofazasi, ularga nisbatan oqilona sub'ektiv yondashuv masalasi juda qadimdan o'rganilib kelingan. Markaziy Osiyolik buyuk allomalar – Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muxammad Bobur va boshqalarning asarlarida tabiatga zarar yetkazmaslik, uni asrash, tabiat boyliklarini ko'paytirish, turar-joylarni ozoda tutish, bog'lar va gulzorlar barpo etish masalalari muayyan



darajada o'rin olgan. Xalqona yondashuv nuqtai nazaridan suvni ifloslantirish, tuproqqa zarar yetkazish, hayvonlar va o'simliklarni nobud qilish gunoh, uvol sanalgan.

#### **4. Inson rivojlanishida tabiatning roli haqida g'arb olimlarining tabiat, uning inson hayotidagi o'rni haqidagi qarashlari.<sup>8</sup>**

**Tayanch iboralar:** g'arb olimlari, yosh avlod, ta'lim-tarbiya, tabiat elementlari, "Onalar maktabi", oddiy bilimlar,

Ta'lim-tarbiyaning o'z oldiga qo'ygan maqsadi va vazifalarini yaxshi bilmasdan turib yosh avlodni tabiat bilan tanishtirishda ularni maqsadga muvofiq tarbiyalab bo'lmaydi. Buning uchun xalq manfaatlarini aks ettiruvchi tarbiyaning maqsadlari to'g'risidagi tasavvur qanday vujudga kelgan va bu tasavvurlar keyinchalik qanday rivojlanganligi hamda pedagogik tomondan qanday ta'rif va tavsif berilganini yodga olish maqsadga muvofiqdir.

Shuni aytish kerakki, hayotda har bir fanning yuzaga kelishi hayotiy zarurat natijasidir. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi ham ana shunday hayotiy zaruratning mahsulidir. Bu fan o'z oldiga ana shu tabiat elementlari vositasida yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi. Tarbiya esa pedagogikaning bosh vazifasidir.

Tarixda pedagogika nazariyasi asoslarini shakllantirishda qadimgi Gresianing atqoli faylasuflari Platon va Aristotel, italiyalik pedagog Mark Fabi Qvintilianlarning qarashlari alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Lekin yoshlarni tabiat elementlari vositasida tarbiyalash eng avvalo g'arbdagi ilg'or pedagoglarning tarixidan boshlandi. Ilmiy pedagogikaning rivojlanishini boshlab bergan, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasiga katta e'tibor bilan qaragan g'arb pedagoglaridan biri Yan Amos Komenskiy bo'ldi.

**Ya.A.Komenskiy  
(1592-1670)**

Chexiyalik mashhur pedagog Ya.A.Komenskiy bashariyat tarixidan pedagogikaning asoschisi sifatida o'rin olgan. U o'zining ongli hayotini va amaliy pedagogik faoliyatini, yaratgan ilmiy asarlarini bolalarni o'qitish va

---

<sup>8</sup> Г.Э.Джантенисова, М.А.Раулохджасова "Табият билан таништириш методикаси" фани бўйича электрон ўқув-услубий мажмуа Тошкент 2018 йил.

tarbiyalashdek olijanob ishga bag'ishlagan.

Uning fikricha, inson tabiatning eng go'zal mavjudotidir. Inson tabiatga ergashib, hamma narsani bilib olishi mumkin. O'zining "Buyuk didaktika", "Tillar hamma fanlarning ochiq eshigi", "Fizika", "Falakiyot", "Onalar maktabi", "Tinchlik farishtasi" kabi asarlarida uzining muhim pedagogik g'oyalarini Ya.A.Komenskiy maktablarning to'rt turini yilning to'rt fasliga "Onalar maktabi" xushbuy o'simliklar, g'uncha va gullarga burkangan ajoyib bahorni eslatadi.



"Ona tili" maktabi yozgi va ayrim erta pishgan mevalarga "Gimnaziya"da dalalar, bog' va terakzorlardagi mo'l hosilni yig'ib, uni "aql xazinasi"ga joylayotgan kuz faslini eslatadi.

Va nihoyat, "Akademiya" yi'ilgan hosilni umr bo'yn sarflashni mo'ljallab taqsimlayotgan kishiga o'xshatiladi.

Ya.A. Komenskiy "Onalar maktabi"da 18 ta fandan ma'lumot olishni tavsiya etgan. Uning fikricha olti yashar bola:

- suv, yer, havo, olov, yomg'ir, qor, muz, tosh, temir, daraxt, o't, qush, baliq kabilarni;
- yorug'lik va qorong'ulikning farqini, osmon, quyosh, oy, yulduzlar haqidagi bilimlarni, ularning har kuni chiqishi va botishi haqidagi tasavvurlarni;
- o'zi yashayotgan joyning xususiyatiga muvofiq tog', vodi, dala, daryo, qishloq, shahar nima ekanligini bilishi kerak.

Ya.A.Komenskiy hamma narsani tabiatga bog'lab tushuntirgan.

U o'quvchilar diqqatini jalb yetish uchun kitoblarning nomin qiziqarli nomlab, mazmunini to'liq ifodalab bergan. Aytishicha, bu sohada mavjud narsalardan eng chiroylisi bog'ning turli manzaralaridan namuna olishdir.

Masalan, nega endi 1-sinf uchun bitilgan kitobni «Gunafsha jo'yagi», 2-sinf kitobini – "Atirgul tupi", 3-sinf kitobini – "Istirohat bog'i" va hokazo deb nomlash mumkin emas?

"Onalar maktabi" xushbo'y o'simliklar, g'uncha va gullarga burkangan ajoyib bahorni eslatadi.

"Ona tili" maktabi yozgi va ayrim erta pishgan mevalarga o'xshaydi.

"Gimnaziya"da dalalar, bog' va terakzorlardagi mo'l hosilni yig'ib, uni "aql xazinasi"ga joylayotgan kuz faslini eslatadi.

Va nihoyat, "Akademiya" yig'ilgan hosilni umr bo'yi sarflashni mo'ljallab taqsimlayotgan kishiga o'xshatiladi.

Ya.A.Komenskiy hamma predmetni tabiatga bog'lab tushuntirgan. U o'quvchilar diqqatini jalb etish uchun kitoblarning nomini qiziqarli nomlab, mazmunini to'liq ifodalab bergan. Uning aytishicha, bu sohada mavjud predmetlardan eng chiroylisi bog'ning turli manzaralaridan namuna olishdir.

Komenskiy nazariy bilish masalalariga materialist sifatida yondoshdi. birinchi bo'lib u tarbiyani tabiat bilan uyg'unlashtirish g'oyasini, ya'ni tarbiyani asoslashda tabiat hayotga, uning umumiyqonuniyatlariga tayanish g'oyasini ilgari surdi.

Komenskiy tabiatga monandlik prinsipini tabiat va inson rivojlanishidagi universallik, mushtaraklik borligini aniqlab, inson kamol topishining (bolalik, o'smirlik, o'spirinlik, yetuklik) davrlarini harakterlab, ular orasida olti oy davom etadigan dastlabki davrga alohida e'tibor berdi. Uning qimmatli fikri shundaki, bola organizmida jadal jismoniy o'sish va his-tuyg'u organlarining rivojlanishi ro'y beradigan mana shu davrda yosh bolalar onalar maktabida, psixologik qobiliyati bo'lgan va o'z tarbiyalanuvchilarini sevadigan dono, onalar rahbarligidagi oilada tarbiyalanishlari kerak.

Komenskiyning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasi to'g'risidagi "Onalar maktabi" degan maxsus asari maktabgacha tarbiya yoshiga oid dunyoda birinchi dastur va qo'llanma bo'ldi. Uning faoliyatga intilish, mehnatga muhabbat, tabiatni sevis, haqqoniylik, ozodalik, xushmuomalalik va shu singari fazilatlarini tarbiyalash sohasidagi tavsiyalari juda qim-matlidir.

Komenskiy onalar maktabi bolalarga aniq tasavvurlarni to'plashi uchun yordam berishi kerak, deb aytadi va u maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar egallashi zarur bo'lgan atrof-muhit haqidagi, tabiat haqidagi oddiy bilimlarning keng doirasini batafsil chizib berdi. Uning fikricha, tabiatshunoslik sohasida yetti yashar bola olov, havo, suv va yer, yomg'ir, qor, muz, qo'rg'oshin, temir va shu singarilar nima ekanligini bilishi, Quyosh va Oy, yulduzlarni farqlay olishi, qaysi paytda kunlar uzun va qaysi paytda qisqa bo'lishini bilishi kerak. Geografiya sohasidagi bilimlar esa shahar, qishloq, dala, bog' nima ekanligini tushunish, o'z qishlog'i yoki shaharning nomini bilishini o'z ichiga olishdan iborat bo'lishi va bundan tashqari, yil fasllarini, "soat", "kun", "hafta", "oy", "yil" atamalarini tushunishi kerak, deb ta'lim berdi.

Ya. A. Komenskiyning bundan qariyb uch yarim asr muqaddam yaratgan nazariyasi yoshlarni tarbiyalash, tabiat bilan tanishtirishdagi dastlabki qadam bo'ldi. Ya.A.Komenskiy bolalarni tarbiyalashda tabiatning ahamiyatini o'zining boshqa asarlarida ham ochib bergan.

## Iogani Genrix Pestalossi (1746-1827)

Shvesariyalik mashhur pedagog I.G.Pestalossi 1746 yilda shifokor oilasida tug'ilgan. Uning fikrlari haligacha pedagogika sohasida qo'llanib kelinadi. U "Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi", "Kuzatish alifbosi", "Son to'g'risida ko'rsatmali ta'lim", "Oqqush qo'shig'i" kabi asarlarni yaratdi. I.G.Pestalossining fikricha, bolaga berilayotgan tarbiya tabiat bilan uyg'un bo'lishi kerak. U Ya.A.Komenskiy, Jan Jak Russolarning ushbu g'oyasiga amal qildi:



"Insoniy kuchlarning o'sishi uchun tabiat qilayotgan harakatga yordam berilmasa, bu harakatlar odamlarni hayvoniy-hissiy xususiyatlardan sokinlik bilan qutqaradi. To'g'ri tarbiya esa ularni, ya'ni barcha insoniy kuchlarni o'stirishga yordam beradi".

I.G.Pestalossi bolalarning aqliy kamolotini o'stiruvchi quyidagi didaktik qoidalarni olg'a suradi:

• Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi.

- Oddiydan murakkabga yo'naltirish.
- Bolaning kuch va qobiliyatiga moslashtirish.
- Ko'rgazmalilik.

Pestalossi tarbiya sistemasi oldiga bolalarni garmonik jismoniy mehnat, ahloqiy va aqliy kamol toptirish vazifasini qo'ydi.

Aqliy tarbiya sohasida u pedagogika tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ikkita muhim qoidani aytgan. Birinchisi, ta'lim jarayonida ko'rgazmali qurollardan keng foydalanish zarurligini isbotlash va targ'ib qilishdir. Pestalossi hissiy idrokni bilishning boshlanishi deb hisoblar va shuning uchun u bolalarda tabiatni kuzatish madaniyatini shakllantirish zarur, deb talab qilardi. Ikkinchisi rivojlanuvchi ta'lim g'oyasi edi. Unda ta'lim jarayonini shunday tashkil qilish kerak ediki, bu predmet ma'lumotlarni to'plashgagina emas, balki bolalarning qobiliyatini rivojlantirishga olib borsin, ularni kelajakdagi mustaqil faoliyatga tayyorlasin.

I.G.Pestalossi boshlang'ich ta'lim xususiy metodikasining asosini yaratdi. Bunda u ona tili, hisob, geografiya, o'lkashunoslik fanlaridan elementar ta'lim berish mazmunini asoslab berdi va bola tilini boyitish uchun geografiya, tibbiyot fanlarining ham uzviy ravishda olib borilishini

tavsiya etgan edi.

I.G.Pestalossi dunyo pedagogika fanining taraqqiyotiga katta hissa ko'shib, o'z asarlari bilan o'ziga haykal yaratgan olimdir.

Pestalossi fikricha, tarbiyaning maqsadi insonlarning barcha tabiiy kuchlari va qobiliyatlarini har tomonlama hamda uyg'un o'stirishdan iborat. Uning elementar ma'lumot nazariyasiga ko'ra tarbiyalash oddiy elementlardan boshlanib, asta-sekin murakkab darajagacha ko'tarilib borishi kerak. Uning "Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi (1801y)", "Onalar kitobi" (1806 y), "Oqqush qo'shig'i" (1826 y) kabi asarlari pedagogika fanini rivojlantirishda, tarbiyachilarning ma'rifatparvarlik faoliyatlarida katta ahamiyatga ega bo'ldi.



**Konstantin Dmitrievich Ushinskiy**  
(1824-1870)

Rus milliy pedagogikasining asoschisi sifatida tanilgan pedagogdir. U «Bolalar dunyosi», «Ona tili», «Muallimlar uchun qo'llanma» asarlarini yozgan.

K.D. Ushinskiy boshlang'ich maktabdagi ta'lim mazmunini asoslab berish bilan birga undagi qonunkoida, tartib, metod va vositalarini ham ishlab chiqib, didaktika faniga katta hissa qo'shdi. Bu esa ajoyib yangilik sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. U eng avvalo o'qitishni bolalar mehnati bilan bog'lashni tavsiya qildi.

K.D.Ushinskiy chet el maktablarida olib borilayotgan ta'lim- tarbiyani o'rganib, o'zining "Pedagogik adabiyotning foydasi", "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" hamda "Ona so'zi" asarlarini yozdi.

K.D.Ushinskiy psdagogika nazariyasining asosini tarbiyaning xalqchillpk g'oyasi tarixiy jarayonda mehnatkash xalqning yaratuvchilik kuchini e'tirof etish tashkil qiladi, deydi. U "Inson tarbiya predmeti sifatida" degan mashhur asarida har bir bolaning yosh va psixik xususiyatlarini albatta hisobga olish zarurligi haqidagi eng muhim qoidani olg'a surdi va asoslab bsrdi. Shuning uchun ham u "Pedagogika insonni har jihatdan tarbiyalashni istar ekan, u avvalo insonni har ji-hatdan o'rganishi kerak", - deb yozgan edi.

K.D.Ushinskiy maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan ishlashda tabiat bilan tanishtirishga, estetik va axloqiy tarbiyaga katta o'rin ajratdi. Uning fikricha, bola faqat axloqiy tarbiya tufayligina odam bo'ladi. Bundan tashqari tarbiyaga doir asarlar bayonining soddaligi, ravshan va yuksak

badiiyligi bilan ajralib turishi kerak, deydi. Uning o'zi ham bunga qat'iy amal kilardi. Shu sababli uning yozgan "Ona tili" darsligi ana shunday talablarga to'liq javob beradi. Darslik mazmunining boyligi, tili va metodikasi jihatdan o'z davrining eng namunali o'quv kitoblariandir. U yoshlarni tarbiyalashda tabiat go'zalligiga yuksak baho beradi. Tabiat go'zalligidan foydalanishni aytadi.

Bolalarni tabiatni ssvishga va uni o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttirish yo'llarini ko'rsatdi. Bolalardagi kuzatish qobiliyatini oshirish, fikrlash xususiyatini rivojlantirish, tabiat haqida to'g'ri tushunchalarga ega bo'lish, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarni payqay bilish ruhida tarbiyalash kerakligini uqtirdi.

### **Jan Jak Russo (1712—1778)**



Fransiyalik filosof-ma'rifatchi Jan Jak Russo ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos nazariya yaratgan. Materiyaning hech kim tomonidan yaratilmaganligini va ob'ektpv mavjudligini tan olgan, lekin materiyaning mohiyatini bilib bo'lmaydi, deb hisoblagan.

Russoning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari uning dunyoqarashining asosi hisoblanadi. U kishi biron-bir jamiyatda yashashi kerak, «tabiiy holat»ga qaytib bo'lmaydi, deb hisoblab, tabiatga yaqin ideal jamiyat haqidagi g'oyani ilgari suradi. Uning fikricha, tarbiyaning asosiy maqsadi mehnatsevar kishilarni yetishtirishdir.

Russoning pedagogik asarlarida, ayniqsa uning "Emil yoki tarbiya to'g'risida" degan roman-traktatida tarbiya va yoshlarni tarbiyalashda tabiatning roli atroflicha yoritilgan. U ushbu asarida bolalarni mehnatga tayyorlash zarurligi haqidagi fikrni aytib, yoshlarni tarbiyalashda jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiyaning ahamiyatini, tabiat bilan muloqotda bo'lishining ahamiyatini ta'kidladi. Bu g'oyalar o'z davrining dolzarb, falsafiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan fikrlaridan sanaladi.

### **F. Frebel (1782-1852)**

O'z davrining nemis pedagogi Fridrix Frebel maktabgacha tarbiya nazariyasi bilan katta dong taratgan.

F.Frebel tarbiya deganda insondagi to'rtta tug'ma instinktini: faoliyat, bilish, badiiy va diniy instinktlarning rivojlanishini tushunardi. U bola

tarbiyasida tabiatga uyg'unlik tamoyilini kashf qilib, bunda bolalardagi ilohiy ruhni aniqlashdan iborat, deb bilardi. Uning fikricha, tarbiya insonga tabiat in'om etgan narsaga hech narsa qo'shmaydi, balki unda bo'lgan hislatlarni rivojlantiradi, holos.

Frebel tabiatdagi cheksiz rivojlanish haqida va insonning butun hayoti davomida kamol topishi haqidagi qimmatli va muhim fikrni keng tashviq qildi. U bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini oshirib borishda tarbiyachining roliga, mehnat ta'limiga katta baho berdi.

Uning pedagogikada katta nom chiqarishiga sabab, u birinchi bo'lib «bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti» atamasini joriy etdi. Bolalarning tarbiyalanishida, yetilishi va rivojlanishida murabbiylarning roli katta ekanligini aytib, maktabgacha ta'lim tashkilotilar bir bog'-u, murabbiylar uning «bog'boni» deb ta'rif berdi.



Frebel bolalarni tarbiyalashda didaktik o'yinlar va xilma-xil mashg'ulotlarning roli juda katta ekanligini alohida ta'kidladi. Bu o'yinlar vositasida tarbiya bolalarning tabiiy xususiyatlaridan kelib chiqib, bu ularning shakllanishida katta rol o'ynaydi,

deydi.

Xullas, XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida G'arbiy Yevropada Frebel o'zining nazariyasi bilan pedagogika osmonida yorqin yulduz bo'lib porladi.

Mariya Montessori (1870—1952) atqli italiyalik psixiatr vrach va pedagog, imperializm davrida ijtimoiy maktabgacha tarbiya sohasidagi o'zining ba'zi qimmatli fikrlari bilan nom taratgan olim.

Montessori aqliy tarbiya o'rniga, tuyg'u organlarini tarbiyalashni birinchi o'ringa qo'ydi va buning uchun o'zi didaktik material ishlab chiqdi. Mashqlar uchun aqliy jihatdan zaif bo'lgan bolalarga ishlatiladigan materiallarni asos qilib oldi. Mashqlar jarayonida ko'pincha predmetlarni shakli, vazni va rangiga qarab farq qilish, xilma-xil ovoz va hidlarni bilish ko'nikmalariga qaratilgan edi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida chet el maktabgacha tarbiya pedagogikasida kattagina o'zgarishlar ro'y berganligini ko'rish mumkin. Bu davrda tabiyot fanlari biologiya, fiziologiya va ularning asosida psixologiya sohasida erishilgan muvaffaqiyatlar munosabati bilan pedagogika va uning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan maktabgacha tarbiya pedagogikasi yanada rivoj topdi. Bu sohada ba'zi xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilsa-da, tarbiya nazariyasi o'zining qimmatli fikr va mulohazalari bilan, ilmiy

qarashlari bilan maktabgacha tarbiya pedagogikasi tarixida mustahkam poydevor bo'lib hisoblanadi.

**Vladimir Feodorovich Odoevskiy** (1803 - 1869) bolalar yozuvchisi, pedagogika sohasida qimmatli fikrlar bildirgan. Ayniqsa uning "Fan-gacha bo'lgan fan" degan kitobining "Bolalarga ilk bor ma'lumot berish davrida qo'llanilgan pedagogik usullar haqidagi tajriba" degan bo'limida bolalar tarbiyasida tabiatdan foydalanish metodini berdi. V. F. Odoevskiy bolani tarbiyalash uchun botanikaga murojaat etadi. U tarbiyachiga bolalarni o'simliklar bilan tanishtirayotganda biridan ikkinchisiga so'ngra uchinchisiga sakrab o'tmang, faqat tanishtirish bilan shug'ullansangiz, hamma o'simliklarni ko'rish uchun sizning ham, bolaning ham umri bunga yetmaydi, deydi. Faqat bolalarni hamma organlari yaxshi rivojlangan o'simlik bilan tanishtiring.

Tanishtirganda ham bola uni o'z ko'zi bilan ko'rsin, lekin sizning ko'zingiz bilan emas. Siz faqat uni kuzatib, bolaning xatoga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rishingiz kerak. Bolalar bir necha o'simlikni kuzatib bo'lgach, uning fikrini jamlash maqsadida ko'rganlardan xulosa chiqarishga yordamlashing. So'ngra uni qo'lga darslikni berib, ko'rganlarini taqqoslashga o'rgating, undan o'qib o'rganishga odatlantiring. Lekin undan botanik yoki zoolog bo'lib chiqadi deb shoshilmang, eng muhimi inson bo'lib yetishsin, deydi.

V. F. Odoevskiyning xizmati shundaki, bolani tarbiyalashda tabiat bilan tanishtirishning ahamiyati beqiyos qatta ekanligini rus pedagogikasida birinchi bo'lib tavsifiya etdi. Uni qanday amalga oshirish yo'llarini o'zi ko'rsatib berdi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish vositasida tarbiya berishning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini beqiyos katta ekanligini rus demokratlari o'zlarining ilmiy qarashlarida to'liq qo'llab-quvvatladilar. Ulardan A. I. Gersen, V.G. Belinskiy, N.G.Chernishevskiy, N.A. Dobrolyubovlar o'zlarining materialistik qarashlarida bola shaxsining shakllanishida tabiatshunoslikning roli katta ekanligini ta'kidladilar.

**Vissarion Grigorevich Belinskiy** (1811-1848) ko'zga ko'ringan filosof, tanqidchi pedagog. U ba'zi tarbiyachi mutaxassislarni bola tarbiyasida tabiat vositalaridan kam foydalanayotganliklarini qattiq tanqid qildi. Bolalarni tarbiyalashda ularning psixofizik xususiyatini hisobga olib har qaysi bola taqdiriga alohida yondoshish kerakligini, «bola tabiatining qonuniyatlarini» yaxshi bilish kerakligini uqtiradi.

**Aleksandr Ivanovich Gersen** (1812-1870) demokrat, filosof-materialist, yozuvchi, pedagog. Uning "Bolalar bilan suhbat", "Tabiatni

o'rganish haqida xat" asarlarida bolalarni tarbiyalashda axloqiy, aqliy va jismoniy tarbiyaning roli katta ekanligini ta'kidlab, tabiat vositasidan foydalanishni alohida uqtiradi.

**Adelaida Semyonovna Simonovich** (1844-1933) ijtimoiy-pedagogik harakatning atoqli arbobi, yoshlarni tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktabning aloqasini yaxshilash kerakligini olg'a surgan olim. Shuning uchun ham bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotini «oila bilan maktab o'rtasidagi bog'lovchi halqa» deb hisoblab, maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarini maktabdagi o'qishga tayyorlash kerak, degan edi.

U bolalarni tabiat bilan tanishtirishda yaratilgan nazariya va amaliyotni bir-biri bilan bog'lab bolalar tarbiyasida foydalanish kerak, deb uqtirdi.

Uning "bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotining maktab bilan aloqasi", "Kim tarbiyachi bo'la oladi?" "Vatanshunolik", "Bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti haqida" kabi asarlarida bolalarni tarbiyalashda tabiat vositalaridan, tevarak-atrofdagi predmet va buyumlardan foydalanish kerakligini eslatib o'tadi.

A. S. Simonovich ijodining bosh markazida vatanshunolik, harakatli o'yinlar, gimnastika, hikoya aytib berish, rasm chizish, qurish - yasash va boshqa ish turlari bo'yicha namunali metodik qo'llanmalarni ishlab chiqdi va bolalarni shu ruhda tarbiyalashga undadi.

**Yelizoveta Nikolaevna Vodovozova** (1844-1923) bolalarning sevimli yozuvchisi, maktabgacha tarbiya pedagogikasini rivojlantirishda munosib hissa qo'shgan olim. Ye. N. Vodovozova maktabgacha tarbiya pedagogikasi sohasida K. D. Ushinskiyning fikrlarini davom ettirdi, uni yangi g'oyalar bilan boyitdi.

U maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalashda tabiatning o'ziga xos roli borligini, tabiatni kuzatish - bolalarni tabiat bilan tanishtirishning amaliy metodlaridan biri ekanligini ko'rsatib berdi. Tarbiyachilar uni to'g'ri tashkil etishlari kerakligini pedagogik nuqtai nazardan isbotlab berdi. Ayniqsa bolalarni tarbiyalashda ularni kattalar mehnati bilan tanishtirishning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati beqiyos katta ekanligini tasdiqladi.

Ye. N. Vodovozova faoliyatining markazida aqliy va axloqiy tarbiyaga katta o'rin ajratadi. Aqliy rivojlanish vositasi sifatida tabiat bilan tanishtirishga katta e'tibor berib, u ana shu tanishtirish rejasiga tevarak-atrofdagi hayot bilan, xalq mehnati va turmushi bilan tanishtirishni kiritadi. Uning «Bolalarni aqliy va axloqiy tarbiyalash» degan asari Rossiyada bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachilarini tayyorlashda eng muhim qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

**Luiza Karlovna Shleger (1863-1942)** ko'zga ko'ringan pedagog-metodist, maktabgacha tarbiya sohasidagi taniqli arbob. O'zining tarbiyachilik faoliyatini Moskva shahrining ishchilar yashaydigan chekka viloyatlarida bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida bepul ishlashdan boshladi. U o'sha davrda tarbiyada mavjud bo'lgan Frebel va Montessorilarning didaktik materialini qayta ko'rib chiqdi, bolalarning hayotini tarbiyaviy ishning asosiga aylantirdi. Bu rejada o'sha vaqtda tarqalgan erkin tarbiya nazariyasiga amal qilib, bolalarga o'yin va mashg'ulotlar vaqtda to'la erkinlik berib qo'yish kerakligini aytdi va o'zi buni tajribalarida sinab ko'rdi.

U o'zining "Yosh bolalar bilan suhbatlar uchun materiallar", «Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotidagi amaliy ish» nomli asarlarida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan suhbatlar tashkil etish metodikasi, bolalarni o'rganish, individual ish, sezgi organlarini rivojlantirish uchun maxsus mashqlardan foydalanishga doir qimmatli maslahatlar berdi.

U bolalarni tarbiyalashda tabiatdan foydalanish uchun jismoniy ish bilan shug'ullanish kerakligini, jismoniy ish jarayonida tabiat elementlari bilan tanishib olish mumkinligini olg'a suradi. U bola tarbiyasida ko'shimcha amaliy ish bilan shug'ullantirish kerakligini aytib, buning asosida tabiat bilan tanishtirishning o'ziga xos metodini ishlab chiqdi.

L.K.Shleger o'z hayotiy tajribalari asosida "Har bir yosh o'zining shaxsiy hayotiga ega" deydi. Demak, har xil yoshdagi bola bilan tarbiya ishini olib boranda hushyor bo'lib, bolaning fiziologik o'sishi, psixik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga egadir.

**Yelizoveta Ivanovna Tixyeva (1867-1943)** o'zining tarbiya sohasidagi qarashlari bilan boshqa metodistlardan ajralib turadi. U K.D. Ushinskiyning g'oyalarini jon dilidan qabul qilib va uni keng targ'ib etadi

Ye. N. Tixyeva maktabgacha tarbiyada erkin tarbiya nazariyasiga qarshi chiqib, bolalarni tarbiyalashda ularning oldida bir maqsad bo'lishi kerakligini, ko'r-ko'rona tarbiya berish bolalarning shakllanishida salbiy ta'sir etishini ko'rsatadi. U bolalarni tarbiyalashda tabiat vositalaridan foydalanish kerakligini aytib, shaharlarda tabiat bilan tanishtirish uchun imkoniyatlar yo'qligidan qattiq xafa bo'ladi. U "shaharlardan baland imoratlar, tig'iz ko'chalar, ba'zi baland tosh uyumlari bolalarni na osmonni, na quyoshni ko'rolmay dog'da" yurishlarini aytib, bolalarning shakllanishida tabiatning roli beqiyos katta ekanligini aytadi. Buning uchun bolalar yonida, albatta maktabgacha ta'lim tashkiloti yer uchastkalari, er

maydonchalari bo'lishi kerakligini, bolalar bu yer maydonchada tabiatning elementlari bilan tanishishi mumkinligini uqtiradi.

U, ayniqsa ekskursiyalar uyushtirish kerakligini, uning bolalarni tabiat bilan tanishtirishdagi rolini alohida qayd etib, shaharlarda buni uyushtirish qiyinligi, faqat muzey, vistavkalarga olib borish bilan shug'ullanishlarini achinish bilan qayd etadi.

Ye.I.Tixeevaning pedagogik faoliyati yanada rivojlandi. U maktabgacha ta'lim tizimida ham barakali ishlab, qimmatli fikr va mulohazalar bildirdi.

### **? Nazorat savollari**

1. Tabiat nima uchun o'rganiladi?
2. Al-Xorazmiy tabiatshunoslik faniga qanday hissa qo'shgan?
3. Tabiatshunoslik fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan O'rta Osiyolik qaysi mutafakkirlarni bilasiz?
4. Beruniyning qaysi ilmiy asarlarini bilasiz?
5. Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» asarida nimalar haqida yozgan?
6. Ya.A.Komenskiy bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi faniga qanday hissa qo'shgan?
7. G.Pestalossi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda nimalarni olg'a surgan?
8. K.D.Ushinskiyning qaysi asarlarini bilasiz?
9. Ye.I.Tixeevaning bolalarni tabiat bilan tanishtirishda qanday usullarni qo'llashni uqtiradi?
10. Rus pedagoglarini bola rivojlanishida tabiatning roli haqida?
11. «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi qanday vazifalardan iborat?
12. So'ngi yillar davomida tabiat bilan tanishtirish metodikasi fanining rivojiga hissa qo'shayotgan metodit olimlar.?

## **II BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TABIATSHUNOSLIK ISHLARINI TASHKIL ETISH**

### **Reja:**

**II.1. Tabiat bolalarni har tomonlama kamol topishida asosiy omil sifatida.**

**II.2. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan talablar.**

### **1. Tabiat bolalarni har tomonlama kamol topishida asosiy omil sifatida.**

**Tayanch iboralar:** har tomonlama kamol topishi, ekologik ta'lim – tarbiya, mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, ilmiy dunyoqarash,

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish tobora boshqacha tus olayotgan sari, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, bu jarayonning samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturida har tomonlama yetuk kamol topgan, bolalarni ta'lim va tarbiya berishning asosiy masalasi o'z aksini topgan.

Dastur talabiga muvofiq, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ma'naviy yetuk, axloqli, pok insonlar qilib voyaga yetkazilgan tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani muhim ahamiyat kasb etadi. Uning maqsadi, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bulish, Vatanga mehrlri bo'lish, ekologik ta'lim - tarbiyani amalga oshirish, tabiat haqida mukammal bilimga ega bulgan yoshlarni tarbiyalashdir.

Tabiat bilan tanishtirish metodikasining vazifasi talabalarni tabiat bilan tanishtirish usullari, ish shakllari, shuningdek, pedagog, psiholog olimlar va mutafakkirlarning tabiatning inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlari bilan tanishtirish va nazariy bilimlar berishdan iborat.

Tabiat bilan tanishtirish fani pedagogikaning bir qismidir, chunki tabiat bilan tanishtirish orqali barcha tarbiya turlari amalga oshiriladi. Tabiat bilan bolalarning yosh xususiyatlari, fiziologik tuzilishlarini hisobga olgan holda tanishtiriladi. Shu bilan birga turli yosh guruhlarda ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari, harakter hislatlari, iste'dodlari hisobga olinadi.

- Bola a'zolarining tuzilishi - oliy nerv tizimi, ichki a'zolari, tana tuzilishi, yoshga qarab hosil bo'ladigan o'zgarishlar tabiat bilan

tanishtirishda muhim ahamiyatga ega. Bundan ko'rinib turibdiki, bu kurs bolalar fiziologiyasi fani bilan ham bevosita bog'langan.

- Biologiya fani tabiat bilan tanishtirish metodikasining asosini tashkil etadi. Chunki biz bolalarni jonli va jonsiz tabiat, tabiat hodisalari, yilning turli fasllari bilan tanishtiramiz.

- Tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani falsafa, biologiya, pedagogika, psixologiya, fiziologiya va barcha metodikalar bilan bog'liq holda bir-birini to'ldirib, mustahkamlaydi.

Bolalarning jonsiz tabiat hodisalari, o'simliklar va hayvonlar, inson mehnati haqidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytirish haqida boyitish, shuningdek, o'simliklar o'stirish, hayvonlarni parvarish qilishda bolalarda oddiy ko'nikmalar hosil qilish ta'lim berishning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bunda bolalarda kuzatuvchanlik, bilimga qiziqish, tafakkur va mantiqiy nutq rivojlanadi, so'z boyligi ortadi, yangi tushunchalar hosil bo'ladi.

Bolalarda mehnatni sevis, o'zgarlar mehratini qadrlash, o'simlik va hayvonlarni asrash, ularni parvarish qilish, o'z Vatanini, tabiatni sevis, tabiat go'zalliklarini ko'ra olish kabi hislatlarni o'stirish orqali tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat bilan yaqindan tanishtirmasdan turib, bolalarni jismonan rivojlantirish, nutq va tafakkurlarini boyitish vazifalarini amalga oshirish mumkin emas.

**Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ahamiyati.** Tabiatga muhabbat- juda keng qamrovli va murakkab his-tuyg'udir. U yuksak ruhiy va akliy qatlamlarni o'z ichiga oladigan murakkab bir butunlikni tashkil etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga doir tadqiqot ishlarini olib borgan M.Umarovanning fikricha, bu hissiyotni tarbiyalashni bolalikning erta yoshidan boshlash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Har bir bolada o'zi yashab turgan mahalliy o'lka va O'zbekiston tabiatiga muhabbat bilan qarash, ungako'ngil qo'yish ishtiyoqi o'sib boradi. Bolalikda tug'ilgan bu tuyg'u maktab yillarida rivojlanib, boyib boradi.

Ana shuning uchun ham P.Yusupova o'zining «Formirovanie nachal materialisticheskogo miroponimaniya u starshix doshkolnikov v processe oznakomleniya ix s rasteniyami v usloviyax Uzbekistana» deb nomlangan tadqiqot ishida metodist olim A.V.Zaporojesning quyidagi fikrini o'rinli keltiradi: "... maktabgacha yosh didaktikasini shunday yo'lga qo'yish kerakki, bolalar tevarak-atrofdagi buyumlarning tashqi jihatlarini bilangina emas, balki ular orasidagi eng oddiy bog'lanishlar, kuzatilayotgan

hodisalarning eng yaqin sabablari, o'zgarish va rivojlanishlaridagi ayrim xususiyatlar bilan ham tanishsinlar, bunday material saviyaga mos bo'libgina qolmay, maktabgacha yoshdagi bola uchun qiziqarli hamdir". Bola ana shu bog'lanishlarni anglash orqali tabiat qonunlarini bilib boradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, **maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish** - bu ularda tabiatga to'g'ri munosabatni tarbiyalash va hissiy tajribaga asoslangan, atrof-muhit haqidagi real bilimlarni anglashning ta'limiy vositasi.

Kuzatishlarning tasdiqlashicha, bolalarning atrof-muhitdagi faoliyati asosan o'z-o'zidan, kutilmagan tarzda kechadi va buni ulardagi tabiatga bo'lgan bunday munosabatning asosiy sababi deb hisoblash to'g'ri bo'ladi. Oila, mahalla, bir so'z bilan aytganda, tevarakdagilarning, ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining pedagogik ta'siri bilan bunday nojoiz faoliyat tuzatib boriladi. Mana shuning uchun ham maktabgacha yoshdayoq bolalarning tabiathaqida ishonarli ma'lumotlarni egallashlari juda muhim.

Bolalar tabiat hodisalarini to'g'ri idrok etishlari uchun ularning tabiatni idrok etish jarayonini yo'naltirish zarur. Bolalarni tabiatga oshno etmasdan va maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya ishlarida undan keng foydalanmasdan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama - aqliy, estetik, ahloqiy, jismoniy jihatdan tarbiyalash vazifasini muvafaqqiyatli hal etib bo'lmaydi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ta'limiy-tarbiyaviy vazifalari. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga (2019 yil 8 may PQ - 4312) ko'ra bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida o'zaro bir-biriga bog'liq ta'limiy-tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi.

Aqliy tarbiyadagi asosiy vazifasi - bolalarda jonsiz tabiat, o'simliklar, hayvonlar haqida ma'lumot berish, ularning tabiat voqea-hodisalarini yetarlicha idrok eta olishlariga imkon berish.

Aqliy tarbiyaning ajralmas qismi - sensor madaniyatdir. U taxlillarni takomillashtirish, bolalarda keyingi umumlashmalar uchun asos bo'ladigan hissiy tajribani mustahkamlash, tabiatshunoslikka oid. dastlabki tushunchalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Bolalarning tabiat haqidagi bilimlarni egallashlari ularning bilish qobiliyatlari - sensor apparati, mantiqiy fikrlashi, diqqat, nutq, kuzatuvchanlik, bilishga qiziqishi kabilar bilan mustahkam bog'langan bo'lishi kerak. Fikrlashni rivojlantirish va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun bolalarning tabiat predmet-hodisalari bilan tanishtirish,

ularni kuzatilayotgan predmet-hodisalarni tushunishga o'rgatish va ular orasidagi aloka va munosabatlarni anglashlariga olib kelish kerak. Anglash jarayonidagi tabiat hodisalari orasidagi sababiy aloqalar va munosabatlar fikrlashni rivojlantiradi.

Bola o'zini o'rab turgan atrof-muhit va tabiatning muayyan xossalarini: havoning issiq-sovuqligini terisi bilan, suyuqliklarning ta'mini tili bilan, havodagi hidni burni bilan, tabiatdagi xilma-xil ob'ektlarning rangini ko'zi bilan, tovushlarni qulog'i bilan sezib, ya'ni mazkur xossalar bolaning besh turli sezgisiga ta'sir etib, shu a'zolarida joylashgan asab hujayralari orqali bosh miyasiga borib yetib, natijada miyada tabiatning ayrim xossalari to'g'risida bilim paydo bo'ladi, ularning ko'rinishlari, qiyofalari, tasvirlari, manzaralari vujudga keladi.

Bolalarda bilishga qiziqishni tarbiyalash ham muhimdir. Bolalarga hayvonlar va o'simliklarni qanday kuzatishni ko'rsatish, ularning diqqatini ularning tashqi ko'rinishi, harakatiga qaratish orqali tarbiyachi ularda nafaqat tabiat haqida bilimlarni, balki ularga mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi. Faqatgina har doim bolaning yoshini hisobga olish va uning diqqatini mazkur predmet va hodisadagi predmetlarga qaratishni bilish zarur.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida ahloqiy, jismoniy, mehnat va estetik tarbiyani amalga oshirish zarur.

Bolaning ahloqiy rivojlanishida unda Ona tabiatga muhabbat va tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish asosiy o'rin tutadi. Bolalarga bu borada eng yaqin yo'l ular o'sib ulg'ayotgan joydir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi bolalar bilan hayvon va o'simliklarni kuzatadilar va parvarishlaydilar. Natijada ularda tabiatga ehtiyotkorona munosabat, mehnatni sevis va mehnat qilishga odatlanish, topshirilgan ishga mas'uliyat o'z-o'zidan shakllanadi.

Bolalarda mehnatsevarlik, tabiatga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash uchun ularni o'simliklarni sug'orish va hayvonlarni ovqatlantirishning oddiy usullarini o'rgatish zarur. Eng muhimi, bolalarning o'zlari bajarayotgan ish jarayoni va natijalaridan zavq olishlariga erishish lozim. Mehnatsevarlik sifatini shakllantirish uchun bolalarni kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirish, ularning faoliyatiga hurmatni tarbiyalash zarur. Bolalarning tabiatda bo'lishi va mehnatidan ularning jismoniy rivojlanishi va salomatliklarini mustahkamlash uchun foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Tabiat bolalarni estetik tarbiyalashning asosiy vositalaridan biridir. Tabiatning go'zalligi hatto eng kichik bolalarni ham o'ziga rom qilmasdan

qolmaydi. Ularni tabiatni bilish jarayonida e'tiborlarini o'rmonning shovqinlari, qushlarning sayrashi, barglarning shakli va rangi, gullarning hidlari, hayvonlarning harakatlariga qaratish kerak. Buning muhim jihati bola kelajakda o'z hayotida dunyoning barcha va xilma-xil go'zalliklarini idrok eta olishiga sharoit yaratishdir.

Turli yosh guruhi bolalarining tabiat bilan tanishtirishda psixik xususiyatlarini rivojlantirish. Tabiat bilan tanishtirishning bolalarni aqliy jihatdan o'sishiga ta'siri kattadir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta'lim-tarbiya jarayonida ularning ongida atrofi o'rab olgan dunyo haqida hissiy tajribaga asoslangan aniq bilimlar hosil qilish muxdmdir. Haqiqatni to'g'ri aks ettiruvchi bilimlar berilmasi, bolalarda tabiat haqida noto'g'ri tushunchalar hosil bo'ladi.

Noto'g'ri tushunchalarni tuzatish yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinrokdir. Shuning uchun bolalarda maktabgacha ta'lim yoshidanoq, his etilish, qabul qilib olish va zehniy rivojlanish tajribalariga asoslangan holda tabiat haqida ilmiy dunyoqarashlarning shakllanishi juda muhimdir.

**Ivan Petrovich Pavlov**  
**(1849-1936)**

I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra, insonning tabiatdagi narsa va hodisalardan olayotgan ta'siri birinchi signal tizimsini ularni ifodalovchi so'z esa, ikkinchi signal tizimsini hosil qiladi. Bilishning hissiy tomoni birinchi signal tizimsi bilan boglik, bu kurgozmali, obrazli tafakkurga asoslangan bo'lib, miya po'stlog'idagi muvaffaqiyatli bog'lanishni o'z ichiga oladi, ya'ni tashqi dunyodagi narsa va hodisalarni sezishda, idrok qilishda va tasavvurda bevosita aks etadi. Bilimning rasional tomoni, abstrakt tafakkur, ya'ni



tushunchalarning hosil bo'lish jarayoni ikkinchi signal tizimsi bilan boglivdir. Ikkinchi signal tizimsi tashqi dunyo bilan faqat birinchi signal tizimsi orqali aloqa olib boradi, shuning uchun tafakkur sezgi va idroksiz bo'lish, biron narsa haqida aniq tasavvurga ega bo'lmay turib tushuncha hosil qilinishi mumkin emas.

"Hissiy bilimning fiziologik asosi - ko'rish, eshitish, hid ilish, teri harakatlantiruvchi va boshqa taxlilatorlarning birgalikdagi faoliyatidir" - degan edi I.P.Pavlov.

O'zlashtirishda qancha ko'p taxlilatorlar birgalikda ishtirok etsa,



tasavvur va tushuncha shunchalik aniq, boy va ma'noli bo'ladi. Demak, bolalarni tabiat bilan tanishtirish asosiga birinchi navbatda ko'rgazmalilikni qo'yish kerak, ya'ni narsa va hodisalar ularning sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etishi, bolalar narsalarni ko'rib, qo'l bilan ushlab ko'rishlari, eshitib, hidlab kurishlari, ta'mini tatib ko'rishlari, ya'ni ularning xususiyatlarini seza bilish imkoniyatlariga ega bo'lishlari shart.

Uyda, sayrda, o'yinlarda va mehnatda, tabiatdagi narsa va hodisalarni bolalarga ta'sir etishi natijasida ularda seza bilish tajribalari to'planib boradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotiga ketayotganlarida ko'chadagi ob-havo sharoiti (sovuq issiq, iliq va namlik)ni seza oladilar. Qo'llarini yuvganlarida, cho'milish vaqtida, o'yinlarda suvning xususiyatlarini (sovuqligi iliqqligi, sachrashi, toshlarning suvda cho'kishi yoki yog'ochning suzib yurishi)ni payqay oladilar. Hayvonlarni parvarish qilishda esa ularning harakatlarini, odatlarini bilib oladilar

Bola tabiat bilan yaqin munosabatda bo'lishi natijasida, undagi narsa va hodisalarni yaqqol ko'rib, idrok qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Lekin ko'pincha bola narsalarni payqamay qolishi yoki muhim bo'lmagan tomonlarga diqqat qilib, idrok qilgan narsalarini noto'g'ri tasvirlashi mumkin. 3-4 yoshdagi bola uchayotgan qushlarni hamma vaqt ham sezmasligi mumkin. Hayvonlarni uchratganda u birinchi navbatda uning kattaligiga e'tibor beradi, akvariumda suzib yurgan baliqni ko'rsatib uni "yuryapti" yoki "qanotlarini silkityapti", - deb aytadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, bolani tabiat bilan tanishtirishda unga hodisa yoki narsani ko'rsatishning o'zigina kifoya qilmaydi. O'rgatish jarayonida maqsadga muvofiq raxbarlik qilinishi zarur. Bu esa tarbiyachining bolaning idrokini yo'lga soladigan, diqqatini ko'rish va eshitishi muhim bo'lgan narsa va hodisalarga to'g'ri yo'naltiruvchi so'zlarida ifodalanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshida tabiatni o'rganish ko'proq ona tilini bilish bilan yaqindan bog'liqdir. Bu yoshda sezib idrok qilishdan ko'ra so'z bilan aytib idrok qilish mustahkam o'zlashtiriladi. Sezib idrok qilishda tabiat haqidagi hamma bilimlarni boshlang'ich manbai ekanligini doimo nazarda tutish kerak, aniqroq qilib aytganda, bolalar ongida haqiqatni aks ettirish faqat idrok qilish bilan bog'langan so'zlar yordamida hosil qilinishi mumkin.

Tushuncha - bu miyaning analitik-sintetik faoliyatining natijasidir. Tabiatdagi narsa va hodisalarning bir necha marta sezib idrok qilinishi, ularning boshqalari bilan taqqoslab ko'rilishi, ulardagi eng muhim belgilarning so'zlarda aks ettirilishi natijasida tushuncha hosil bo'ladi. Tushuncha bolalar faoliyatida o'yin va mehnatda o'zlashtiriladi va tekshirib

ko'riladi.

Tabiat vositasida bola shaxsini har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash. Bolalarning jonsiz tabiat hodisalari, o'simliklar va hayvonlar, inson mehnati haqidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytirish haqida boyitish, shuningdek, o'simliklar o'stirish, hayvonlarni parvarish qilishda bolalarda oddiy ko'nikmalar hosil qilish ta'lim berishning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bunda bolalarda kuzatuvchanlik, bilimga qiziqish, tafakkur va mantiqiy nutq rivojlanadi, so'z boyligi ortadi, yangi tushunchalar hosil bo'ladi.

Bolalarda mehnatni sevis, o'zgalar mehnatini qadrlash, o'simlik va hayvonlarni asrash, ularni parvarish qilish, o'z Vatanini, tabiatni sevis, tabiat go'zalliklarini ko'ra olish kabi hislatlarni o'stirish orqali tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat bilan yaqindan tanishtirmasdan turib, bolalarni jismonan rivojlantirish, nutq va tafakkurlarini boyitish vazifalarini amalga oshirish mumkin emas.

Tabiat bilan tanishtirishning bolalarni aqliy jihatdan o'sishiga ta'siri kattadir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda talim-tarbiya jarayonida ularning ongida atrofni o'rab olgan dunyo haqida hissiy tajribaga asoslangan aniq bilimlar hosil qilish muhimdir. Haqiqatni to'g'ri aks ettiruvchi bilimlar berilmasa, bolalarda tabiat haqida noto'g'ri tushunchalar hosil bo'ladi.

Tabiat vositasida tarbiya berish umumiy tarbiyaning bir qismi bo'lib, u o'z oldiga bolalarning yosh xususiyatlarini, bilish jarayonlari, qobiliyatlarini yaxshi bilgan holda tarbiya berishni vazifa qilib qo'yadi. Maktabgacha tarbiya ishida uning ko'p qirralari borki, bu pedagogika fani qonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadigan juda keng ijtimoiy hodisadir.

**Estetik tarbiya.** Yoshlarga estetik tarbiya berishdan maqsad - shaxsning estetik didi va idealini tarkib toptirish, tevarak-atrofdagi narsalarni to'g'ri qabul qilish qobiliyatlarini har tomonlama o'stirishdir. Estetik tarbiya bolaga did bilan tsiyinish, yurish-turish, mehnat qilish, omma orasida o'zini to'g'ri tuta bilish kabi hislatlarni singdiradi. Ayniqsa, ona tabiatni sevis va undan zavq olish, ya'ni go'zallikni his qilishni o'rgatadi. Gul va mevalarning hidi, shakli va ranglari, qushlarning sayrash, ariqlarda suvning jildirab oqishi, qishda qorning g'ichirlashi - bularning hammasi bolalarda tabiatdagi narsa va hodisalarni tasavvur etishga imkon beradi va ularda estetik hissiyotini tarbiyalashda va o'stirishda boy material bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti yoshidagi bolalarda bunday estetik tuyg'ularning o'sishi esa, o'z navbatida san'atni, hayotni, tabiatni

sevish, uni tushunish va o'rganish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Avval tabiat go'zalligini, so'ngra san'at go'zalligini his etish kerak. Tabiatdagi va san'atdagi go'zallik bilan tanishish bolaning aql-idroki va his-tuyg'ularini tarbiyalabgina qolmay, balki uning axloqini, aqliy xayol va fantaziyasini ham rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti yoshidagi bolani tabiat bilan tanishtirishda uni zavqlantirish, estetik his-tuyg'ularni hosil qilish oson ish emas. Uning tabiat go'zalliklarini ko'ra bilishi, ulardan bahramand bo'lishi, qalbida havas, qiziqish, hayajonlanish hislarining uyg'onishi uchun oylar, yillar kerak bo'ladi. Bolani estetik tarbiyalashni tabiatga sayohat, sayrlar yoki maktabgacha ta'lim tashkiloti hovlisidagi xushmanzara gullarni, chiroyli bog' hovlilarini kuzatish orqali amalga oshirsa bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat orqali estetik ruhda tarbiyalashni tabiatning istagai faslida amalga oshirish mumkin.

**Axloqiy tarbiya.** Axloqiy tarbiya deganda, yosh avlodni Vatanga, insonlarga muhabbat, ularning mehnatiga hurmat tuyg'ulari, intizomlilik, xulq-atvor madaniyati, tengdoshlar orasidagi do'stlik, tinchlik, inson harakterinyng irodaviy hislatlari hamda shaxsning ijobiy, axloqiy sifatleri, poklik, to'g'rilik, kamtarlik, xullas barcha olijanob hislatlarni mujassamlashtirish ruhida tarbiyalash tushuniladi.

Yosh avlodda bu hislatlarni kamol toptirish uchun tabiat vositasidan keng foydalanish kerak. Bu murakkab jarayon bo'lib, uzoq vaqt, kerak bo'lsa yillar davomida qilinadigan mexdatning mahsuli hisoblanadi.

Tabiat vositasida axloqiy tarbiya berish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti hovlilariga ekilgan gullarni parvarish qilish jarayonida har bir gulni, niholni asrash, uni parvarish qilish, gullarning tagini yumshatish, sug'orish, begona o'tlardan tozalash, shakl berish, o'g'it yoki go'ng solish kabi ishlarni bajarish jarayonlarini amalga oshirish mumkin. By yerda tarbiyachining ahamiyati katta. Masalan, tarbiyachi bolalarga gullarni parvarish qilayotganda ularning ham jonli organizm ekanligini, biz qanday nafas olsak, ular ham nafas olishini, biz qanday ovqatlansak, ular ham bizdek "ovqatni yaxshi ko'rishini", o'simlikning ovqati go'ng, o'g'it ekanligini, biz yuvinish, taranishni qanday yaxshi ko'rsak, gullar ham "yuvinishni", "taranishni" yaxshi ko'rishini va buning uchun gullarni tagini vaqti-vaqti bilan yumshatib, suv berib turish kerakligini, barglariga chang yuqtirmasdan yuvib, artib turish kerakligini o'rgatishi zarur. Shuningdek tarbiyachi bolalarga odamlar yorug'likni, quyoshni qanday yaxshi ko'rsa, gullar ham yorug'likni, quyoshni shunchalik yaxshi ko'rishini, shuning uchun ham ularni soya yoki qorong'i yerda saqlash mumkin emasligini

ularga uqtirishi zarur.

Tabiat vositasida bolalarga axloqiy tarbiya berishning yo'llari juda ko'p va xilma-xildir. Biz yuqorida faqat uning ba'zi birlarini eslatdik, holos. U ni har bir tarbiyachi o'z sharoiti, o'z milliy urf-odatlarini asosida amalga oshirsa, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Bolalarning o'simliklar o'stirish va hayvonlarni parvarish qilishda ishtirok etishlari ularda har bir ishda javobgarlikni his qilishga va mehnatsevarlikka zfgatadi.

**Jismoniy tarbiya.** Insonning ma'naviy shakllanishida, mazmunli hayot kechirishida jismonan soglom bo'lishining ahamiyati beqiyos kattadir. Xalqimiz "tani sog'lik - tuman boylik", "to'rt muchaling sog' bo'lsin" deb bekorga aytmagan. Bu naqlarning turli-tuman ma'nosi bor.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning organizmi juda tez rivojlanadi. Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasidan ma'lumki, bolalar 7-8 yoshgacha bo'yiga har yili 5 sm gacha o'sib, tana og'irligi 2-2,5 kg ga ortib boradi. Keyin esa biroz sekinlashadi. Bundan kurinib turibdiki, bolaning jismonan sog'lom o'sishini yoshlikdan ta'minlash kerak. Maktabgacha yoshidagi bolalarni jismonan sog'lom tarbiyalash uchun nimalarga e'tibor berish zarur? Bunda qanday tarbiya vositalaridan foydalanish kerak, degan haqli savollar tug'ilishi mumkin.

Bolalarni jismonan to'g'ri tarbiyalash uchun quyidagi shartlarga qat'iyo rioya qilish kerak:

- gigienik ko'nikmalar hosil qilib tarbiyalash (bino, hovli, jihozlar, kiyim-bosh, poyabzal gigienasi);
- tibbiyot xodimlarining doimiy nazoratida (sog'lig'i, antropolitik ma'lumotlari, fiziologik holati) bo'lish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarning kun tartibini tuzish (ovqatlanish, uyqu, o'yin, mashg'ulot, sayrlar, organizmni chiniqtirish).

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga tabiat vositasida jismoniy tarbiya berishda ochiq havoda sayr qildirish, tog' etaklari, daryo bo'ylariga sayohatga chiqish, shahar ichidagi istirohat bog'larida bo'lish, ular bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti hovlisida ishlash, harakatli o'yinlar tashkil qilish, o'simliklar va hayvonot dunyosi bilan tanishish, hayvonot bog'larida bo'lish kabilar bolani jismoniy tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti hovlisidagi gullarni parvarish qilish, tagini yumshatish, sug'orish, gulzorni begona o'tlardan tozalash, gullarga mineral va madaniy o'g'itlar solish kabi ishlar bolalarni ham mehnatsevarlikka, ham jismonan soglom bo'lib o'sishlariga yordam beradi.

Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda yer maydonchasi, maktabgacha ta'lim tashkiloti hovlisining mavjudligi katta ahamiyatga ega. Bola ochiq

havoda sayr etar ekan, nafas olish organlarining rivojlanishi bilan birga tanasining boshqa a'zolari mustahkamlanadi, sog'lom o'sishi uchun sharoit yaratiladi. Tabiat vositasida jismoniy tarbiya berishning turlari juda ko'p bo'lib, ulardan oqilona foydalanish kerak.

**Ekologik tarbiya.** Bolalarning ekologik tarbiyasi-pedagogikaning bolalarni tabiat bilan tanishtirish dasturlarida o'z ifodasini topgan an'anaviy yondashish, keyingi yillarda yuzaga kelgan yangi bir yo'nalishdir.

Voyaga yetayotgan avlodni ekologik tarbiya muammosi avvalambor hozirgi zamon olimlarining tabiat va jamiyatdagi o'zaro bog'liqliklarini diqqat bilan kuzatishlari natijasida kelib chiqdi. Hozirgi kunda inson va tabiatning o'zaro munosabatlar harakteri yer sharida hayotni saqlab qolish bilan bog'lidir. Ushbu muammolarning dolzarbligi, ekologik va biologik qonuniyatlarni hisobga olmagan holda tabiiy resurslardan foydalanish, sanoat ishlab chiqarishning tez sur'atlar bilan o'sib borishi va nihoyat, tabiatda inson faoliyati orqali yuzaga kelgan aniq ekologik xavf vujudga kelganligi bilan asoslanadi.

Olimlar tabiat jamiyat bir-biriga ta'sirning o'ziga xosligini tahlil qilish orqali, hozirgi zamon sharoitida tabiat va jamiyatning yangi turiga utishni ta'minlash kerak degan xulosaga keldilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyasi muhim ahamiyatga ega, chunki aynan shu yoshda informatsiyalarning 70% ni qabul qiladilar, ma'naviy madaniyatning bir qismi hisoblangan shaxsiy ekologik madaniyatning poydevor asoslari shakllanadi. Bolalarning ekologik tarbiyasi maqsad sari yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Shaxsni ekologik tarbiyalash, tabiatni muhofaza qilish munosabatlariga ijobiy yondashish, tabiat bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni amalga oshirishda ekologik muhofaza nuqtai nazaridan yo'naltirilgan intizom, ekologik ongning yuzaga kelishi bilan harakterlanadi.

Shaxsning ekologik madaniyati ekologik tarbiyaning natijasi bo'lib hisoblanadi. Maktabgacha yoshda bolaning shaxsiy ekologik madaniyatining tarkibiy qismi - tabiatni bilish bo'yicha bilim va uning ekologiya nuqtai nazaridan yo'naltirilganligi, kundalik turmush, turli-tuman faoliyatlarda: (uy sharoiti, mehnat jarayoni va turli xil o'yinlarda) foydalanishni tashkil qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayonda shaxsni ekologik tarbiyalash quyidagi faoliyat turlarini ochib berish orqali amalga oshirilishi mumkin.

1. Bolalarda ekologik ong elementlarini shakllantirish. Bola ekologik ong elementlarini tushunish va tasavvur etish, tabiat to'grisidagi

bilimlarning harakteri va mazmuni bilan aniqlanadi. Ularda, tabiiy hodisalarning o'zaro bog'liqligini namoyon qiluvchi ekologik mazmunga ega bo'lgan bilimlar bo'lishi kerak.

2. Bolalarda tabiat bilan bog'liq bo'lgan turli xil bilim va malakalarni shakllantirish, faoliyat bilan bog'liq bo'lgan harakatlar tabiatni saqlash harakteriga ega bo'lishi kerak. Tabiat bilan bog'liq holda olib borilayotgan aniq faoliyat davomida (dala hovli va tabiat burchaklarida o'simlik va hayvonlarga qarash, tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan ishlarda faol qatnashish) bolalar tirik organizmlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o'simlik va hayvonlar uchun tabiiy sharoitga yaqin bo'lgan aroitlarni tashkil qilishni o'zlashtiradilar. Bunda, salbiy ishlarning oqibatlarini oldindan ko'ra-bilish, tabiatda o'zini qanday tutishni bilish, aahida olingan turkumlar va tirik organizmlarning butunligini saqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

## **2. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan talablar.**

**Tayanch iboralar:** tarbiyachi tabiat bilan tanishtirish, bolalarni tabiat bilan tanishtirish, «Ilk qadam», har bir faslda, tabiatga faol va ehtiyotkorona munosabat.

**Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan talablar.** O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning IX sessiyasida so'zlagan "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" deb atalgan nutqida ikkinchi masala sifatida tarbiyachiga alohida to'xtalib o'tilgan. Prezident o'z nutqida tarbiyachilarning o'zlariga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmashligini alohida ta'kidlab o'tadi. Shu bilan birga bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining tabiatga doir bilimlarini tarbiyalanuvchilar o'rtasida samarali targ'ib etishlarida ularning ekologik madaniyatga ega bo'lishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Tarbiyalanuvchilarda tabiat bilan tanishish va unga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish bevosita tarbiyachinin zimmasiga tushganligi bois ham ularni tarbiyalanuvchilarni tabiat bilan tanishtirish ishiga tayyorlash bugungi kunda o'ta dolzarb masala sanaladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilaridan bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun tabiat haqidagi turli fan sohalaridagi katta bilim

zahiralariga ega bo'lishlari, ularning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishlari, aql sohasi(noosfera)ning imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishlari, tabiatda yuz beradigan predmet-hodisalar orasidagi aloqadorliklarni izoxlay olishlari talab etiladi. Ayniqsa, o'zi yashab turgan joy tabiati: fasl almashinuvlarini kuzata olishi, kalendar tuza olishi, o'simlik va gullarni ko'paytirish ko'nikmasiga egallashga o'rganishi muhim.

Bolalarda tabiatga faol va ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash maktabgacha ta'lim tashkilotida mavjud bo'lgan hayvon va o'simliklarni oziqlantirishga yordam beradi. Tarbiyachidan jonli tabiat burchagini tashkil etish, o'simlik va hayvonlar uchun ularning tabiatda yashashlariga yaqin shart-sharoitlar yaratishga oid bilim va malakalari talab etiladi. Bundan tashqari u maktabgacha ta'lim tashkiloti yer maydonchasi va tabiat burchagida o'simliklarni sug'orish va hayvonlarni boqishning agrotexnik usullari bilimini egallay olishi lozim.

Tarbiyachining namunasi bolalarda mehnat ko'nikmalarini tarbiyalashda hal etuvchi ta'sir ko'rsatadi. Bolalarda tabiat haqidagi bilimlarni shakllantirish jarayonida tarbiyachining o'zi tabiat go'zalliklarini ko'ra olishi va tabiatda go'zallik yaratish ishtiyoqiga ega bo'lishi katta ahamiyatga ega. Zarur bilim va ko'nikmalarni egallab qolmasdan, tabiat bilan tanishtirish shakl, metod va vositalaridan foydalana olishni ham o'zlashtirishi talab etiladi.

Kelajak avlodni barkamol kishilar qilib tarbiyalash shu kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada bolalarni tabiat bilan tanishtirish muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ishlayotgan tarbiyachilar oldida bolalarda tabiat go'zalliklarini ko'ra bilish, uni sevish, tabiatda yuz berayotgan voqea, hodisalar haqida to'g'ri tushunchalar hosil qilish, ularga ekologik ta'lim-tarbiya berishdek muhim vazifa turadi. Tarbiyachi eng avvalo o'zi tabiatni sevuvchi, jonli va jonsiz tabiat haqida aniq bilimlarga ega bo'lmog'i lozim.

Tarbiyachi bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun «Ilk qadam» dasturida berilgan tabiatga oid bilimlar bilan tanishib chiqqan va har bir yosh guruh uchun faoliyat markazlarida berilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi, pedagogik jarayonnini innovasion usulda tashkil etish malakasiga ega bo'lishi zarur. Tarbiyachi har bir faslda olib boradigan mashg'ulotlarni tashkil etishda turli tamoyillarga amal qilishi, tabiat haqidagi bilimlarini to'g'ri rejalashtirishda tabiat bilan tanishtirish ish shakllaridan foydalanish, yer maydonchasidagi o'simliklar, maktabgacha ta'lim tashkilotida guruh tabiat burchagini, umumiy tabiat burchagini tashkil etish tajribasini egallagan, tabiat burchagidagi hona

o'simliklari, akvariumda, terrariumda yashovchilarni parvarish qilish ko'nikmalarini, qafasdagi qushlar va mayda sutemizuvchilar bilan tanishtirishni to'g'ri yo'lga qo'yish tajribasini chuqur egallagan bo'lishi zarur. Tarbiyachi bolalarni yuqoridagilar bilan tanishtirib ularda tarbiya turlarini rivojlantirib borar ekan, ularning dunyoqarashini shakllantirib, jonli va jonsiz tabiatning xususiyatlarini o'rganib, ular haqida dastlabki tushunchalarni beradi.

#### **? Nazorat savollari**

1. Tabiat bilan tanishtirish metodikasining imkoniyatlari nimalardan iborat?

2. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda aqliy tarbiya qanday amalga oshiriladi?

3. Tabiatni estetik qabul qilishning ahamiyatini qanday tushunasiz?

4. Tabiat bilan tanishtirishda axloqiy tarbiyaning o'rni?

5. Tabiat bilan tanishtirish metodikasida jismoniy tarbiyaning mohiyati nimada?

6. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda, ularning ongini va ijodiy faolligini ustirishda tarbiyachining o'rni qanday?

## **III BOB.MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING MAZMUNI.**

### **III.1. Tabiat bilan tanishtirish tamoyillari**

### **III.2.Tabiatdagi ekologik bog'lanishlar haqidagi bilimlarni shakllantirish.**

### **III.3. Tabiat bilan tanishtirish dasturining mohiyati.**

#### **1. Tabiat bilan tanishtirish tamoyillari**

**Tayanch iboralar:** tabiat vositasida, bilish jarayonlari, qobiliyat, ekskursiya, ilmiylilik, bolalar yoshiga moslik, faslchilik, o'lkashunoslik, entsiklopedik, ko'rgazmalilik, oddiydan - murakkabga, yaqindan - uzoqqa, tanishdan-notanishga,

Tabiat vositasida tarbiya berish umumiy tarbiyaning bir qismi bo'lib, u o'z oldiga bolalarning yosh xususiyatlarini, bilish jarayonlari, qobiliyatlarini yaxshi bilgan holda tarbiya berishni vazifa qilib qo'yadi. Maktabgacha tarbiya ishida uning ko'p qirralari borki, bu pedagogika fani qonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadigan juda keng ijtimoiy hodisadir.

Biz bolalarni tabiat bilan tanishtirar ekanmiz. avvalo. pedagogika fanining asoschilarini aytib o'tgan fikrlariga asoslanamiz. G'arbning ilg'or pedagoglaridan Ya.A.Komenskiy bolalarga beriladigan bilim hayotiylikka va ko'rgazmalilikka asoslanishi kerak; - degan edi. Bolalarga tabiat orqali beriladigan bilimlar turlicha metod va usullar bilan olib boriladi va ekskursiya, sayr, ta'limiy o'yinlar orqali mustahkamlanib chuqurlashtiriladi.

Dasturning tabiat bilan tanishtirish bulimiga materiallar quyidagi tamoyillar asosida tanlanadi: Bolalarni tabiat bilan tanishtirish tamoyillari: Bolalar yoshiga moslik tamoyili; ilmiylik tamoyili; ko'rgazmalilik; o'lkashunoslik; faslchilik; ensiklopedik.

Bolalar yoshiga mos jonli va jonsiz tabiat haqida oddiy tushunchalar berish bolalarga beriladigan bilimlar oddiy bo'lishi bilan birga ilmiy aniq bo'lishi kerak. Masalan: o'simlikni yorug'likka, suvga, issiqlikka bo'lgan ehtiyoji.

Bolalarga beriladigan bilimlarning barchasi ko'rgazma asosida berilishi shart. O'z o'lkasi tabiati haqida chuqur bilim berish. Tabiatshunoslikning barcha sohaları (botanika, zoologiya, astronomiya) haqida bilim berish.

Yuqorida aytib o'tilgan tamoyillar bir-biri bilan bog'liq holda olib boriladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ilmiylilik tamoyiliga rioya qilinadi. Beriladigan tabiat haqidagi bilimlar ilmiy bo'lishi bilan birga bolalar tushunadigan bo'lishi zarur.

Masalan: Erta bahorda kunlar isiydi. Kunlar isigani sababli daraxtlar kurtak chiqaradi. Osmon ko'm-ko'k tus oldi biz endi boq'cha er maydonchasiga ekin ekishimiz mumkin.

Mana shunday oddiy misollar orqali bolalar aniq va ilmiy asosda tushunchalarga ega bo'ladilar.

Ilmiy tamoyil bolalar yoshiga mos bo'lsagina samarali natija beradi. Bu haqda Ya.A.Komenskiy shunday degan: *Oddiydan - murakkabga, yaqindan - uzoqqa, tanishdan-notanishga tomon borish kerak*. Bu tamoyillar dasturdagi tabiat bilan tanishtirish bo'limida o'z aksini topgan. Biz bolalarni tabiat bilan tanishtirishda bevosita o'zlariga yaqin bo'lgan, atroflarini o'rab turgan tabiat bilan tanishtirishdan boshlaymiz. Bolalarga avval boqchadagi daraxtlar so'ngra o'rmondagi daraxtlar haqida bilim beramiz. Demak, biz yaqindan-uzoqqa tomon degan qoidaga rioya qilishimiz zarur.

Biz bolalarga bilim berishda ularning avvalgi bilimlariga tayanamiz. Shundagina ular yangi bilimni chuqur o'zlashtirib oladilar. Bolalarga beriladigan bilim ilmiy, bolalar yoshiga mos bo'lsa-y, ular ko'rgazmasiz bo'lsa, bolalar yaxshi tushunmaydilar.

*Ya.A.Komenskiy shunday degan: «Avval sezgilarda bo'lmagan narsa, intellektida ham buliaydi».*

Shundan kelib chiqib hissiy tajribani bilish va o'rganish asosida quyidagi ko'rgazmalilik tamoyilini asoslab berdi. Ko'rgazmalilik faqat buyum, hodisalarni ko'rib idrok etish emas, balki ularni hamma sezgi organlarini jalb qilgan holda idrok qilishdan iborat. Bu didaktikaning oltin qoidasi hisoblanadi. Agar biror bir predmetni bir necha sezgi organlari bilan idrok qilish mumkin bo'lsa, shu narsani idrok qilish uchun bir yo'la bir necha sezgi organlarini ishga solish lozim. Agar o'rganilayotgan predmetni ko'rish imkonini bo'lmasa, ularning sur'atlari yoki modellariга murojaat qilish lozim. Demak, ko'rgazmalilik bolalarni abstrakt tushunchalarini real anglashga olib keladi.

Ensiklopedik so'zi grekcha so'z bo'lib, barcha fanlarni har tomonlama bilim olish, bilimlar yigindisi ma'nosida qo'llaniladi

Bolalar osmon jismlarini astronomiyadan, o'zi tug'ilib o'sgan shahar, qishloq, voha, daryo, tog'larning nomlarini geografiyadan; o'simliklar nomlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari botanikadan bilib boradilar.

Tabiatshunoslik bilimlarini oddiydan - murakkabga tizimli ravishda yaqindan - ya'ni o'z o'lkasi tabiatidan boshlab uzoq ya'ni boshqa o'lka

tabiatini tanish, o'rganish asosida amalga oshiriladi. O'z o'lkasi tabiati bilan tanishish bevosita bolani tevarak - atrof-dagi, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi yer maydonchasidagi o'simliklar, gullar, ko'chatlar, daryo va ko'l nomlari, tog'lar, yo'lda uchraydigan maysalar nomi, hayvonot olami; ya'ni bola kundalik hayoti davomida duch keladigan jonli va jonsiz tabiat bilan tanishishdan boshlash zarur. Shu tizim asosida ish tashkil etilsa, o'zga o'lkaning tabiati bilan tanishish yengil, oson kechadi.

## **2.Tabiatdagi ekologik bog'lanishlar haqidagi bilimlarni shakllantirish.**

**Tayanch iboralar:** ekologik muvozanat, ekologik madaniyat, konsepsiya, ahloqiy rivojlanishi, ekologik bog'lanishlar, axloqiy va estetik qarashlar, obodonlashtirish, ekologik tarbiyalash,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev hozirgi kunda aholi e'tiborini tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni va ularni samarali amalga oshirish ishini davlat siyosatining yo'nalishlaridan biri deb e'tirof etdi. Shu munosabat bilan 2019 yil 31 oktyabrda "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash" farmoni qabul qilindi.

Davrning o'ta dolzarb bu vazifasini ijobiy hal etish omillaridan bo'lgan aholi, xususan yoshlar o'rtasida tabiatga oid ta'lim – tarbiyani olib borish, uning samaradorligini ta'minlash, yoshlar ongida ekologik madaniyatini shakllantirishga erishish hozirgi zamon pedagogika nazariyasi va amaliyotida o'z yechimini ko'tarayotgan asosiy muammolardan biri sifatida talqin qilinadi. Chunki, mazkur muammoning ilmiy nuqtai nazaridan to'g'ri hal etilishi, birinchidan maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarining ona tabiatga muhabbatlarini uyg'otishga xizmat qilsa, ikkinchidan ularda ona – tabiat haqida bir qancha ma'lumotlarni bilib olish imkoniyatlarini boyitadi, eng muhimi ularni tabiat olamiga olib keladi.

Ekologik tushunchalarni shakllantirishda davlatimizning asosiy qomusi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50 – 54 – 55 moddalaridagi<sup>9</sup> ekologik me'yoriy normalarini ularning ongiga singdirish ularda ekologik immunitetni hosil qilish, iroda, burch, vijdon, ma'suliyat hissini qaror toptirish, tabiatga nisbatan ahloqiy munosabat, intilish, tabiatni sevish kabi his – tuyg'ularining shakllanishiga zamin tayorlaydi.

---

<sup>9</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси янги таҳрири. "Ўзбекистон" Т.: 2018 й.

Demak, ekologik tushunchalar har bir yosh guruhi bolalarida tabiat haqidagi tushunchalarini shakllantirish tarbiya jarayoning asosiy negizini tashkil etadi. Chunki, tarbiya katta guruh bolalarida shakllangan ong, histuyg'u va bilim butun bolalik faoliyatiga ularning tengdoshlari bilan o'zaro kattalar o'rtasidagi munosabatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Demak, insonning hayoti uchun zarur bo'lgan narsalarning barchasi tabiatda joylashgandir. Shuning uchun ham bola shaxsini shakllanish davridagi taraqqiyoti bevosita tabiat bilan bog'liqdir. Tabiatni asrash, qo'riqlash, tejamkorlik bilan inson ehtiyojlarini qondirish azal – azaldan insoniyat zimmasiga juda katta ma'suliyat yuklagan. Har bir jamiyatda muqaddas zaminni, aziz Vatanni asrash, uning kelajagi uchun qayg'urish, har bir kishi uchun ham qarz, ham farz bo'lgan. Tabiat va inson bilan bog'liq ekologik muammo doimo dolzarb bo'lib kelgan.

Shuni aytish kerakki, maktabgacha tarbiya yoshi bu shaxsning dastlabki qaror topishi davridir. Olti yoshlarda bola shaxsining yo'nalishi uning ahloqiy rivojlanishi darajasining ko'rsatkichi sifatida yetarlicha aniq ko'zatiladi. Shuni unutmazlik kerakki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari katta yoshdagi guruh bolalarida tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirish ikki yoqlama jarayondir. Bir tomondan, u bolalarga kattalar ota – onalar tarbiyachilarning faol ta'sirini, ikkinchi tomondan esa tarbiyalanuvchilarning faolligini (bu ularning hatti – harakatida his – tuyg'u va munosabatlarida ko'rinadi) ko'zda tutadi.

Tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirish qoidalari ahloqiylikning o'zagini tashkil etadi. Bu norma va qoidalar kishilarning hatti – harakatlarida, ularning hulq – atvorida namoyon bo'lib, o'zaro ahloqiy munosabatlarini boshqaradi.

Vatanga muhabbat, jamiyat baxt – saodati uchun fidokorona mehnat qilish, natijada o'zaro yordam, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirish bu bolaning ongi, his – tuyg'usi, hulq – atvori kabi xususiyatlaridan iborat bo'lib, ularning ildizi bevosita maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan bog'liq.

Bolaning ekologik jihatdan kamol topishida jamiyat hayoti jarayonida paydo bo'lgan va rivojlanib boyib, avloddan – avlodga o'tib borayotgan suvni, tabiatni asrash kabi insoniy qadriyatlarini egallash muhim ahamiyatga egadir.

5 – 6 yoshli bolalar tabiat haqidagi tasavvur va tushunchalarning mazmuniga kiruvchi ob'ektlarni yaxlit holda idrok etish, esda olib qolish hamda bu tushunchalar haqida fikr va mulohazalar yuritish o'ziga hos individual yondashishni taqozo etadi. Tabiat hodisalarini, voqealarini

bevosita tasvirlab aks ettirgan rasmlar, o'yinchoqlar tabiat mavzudagi o'yinlar, ob – havoni kuzatish, tabiatga sayohat kabi shakllarda o'tkaziladigan tabiatga oid tasavvur tushunchalarini shakllantirish mumkin.

Tabiatdagi ekologik bog'lanishlar haqidagi tushunchalarni shakllantirish tabiat bilan inson o'rtasidagi aloqadorlikni ilmiy jihatdan izohlaydigan bilimlar orqali tegishli ko'nikma va malakalarni izchil hosil qilish orqali amalga oshadi. Shuning uchun ham maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirishda teatrlashgan syujetlar, didaktik o'yinlar, badiiy kechalar, tabiatga oid maqollar, topishmoqlar, hadislar, xalq – og'zaki ijodi, urf – odatlar, baxs – munozaralar, ertaklar, she'rlar, rivoyatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birgalikda "O'zbekiston mening Vatanim", "Daraxt ekib bog' yarat", "Tabiat mening Vatanim", "Yaxshidan bog' qoladi", "Tabiat in'omlari", "Voqea joyidan reportaj", "Jonajon o'lkam tabiati", "Sen tabiatni qanday sevasan", "Tabiat mening rizq – ro'zim", "Tabiat mening borlig'im", "Jajji ekologlar", "Shaxrimizdagi ekologik muammlar" kabi mavzularda tarbiyaviy tadbirlar bolalarda ekologik tushunchalarni shakllantirishga zamin yaratadi.

Bolalar bilan suhbatlar, mashg'ulotlar, turli didaktik o'yinlar ularni tabiat boyliklarining qadriga yetish, asrab – avaylash haqidagi tushuncha va tasavvurlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda tabiatga muhabbat hissini shakllantirishga qaratilgan jarayonlar oilada oila muhiti, ijtimoiy muhit, irsiy omillar, biologik omillar, tarixiy an'analar, milliy g'oya va mafkura, ta'lim – tarbiya, allomalarning fikr – mulohazalari, bolalarning yosh xususiyatlari, tarixiy davrlar asosiy o'rin egallaydi.

Bolalarda o'simlik va hayvonlar haqida, tabiatdagi mavjud bo'lgan zahiralarning inson uchun ahamiyatli tomonlarini anglash ularda tabiatga oid tushuncha va tasavvurlarni hosil qilish bilan birga, bilim va ko'nikmalarni tarkib toptirishning o'ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi. Hususan bolalar ongida tabiat haqidagi tushunchalar ko'proq o'yinchoqlar, rasmlar, tabiat manzaralari, ob – havoni kuzatish, rasm chizish, ekologiyaga oid didaktik harakterdagi tadbirlar orqali izchil singdirib borishni taqozo etadi. Bu yoshdagi bolalar uchun xalq ertaklari qo'shiqlari, ekologiyaga oid maqollar orqali tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirishni ijobiy samara beradi.

Hususan davlatimiz ramzi bo'lgan gerb, bayroq va ularning mazmunida o'z aksini topgan ranglar, bo'yoqlar, qushlar, yulduzlar va o'ning tabiatga moslab berilgan tasviri bolalarda ona vatanga, tabiat go'zalligiga, koinot

jismlari bilan odamzot o'rtasidagi aloqadorlikning mohiyatini anglash, hodisa, tasavvur va tushunchalar hosil qiladi. Odamzot o'rtasidagi aloqadorlikning mohiyatini anglash, hodisa, tasavvur va tushunchalar xosil qiladi.

Biz tajriba-sinov ishlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tematik kechalar, adabiy-musiqiy kompozitsiyalar, ko'rik-ko'rgazmalar, festivallar tashkil etdik. Jizzax tuman maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Gullar bayrami", "Tabiat in'omi", "Qushlar bayrami", "Qovun sayli", "Xosil bayrami", "Yosh tabiatsevarlar" ko'rik tanlovi o'tkazildi. Bu tadbirlar katta yoshdagi guruh bolalariga ekologiya haqidagi tushunchalarni shakllantirishga ta'sir qildi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ba'zi bir tarbiyachilar ekologiyaing ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, axloqiy mohiyatini to'liq tushunib yetmaydilar, oqilona foydalanish yo'llari haqida xali to'liq tasavvurga ega emaslar. Tabiat bilan insonning uyg'unligi haqidagi bilimlari yetarli darajada emas.

Ba'zi bir tarbiyachilar esa tabiatni muhofaza qilish, uni sevisht, atrof-muhitni toza saqlash, tabiatni boyitishga hissa qo'shish kerakligi haqida tushunchaga egalar, lekin o'z faoliyatlarida bunga xar doim xam amal qilavermaydilar. Shunga ko'ra, bolalarga ekologik tushuncha berish, uning tasavvurlarini e'tiqodga aylantirish va o'z faoliyatida rioya etishga ko'proq axamiyat berishi kerak.

O'quv yilining boshida xar bir guruh tarbiyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mavzular aniqlanadi, ulardagi katta yoshdagi guruh bolalarida ekologik bilim beruvchi g'oyalar aniqlab olinib va mashg'ulot ishlanmalari dastur mazmuniga kiritiladi. Mashg'ulot jarayonida bolalarning ekologik bilimini shakllantirishga doir mavzularni o'rganish metod va shakllari ishlab chiqiladi. Mashg'ulotlarda bolalarga faqat u yoki bu mavzuda ekologik tushunchalar berish bilan cheklanib qolmay, o'rganilayotgan mavzular mazmunidan kelib chiqqan holda bolalarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'llovchi savol va topshiriqlardagi tasviriy san'at asarlaridan foydalaniladi. Bolalarning fikr va mulohazalari kichik ijodiy ishlarida og'zaki bayon etishda amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlarda olgan bilimlari mustaqil egallash uchun tavsiya etilgan rasmlar, ko'rgazmalar ustida olib boriladigan suhbatlar mustaxkamlanadi. Shuni aytish kerakki ekologik tushunchalar – bu ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishdan iborat. Shunday ekan, tarbiyachilar avvalo xar bir mashg'ulotda beriladigan ekologik tushunchalar haqidagi mashg'ulotni to'liq o'zlashtirishlari

maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ular quyidagi bilimlarni egallashlari lozim:

1. Tabiatni asl holatini saqlash va muhofaza etish.
2. Tabiat qonuniyatlari va tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishning asosiy shartlarini bilish.
3. Tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish tasavvuriga ega bo'lish va boshqalar.

Buning natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ekologik ong shakllanadi. Atrof-muhitni anglash darajasi rivojlanadi. Bu esa dunyo haqidagi ob'ektiv bilimlarni egallash unga to'g'ri munosabatlar bildirish, taxlil qilish imkoniyatlari kengayadi.

Bola tabiatdan olgan muayyan bilimlarga ega bo'lganda va tabiat hodisalarini yetuk estetik his qilgandagina u bilan ijobiy munosabatga krishib, uni yanada go'zal ekanligini tushunib yetadi.

Bolada tabiatga muxabbat uni tushunishning asosida tabiatdagi hayotning yuksak go'zalliklarini anglagan, tabiat bilan munosabatga kirishgan, u bilan qo'shib ketgan bir paytda boshlanadi. Ana shu paytda tabiatga munosabat shu darajaga yetadiki, u bola shaxsi madaniyatining muhim belgisi bo'lib qoladi.

Bunda obodonlashtirish, ko'chat-daraxtlar ekish va ularni nazorat qilish; qushlar va hayvonlar uchun uya va in qurish; buloq, ko'l va ariqlarni axlat va chiqindilardan tozalash; tuman xududiga yaqin joylashgan qishloq yoki shaxar atrofidagi va boshqa ishlarda birgalikda mehnat qilishga bolalarni diqqatini jalb qilish muhim ahamiyatga egadir.

Bunday ishlar natijasida bolalarda tabiat bilan bog'liq zarur ekologik, xuquqiy, axloqiy va estetik qarashlar shakllanadi. Ularda insonning tabiatdagi o'rni, ona shaxri yoki qishlog'i uchun tabiat muhofazasi borasidagi faoliyatning ahamiyatini, yer va xavo, ko'l-daryolarni toza saqlash masalalarini xalq etish hayotiy dolzarb ekanligi haqidagi tushunchalar kamol topadi.

Aynan bolalarning tabiatni muhofaza etish borasida maqsadga yo'naltiruvchi amaliy faoliyati individual ekologik ongining shakllanishida zaruriy shart hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik ta'lim va tarbiyaning muhim masalalari "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida amalga oshiriladigan faoliyat markazlarida tashkil etiladigan mashg'ulotlar orqali o'z aksini topadi. Bu dolzarb masalani yanada takomillashtirishda maktabning boshlagich ta'lim maktablarida tabiatshunoslik, botanika, zoologiya, biologiya, geografiya va boshqa fanlardan dastlabki bilimlarni shakllantirish lozim.

Tarbiyachi o'z ishini shunday tashkil etishi kerakki, u bolalar uchun ibrat bo'lsin. Tarbiyachi bolalar bilimini yangi tushunchalar bilan boyitishi, o'rgatiladigan materiallarni ham, uni tushuntirish shaklini xam biroz murakkablashtirib borgan holda ekologik tarbiya berishni yanada kengaytirish kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiatni muhofaza etish borasidagi amaliy faoliyati bilan uzviy bog'lash va to'ldirish maqsadga muvofiq. Masalan, xonalarda o'stirilgan o'simliklarni parvarish qilish, maktabgacha ta'lim tashkiloti hovlisini tozalash, obodonlashtirish, bog'-rog'larga ishlov berish kabi ishlar bilan mashg'ul bo'lishlarini ta'minlash zarur.

Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti yer maydonchasini ko'kalamzorlashtirish, hayvonlarni parvarish qilish ularni foydali tomonlarini tushuntirish, ekilgan nihol daraxtlarini parvarish qilish, obodonlashtirish ishlarida ishtirok etish, tabiatni himoya qilish kabilar ekologik tushunchalarni amaliy ifodasi hisoblanadi.

Inson va tabiat o'zaro munosabatlarining xaqiqiy qulay shakllari tabiat va jamiyat borasida g'amxo'rlik ko'rsatiladigan jamiyatdagina mavjud bo'la oladi. Bunday jamiyatda ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiatni muhofaza etish maqsadlari o'rtasida hech qanday zaruriyat bo'lmaydi. Atrof-muhitni muhofaza etish uchun kurashish, so'zsiz mustaqil respublikamizdagi xar bir bolaning burchiga aylanmog'i lozim. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bolalarning tabiat haqidagi tushunchalarini shakllantirish nixoyatda muhim. Chunki, maktabgacha yoshdagi bolaning tabiat bilan muloqoti unda axloqiy sifatlarni shakllantirib tarbiyalab boradi. Bolalarning tabiat bilan muloqoti rivojlanadi. Uning qonunlari, qadriyat va go'zalligi haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Buning natijasida ularda tabiatga – ezigulik, mehr-muruvvat, hamdardlik va boshqa fazilatlar kamol topadi.

Aslida bolalar xar bir sohada kattalardan ibrat olishadi. Katta yoshdagi kishilarning ijobiy hatti-harakati va ibrat so'zlari, tabiatga bo'lgan amaliy oqilona munosabati bolalar uchun saboq bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachilar bolalarga hayvonlarni boqish, ko'paytirish, dorivor o'tlar va o'simliklarni yig'ish, atrof-muhitni, ish joyini toza tutish va boshqa masalalarda o'rnak bo'lishlari kerak.

Bolalarning tabiat sirlarini tobora chuqurroq bilish va ekologik tushunchalarni shakllantirishni rejalashtirish, shunga doir tushuncha va asosiy g'oyalarni aniqlash; mashg'ulotlarni tashkil etishda metod va vositalarni belgilash; qay darajada o'zlashtirish bo'lganligini hisobga olish va natijasini aniqlashi lozim.

Bolalarni ekologik tarbiyalash – bu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Maktabgacha yoshda insonning ekologik madaniyatining asoslari umumiy ma'naviy madaniyat tarkibiga kiradi.

Maktabgacha yoshdagi shaxsning ekologik madaniyatining tarkibiy qismlari tabiat va uning atrof-muhitga oid yo'nalishi to'g'risidagi bilim, ularni haqiqiy hayotda, xatti-harakatlarda, turli xil faoliyatlarda - o'yinlarda, mehnatda va kundalik hayotda foydalanish qobiliyatidir.

Maktabgacha ta'lim tizimida ekologik bilimli shaxsni tayyorlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Bolalarda tabiat to'g'risidagi bilimlarning mazmuni va mohiyati bilan belgilanadigan ekologik ong elementlarining shakllanganligi. Bu tabiiy hodisalarning o'zaro bog'liqligini bilishini aks ettiruvchi ekologik bilim bo'lishi kerak.

Turli tabiiy faoliyat jarayonida bolalarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Amaliy faoliyat jarayonida; bolalar o'simliklar va hayvonlarni parvarish qilish, o'simliklar va hayvonlar uchun ularning tabiiy sharoitlariga yaqin muhitni yaratishni o'rganadilar, ularning ehtiyojlarini tushuna boshlaydilar. Bolalar salbiy ishlarining oqibatini oldindan tushunishni, o'zlarini tabiatda to'g'ri tutishni, alohida organizm va tizimga to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rganishlari kerak.

Tabiatga insoniy munosabatni tarbiyalash. Tabiatga bo'lgan insonparvar, kognitiv, estetik munosabat - bola o'zlashtirgan bilimlarning mazmuni bilan chambarchas bog'liqdir. Ekologik bilimlar bolalarning tabiatdagi xatti-harakatlari va faoliyatini tartibga soladi va yo'naltiradi. Tabiatga munosabatni shakllantirishda bolalarning tushunchasiga ega bo'lgan uning qonunlarini bilish alohida o'rin tutadi.

Tabiatga munosabatning rivojlanishi turli xil hayotiy vaziyatlarda bolaning axloqiy tajribalariga asoslangan pedagogik jarayonning maxsus tashkil etilishi bilan chambarchas bog'liq. Tarbiyachi bolalarda tirik mavjudotga nisbatan mehr-muhabbatni, tabiat bilan tanishishdan hayratlanishni, to'g'ri ishlarni amalga oshirishdan g'ururlanishni, vazifani bajarishdan qoniqishni uyg'otishi kerak.

Bolalarni tabiat bilan aloqa qilish jarayonida ularning harakatlarini ham, tengdoshlari va kattalarning harakatlarini ham baholashga o'rgatish bir xil darajada muhimdir.

Ekologik ta'lim jarayoni barcha muammolarni birdamlik va o'zaro bog'liqlikda hal qilishni talab qiladi. Ekologik ta'lim vazifalarini amalga oshirish, agar tarbiyachining o'zi ekologik madaniyatga ega bo'lsa va ushbu faoliyatga tayyor bo'lsa, amalga oshiriladi.

Ma'lumki, ekologik ta'limning mohiyati har bir inson tomonidan tabiatni anglash, uning beqiyos qiymatini va go'zalligini anglash qobiliyatiga ega bo'lish, tabiat Yer yuzidagi barcha hayotning asosi ekanligini tushunishdan iborat.

Ko'pgina olibirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'p odamlar ma'lum e'tiqodlarni bolaligidanoq o'rganadilar, ya'ni ular olingan ma'lumotlarni tanqidiy aks ettirishdan oldin. Kattalar ta'siri ostida bolalar hissiy e'tiqodlarini rivojlantiradilar. Keyinchalik, 8 yosh va undan katta yoshdagilar uchun, bu imtiyozlar allaqachon o'zgarishi qiyin bo'lgan qat'iy stereotiplarga qo'shiladi. Boshqacha qilib aytganda, tabiatga mehr-muhabbat, har bir insonning ongli, g'amxo'rligi va unga bo'lgan qiziqishi oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalikdan tarbiyalanishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalar orasida ekologik madaniyatning dastlabki asoslarini shakllantirish ekologik ta'lim tizimini rivojlantirishni talab qilishi aniq. Mamlakatimizda bunday tizimning asosiy elementlarini yaratish bo'yicha muayan harakatlar aholining turli guruhlarini ekologik jihatdan tarbiyalash bo'yicha davlat dasturlari shaklida va turli jamoat tashkilotlarining faoliyati shaklida amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, bu jarayon sekin amalga oshmoqda va takomillashtirilishi zarur. Ekologik ta'lim tizimi muayan tarkibni, ish usullari va shakllarini o'z ichiga oladi, shuningdek, bolalarning tabiiy ob'yekt bilan doimiy aloqada bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni talab qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalash muammosining yechimi, agar kattalar orasida ekologik xabardorlik bo'lsa, maktabgacha tarbiya tizimi pedagoglarining bolalarni ekologik ta'limi bilan shug'ullanishi, ota-onalar o'rtasida ekologik bilimlarni targ'ib qilish va ularni birgalikda ishlashga jalb qilinsagina bo'ladi.

Tabiat bu nafaqat sog'liq va estetik zavq manbaidir, balki insoniyatning qadimiy qudratli bilim manbai. Biz bolalarni tabiatni sevisgga, hurmat qilishga va himoya qilishga o'rgatishimiz kerak, lekin avvalo uni o'zimiz sevishni o'rganishimiz kerak.

Maktabgacha yosh davri, bolaning rivojlanishidagi eng muhim bosqichdir.

Bu boshlang'ich ijtimoiylashuv, umumbashariy qadriyatlar dunyosi bilan tanishish, borliq va odamlar bilan birinchi munosabatlarni o'rnatish davri. Ota onalar va pedagoglar maktabgacha yoshdagi bolalarni o'z hissiyotlarini boshqarishni o'rgatishlari, ular kelajak hayotlarida yuz kelishlari mumkin bo'lgan muammolariga tayyorlab borishlari juda muhimdir. Lekin bolalarda mo'jizalarga nisbatan ishonchlarini so'ndirish

aslo mumkin emas. Albert Eynshteynning yozishicha: “biz his qiladigan eng ajoyib narsa bu sirlilikdir. U har qanday san’at va fanning xaqqoniy asosi hisoblanadi. Xech qachon bu tuyg’uni boshdan kechirmagan, to’xtash va o’ylashni bilmaydigan, zavqni bilmaydigan kishi o’lik kishiga o’xshaydi...”

Bolalarga ekologik ta’lim va tarbiya beradigan maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi ekologiyada qo’llaniladigan konseptual apparatlarga ega bo’lishi, ekologiya asosiy qonunlaridan xabardor bo’lishi va ularni maktabgacha tarbiyalanuvchilar e’tiboriga yetkazish imkoniyatiga yega bo’lishi kerak. Bundan tashqari, u inson anatomiyasi va fiziologiyasining asoslarini bilishi kerak, chunki turli xil atrof-muhit omillari tanaga sezilarli ta’sir ko’rsatadi.

Ma’lumki, ekologiya tabiat va jamiyatdagi ko’p darajali tizimlarning tashkil etilishi va ishlashi va ularning o’zaro bog’liqligi haqidagi fandir. Boshqacha qilib aytganda, ekologiya predmeti boshqa tirik organizmlarning tirik organizmlariga va jonsiz tabiatga ta’sirini o’rganishdir. Tirik organizmlarga ta’sir qiluvchi atrof muhit faktorlari, ekologik nomini oldi. Shunday qilib, ekologik omil - bu tirik organizmlarga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko’rsatadigan har qanday ekologik holat.

Atrof-muhit omillari uch toifaga bo’linadi:

- a) abiotik - jonsiz tabiat omillari;
- b) biotik - jonli tabiat omillari;
- v) antropogen - inson faoliyatining omillari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalash va o’qitish bolalarning tirik o’simlik dunyosi vakillari bilan muloqot qilish, go’zalligini ko’rish va tushunish, ijodiy faoliyatda o’zini namoyon qilish zarurligini shakllantirish qanchalik muhimligi haqida gapiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatini rivojlantirish jarayonini shartli ravishda 3 bosqichga ajratish mumkin:

1. 3-4 yoshli bolaning rivojlanishining birinchi (ularning asosiy - poydevori) bosqichi uning atrof-muhit sharoitlarini kuzatish va tarbiyachining tushuntirishlari bilan atrof-muhitga yo’naltirilgan shaxsiy tajribaga ega bo’lishi bilan bog’liq; tarbiyachi tomonidan tavsiya etilgan xulq-atvor qoidalarining bajarilishi, hayvonot va o’simlik dunyosi vakillari bilan aloqa va estetik zavqlanishning hissiy tajribalari, tabiatning go’zalligi va og’zaki hikoyalar, rasmlarda o’zlarning taassurotlarini ijodiy mujassamlashi (odamlar yaxshi-yomon darajasida) faoliyatining dastlabki baholari; ekologik bilimlarga ehtiyoj hissi; buyum foydalanadigan narsani qadrlash va boshqalar; atrof muhitni yaxshilash bo’yicha kattalar faoliyatini va unda o’zlarining ishtirokini monitoring qilish.

## **Maktabgacha ta'lim tashkilotida ekologik madaniyatni shakllantirishning birinchi bosqichida shakllangan ko'rsatkichlar:**

- Bola dunyodagi hodisalarga, odamlar, o'simliklar, hayvonlarning yashash sharoitlariga qiziqishni bildiradi. Ularning ahvolini «yaxshi - yomon» pozitsiyasidan baholashga harakat qila boshlaydi;

- Ekologik yo'naltirilgan faoliyatlarda ishtiyoq bilan ishtirok etadi;

- Go'zallikni ko'rganida hissiy jihatdan ta'sir qiladi va o'z his-tuyg'ularini ijodning mavjud shakllarida (kompozitsiya, hikoya, rasm, modellashtirish va boshqalar) yetkazishga harakat qiladi;

- Ko'chada, transportda, xiyobonlarda sayr qilayotganda xulq atvor madaniyatiga amal qilisha harakat qiladi;

- Yordamga muxtoj odamlar, hayvonlar va o'simliklarga yordamga shoshishni boshlaydi; atrof muhitga zarar yetkazmaslik uchun o'zini nazorat qilishni boshlaydi.

2. 4-5 yoshdagi bolalarning ekologik madaniyati rivojlanishidagi miqdoriy jihatdan yangi bosqichi bo'lib, shaxsiy tajribada quyidagi yutuqlar bilan bog'liq: oddiy kuzatuvdan tahliligacha (nima uchun "yaxshi" va nima uchun "yomon"); muayan vaziyatda ularning harakatlari va xatti-harakatlarining boshqa odamlarning harakatlari va ularning tabiatga ta'siri bilan o'zaro bog'liqligi; o'z kashfiyotlari - atrof-muhit ehtiyojlarini izlash va qondirish; atrofdagi narsalarga hurmat; oddiy kuzatuvdan kuzatish-tahliligacha (nima uchun «yaxshi» va nima uchun «yomon») ijodiy faoliyatda ishtirok etish (qushlarni boqish va boshqalar); muayyan vaziyatda ularning harakatlari va xatti-harakatlarining boshqa odamlarning harakatlari va ularning tabiatga ta'siri bilan o'zaro bog'liqligi; o'z kashfiyotlar - atrof-muhit ehtiyojlarini izlash va qondirish; atrofdagi narsalarga hurmat; ijodiy faoliyatda ishtirok etish (qushlarni boqish va boshqalar).

## **Ikkinchi bosqichda bolalardagi ekologik madaniyat ko'rsatkichlariga quyidagilar qo'shiladi:**

- Bolalarni atrofdagi narsalarni taxlil qilishga nisbatan qiziqish ortadi;

- Kattalar bilan bajariladigan ishlarda mustaqillik va ijodkorlikni namoyon qilishda;

- Hayvonot va o'simlik dunyosi vakillari bilan aloqa, ulardan zavqlanish o'rniga, ularga ko'proq g'amxo'rlik qilish orqali yuzaga keladi;

- Bir qator ekologik qoidalarni amalga oshirish.

3. So'nggi uchinchi bosqichda bolaning allaqachon to'plangan shaxsiy tajribasini o'rganish tavsiya etiladi va yangi tarkib bilan to'ldiriladi, atrof-muhit holatini kuzatish tahlili va uning holatini yaxshilashga hissa qo'shiladi; atrof muhitda o'zini tutish normalari va qoidalariga ongli

ravishda rioya qilish; hayvonlar va o'simliklar dunyosi vakillariga haqiqiy g'amxo'rlik; ilgari olingan bilim va ko'nikmalarni ekologik yo'naltirilgan faoliyatda qo'llash; turli xil ijod turlari yordamida dunyo haqidagi taassurotlarini ifodalash.

**Kattalar bola rivojlanishning ushbu bosqichida bolaning qabul qilish va tushunishga tayyorligi, ekologik madaniyatini assimilyasiya qilish ko'rsatkichlari quyidagicha baholanishi kerak:**

- Atrof muhitda o'zini tutish qoidalariga amal qilish;
- Jamoat joylarida o'zini boshqarish;
- Hayvonot va o'simlik olamiga g'axo'rlik;
- Ekologik faoliyat ob'yektini mustaqil tanlash (qushlarga don berish, gullarga suv quyish va x.k.);

- atrofda hayvonlar, qushlar, odamlar va o'simliklarga mehr, e'tibor, muhtojlarga har qanday beg'araz yordam ko'rsatishga tayyorlik.

Ekologik ta'lim dasturi va bir nechta didaktik o'yinlar, diagnostik o'yinlar, diagnostika va maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot ishlanmalarini taqdim etiladi.

### **O'rta guruh uchun “Nima uchun suv toza bo'lishi kerak ?” mashg'ulot ishlanmasi**

**Dasturning mazmuni.** Bolalarga suv va uning xususiyatlari to'g'risida ma'lumot berish.

So'zlarini rivojlantirish: *qor, muz, bulut, ariq, yax va x.k.*

Suvni extiyot qilishni o'rgatish.

#### **Kerakli jihozlar**

Topshiriqlar yozilgan tomchi shaklidagi kartochkalar; rasmlar, kartochkalar (topshiriqlar javoblari); vatman (kartograf); xalqalar; suv filtrlari “Akvafor”; o'yin uchun musiqa; o'simlik va hayvonot olami tushirilgan rasmlar.

**Boshlang'ich ish.** Tabiiy holda suvning turli namoyish bo'lishini kuzatish.

#### **Mashg'ulotning borishi**

*Bolalar birma bir chelakchadan topshiriq yozilgan tomchi shaklidagi kartochkalarni oladilar, pedagog ularni o'qib beradi. Masalan qor, muz, yomg'ir, muz-sumalak, daryo haqidagi topishmoqlar yoki muammoli masalar aytadi.*

*Bolalar kartografga topshiriqning javobi shaklidagi kartochkalarni yopishtirib chiqadilar.*

**Tarbiyachi.** Javoblarimizning barchasini nima birlashtiradi? Sizlar bilan bugun nima xaqda gaplashamiz?

**Bolalar.** Suv haqida!

**Tarbiyachi.** Nima deb o'ylaysiz, suv bizga nima uchun kerak?

*Bolalarning javoblari.*

To'g'ri. Odam suvsiz yashay olmaydi: u ichadi, ovqat tayyorlaydi, yuvinadi va o'yini tozalaydi. Shahar ko'chalari va avtoulavlarni yuvish ham suvni talab qiladi. Zavod va fabrikalar katta miqdorda suvdan foydalanadi. Masalan, bir tonna qog'oz olish uchun sizga 250 tonna suv kerak bo'ladi. Odamlarga juda ko'p suv kerak. O'yla ko'ring va ayting-chi, yana kim suvsiz yashay olmaydi?

**Bolalar.**

- Baliqlar.
- O'simliklar
- Tiriklik!

**Tarbiyachi** (*suv havzalari oldidagi o'simlik va hayvonlarning rasmlarini ko'rsatadi*)

Ilar bir inson toza suvga muhtoj. Ammo toza suv kamayib boradi. Bunga xalqning o'zi aybdor. Fabrikalar va zavodlarning chiqindi suvlari, shuningdek kundalik hayotda ishlatiladigan suv daryo va ko'llarga birlashadi. Barcha tirik jonzorlar suvning ifloslanishidan aziyat chekmoqda. Daryo va ko'llarda o'simliklar va hayvonlar, avvalgidek yashamaydi. Kontaminasiya inson salomatligi uchun zararli. Ammo iflos suvni filtr bilan tozalash mumkin (Akvafor filtrlarini ko'rsatadi). Ammo bu kichik filtrlar. Biz ularni kvartiramizda ishlatamiz. Ammo zavod va fabrikalarda ular yirik tozalash inshootlarini qurishadi.

Shuning uchun suvni ehtiyot qilishimiz kerak. Biz uni qanday qilib ehtiyot qilamiz?

*Bolalarning javoblari. Tarbiyachi kartografda bolalarning javoblarini belgilaydi.*

**Fizdaqiq**

**“Tomchilar va bulutlar” o'yini**

Xalqalar polga yoyiladi (bolalar sonidan kam). Bular bulutlar. Barcha bolalar tomchilar. Musiqa chalinayotganda, bolalar guruh atrofida erkin harakatlanishadi. Musiqa to'xtashi bilan har bir «tomchi» biron bir «bulut» ni egallashi kerak. «Bulutlar» yetarli bo'lmagan «tomchi» bug'lanib ketdi. O'yin 2-3 marta davom etadi.

**Tarbiyachi.** Barchangiz suyuq suvni bilasiz. Yana qanay suv bo'ladi?

**Bolalar.** Qor!

- Muz!

**Tarbiyachi.** Barakalla! Muzlagan suv – muz bo'ladi. Muz qattiqmi yoki suyuqmi?

*Bolalarning javoblari. (muz haqidagi bilimlarini eslash.)*

Suv gaz holatidadir. Bu bug', bulutlar yoki tumanga aylanadi. Tuman ertalab o't o'lan va shudringga tushadi. Biz nafas olayotgan havoda ham suv bor. (Bolalar oyna bilan bo'lgan tajribani eslaydilar.)

*Yakunlash. Mashg'ulotni baholash.*

## **Katta guruhlar uchun “Nima uchun yomg'ir yog'adi?” mavzusida konspekt**

### **Mashg'ulot tarkibi**

Tabiiy hodisalar haqidagi ertaklarni ixtiro qilish mahoratini oshirish. Tabiiy hodisalar (chaqmoq, momaqaldiraq) haqidagi bilimlarni kengaytirish. Lug'atni faollashtirish: chaqmoq, momaqaldiraq, atmosfera.)

Jamoaviylik hissini, bilish faoliyatiga qiziqishni rivojlantirish.

**Dastlabki ish.** Mavzu bo'yicha bolalar badiiy adabiyoti va ommabop bolalar adabiyotini o'qish. Tabiatni kuzatish.

**Kerakli jihozlar.** Tabiatdagi suv aylanishining sxemasi; mavzu bo'yicha “Yosh tabiatshunos”, “Ilm va hayot” eski jurnallaridan parchalar; fotosuratlar, qalamlar, bo'yoqlar, albom.

### **Mashg'ulotning borishi**

**Tarbiyachi.** Bolalar, bugun biz tabiat hodisasi haqidagi ertakni o'ylab topamiz. Topishmoqni toping.

Qarang, qarang

Osmondan taralmoqda iplar!

Qanday iplar ekana? ingichkagina

Yerni osmon bilan tikmoq istar

Topingchi bolajonlar

Bu nima ekana

kutamiz javobingni

topsang javobini aytaqol

Albatta bu yomg'ir....

Kichik guruh bolalari nima uchun yomg'ir yog'ayotganini bilishmaydi, lekin ular bu haqda tarbiyachisidan tushunishni va so'rashni juda

xohlashadi. Biz ko'p o'qidik, rasmlar, turli tabiat hodisalari haqidagi rasmlarni ko'rib chiqdik - kelinglar bolalar uchun ertak yozamiz va chizamiz, chunki kichiklar o'qiy olmaydi.

### **Ertak**

Kunlardan bir kun quyosh rosa aylanibdi, oxiri issiqdan charchab, peshonasini ro'molcha bilan artib debdi:

- Ufl! Judayam issiqda! Rosa suv ichgim kelyapti!

Yerga boqsa u yerda ummonu, dengizlar, daryolaru, ko'llar mazza qilib o'ynashyabti. Quyosh suvgacha cho'zilmoqchi bo'libtiku, lekin eplay olmabti.

- Suv ichgim kelyapti! – deb jaxli chiqibti Quyoshning.

- suv- suv! suv - suv! – deb qichqira boshlashibdi o'rmonda uyg'ongan qushlar. – kelinglar tezroq suv ichib olaylik, bo'masa quyosh bizga qoldirmaydi.

- Sh – sh – sh! – deyishibti daraxtlar, - barcha ariqlarni daraxtlar soyasiga berkitib olaylik, bo'lmasa bu osmondagi issiqlik bizga suv qoldirmaydi.

- Suv ichgim kelyapti! – deb baqiribti yana quyosh.

- Balki choy ham damlab berish kerakdir? – debdi kinoya bilan Shamol. U to'zg'ib ketgan va uyquga to'ymagan holatda edi. Uxlagan qoridan chiqib, kerishib, shunday dedi: - Shunday qilib nur taratuvchi suv ichging kelyaptimi? Xozir amallaymiz. Sen ummon va ko'llarni yaxshilab isit, ulardagi suv bug'ga aylanadi, yelvizak esa uni senga olib chiqib beradi. Albatta men ham senga yordam beraman. Bug'lardan bulutlar hosil qilamiz, men esa ularni yaxshilab uflab senga yetqazaman.

Quyosh ishga kirishib ummon va dengizlarni isitishni boshlabdi. Osmon bo'ylab ko'rinmas tomchilar suza boshlashdi. Ular juda mayda bo'lganligi sababli ko'rinmas edilar: odij tomchiga bulardan millionlab sig'ardi. Ular saxrodagi qumdan ham ko'p ko'taridi.

Ular qancha yuqoriga ko'tarilgani sari, shuncha soviy boshlashdi. Chunki balandlikda doimo salqinroq bo'ladi. Eslab ko'ring: qishning sovuq kunlarida bolalar ko'chada yugurib yurganlarida og'izlaran bug' chiqib turadi! Chunki bi nafas olayotgan havoda namlik bo'ladi. Sovuqda bu ko'rinmas tomchilar birlashadilar va bug'ga aylanadilar.

Yerdan osmonga uchib ketgan tomchilar bilan ham shunday bo'ldi. Ular balandlarga ko'tarilib tumanga aylandilar. Adirlar va o'rmonlar ustida bulut bo'lib suzdilar. Quyosh bilan Shamol bulutlarni yanada yuqoriga ko'tarish uchun juda ko'p harakat qildilar. Quyosh hammayoqni isitib

yubordi. Shamol ham shunchalik harakat qildiki yer yuzida chang ko'tarilib ketti.

Son sanoqsiz tomchilarga esa aynan shu kerak. Osmonda shamolga duch kelgan tomchilar uni minib oldilar va shamol bilan ko'tarila boshladilar! Biri shamolga ilaqishtkanida ikkinchisi baqirardi:

- Suril! Meni ham uchgim kelyapti...

Mayda tomchilar birlashib, ulardan biri bulutlar orasidan yorib chiqib ketti, shu tariqa yomg'ir yog'ib yubordi.

Quyoshning jaxli chiqdi.

- Bu qanaqasi? – dedi u Shamolga. – Men shuncha ishladimku, oqibatda nima bo'ldi? Yo'q bunaqasi ketmaydi.

Shamolga bo'lsa osmonda uchib, bulutlarni quvlab, ulardan turli narsalar yasash yoqib qoldi. U shunday dedi:

- Tinchlaning quyosh bobo. Bu safar o'xshamagan bo'lsa, boshqa safar o'xshaydi. Boshidan boshlaymiz. Faqat endi o'rmonlarni qizdir. O'rmonlarda namlik yuqori, daraxt barglarida namlik bor, ular juda baland, senga yaqin joylashishgan. Barglarni quritasan va shunday qilib suv ichib olasan.

Quyosh yana ishni boshladi. O'rmonlarni isitdi. Barglar isib qurishni boshlashdi, daraxt ildiziga raxmat, yerdan namlikni olib daraxt barglariga yubordi. Barglar bo'sa bu namlikni Quyoshga yuborishdi. Quyosh daraxtlarni qizdirib ularning namini o'ziga oldi. Millionlab barglar o'zlarining suv zarrachalarini quyoshga taqdim etishardi, ulara yana bulutlar bo'lib hosil bo'lishdi. Shamol bo'lsa ulardan turli shakllarni yasay boshladi. Lekin yana yomg'ir yog'ib yubordi va barchasini barbod qildi.

Quyoshning jaxli chiqib Shamolni chaqirdi.

- Qaerdasan?! deb baqirishni boshladi.

Shamol uning vajoxatini eshitib bulutlar ortiga berkinib oldi. Quyosh uni rosa izlabti, lekin topa olmabti. Vanixoyat kun botishida bulutlardan pasta tushib uni ko'rib qoldi. Xa, mana qaerda ekansan! Quyosh Shamolga barcha o'ylagan gaplarini aytmoqchi bo'lib turgandi, lekin ulgurmadi, kun botti.

Shu tariqa Quyosh har kuni suv ichish uchun atrofni qizdirar ekan, Shamol unga "Balandroq qizdir" derkan. Kechga borib esa xech nima o'xshamagan Quyosh jaxli chiqqanidan qizarib baqirmoqchi bo'larkanku, lekin og'zi qurib ketganidan gapirolmay, kun botarkan.

*Ertak to'qish jarayonida bolalar tarbiyachi yordamida rasmlarni yopishtiradilar.*

**Tarbiyachi.** Bolalar nima deb o'ylaysiz, biz yomg'irdan qanday berkinamiz? Chaqmoq vaqtida nima qilishimiz kerak?

**Bolalar.** Kapyushon kiyish!

- zontik tutish...

- daraxt tagiga berkinish...

**Tarbiyachi.** Siz daraxt ostida momaqaldiroqdan yashirina olmaysiz. Chaqmoq daraxtga tushib, uni yondirishi mumkin. Chaqmoq - bu ulkan elektr uchquni. Ikkinchidan, u bir necha kilometr uchib o'tadi. Masalan, bizning bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotimizdan metrogacha. Uning yo'lidagi havo bir zunda qiziydi, haqiqiy portlash sodir bo'ladi - odamlar momaqaldiroq deb ataydigan ovoz. Yashin bilan hazillar yomon. U bir asrlik eman daraxtiga zarba beradi - uni parchalab tashlaydi, uchqun pichaniga tushadi - o't ketadi. Shu sababli, odamlar uylarini, zavod quvurlarini va elektr simlari uchun temir tirgaklarni chaqmoq tayoq bilan himoya qiladilar. Keling, jo'r bo'lib takrorlaymiz.

**Bolalar** (*baravariga*). Chaqmoq o'tkazgich!

**Tarbiyachi.** Bu shunday metall tayoq. Bir uchi baland binolardan ko'tariladi, ikkinchisi esa yerga qo'yiladi. Kuchli samoviy uchqun shu zahotiyoq eng yengil va qisqa yo'lni topadi va hech kinga yoki biron bir narsaga zarar bermasdan, yerga qarab yuradi.

Iloji bo'lsa, uyda momaqaldiroqni kutib turish, derazadan unga qarash va uning tugashini kutish yaxshiroqdir.

Yomg'ir xavfli, radioaktiv. Agar biror kishi yomg'ir ostida qolsa, u kasal bo'lib, sochlari ham to'kilib ketishi mumkin. Bunday yomg'ir havo ifloslanishidan kelib chiqadi. Bu haqda keyingi darsda gaplashamiz. Va siz, bolalarga vazifa: yomg'ir nima ekanligini ota-onangizdan bilib oling yoki bolalar ensiklopediyasidan o'qing.

### **Tayyorlov guruhi bolalari uchun «Oy fazalari» mavzusida mashg'ulot ishlanmasi**

**Dastur tuzilmasi:** Bolalarni oyning fazalari va ularning inson salomatligiga ta'siri bilan tanishtirish. Lug'atni faollashtiruvchi so'zlar: yangi oy, to'lin oy, oyning aylanishi, orbitasi. Tasavvurni rivojlantirish. O'z sog'lig'iga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni shakllantirish.

**Kerakli jihozlar.** Oyning, oy roverining suratlari; oyning fazalari bilan rasmlar; 1 dan 9 gacha bo'lgan nuqta va raqamlar bilan rasmlar (raketa silueti); varaqlar, qalamlar, zarbalar

**Mashg'ulotning borishi:**

**Tarbiyachi.** Bugun men sizga juda ko'p qiziqarli narsalarni aytib beraman, lekin nima haqida ekanligini siz o'zingiz taxmin qilishga harakat qilasiz. Har biringizning stolingiz ustida nuqtalar tasviri bor. Nuqtalarni tartib bilan birlashtiring - va siz rasm hosil qiling. Siz qaerga borishingiz mumkinligini va biz nimani muhokama qilishimizni bilib olasiz.

Bolalar 1 dan 9 gacha bo'lgan nuqtalarni bir-biriga bog'lab turishadi - bu raketaga aylanadi.

**Tarbiyachi.** Sizlarda nima hosil bo'ldi?

**Bolalar.** Raketa

**Tarbiyachi.** Nima deb o'ylaysiz raketada qaergacha borishimiz mumkin?

**Bolalar.** Oygacha!

**Tarbiyachi.** Barakalla, siz buni to'g'ri taxmin qildingiz. Men sizga oy haqida aytib beraman.

Oy bizning kosmosdagi eng yaqin qo'shnimizdir. Oy Yer atrofida aylanadi va bu, o'z navbatida, Quyosh atrofida - orbitalar deb nomlangan cheksiz yopiq yo'llar bo'ylab (rasmni ko'rsatadi) amalga oshiriladi. Bizga oy porlayotganga o'xshaydi, lekin aslida bu unday emas - Oy faqatgina quyosh nurini aks ettiradi. Bizning sayyoramizdan faqatgina oyning yoritilgan qismi ko'rinadi. Shuning uchun, oyning shakli har kechada o'zgarib turadiganga o'xshaydi.

Mana bu rasmlarga qarang: bu oyning fazalari (bolalarga ko'rsatadi).

Birinchisi - yangi oy. Yangi oyda, oy qorong'u tomoni bilan Yer tomon buriladi va shuning uchun umuman ko'rinmaydi. Ikkinchisi - yangi oy. Oy o'z o'rnini shunday o'zgartiradiki, uning eng chekkasi yoritiladi. Shaklda u o'roqqa o'xshaydi. Uchdan biriga - birinchi chorak deyiladi. Bu vaqtda biz oy diskining yarmini ko'ramiz. To'rtinchi rasmda biz bir qismi ko'rinmaydigan oyni ko'ramiz. Beshinchisida to'lin oy. Yerdan biz oyning old tomonini ko'ramiz.

Endi menga ayting: agar odam to'lin oy kelishini bilsa yaxshi bo'ladimi? Va nima uchun? (Bolalarning javoblari.) Siz haqsiz, to'lin oy haqida bilsangiz, inson o'zini xavf-xatarlardan himoya qilishi mumkin. Yo'lda ehtiyot bo'ling; agar sizda yurak kasalligi bo'lsa, unda dorilarni qabul qiling. Qolgan rasmlarga qarang.

**Fizdaqiq.**

**"Haydovchilar" o'yini**

Bolalar rulni olib, guruh bo'ylab harakatlana boshlaydilar. Tarbiyachi navbat bilan oyning fazalari (o'roq, chorak, to'lin oy) bilan rasmlarni ko'rsatadi. Ko'rsatilgan kartaga ko'ra, bolalar tezlashadi yoki sekinlashadi.

**Tarbiyachi.** Kosmonavtlar oyda nima bo'ylab harakat qiladilar?

**Bolalar.** Oy aylanasi.

**Tarbiyachi.** Men sizga oy roverini ixtiro qilishni taklif qilaman. Oy roverining asosini qog'oz varaqlaridan o'rab oling va barcha kerakli qismlarni o'zingiz qirqing. Shunda hamma o'zi nimani o'ylab topganligi va qanday yasaganligini aytib beradi.

*Bolalar oy tutqichini chizishadi va ixtirolari haqida gapirishadi.*

*Guruh xulosasi*

*Suhbat:*

*Siz qanday qiziqarli narsalarni bilib oldingiz?*

*Eng esda qolarli narsa?*

*To'lin oy davomida o'zini qanday tutish kerak?*

### **3. Tabiat bilan tanishtirish dasturining mohiyati.**

**Tayanch iboralar:** "Ilk qadam", tamoyil, psixofiziologik, jismoniy mehnat, dastur faslchilik tamoyillari, dastur materiallari, ehtiyotkorona munosabat, dasturning murakkablashuvi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyalanuvchilarini tabiat bilan tanishtirish dasturi "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida belgilangan mashg'ulotlar tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos etnik xususiyatlari, geografik jihatdan iqlimi, tabiiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan.

Dasturda amaliyotda erishilgan yutuqlar asosida ta'lim-tarbiya haqida nazariy vazifalar berilgan. Unda maktabgacha yoshdagi bolalarni har yosh bosqichiga xos psixofiziologik xususiyatlari hisobga olingan. Dastur ilk yoshdagi kichik guruhdan to maktabgacha tayyorlov guruhi uchun mo'ljallangan bilim va ko'nikmalar hajmini o'z ichiga oladi.

Bizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli yoshdagi bolalar tarbiyalanadilar. Maktabgacha yoshdagi bo'lgan davrda bolalarga har bir guruhda jonli va jonsiz tabiat haqida bilim beriladi. Bu beriladigan bilim, k o'nikma, malakalar guruhdan guruhga o'tgan sayin chuqurlashtirilib, kengaytirilib, murakkablashib boriladi.

Dasturda tabiatshunoslik materiallari barcha guruh uchun yil fasllariga qarab taqsimlangan. Har bir mavsumda jonli va jonsiz tabiatdagi hamda kishilar faoliyatidagi eng aniq karakterli hodisalar ko'rsatib o'tilgan.

Materialarning bunday joylashishi tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatish, uni taxlil qilish imkonini beradi.

Tabiat bilan tanishtirish dasturi respublikaning o'ziga xos tabiiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan «Ilk qadam» maktabgacha davlat o'quv dasturi davlat hujjati sanaladi.

Har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti mudirasi, uslubiyotchisi, tarbiyachisi shu hujjat materiallarini to'liq amalga oshirishlari shart. Dasturniig tabiat bilan tanishtirish bo'limi. Hamma bo'limlar bilan uzviy bog'langan. Tabiat haqidagi tasavvur va tushunchalarni hosil qilish so'z yordamisiz bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun ham ona tilini chuqur o'rganish undan foydalana olish tabiatni kuzatish va o'rganish bilan chambarchas bog'liq. Bola tabiatini kuzatish davomida olgan bilimlarini o'zlari tasviriyl faoliyatlarida aks ettiradilar. Tabiatni kuzatish orqali sanashni, miqdor, o'zgarishlarini o'rganib boradilar (daraxt baland, buta past, daraxt tanasi 1 ta, buta tanasi ko'p). Jismoniy mehnat bolalarni jismonan baquvvat, sog'lom o'sishlari uchun yordam beradi. Bundan tashqari tabiatga oid bo'lgan harakatli o'yinlar ham bolani jismonan barkamol bo'lishiga yordam beradi. Bu misollarning barchasi dasturda o'z aksini topgan. Dasturga material tanlash tabiat bilan tanishtirishdagi barcha tamoyillarga rioya qilingan holda amalga oshirilgan.

Yuqorida bayon etilganidek, bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida turli yoshdagi bolalar tarbiyalanadilar. Bolalarning o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olingan holda dastur quyidagicha tuzilgan, ya'ni, bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lgan davrlarida bitta mavzu bilan bir necha marta tanishadilar. Lekin har safar chuqurroq, kengaytirilgan holda tanishadilar.

Masalan: Kichik guruhda suv haqida tushuncha berilganda suv bilan yuviniladi, suvni ichadilar, suv sovuq, iliq bo'ladi. suv oqadi kabi o'rgatiladi. O'rta guruhda suv tiniq, ayrim predmetlar suvda cho'kadi, issiq kunda suv tez, sovuq kunda sekin quriydi, katta tayyorlov guruhlarida suvning tabiatda aylanib yurishi, o'simlik, inson hayotida uning o'rni, suvdan elektr energiyasi olishda foydalanish mumkin kabi tushunchalar oddiydan - murakkabga qoidasi asosida tushuntirilib boriladi. Demak, har bir guruhda tabiatga oid bilimlar har yili murakkablashib boradi.

Dastur faslchilik tamoyillari asosida tuzilgan. Materiallarning bunday joylashtirilishi tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni tahlil qilishga yordam beradi. Dasturda kichik guruhdan boshlab har bir faslda bolalarga jonli va jonsiz tabiatdagi, o'simliklar hayotidagi, hayvonot olamidagi

o'zgarishlar va ular haqida bolalar olishlari lozim bo'lgan bilimlar berilishi hisobga olingan.

Biror bir faslda o'simliklar hayotidagi o'zgarishlar, ob-havoning o'zgarishini kuzatish, hayvonot olamidagi o'zgarishlarni, kishilarning shu mavsumdagi mehnatlari bolalarga yaqqol ko'rinadi. Shu fasldagi barcha tabiat haqidagi, unda sodir bo'ladigan o'zgarishlar haqida to'liq, tasavvurlar shakllanadi. Bundan tashqari dasturda tabiat haqidagi tasavvurlarini shakllantirish kvartallarga bo'lib berilgan.

Bolalarga beriladigan bilimlarni kvartallarga bo'lib joylashtirishda ham yuqorida ko'rib o'tilgan printsiplarga rioya qilinadi.

Har bir guruhda yil oxirida bolalar egallashlari lozim bo'lgan bilimlar ko'rsatiladi. Dastur materiallarini joylashtirishda ketma-ketlik, tizimlilikka amal qilinadi.

Dastur asosida tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarida beriladigan bilimlar bolalarning imkoniyatlari hamda o'rab turgan tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda izchil rivojlantirish imkonini beradi. Mashg'ulotlarni ta'limiy ahamiyati bu bolalarga mashg'ulotlarda berilishi yoki aniqlanishi hamda umumlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hajmi, bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi, nutqini o'stiruvchi, qiziqishlarini o'stiruvchi, qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bo'lmog'i lozim. Tarbiyaviy ahamiyati esa bolalarda kattalarga hurmat, Vatanga, o'z o'lkasi tabiatiga mehr - muhabbat tabiatni avaylab - asrash. tabiat bergan ne'matlardan o'z o'rmda unumli foydalanish kabi hislatlar tarbiyalanadi.

***Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ta'limiy-tarbiyaviy vazifalari.***  
O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tizimi konsepsiyasiga ko'ra bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida o'zaro bir-biriga bog'liq ta'limiy-tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi.

Aqliy tarbiyadagi asosiy vazifasi - bolalarda jonsiz tabiat, o'simliklar, hayvonlar haqida ma'lumot berish, ularning tabiat voqea-hodisalarini yetarlicha idrok eta olishlariga imkon berish.

Aqliy tarbiyaning ajralmas qismi - sensor madaniyatdir. U analizatorlarni takomillashtirish, bolalarda keyingi umumlashmalar uchun asos bo'ladigan hissiy tajribani mustahkamlash, tabiatshunoslikka oid dastlabki tushunchalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Bolalarning tabiat haqidagi bilimlarni egallashlari ularning bilish qobiliyatlari - sensor apparati, mantiqiy fikrlashi, diqqat, nutq, kuzatuvchanlik, bilishga qiziqishi kabilar bilan mustaxkam bog'langan bo'lishi kerak. Fikrlashni rivojlantirish va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun bolalarning tabiat predmet-hodisalari bilan tanishtirish,

ularni kuzatilayotgan predmet-hodisalarni tushunishga o'rgatish va ular orasidagi aloqa va munosabatlarni anglashlariga olib kelish kerak. Anglash jarayonidagi tabiat hodisalari ortasidagi sababiy aloqalar va munosabatlar fikrlashni rivojlantiradi.<sup>10</sup>

Bola o'zini o'rab turgan atrof-muhit va tabiatning muayyan xossalarini: havoning issiq-sovuqligini terisi bilan, suyuqliklarning ta'mini tili bilan, havodagi hidni burni bilan, tabiatdagi xilma-xil ob'ektlarning rangini ko'zi bilan, tovushlarni qulog'i bilan sezib, ya'ni mazkur xossalar bolaning besh turli sezgisiga ta'sir etib, shu a'zolarida joylashgan asab hujayralari orqali bosh miyasiga borib yetib, natijada miyada tabiatning ayrim xossalari to'g'risida bilim paydo bo'ladi, ularning ko'rinishlari, qiyofalari, tasvirlari, manzaralari vujudga keladi.

Bolalarda bilishga qiziqishni tarbiyalash ham muhimdir. Bolalarga hayvonlar va o'simliklarni qanday kuzatishni ko'rsatish, ularning diqqatini ularning tashqi ko'rinishi, harakatiga qaratish orqali tarbiyachi ularda nafaqat tabiat haqida bilimlarni, balki ularga mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi. Faqatgina har doim bolaning yoshini hisobga olish va uning diqqatini mazkur predmet va hodisadagi predmetlarga qaratishni bilish zarur.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida ahloqiy, jismoniy, mehnat va estetik tarbiyani amalga oshirish zarur.

Bolaning ahloqiy rivojlanishida unda Ona tabiatga muhabbat va tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish asosiy o'rin tutadi. Bolalarga bu borada eng yaqin yo'l ular o'sib ulg'ayotgan joydir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi bolalar bilan hayvon va o'simliklarni kuzatadilar va parvarishlaydilar. Natijada ularda tabiatga ehtiyotkorona munosabat, mehnatni sevish va mehnat qilishga odatlanish, topshirilgan ishga mas'uliyat o'z-o'zidan shakllanadi.

Bolalarda mehnatsevarlik, tabiatga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash uchun ularni o'simliklarni sug'orish va hayvonlarni ovqatlantirishning oddiy usullarini o'rgatish zarur. Eng muhimi, bolalarning o'zlari bajarayotgan ish jarayoni va natijalaridan zavq olishlariga erishish lozim. Mehnatsevarlik sifatini shakllantirish uchun bolalarni kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirish, ularning faoliyatiga hurmatni tarbiyalash zarur. Bolalarning tabiatda bo'lishi va mehnatidan ularning jismoniy rivojlanishi va salomatliklarini mustahkamlash uchun foydalanish muhim ahamiyatga ega.

---

<sup>10</sup> Ш.А.Содиқова М.А.Расулхўжаева Болаларни табиат билан таништириш методикаси «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.

Tabiat bolalarni estetik tarbiyalashning asosiy vositalaridan biridir. Tabiatning go'zalligi hatto eng kichik bolalarni ham o'ziga rom qilmasdan qolmaydi. Ularni tabiatni bilish jarayonida e'tiborlarini o'rmonning shovqinlari, qushlarning sayrashi, barglarning shakli va rangi, gullarning hidlari, hayvonlarning harakatlariga qaratish kerak. Buning muhim jihati bola kelajakda o'z hayotida dunyoning barcha va xilma-xil go'zalliklarini idrok eta olishiga sharoit yaratishdir.

### **? Nazorat savollari**

1. Ekologik tushunchalarni shakllantirishda davlatimizning asosiy qomusi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddalarida ko'rsatilgan?

2. Hozirgi davrning global muammolardan biri ekologik tanglik, ushbu muammoni bartaraf etishda siz tarbiyachi sifatida qanday ishlarni amalga oshirgan bo'lar edingiz.

3. Bolalarda ekologik bog'lanishlar haqidagi tushunchani qanday usullar orqali tushunturish mumkin?

4. Ekologik tarbiya berish hamda ekologik madaniyatini shakllantirish deganda siz qanday tushunchaga egasiz?

5. Nima uchun bolalarni tabiat bilan tanishtirishni maktabgacha ta'lim yoshidan boshlash kerak?

6. Tabiat bilan tanishtirish jarayonida qanday vazifalar amalga oshiriladi?

7. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi shaxsiga qoyiladigan talablarni tasniflang

## **IV BOB.MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH METOD, VOSITALARI**

**IV.1. Tabiat bilan tanishtirishda ko'rgazmali metod va usullarining o'ziga hosliklari.**

**IV.2. Kuzatish – tabiat bilan tanishtirishning asosiy usullaridan biri ekanligi.**

**IV.3. Tabiatga nisbatan insoniy munosabatlarni shakllantirishda tabiat materiallarini yig'ish va bolalarda ularni badiiy ijodda aks ettirish faoliyatlarini rivojlantirish.**


### **1. Tabiat bilan tanishtirishda ko'rgazmali metod va usullarining o'ziga hosliklari.**

**Tayanch iboralar:** ko'rgazmali metod, badiiy rasmlar, o'quv ekrani, diafilm, diapozitiv, predmetli rasm, voqeband rasmlar, tarqatma materiallar, texnik vositalar.

Pedagogik metod - pedagog va ta'lim oluvchining (bolaning) ma'lum ta'lim-tarbiyaviy natijasi: bilimlarni egallash, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, qobiliyatlarni o'stirisha axloqiy sifatlar, xulq odatlarni shakllantirishga erishish uchun yo'llangan hamkorlikdagi faoliyatining usulidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Tabiat bilan tanishtirish metodlari uchta asosiy guruhga bo'linadi:

Ko'rgazmali uslub - kuzatish, rasmlarni ko'rish, diafilm, kinofilm, ekskursiyalar;

### **Tabiat bilan tanishtirishning ko'rgazmali uslubi.**



Ko'rgazmali metod va vositalar guruhiga bolalar bilan birga kuzatish, urug'lar, mevalar, rasmlarni ko'rish, diafilm va kinofilmlarni namoyish qilish usullarini qo'llash texnologiyasiga aytiladi kiradi.

Bu metodlardan foydalanish xilma-xil vazifalarni xal qilishga: tasavvurlarni aniqlash va konkretlashtirish, bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish, estetik idrokni tarkib toptirishga yordam beradi.

**Rasmlarni ko'rish.** Rasmlar tabiat hodisalarini batafsilroq ko'rish, diqqatni uzok, muddat shularga qaratish imkonini beradi, buni esa ko'pincha tabiatni bevosita kuzatishda tabiatning dinamikligi hamda o'zgaruvchanligi tufayli amalga oshirishning imkoni bo'lmaydi. Bundan tashqari, ko'pgina hodisalarni bevosita kuzatish mumkin emas; masalan, yovvoyi hayvonlar, janubiy va shimoliy o'lkalarning hayvonlari bilan bolalarni asosan rasmlar orqali tanishtirish mumkin.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda didaktik syujetli, predmetli, shuningdek badiiy rasmlardan foydalaniladi.

Didaktik syujetli va predmetli rasmlar bolalarni o'qitishda ko'rgazmali vosita sifatida maxsus yaratilgandir. "Yilning to'rt fasli", "Uy hayvonlari", "Yovvoyi hayvonlar", "O'tsimon o'simliklar" va shu kabi rasmlar to'plami shular jumlasidandir. Bularidan turli maqsadlarda foydalaniladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish ularni tabiat bilan yaqin munosabatda bo'lishga o'rgatishda "Oltin kuz", "Siren" "Qora qargalar uchib keldi"; "Yashil shovqin"; "Lola qizg'aldoqlar"; "Qish"; "Qishda o'rmon"; "Uy hayvonlari" kabi badiiy rasmlaridan keng foydalaniladi. Rasmlardan foydalanish maqsadi bolalarda tabiatga estetik munosabatni tarkib toptirishdir.

Qo'yilgan maqsadlarga ko'ra kitoblardagi illyustrasiyalarni ko'rish turlicha o'tkaziladi: ba'zan ularni bolalarda o'rganilayotgan predmet, hodisa yoki voqealar haqida ko'rish obrazini yaratish uchun o'qishdan oldin ko'rib chiqish foydalidir; boshqa xillarda illyustrasiyalarga o'qish jarayonida ko'z yugurtirib chiqisht kifoyadir. Illyustrasiyalarni o'qilganlar yuzasidan o'tkazilayotgan suxbat jarayonida ham ko'riladi.

Rasmlardan barcha yosh guruhlarida foydalaniladi: kichik guruhda tasavvurlarni aniqlash va konkretlashtirish hamda ularni mustahkamlash uchun masalan, mushukni bolalari bilan kuzatgandan so'ng shunga muvofik keluvchi rasm ko'riladi. Tarbiyachi bolalarga mushukni bolalari bilan rasmdan tanishga, hayvonlarning harakterli belgilarini (katta-kichikligi, yungining rangi), gavda kismalarini (ko'zi, qulog'i, dumi, oyoqlari), ba'zi harakatlarini (uxlayapti, o'ynayapti, sut ichyapti va shu kabilar) ko'rish va aytishni o'rgatadi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar bilan syujetli rasmni ko'rishni tashkil qilar ekan tarbiyachi bolalarning rasm mazmuniga yaqin bo'lgan tajribasidan foydalanadi, quyidagiga o'xshash savollarni beradi. «Rasmda nima tasvirlangan? Bular mushuk bolalari ekanligini qaerdan bildingiz? Mushuk yungining rangi qanday? Bolalarinikichi? Mushuk bolalari nima qilishyapti? Kul rang mushuk bolasi nima qilyapti? Ona mushuk oldida yotgan bolasi nima qilyapti? Sizningcha uning qorni ochganmi? Nima uchun uxlayapti? Mushuk bolalarining qanday yurishini eshitganmisiz? Nima uchun ular sekin, ovoz chiqarmay yuradi?»

Rasmni o'rta guruh bolalari bilan ko'rish bolalarning bilimlarini kengaytirishga yo'naltiriladi. Bu bolalarni bevosita tajriba doirasidan tashqariga olib chiqisht imkonini beradi. Rasmlarni ko'rishdan bolalarning bilimlarini tizimlashtirish va umumlashtirish maqsadlarida ham foydalaniladi. Rasmlardan tarbiyachining tabiat haqidagi suxbatlarida, hikoyalarida foydalaniladi.

Katta guruhlarda rasmlar tushunchalarni shakllantirish uchun qo'llaniladi. Mashgulot uchun rasmlar to'plami tanlanadi. Dastlab har bir rasmni ko'rish va taxlil qilish tashkil etiladi. So'ngra rasmlar to'plami ajratib ko'rsatilgan muhim belgilariga qarab qiyoslanadi. Qiyoslash hodisadagi umumiy va muhimini ajratib ko'rsatishga yo'llanadi. Masalan maktabga tayyorlov guruhlarida "kuz" tushunchasini shakllantirish uchun kuzning turli davrlariga taalluqli tabiatning kuzgi hodisasi tasvirlangan 3 ta rasm tanlanadi.

Tarbiyachi rasmni bolalar bilan birga ko'rar ekan, ularning diqqatini tabiatdagi ketma-ket o'zgarishlarga qaratadi: "Kuzning boshidan oxiriga» qadar ob-havo qanday o'zgarganligini ayting". So'ngra bolalar diqqatini o'simlik hayotidagi o'zgarishlarning ob-havo sharoitlarining o'zgarishiga bog'liq ekanligini tushunishlariga qaratadi. "Kuzning boshlanishidan uning oxirigacha o'simliklarda qanday o'zgarishlar ruy berdi? Nima uchun bunday o'zgarishlar sodir bo'ldi?" O'simliklarning rasmlarda tasvirlangan holatlarini qiyoslashni taklif qiladi.

Shundan so'ng bolalarning diqqati hayvonlar hayotidagi o'zgarishlarga qaratilib, pedagog ularni yangi aloqalarni bilib olishga yo'llaydi: «Kuzning qaysi vaqtida hasharotlar ko'p edi? Nima uchun? Issiq o'lkalarga uchib ketadigan qushlar qachon uchib ketadi? Ular nima uchun uchib ketadi?» Va shu kabilar.

Badiiy rasmlarni faqat maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan ko'rish maqsadga muvofikdir.

**O'quv ekrani.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni tabiat bilan tanishtirishda kinofilmlar va hujjatli filmlardan foydalaniladi,

O'quv ekrani bolalarda tabiat hodisalarining dinamikasi: o'simlik va hayvonlarning o'sishi hamda rivojlanishi - kattalarning mehnati haqidagi tasavvurini shakllantiradi, qisqa muddat ichida uzoq, vaqt bo'lib o'tgan hodisalarni ko'rsatish imkonini yaratadi.

Kinofilmlar bolalarda alohida emosional munosabat, qiziqish uyg'otadi, bu esa bilimlarni yanada muvaffaqiyatliroq, egallanishiga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'quv kinosining eng samarali turi syujetli filmlardir **"Stol qaerdan paydo bo'ldi?"**, **"Fillar haqida"** va ocherkli kinolar **"Bir piyola sut"**, **"Baliqchi hikoyasi"**.

Virtual o'quv ekranlaridan foydalanishda, masalan: "Yilning turli fasllarida o'simliklar", "Tabiatni qo'riqlash", "O'rmon va unda yashovchilar", "Uy hayvonlari yilning turli fasllarida", "Quruqlikda va suv havzalarida yashaydigan hayvonlar" va boshqalar tasvirning statikligiga ko'ra didaktik rasmlarga yaqin turadi. Ular xuddi rasmlar singari hodisalarni yirikroq ko'rsatish imkonini beradi. Bu bolalarning diqqatini tasvirda uzoq, muddat ushlab turishga yordam beradi. Kadrlar seriyasi hodisalarning o'zgarishi va rivojlanishini ko'rsatish imkonini yaratadi. Ulardan barcha yosh guruhlarida tabiatning u yoki bu hodisalari haqida boshlang'ich tasavvurlarni shakllantirish, shuningdek bu tasavvurlarni aniqlashtirish, kengaytirish va umumlashtirishda foydalaniladi.

Syujetli filmlar va hujjatli filmlar syujetining qiziqarliligi bilan bolalarda alohida qiziqish uyg'otadi. Bu bilimlarning aktiv idrok etilishiga yordam beradi, ekrandagi hodisalarga alohida munosabat uyg'otadi.

O'zida tabiat manzarasi hikoyalarini aks etuvchi diafilm, kinofilm va hujjatli filmlardan turli maqsadlarda: bilimlarni aniqlashtirish, u yoki bu hodisani karakterlovchi muhimroq. xususiyatlarni ajratib ko'rsatish, bilimlarni kengaytirish, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni shakllantirish maqsadlarida foydalaniladi.

Filmni ko'rishga bolalarni oldindan tayyorlash lozim. Buning uchun film mazmuniga bog'liq suhbatlar, ekskursiyalar o'tkaziladi, kitoblarni o'qish tashkil etiladi. Bevosita filmni ko'rsatishdan oldin bolalar bilan yo'l-yo'riq beruvchi suhbat o'tqazilib, unda bolalarga filmni ko'rayotganlarida e'tibor berishlari lozim bo'lgan topshiriqlar beriladi.

Film birinchi marta ko'rilgandan so'ng mazmunan juda muhim momentlarni ajratib ko'rsatishga yo'llangan suhbat o'tkaziladi. Film ikkinchi marta ko'rilgandan so'ng bolalar film mazmunini qanchalik

o'zlashtirganliklarini tekshirib ko'rish lozim. Shu maqsadda bolalar bilan tekshiruvchi suhbatlar o'tkaziladi, ko'rilgan film mavzusida rasm chiziladi. Mana shu usulda o'tkazilgan ish bolalarning bilimlarini tizimlashtirish va boyitish imkonini beradi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar uchun ko'proq ovozsiz filmlardan foydalangan ma'qul. Ularning mazmunini tarbiyachi aytib turadi. Bu filmdagi aynan shu guruh bolalar uchun asosiy narsani ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Avval diapozitiv va diafilmlardan foydalaniladi. Ularni ko'rishni sekinlashtirilgan sur'atda tashkil etish, ba'zi kadrlarni qayta ko'rsatish, eng muhimlarini tanlab ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Diafilmlarni ko'rish asta-sekin bolalarni ovozli kinofilmlarni ko'rishga tayyorlaydi. Film ko'rilgandan so'ng kichikintoylar bilan maxsus suhbat o'tkazish tavsiya etilmaydi.

## **2. Kuzatish – tabiat bilan tanishtirishning asosiy usullaridan biri ekanligi**

**Tayanch iboralar:** kuzatish, uzoq muddatli, qisqa muddatli, solishtirma, predmet hodisalar, kuzatuvchanlik qobiliyati, kuzatishni tashkil etish, kuzatishga tayyorlanishi

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish hamda ularni tabiatning turli predmet hodisalar, mavsumiy o'zgarishlar bilan tanishtirish orqali kuzatuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishning maqbul usullaridan biri kuzatish usulidir.

Kuzatish – bolalarni tabiat bilan tanishtirishning asosiy metodi hisoblanib, bunda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlari, psixologiyasi, bilimlari, dastur talablari, o'z o'lkasi iqlimining tabiati, pedagogik tamoyillarga moslashadi. Yuqoridagi metodlar bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda to'ldirib boradi.

Turli yosh guruhlarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi ko'rgazmali metodning – kuzatish usulidan keng foydalanadi.

Kuzatish - tabiat jismlari va hodisalarning tabiiy sharoitlarda maqsadga yo'nalgan va bevosita hodisalarni borishga aralashmagan holda sezgilar bilan qabul qilib olishdir. Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo'lib, bunda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etib, barqaror diqqat talab etiladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda doimiy kuzatishlar olib borish ularning mantiqiy fikr yuritishi va nutqini o'stirishda g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Bu haqda K.D.Ushinskiy shunday deydi: *"Haqiqiy insoniy, aqliy nutq,*

*to'g'ri mantiqiy fikr yuritishdan iboratdir, to'g'ri mantiqiy fikr yuritish esa, biz ko'rsatgandek, boshqa biror narsadan emas, haqiqiy va aniq kuzatishlardan kelib chiqadi".*

Bolalarni tabiatdagi narsa va hodisalar bilan ma'lum bir tartibda tanishtirib borilsa, ularda diqqat va kuzatuvchanlik, tabiatga qiziqish, undagi hodisalarni bilishga intilish kuchayib boradi.

Kuzata bilish - juda muhim xususiyat bo'lib, bunda bolada to'g'ri yoza bilish, og'zaki nutq malakalari rivojlanadi.

Bolalarni hodisa va narsalarni maqsadga muvofiq holda o'zlashtira olishga va ularning eng muhimlarini ajrata olishga o'rgatish zarur.

Tarbiyachi kuzatish ishlarini olib borishda narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqa va sabablarning bog'lanishlarini ilg'ab olishni bolalarga o'rgatishi kerak. Shunday qilib maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tafakkurlari tabiat haqidagi aniq bilimlarni to'plash orqali o'sadi. Kuzatishlar diqqatni jalb qilish bilangina olib borilishi mumkin. Kuzatish, ya'ni narsa va hodisalarga diqqatni maqsadga muvofiq holda jalb qilishga o'rgatish bilan biz ularda ixtiyoriy diqqatni ham o'stiramiz.

Noto'g'ri tushunchalarni tuzatish, yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Shuning uchun bolalar maktabgacha ta'lim yoshidayoq, his qilish tajribalariga asoslangan holda, tabiat haqida to'g'ri tushunchalarga ega bo'lishlari juda muhimdir.

Bolalarda tabiatga qiziqishni tarbiyalash zarur, chunki u soglom bo'lmagan faoliyatlarda ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, bolalar qo'ng'iz va kapalaklarni tutib olib, nima qilar ekan deb, ularning qanot va oyoqlarini uzib tashlaydilar. Yoki hayvonlarni, qushlarni qiynab, natijasi nima bo'lar ekan, deb qiziqadilar. Ularga tabiatning o'zaro bog'liqligini, ya'ni uning "oltin zanjir" ekanligini tushuntirish zarur. Bu orqali bolalarga ekologik talim-tarbiya berib boriladi.

Tabiat bilan yaqin munosabatda bo'lish, kuzatuvchanlik bilan birgalikda bilishga ham qiziqishni o'rgatadi, Buning asosida taxminiy va tekshiruvchanlik refleksi yotadi va uning nihoyatda taraqqiy etishi insonning harakterli xususiyatidir, deb hisoblaydi I.P.Pavlov. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni kattalarga "Bu nima?", "Nima uchun?", "Qanday qilib?" kabi cheksiz savollari bunga misol bo'la oladi. Bu o'rinda tarbiyachi savollarga javob topishda bolalarning o'zlarini jalb qilishga harakat qilishi zarur.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning turli yosh guruhlarida tarbiyachi kuzatishlarni tashkil etar ekan, uning turli xillaridan foydalanadi. Kuzatishlar davomiyligi va harakteri buyicha uzoq, qisqa muddatli va uzoq

muddatli bo'lishi mumkin.

O'simlik va hayvonlarni o'sishi hamda rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi bilimlarning jamgarilishi uchun kuzatishning ancha murakkabroq turi - uzoq muddatli kuzatishlardan foydalaniladi. Bunda bolalarning obyektning kuzatilayotgan holatini ilgarigisi bilan qiyoslashlariga to'g'ri keladi.

Kuzatish narsalarning ayrim belgilariga qarab holatlarini aniqlash (masalan, gulning bargiga qarab uni sugorish, akvariumdagi suvning holatiga qarab suvni almashtirish, yoki qordagi izga qarab qaysi qushning izi ekanligi, mevalarning pishgan yoki xomligini rangiga qarab ajratish) maqsadida ham tashkil etiladi. Kuzatishning bu turi bolalarda tabiat hodisalarini taxlil qilish, ayrim ma'lumotlarni qiyoslash, soddaroq xulosalar chiqarish ko'nikmalarini hosil bo'lishiga yordam beradi.

Solishtirma va uzoq muddatli kuzatishlar mazmuniga ko'ra murakkab bo'lganligi sababli, maktabgacha ta'lim, o'rta, katta hamda maktabga tayyorlov guruhlarida foydalaniladi. Bu kuzatuvlar davomida bolalarda taxlil qilish, qiyoslash, xulosalar chiqarish jarayoni takomillashadi. Kuzatishlar mazmuniga va tarbiyachining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga ko'ra o'simlik va hayvonlar, ob-xavo hamda kattalarning tabiatdagi mehnati bilan ekskursiya, sayrlarda, shuningdek, tabiat burchagidagi mashg'ulotlarda tashkil etiladi.

Qisqa muddatli kuzatish jarayonida bolalar narsalarning shakli, rangi, katta-kichikligi, tuzilishi, fazoviy joylashuvi, harakterini farqlashni, hayvonlar bilan tanishganda esa harakat harakteri, ularning chiqaradigan tovushlarini o'rganadilar. Bu kuzatish turiga, masalan, qor yoki yomgir yogishi, kamalakning hosil bo'lishi kabi holatlar kiradi.

Barcha hollarda kuzatish bolalarning yuksak aqliy faoliyatini rivojlantirishi, ularni fikrlashga, berilgan savollarga javob topishga undashi, shuningdek, ulardagi qiziqishlarni rivojlantirishi va tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni tarbiyalashi lozim.

***Tarbiyachining kuzatishga tayyorlanishi.*** Kuzatishni tashkil etishda obyekt tanlash katta ahamiyatga ega. Tanlangan obyekt yaxshi holatda, bo'lishi kerak, ya'ni o'simlik so'limagan, navlari o'ralmagan, hayvon qo'lga o'rgatilgan, soglom, bolalardan cho'chimaydigan bo'lishi zarur. Kuzatish tabiat burchagida bo'lsa, obyekt yaxshi yoritilgan bo'lishi, unga yaqinlashish qulay bo'lishi uchun yorug'lik yon tomondan tushib turishi lozim. Bolalar hayvonlarning harakatini kuzata turib, ovqat berishlari, silashlari, ular bilan o'ynashlari mumkin. Bunda hayvonlar o'zlarini erkin tutishlari, bemaolol harakat qilishlari zarur. Buning uchun bolalar tabiat

burchagida qulay joylashib o'tirishlari maqsadga muvofiqdir.

**Kuzatishni tashkil etish.** Tarbiyachi kuzatishni birinchi marotaba o'tkazayotgan bo'lsa, dastlab bolalarda hosil bo'lgan qiziqishlarini qondirish hamda kuzatilayotgan narsa haqida birinchi taassurot hosil qilish uchun ularni kamida 1-2 daqiqa tomosha qildirib turadi.

Kuzatishni tashkil etish jarayonida tarbiyachi xilma-xil usullardan bolalarning yoshlariga mos savol va topshiriqlar, narsani ushlab kurish, qiyoslash, o'yin harakatlaridan foydalanadi.

Tarbiyachi kuzatishni tashkil qila turib, kerakli ma'lumotlarni aytishi, kuzatiladigan obyektning muhim xususiyatlarini ajratishi zarur. Bolalarda kuzatishga nisbatan qiziqish uygotish, kuzatilayotgan narsalarni estetik idrok etish uchun tarbiyachi she'rlardan, topishmoqlardan, katta yosh guruhlarida esa badiiy asarlarni o'qishdan foydalanadi.

Hayvonlarni kuzatishda tarbiyachi izchillikka rioya etib, bolalarning diqqatini "Nima qilyapti?" "Qanday yuryapti?" "Nima yeyapti?" "Qanday yeyapti?" "Tanasi nima bilan qoplangan?" "Oyoqlari qanday - uzunmi yo qisqami?" "Ko'zlari qanday shakl, rangi?" kabi savollar yordamida hayvonlarning xatti-harakatiga qaratadi.

O'simliklarni kuzatish ularning eng yorqin, ko'zga tashlanadigan belgilarini belgilash va ajratib ko'rsatishdan boshlanadi. Bu o'simlikning guli yoki uning yorqin rangdor barglari, ba'zan poyasi (masalan, kaktus) bulishi mumkin. Ana shundan so'ng o'simlik tana tuzilishining asosiy xususiyatlari - kattaligi, poyasi (yoki tanasi), barglari, gullari va uyi kabilar tartib bilan kurib chiqiladi. Shunday izchillik maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning diqqati hali yetarlicha barqaror emasligi, kup jihatdan beixtiyorligi tufayli zarurdir. Birok mashg'ulot oxiri kuzatish jarayonida paydo bulgan tasavvurlar natijasini umumlashtirish lozim. Tarbiyachi topshiriq berishning turli usullaridan foydalanib, "Gapirib berchi, qaerdan bilding? Nimasi bilan farq qiladi?" kabi savol va topshiriqlar bilan bolalarning kuzatish orqali nutqlarini o'sishiga yordam beradi.

Barcha hollarda, tarbiyachi kuzatishni tashkil etar ekan, uni aniq bir vazifadan ikkinchisiga, faktlardan aloqalarga, tasavvurlar to'plashdan ularni qiyoslashga, so'ngra xulosalar chiqarishga o'tishda izchillikka rioya qilishi lozim. Shunda bolalarda mantiqiy tafakkur o'sadi. Har bir kuzatishda bolalarni tabiat bilan tanishtirishning kichik, aniq vazifasini hal etish lozim. Shuning uchun kuzatishlarning har biri ilgarigisi bilan boglanib o'tkazilishi zarur.

Tarbiyachi uzoq muddatli kuzatishni tashkil etishda, uni oldindan bir qator epizodik kuzatishlar - "bo'laklarga" taqsimlaydi. Bunday kuzatish

o'simliklar rivojlanishidagi o'zgarishlar aniq ko'rinadigan vaqtda o'tkaziladi. Tarbiyachi bolalarga o'simlikni tomosha qilib, belgilarini qayd qilishni (birinchi barglarning chiqishini, o'simtaning urug' qobig'ini yorib chiqayotganini kuzatishni) tavsiya etadi. Yakuniy kuzatishda bolalar kuzatilayotgan o'simlik rivojlanishining butun tasvirini tiklashi lozim. Buni kuzatishlar kundalik daftari, turlicha rasmlar, gerbariylar, katta yosh guruhlarda esa chizmalı jadvallar asosida tashkil etish mumkin.

Tarqatma materiallardan foydalanib kuzatish. Bu kuzatishlar o'rta yosh guruhdardan boshlab o'tkaziladi. Bunday kuzatishni tashkil etish birgina obyektни kuzatishdan ko'ra ancha murakkabrokdir. Bu urinda tarbiyachi o'z diqqat-e'tiborini taqsimlay bilishi, bolalardagi harakatni uyushtira olishi talab qilinadi, bolalar esa tarbiyachining barcha ko'rsatmalariga aniq rioya qilishlari, bir-birlarini tinglashlari, boshqalarning kuzatishlarini o'zlarining kuzatishlari bilan taqqoslashlari kerak bo'ladi. Kuzatishning bu usuli katta rivojlantiruvchi ahamiyatga egadir. Bolalar turli xil tadqiqotchilik harakatlaridan foydalanib, o'kuv ko'nikmalarini takomillashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa o'z navbatida ularda aniqroq tasavvurlarning shakllanishiga yordam beradi.

Tarqatma material sifatida o'simliklar hamda ularning bargi, mevasi, urug'i, shoxchalari, shuningdek, sabzavot va mevalardan keng foydalaniladi.

Kuzatishda qatnashgan har bir bolaning va tarbiyachining qo'lida tarqatma material bo'lib, kuzatish davomida tarbiyachi bolalarga savollar berib, narsalarni tekshirishni tashkil etadi. So'ngra olingan tasavvurlarni qiyoslab, bolalarni xulosa chiqarishga o'rgatadi. Kuzatish jarayonida tarbiyachi barcha bolalarning yuqori faolligini ta'minlaydi.

**Kichik yosh guruh (3-4 yosh).** Bu yosh guruhlarda dastlabki kuzatishlar bolalarning ozchiligi bilan o'tkaziladi. Tarbiyachining asosiy vazifasi bolada kuzatishning sodda malakalarini shakllantirish, ya'ni diqqatni kuzatilayotgan narsaga to'plash, qo'yilgan savollarga javob berish, aniq belgilarni ajratib ko'rsatish, kichkintoylarni alohida harakatlantiruvchi narsalar bilan jalb qilishdir. Shuning uchun bolalar dastlab jonivor- larni kuzatishlari maqsadga muvofiqdir. Ularning namoyon bo'lishi - harakati, oziqlanishi, chiqaradigan tovushlari kichkina bolalarda beixtiyor qiziqish uyg'otadi.

Shuning uchun tarbiyachi kuzatish jarayonida jonivorlarni harakat qildirishi, masalan, ularni oziqlantirib bolalarning diqqatlarini jalb qilishi zarur. Bunda ozuqa ma'lum bir oraliqda qo'yilib, bolalarning e'tiborini jonivorning ozuqani qo'llari bilan ushlab, qisirlatib yeyishiga qaratiladi va

bolalarni hayvon harakatlarini soʻz bilan ifodalashga oʻrgatiladi. Keyingi kuzatishlarda tarbiyachi jonivorning u yoki bu harakati yuzasidan savollar berib, shu orqali bolalarni maʼlum soʻzlardan va savollardan foydalanishga undaydi.

Shunday qilib, bolalar savollar asosida yotgan aniq vazifani anivdashni sekin-asta oʻrganadilar.

Kichik yosh guruhda bolalar bilan oʻtkaziladigan kuzatishlar qisqa muddatli boʻlib, tarbiyachi bolalar diqqatini jalb qilish maqsadida ularning baʼzilariga suvdonga suv quyish, hayvonlarga ozuqa berish, baliqlarni oziqlantirish kabi topshiriqlarni beradi. «Qush Nodira uchun qoʻshiq aytyapti», «Baliq Madina tomonga suzyapti» kabi soʻzlardan foydalanadi.

Kuzatish oxirida sheʼr oʻqish, qoʻshiq aytish mumkin. Kichikintoylardan kuzatilayotgan narsa haqida gapirib berishni talab qilish nooʻrindir. Ob-havoni yoki jonsiz tabiatning boshqa obʼyektini kuzatish, oʻsimliklarni koʻrish jarayonida tarbiyachi bu kuzatishlarni oʻyin, mehnat bilan boglaydi (xona gullarini tomosha qilish jarayonida uning barglarini artishadi, QUM oʻynayotganlarida uning sochiluvchanligini bilib olishadi). Bu yosh guruhda oddiy tadqiqot (tekshirishlar) harakatlaridan koʻprok foydalanish maqsadga muvofiqdir: kaftni oftobga tutib issiqlikni sezish, gulni hidlash va hokazo.

**Oʻrta yosh guruh (4-5 yosh).** Bu yosh guruhdagi bolalar qiziquvchan boʻladilar, koʻp savollar beradilar, narsalarni sifatlar va xususiyatlari, atrof-muhit tabiati va ijtimoiy hayot hodisalari bilan qiziqib tanishadilar. Bu yoshdagi bolalarning diqqati ancha barqaror boʻlib qoladi. Ular endi kuzatilayotgan hodisalaridagi oddiy aloqalarni tushuna oladilar. Bolalarning ana shu sifatleri asosida oʻrta guruh tarbiyachisi tabiat bilan tanishtirishning yangi vazifalarini hal qiladi: bolalarni predmetlardagi harakterli xususiyatlarini koʻra bilishga, ularni qiyoslash va guruhlashga baʼzi hodisalar oʻrtasidagi oddiy aloqalarni aniqlashga oʻrgatadi, dastlabki elementar umumlashtirishni shakllantiradi.

Kuzatishdan koʻpincha tanish jism va hodisalar haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, yangi obʼyekt bilan tanishtirishda foydalaniladi. Shu bilan birga tarbiyachi bolalar bilan birgalik- da oʻsimliklarning oʻsishi va rivojlanishi, tabiat hayotidagi yorqin mavsumiy oʻzgarishlar yuzasidan uzoq muddatli kuzatishlarni ham tashkil qiladi. Dastlab bu kuzatishlar yakka obʼyekt (masalan, kuzda daraxtlardan birining barglari turli rangda boʻlishi, tabiat burchagida ekilgan loviyaning oʻsishi va hokazo) yuzasidan oʻtkaziladi, soʻngra esa uzoq muddatli kuzatish obʼyektini yuzasidan (masalan, bahorgi bog yoki daraxtzor, daraxtlarning barg yozishi, gullarning

ochilishi, ob-havo, qushlarni kuzatish) bo'lishi mumkin.

Tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatish davomida o'rta guruh bolalari kuzatilayotgan jismlarning harakterli belgilarini: hajmi, rangi, shakli, sathining mikdorini ko'rsatishni o'rganadilar. Natijada bolalardagi kuzatish asosida shakllanadigan tasavvurlar ancha aniqlashib boradi. Tarbiyachi bolalarga savol va topshiriqlarni ketma-ket berar ekan, shu asnoda o'zi tavsiya etayotgan rejaga rioya qilishga odatlantiradi. Kuzatishning maqsadi ko'pincha mehnat yoki tasviriy faoliyat bilan bog'liq bo'ladi. Misol uchun, boqqa sayohat tashkil etiladi va u yerda daraxtlar gullaganini ko'rish, ular bilan tanishish ishlari amalga oshiriladi. Ba'zan kuzatishlarda topishmoqlardan foydalanish yaxshi camara beradi. Bolalar topishmoqlarning javobini predmetni kuzatish jarayonida topadilar.

O'rta guruh bolalari kuzatish uchun zarur bo'lgan muhitni o'zlari yarata oladilar (masalan, ozuqa tayyorlash, jonivor uchun joy tayyorlash kabi). Bu esa bolalarning kuzatishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Xuddi kichik guruhdagidek kuzatish jarayonida xilma-xil tadqiqot (tekshirish) harakatlari, o'yin usullari, mehnat topshiriqlaridan foydalaniladi. Bu harakatlardan ba'zilar izlanish harakterida bo'lishi mumkin. Masalan, jonivorning nima yeyishini bilish uchun unga turli ozuqa berib ko'riladi.

O'rta guruh bolalari bilan olib boriladigan kuzatishlarda tarbiyachi taqqoslashdan foydalanishi muhimdir. Bunda tarbiyachi predmetning belgilarini ajratib, ikki predmetni qiyoslaydi (ulardan biri bolalarga oldindan tanish). Bolalar kuribgina qolmasdan, kerak bo'lganda ushlab, hidlab ham ko'rish yaxshi natijalarga olib keladi.

O'rta guruhda kuzatishning natijasi hikoya - tasvirlash bo'lishi mumkin. Tarbiyachi bolalarga hikoyaning qisqacha rejasini tavsiya etib, ularni ikki-uchta savol yordamida gapirib berishga undaydi.

Bolalarning mustaqil kuzatishlari o'rta guruhda paydo bo'ladi. Bunda ularni rag'batlantirish, kuzatilayotgan hodisani tushunishlarida yordam berish, ba'zan u yoki bu usulni qo'llashda maslahat berish, boshqa bolalarni ham kuzatishga jalb qilish, o'z kuzatish natijalarini o'rtoqlariga gapirib berishga undash lozim.

**Katta guruh (5-6 yosh).** Bu guruh bilan olib boriladigan kuzatishlar jarayonida bolalar ob'yektning harakterli va muhim belgilari bilan tanishadilar, o'simlik hamda hayvonlarning o'sishi va rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar ustida uzoq muddatli kuzatishlar olib boradilar.

Tarbiyachi kuzatishni tashkil qila turib, bolalarni ma'lum usullardan

foydalanishga, rejaga rioya qilishga, mustaqil ravishda murakkab bo'lmagan xulosalar chiqarishga o'rgatishda davom etadi. Bunda kuzatilayotgan jism va hodisalarda u yoki bu faoliyat uchun ahamiyatli yoki butun bir ob'jekt guruhining umumiy belgilari ajratib ko'rsatiladi, jismlarning tevarak-atrof bilan aloqasi va munosabati aniqlanadi.

O'simlik va hayvonlarning o'sishi hamda rivojlanishi, mavsumiy o'zgarishlar ustida olib borilgan kuzatishlarda bolalarning davr (fazo), bosqich yoki holatlarni ko'ra bilish xususiyatlari shakllantiriladi. Masalan, ular o'sayotgan no'xat novdalari, poyasi, barglari, gajaklar, gunchalar, gul va meva (qo'zoq)larning paydo bo'lishini sinchkovlik bilan kuzatadilar.

Bolalarni jism va hodisalarni ko'ra olish, eshitish va qabul qilib olishga o'rgatish tarbiyachining eng muhim vazifalaridan biridir. Bolalar ko'pincha ikkita tanish jismga qaraydilaru, ularni bir-biridan ajrata olmaydilar. Shuning uchun tarbiyachi kuzatishni tashkil qilargan ekan, aniq ob'jektning topishi, ularni ta'riflashi, savollarga javob berishga oid muayyan vazifalar qo'yishi kerak.

Kuzatishlarda qo'llaniladigan qiyoslash usullari borgan sari xilmaxillashadi: kuzatilayotgan obyekt rasmda tasvirlangan yoki tasavvurdagisi bilan qiyoslanadi. Faqat ayrim jismlargina emas, balki tabiat hodisalari ham (masalan, bog'ning bahor va qishdagi ko'rinishi) qiyoslanadi. Jismlarni taqqoslashda tarbiyachi bolalarning diqqatini bir necha umumiy bo'lgan belgilarga, ayniqsa, ularning muhim tomonlarini aks ettirgan belgilariga qaratadi. Masalan, bolalar turli hasharotlarni kuzatar ekanlar, ularning oltitadan oyoqchasi borligini bilib oladilar. Tarbiyachi kuzatilayotgan jism va hodisalarni qiyoslash uchun vazifa topshirargan ekan, bolalarning mustaqil ishlashga qiyinalib qolgan hollaridagina yordam berishga harakat qiladi.

Xuddi o'rta guruhdagidek kuzatish natijalari haqidagi ogzaki hisobot iloji boricha mustaqil bo'lishi lozim. Kuzatish natijalarini bolalar rasmlarda, yasagan buyumlarida aks ettirishlari mumkin.

**Maktabgacha tayyorlov guruhi (6-7 yosh).** Bu guruhdagi kuzatishlarga raxbarlik qilishning o'ziga xos xususiyatlari bolalarga ko'proq mustaqilliklarini namoyon qilish uchun sharoit yaratishdan iboratdir. Uzoq muddatli kuzatishlar uchun topshiriqlarning bir qismi bolalarga oldindan beriladi. Tarbiyachi ularni bolalarga ba'zi-ba'zida eslatib turadi. Kisqa muddatli kuzatishlarda tarbiyachi savol-topshiriqlardan foydalanadi. Masalan, "Yangi keltirilgan qush, bizda oldin yashagan qushdan nimasi bilan farq qiladi?" "Maktabgacha ta'lim tashkilotimizdagi daraxt va butalarning barglari bir xilda sargayganmi?" va shu kabilar. Ko'pincha savollar faqatgina bolalar ba'zi bir murakkabliklarga uchraganlaridagina

beriladi. Tadqiqotchilik harakatlaridan ham yuqoridagi holatda foydalaniladi.

Tayyorlov guruhi bolalari o'z kuzatishlarida oddiy moslamalar, ba'zan esa asboblari - termometr, flyuger, lupa, reyka (qorning qalinligini o'lchash uchun va shu kabilardan foydalanishlari mumkin.)

### **3. Tabiatga nisbatan insoniy munosabatlarni shakllantirishda tabiat materiallarini yig'ish va bolalarda ularni badiiy ijodda aks ettirish faoliyatlarini rivojlantirish.**

**Tayanch iboralar:** mehnatga nisbatan qiziqish, mehnatning turli usullari, tabiiy material, tabiat ustaxonasi, tabiiy material, ish faoliyati,

Mehnatga nisbatan qiziqish va muxabbatni shakllantirish bola tarbiyasidagi asosiy vazifalardan biri. Mehnatning turli usullari (kundalik mehnat, qo'l mehnati, tabiat qo'ynidagi mehnat)ni maktabgacha yoshdagi bolalarda rivojlantirish asosida kelgusi kasbini egallashiga asosni ham shakllantirish mumkin ekan. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida bolada tabiat bilan yaqinlashish, unga nisbatan ehtiyojkorona munosabatda bo'lish va birlamchi mehnat ko'nikmalarini shakllantirish imkoniga ega bo'lar ekanmiz.

Tabiiy material bolalarda ijodkorlikni shakllantirish uchun asosiy baza vazifasi bo'lib hisoblanadi. Bolalarni turli xil buyumlarni yasash jarayonida tabiat materiallardan foydalanishga o'rgatish juda muhimdir. Shu maqsadda tabiat materiallaridan narsa va buyumlarni yasashga o'rgatish ishlari tashkil etilmoqda. Tabiat materiallaridan narsa buyum yasash ustaxonasini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yoki oilada, mehnat burchagida yoki umumiy guruhda yaratish mumkin. U yerda barchasi qiziqarli bo'ladi, masalan: archa daraxtining shishkasidagi qatron (smola) isi, dengiz chig'anoqlarining rang barang tusi, quyosh nuri qaytarilayotgan pichan va xokazo.

Bolalar tabiat ustaxonasida mexmon bo'lishlariga qaramasdan, samarali ish faoliyatini amalga oshirishlarini nazorat qilib, ularga tizimli mehnat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berish zaruriy sharoitlarni yaratish lozim. Tabiat materiallaridan o'yinchoqlar va turli narsalarni yasash juda yoqimli, odatda qiziqarli va o'zidan og'ir mehnatni talab qiladi. Bolalar bunday mehnat bilan o'zlari istagan holda shug'ullanishlari uchun ularning fantaziyalari, ijodiy yondashuvlarini

shakllantirish lozim, bu bilan esa ko'nikmalarni shakllantirish orqali malaka ham rivojlanadi. Tabiiy materiallarni bola faoliyatida qo'llanilishiga A.S.Makarenko alohida e'tibor qaratgan. Uning ta'kidlashicha "inson faoliyatiga yaqin bo'lgan materiallar(loy, daraxt, qog'oz va x.k.) dan bolada qadriyatli va madaniyatli bo'lishini ta'minlaydi... bunday materialdan tayyorlangan o'yinchoqlarda reallik mavjud bo'lib, nafaqat fantaziyani, balki sof ijodkorlikni shakllantirish uchun ham asos mavjud.

Tabiatdagi sayrlardan bolalar ko'pincha turli barglar, shox shabbalar, archa shishkalarini olib keladilar; suv omborlariga bo'lgan ekskursiyalardan esa chiroyli toshlar va chig'anoqlarni. Ular uzoq muddat mobaynida o'zlari yig'ib kelgan materiallarni tomosha qiladilar, ushlab ko'radilar, ularni o'rganadilar. Bu ularga har bir materialni shaklsi, rangi va xususiyatini eslab qolishga yordam beradi. Masalan ular yong'oqni dumaloq, jigarrang, notekis po'stloq ekanligini bilib oladilar va shu tariqa qolgan narsalarni ham o'rganadilar.

Tabiat bilan uchrashuv bolalarning fikr doirasini kengaytiradi, ularning sinchkovlab ko'rish ko'nikmalarini mukammallashtiradi, tabiiy materiallardan narsalar yasaganda idrokning umumiylik xususiyatini saqlab qoladilar.

Turli narsalarni yasash boladan harakatlarning epchilligini talab qiladi, agar bola avvaliga o'yinchoqni buzib qo'yishi mumkin bo'lgan bo'lsa, keyinchalik tizimli amalga oshirilgan ish natijasida uning qo'llari ko'nika boshlaydi. Buning barchasi bola mayda qo'l motorikasini rivojlantirishga, uning qo'llarini yozuvga o'rgatishga, maktab faoliyatiga tayyorlab boradi. Qo'l mehnati sensomotorikani rivojlanishiga yordam beradi, harakatlar koordinasiyasini mukammallashtirishga, epchillik, egiluvchanlik, aniqlikni oshiradi. Buyumlarni yasashda sekin asta maxsus ko'nikma va malakalar tizimi shakllanadi. V.A.Suxomlinskiy aytishicha: "bolalarning qobiliyatlari ularning barmoqlarini uchida joylashgan. Barmoqlardan, aytganda, obrazli ijodiy xayollarga yo'l ochiladi".

Tabiiy materiallardan foydalanish ayniqsa bolalarning aqliy rivojlanishiga, tafakkuriga ta'sir ko'rsatadi. Agar tabiiy materiallardan buyumlarni yasash jarayonini kuzatadigan bo'lsak, ko'rishimiz mumkinki bolalar avvaliga namunani o'rganadi, uning tuzilmasini, yasaliş usullarini o'rganadi; bu jarayonni o'zlashtirib bo'lgach ish qiyinlashadi: bolalarga tayyor ishning sur'ati ko'rsatiladi, ular boshlang'ich taxlilsiz narsani yasashni boshlaydilar.

Tabiiy materialdan o'yinchoqlarni yasash jarayoni bolalarda diqqatni rivojlantiradi, uning barqarorligini oshirib, ixtiyoriy diqqat turini

shakllantiradi. Masalan, kuchukchani yasash jarayonida bolalarga avval oyoqchalar uchun joyni qaerda qoldirish kerakligini bosh va qolgan qismlarni qanday joylashtirish kerak ekanligini kuzatish aytiladi.

Tabiiy vositalardan yasalgan narsalar bolalarning qiziquvchanligini qondiradi. Bunday mehnat turida yangilik, ijodiy izlanish, yana yaxshi natijalarga erishishga intilish turadi.

Bolalarning o'yinchoqlarni yasash jarayonidagi, mehnat jarayonidagi muloqotdan zavqlanish, chiroyli o'yinchoqni yasashdan rohatlanish, sog'lom hissiy munosabati shakllanishi va umumiy rivojlanishi uchun juda muhimdir. Bolalarga ayniqsa chig'anoqlardan o'yinchoqlarni yasash katta zavq beradi. Ularning o'z qo'llari bilan yasagan o'yinchoqlari eng sevimlisiga aylanadi. Bunday hissiyotlar bolalarda mehnatsevarlikni shakllantirish uchun katta stimul hisoblanadi.

Tabiiy materiallardan o'yinchoqlarni yasash bola shaxsini shakllantirishda, uning harakterini tarbiyalashda katta yordam beradi. Chunki o'yinchoq yasash u qadar oson ish emas. Ularni yasash ma'lum barqaror irodaviy harakatlarni taqozo etadi: bola qiyinchilikka duch kelganida, muammolarni o'zi hal qilishga harakat qila boshlaydi. Ba'zida qaysidir ishni bajarish bolaga qiyinchilik tug'diradi: masalan qandaydir hayvonning tana qismi uchun ma'lum bir narsani topish, qismlarni birlashtirish va hokazo. Kattalar yordamida esa bola o'z xatolarini sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etishni o'rganadi. Shu tariqa unda maqsadga yo'nalganlik, boshlagan ishni oxiriga yetkazish ko'nikmalari shakllanadi.

Mehnatning bunday turida bolada o'z ish faoliyatini baholash imkoni paydo bo'ladi. O'yinchoqlarni yasashda bolalar nafaqat namunani taxlil qilish va keyingi ishlarini rejalashtirish, balki o'zini ish jarayonida boshqarishni, o'zining natijalarini namuna bilan taqqoslashni o'rganadi.

Tabiiy anjomlardan o'yinchoqlarni yasash mehnati individual kabi jamoaviy bo'lishi ham mumkin. Kattalarga ham jamoaviy ish katta quvonch va zavq olib keladi. Bunda asosiysi bolalar jamoaviy mehnatning natijaviyligini anglashi, uning yutuqlarini tushunishlari kerak.

Bolalar bilan jamoaviy ishning turli usullarini ularda jamoaviylikni inobatga olgan holda o'z ish faoliyatini rejalashtirish, operasiyalarni taqsimlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun qo'llash maqsadga muvofiq. Jamoaviy mehnat bolalarda jamoaviylikni, do'stona ahloqiy munosabatlarni, hamkorlikni shakllanirishda katta ahamiyat kasb etadi. Kattalar tomonidan rag'batlantirilib boriladigan jamoaviy mehnat ayniqsa bolalarda yangi ishlarni bajarishga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi. Har bir ishga ular yanada

katta ishtiyoq bilan qatnashadilar. Shu tariqa, to'g'ri tashkil etilgan tabiiy materialdan foydalanish bo'yicha ta'limiy, tarbiyaviy faoliyat bolalarni har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi.

Mazkur qo'llanmaning asosiy maqsadi yuqori va tayyorlov guruhi bolalarini qo'l mehnati faoliyatlarini tashkil etishda ko'maklashish, uning asosiy tamoyili bo'lsa bolalarning yosh xususiyatlari, malaka va ko'nikmalarini inobatga olgan holda topshiriqlarni oddiydan murakkabga tomon o'zgartirib borish. Turli tabiiy materiallar - archa shishkasi, jelud, rogoz, daraxt po'stlog'i, smola va x.k. dan - yasalgan o'yinchoqlar bu yerda bolalarga taklif etiladigan ketma ketlikda taqdim etilgan.

**Qo'l mehnati.** Bolalar tomonidan o'yinchoqlarni va turli tabiat materiallaridan predmetlarni yasash maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bolalarni tarbiyasida, ayniqsa tayyorlov guruhlaridagi bolalarning tarbiyasida juda muhim. Mehnatning bu turi bolalarni rivojlanishiga yaxshi ta'sir etadi. O'yinchoqlarni yasash politexnik ta'limning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa ularning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Qo'l mehnati bolalarda konstruktiv qobiliyatlarni, foydali amaliy ko'nikma va malakalarni, ishga nisbatan qiziqishni, o'z imkoniyatlarini baholashni, yanada yaxshiroq ishlash ishtiyoqini rivojlantiradi. Mehnat jarayonida bolalar eng sodda texnik vositalar bilan tanishadilar, ba'zi anjomlar bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'ladilar, ular bilan extiyotkorona foydalanishi boshlaydilar. O'z malakalarida turli materiallarni xususiyatlarini tushunadlar: materiallardan turli narsalar yasaladi, biror predmetlarning qismlarini birlashtirishda ishlatiladi va x.k.

Masalan, qog'ozdan foydali narsalarni yasashda bolalar qog'ozni qirqish, yopishtirish va buklash mumkinligini bilib oladilar. Ulardan archa o'yinchoqlarini, qutichalarni va shu kabi ko'plab premetlarni yasash mumkin. Yog'ochni arralash, yopishtirish, mix bilan qoqish va boshqalarni o'rganadilar. Yog'och bilan ishlagan bolalar arra, qisqich, bolg'acha kabi predmetlardan foydalanadilar. Ular ko'z bilan chamalab, lineyka yordamida va shu kabi boshqa usullarda o'lchashni o'rganadilar.

Tabiiy materiallar bilan ishlash, ya'ni bargalar, jeludlar, archa shishkalari, tarbiyachiga ularning keng qamrovli xususiyatlarini o'rganish imkonini beradi: rangi, xususiyati, qattiqligi. Bundan tashqari o'z ishining mavzusini tanlagan bola fantaziya qilishni boshlaydi. U tabiiy materiallarda turli predmetlarni ko'rib, tasavvurini, tafakkurini, ijodkorligini yanada boyitadi. Turli predmetlarni o'ynash va kundalik uchun yasash avval pedagog tomonidan boshqariladi, so'ng esa bola tomonidan mustaqil bajariladi, shuningdek bola oldiga maqsad qo'yib uni oxirigacha bajarish

ishtiyoqini tug'diradi. Bolalar oldinga qo'ylan aqsad asosida harakatlanish yo'llarini, materialga ishlov berish usullarini, uning qismlarini birlashtirishni o'rganadi.

Tabiiy material bilan ishlashning avvalida uning tarkibini mustaqil anglab, o'zlarining qobiliyatlarini to'liq inobatga olmay kuchlari yetmaydigan maqsadni o'z oldiga qo'yadi. Ba'zida bolalar materialning "ketidan" ketadilar. O'yinchoq yasashni boshlagan bola yangi detalni olgach oldinga qo'ygan maqsadidan chetlashib yangi o'yinchoq yasashni boshlaydi va faoliyat shu tariqa davom etadi.

Shuning uchun bu xususiyatni ham inobatga olib, o'yinchoqni yasashdan oldin uning qismlarini o'ylab ko'rish va tayyorlab olish kerak. Bola bilan u nima yasashni istashi va buni qanday amalga oshirishi to'g'risida gaplashib olish kerak. Shuning uchun predmetlarni tanlash va tayyorlash o'yinchoqlarni yasash uchun muhim bosqich hisoblanadi.

Tarbiyachi bolalarga ular o'ylagan predmetlari uchun materiallarni tanlashga va ularni tayyorlashga, birlashtirishga yordam beradi. Ish jarayonida qismlarni birlashtirish uchun asosan plastilindan foydalaniladi. Bu o'yinchoqning tashqi ko'rinishini xunuklashtiradi; birlashgan joyi esa u darajada mustaxkam bo'lmaydi.

Shuning uchun bunday usulni tavsiya etilmaydi. Yaxshisi kleydan foydalanish kerak.

Ishni bajarishdan avval o'ylab ko'rish bolaga mehnatni bajarish jarayonida o'zining kuchini predmetni yanada yaxshiroq bajarishga, tezroq oldinga qo'ygan maqsadga erishishga harakat qilishga yo'naltiradi. Yetarlicha ko'nikmalari bo'lmaganida ular boshlagan ishini oxiriga yetkazmaydilar, fikrini o'zgartiradi, taqlid yo'liga o'tib oladilar. Ko'nikmalarni o'z vaqtida shakllantirish ijodiy faoliyatga o'zgartirishlar kiritadi.

Ko'nikmalarga ega bo'lgan bolalar o'zlarining ijodini tezroq hayotga tatbiq etadi. Ular yanada yuqoriroq talablarni ham bajara oladilar: o'zlari o'yinchoq yasashni, qanday materialdan foydalanishni o'ylab ko'radilar. Shu tariqa masalan qayiqchani qog'oz, po'stloq va yog'ochdan yasaganlarida bolalar har bir materialning xususiyatini bilib oladilar va shunga mos tarzda yasaydilar.

Bolalar bilan ishlashda ularga o'z ijodkorligini namoyon qilish uchun vaqt berish kerak. Bolalarning narsalarni yasash istagining manbai bir tomondan atrofda hayotlari bo'lsa, ikkinchi tomondan rivojlantiruvchi o'yin hisoblanadi. Bolalarga avval predmetlarni ko'rsatish, so'ng ularni mustaqil tarzda yasash imkonini berish kerak.

Kuzatuvchanlikni rivojlantirish, predmetning harakterli xususiyatlarini ko'ra olish, ish jarayonida ularni qo'llay olish tarbiyaning muhim vazifasi. Predmet haqidagi aniq tasavvur ishni bajarish sifatiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Shu tariqa bolalar qayiqcha yasaganlarida ishlaridan qoniqmay tarbiyachidan uning rasmini ko'rsatishlarini so'raydilar va bir birlari bilan maslahatlashib ko'radilar.

**Tabiat materiallari.** Bolalarni tabiatning go'zalliggi bilan iloji boricha erta tanishtirish kerak: ularga gullarning, turli xil o'simliklarning mevalari, kuzgi barglar, dengiz chig'anoqlari va suv osti qirolligining g'aroyib mavjudotlaridan hayratlanishga o'rgatish kerak. Har bir gul, hayvonot olamining o'ziga xosligini sezishimiz mumkin: shakli, rangi, yuzasi va boshqalarda. Shuning uchun, tabiiy materiallar bilan ishlashda bularning barchasini hisobga olish kerak.

Tabiiy material bilan ishlashning muhim bosqichi uni tayyorlab olishdir. Bolalarni tabiiy materiallar bilan tanishtirish va uni tayyorlash bir vaqtning o'zida bolalarda jonli va jonsiz tabiatga g'amxo'rlik munosabatini shakllantirish bilan birga bo'lishi kerak. Sayohat paytida, yurish paytida tarbiyachi (yoki ota-onalar) ishtirok etishlari va materiallarni to'plash va tanlashni nazorat qilishlari kerak.

To'plangan materiallarni maxsus qutilarga, mehnat burchagida yoki tabiat xonasida saqlash juda muhim. Ularni xususiyati va xajmi bo'yicha bir xil qutilarda saqlash ayniqsa qo'l keladi.

Tabiiy materiallar bilan ishlashda barcha harakatlar stol ustidagi 20x20 sm hajmidagi ish doskasida bajarilishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eng ko'p ishlatiladigan tabiiy materiallarni ko'rib chiqamiz.

**Shishkalar.** Ignali archa daraxtlari mevalari – shishkalar – o'yinchoqlar va narsalar uchun juda yaxshi vositadir. Shakliga ko'ra ular odam yoki hayvonlarning tanasini o'xshatadi. Shishkalar yaxshi yopishadi, shuningdek shakli, hajmi va tashqi ko'rinishi ham juda xilma-xil: sadr, sarv, archa, qarag'ay bo'ladi. Narsalarni yasashda ochilmagan shishkalardan foydalanish yaxshidir, chunki ular bilan ishlash osonroq bo'ladi, yig'ilgan shishkalar (ayniqsa, qarag'ay) nam tuproqda saqlanishi kerak, shunda ular sekinroq quriydi va shakllarini uzoqroq saqlaydi. Tabiiy materiallarni yig'ib bo'linganidan so'ng ularni shaklsiga qarab ajratish lozim.

**Ignali archalar.** Bunday materiallardan masalan, tipratikan ignalarini, o'rgimchak oyoqlari va mushukning tirnoqlarini, qo'g'irchoq yubkalarini yasash mumkin. Bunday archalar qarag'ay, sadr kabi daraxtlar o'sadigan

joylarda ko'p o'sadi. Ish jarayonida yashil ignalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

**Yong'oqlar.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinchoqlarni yasashda o'rmon yong'oqlari, grek yong'oqlari, yer yong'oqlar, ked yong'oqlari va xandon pistalardan foydalanish mumkin.

O'rmon yong'oqlaridan o'yinchoqlarning boshini yasashda foydalanish mumkin (masalan, "quvnoq odamchaning", "hayvonchalarning" boshini). O'rmon yong'oqlarini ular pishib yetilganidan so'ng terib olish muhim, avgust oyida uni shlyapasi bilan birga terish kerak, bu shlyapadan ham o'yinchoqlar yasashda foydalanish mumkin. Bu yong'oqchalarni doskada quritib, so'ng maxsus qutilarda saqlaydilar.

O'rmon yong'oqlarining o'sti juda qalin bo'ladi. Uni pichoq bilan kesish yoki igna bilan teshish qiyin. O'ta qurigan yong'oqlar bilan ham ishlash juda qiyin, shuning uchun ulardan foydalanmaslik ma'qul.

Yong'oqlardan o'yinchoqlar yasashda qo'shimcha vosita sifatida qo'llanilishi mumkin, masalan hayvonlarning panjalari, o'rmon odamlarining qo'llari; ular oson yopishadilar, hamda ular bilan ishlash ham oson.

Grek yong'oqlarining po'stlog'idan (yarim holda) qayiqchalar, aravachalar, toshbaqalar, qo'ng'izlar va boshqalarni yasashda foydalanish mumkin. Butun holda ham ulardan foydalanish mumkin, masalan qor bola yasashda.

Yong'oqlarni bir tekisda, to'g'ri joydan ajaratish uchun ularni siqib olib pichoq qo'ygan holda ustidan bolg'acha bilan urish kerak bu ishni faqatgina tarbiyachi bajarishi kerak.

Yer yong'oqlari bilan ishlash esa juda oson, ularni kesish, igna bilan teshish oson, chunki bunday yong'oqlarning po'sti yupqa va yengil bo'ladi. Yer yong'oqlarining po'stidan original o'yinchoqlar chiqadi (kuchukchalar, mushukchalar). Ularni quruq joyida saqlash mumkin, chunki bunday yong'oqlar quriganda po'sti qalinlashib qolmaydi.

**Kashtan.** Kashtanlar oddiy o'yinchoqlarni yasashda juda qo'l keladi. Ularning po'sti yaltirab turadi va chiroyli jigarrang tusga ega. Yangi kashtanning po'sti yupqa, igna bilan teshish oson. Butun kashtanlardan qo'g'ircholarning tanasi va boshini yasashda foydalanish mumkin. Ularni salqin joylarda saqlash lozim.

**Achchiq yong'oq.** Eman daraxtining mevalari turli shakl va hajmda bo'ladi. Bir tomondan ular kuchli o'simta – plyuska bilan o'ralgan. Jeludlar senyatr, oktabr oylarida yetiladi. Ularni yetilib, yerga tushgandan so'ng yig'ib olish lozim. O'yinchoqlar yasash uchun ularning yorilgan va

eskilarini yig'ish mumkin emas. Jeludlar bilan bir vaqtda ularning qopqoqchalarini ham yig'ish kerak. Bu qopqoqchalardan ham o'yinchoqlar yasashda keng qo'llanilish mumkin. Jeludlarni hajmi va shakliga qarab terish kerak. O'yinchoqlar yasash ishida yangi yetilganlarini yig'ish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki ular uzoqroq muddatga yetadi va igna bilan teshish ham qulay.

Ulardan odamchalar, hayvonchalarning tanasini, boshqa tabiiy materiallardan tayyorlangan narsalarning qismlarini yasashda ham foydalanish mumkin. Uzunroqlaridan jirafa, ot, eshshak kabi hayvonlarning tanasini, kichkina, dumaloqlaridan esa ularning boshini yasash mumkin. Odamchalarni yasashda ularni odamchalarning qalpoqchalari sifatida foydalanish mumkin. Ularni ham salqin va nam joyda saqlash maqsaga muvofiq bo'ladi.

**Daraxt po'stlog'i.** Daraxt po'stlog'i tashqi ko'rinishi (rangi, qalinligi) ga qarab farq qiladi. Eman, qarag'ay, qayin daraxtlari po'stlog'idan (o'rtacha qalinlikda) turli narsalar uchun asos sifatida, yoki tabiiy materialdan yasaladigan boshqa o'yinchoqlar uchun foydalanish mumkin. Bundan tashqari o'yinchoq yasashda qo'shimcha vosita sifatida ham foydalaniladi. Ulardan arg'imchoqning o'tirish joyini, yoki tekis qayiqchalarni yasash mumkin.

Agar daraxt po'stlog'ini maxsus lak bilan qoplasa tayyorlangan o'yinchoqlar yanada chiroyli ko'rinadi, chunki lak bilan bo'yalgan po'stloq chiroyli va jilo beradi.

Qayin daraxtining po'stlog'i o'yinchoqlar uchun tanlanangan eng chidamli material hisoblanadi. Ish jarayoni uchun quruq joyda qurigan po'stloqdan foydalanish maqsadga muvofiq, chunki ular mustaxkamroq va egiluvchanroq bo'ladi.

Qayin daraxtining po'stlog'ini kech bahor yoki erta yozda yig'ish ma'qul, chunki bu vaqtda ular juda chiroyli tusda bo'ladi, shuningdek, ularni arralab tashlangan yoki singan shohlardan olish lozim. Qayin daraxtining po'stlog'i quyidagicha olinadi: 20-25 sm lar atrofida kesiladi va sekin daraxt ustidan shilinadi, so'ng ichki tomoni nam mato bilan artilib, ustki qismi qumqog'oz bilan silliqlanadi.

Yangi arralangan yoki shamolda singan shoxlardan olingan po'stloqqa ishlov berish ayniqsa oson, agar issiq suvga solinsa yanada osonroq bo'ladi. Issiq suvdan olingach po'stloqlarni tekis joyga ustiga og'irroq narsa bilan joylashtirish kerak, bunda u tekis holda quriydi.

Qayin daraxti po'stlog'i quruq va salqin joyda saqlanishi lozim, chunki quyoshdan ular egiluvchanligini yo'qotib, o'ralib qoladi. Uning bu

xususiyatini ham ba'zi o'yinchoqlarni yasashda qo'llash mumkin. Po'stloqni buqisht uchun uni issiq suvga solish va quritish kerak, qurish vaqtida po'stloq o'zi bukiladi.

**Shoxlar.** Turli shoxlar o'yinchoqlarni yasashda ba'zi qismlarida qo'llaniladi: qo'llar, oyoqlar, bo'yin va h.k. O'yinchoqlar uchun archa, siren, qarag'ay daraxtlarining shoxlarini qo'llash maqsadga muvofiq. Chunki ular qurigan vaqtda ham oson sinmaydilar.

**Shoxlarni yig'ish.** Bu unchalik oson ish emas, bu ko'p vaqt, chidamlilik, tartibni talab qiladi. Bolalarga tinmay eslatib turish kerak, shoxlarni faqat qurug'ini, lekin o'ta qurib ketmaganlarini yig'ish kerakligini aytish lozim.

**Ildizlar.** Tabiiy materiallardan narsalar yasashda ildizlardan ham foyalanish mumkin. Ular o'zlarining g'aroyib shakllari bilan ba'zi hayvonlar, ularning a'zolarini eslatadi. Bunda ayniqsa bolalarga kuzatuvchanlik va obrazli tasavvurni o'rgatish lozim. Bolalar fantaziyasi o'ralgan shoxlarda o'rgimchak, sakkizoyoq, toychoqning boshini ko'rishlari mumkin. (bunda bolalarga syujetli sahnani ko'rsatish tavsiya etiladi).

Eski shoxchalarni daryo bo'ylaridan ham topish mumkin. Bunday materiallarni yig'ishda bolalarga tirik daraxtlarning ildizini olish mumkin emasligini yodga solib turish kerak.

To'plangan shabбалarni yuvib nam joyda saqlash maqsadga muvofiq.

**Barglar.** O'yinchoqlarni yasashda qiziqarli va muhim qism sifatida barglar asosiy predmet hisoblanadi. Ular turli shakl va ranglarga ega. Eman va zarang daraxtlarining yirik barglarini bolalar kemalarining yelkanlari sifatida foydalanadilar.

Barglarni shuningdek kapalaklarning qanotlari, baliqlarning suzgichlarini yasashda ham qo'llash mumkin (bu o'yinchoqlar barglar va shishkalardan yasaladi). Barglarni ular eng chiroyli tusga kiradigan kuz faslida terish kerak.

Barglarni saqlash va keyinchalik qo'llay olish uchun ularni to'g'ri tayyorlash kerak. Yig'ib olingan xilma-xil barglar qog'ozlar orasiga qo'yilib illiq dazmol bosiladi. Bundan so'ng yupqa karton yoki qog'ozlar orasiga qo'yib, ustidan og'ir narsa bostiriladi. Barglar uzoq yil xizmat qilishi uchun qog'ozlarni almashtirib turish maqsadga muvofiq.

**Urug'lar.** Tabiiy materialdan yasaladigan o'inchoqlarga daraxtlar (zarang va yasen), gullar, turli ekinlarning urug'lari qo'shimcha bo'ladi. Ular bolalarga qanotchalar sifatida tanish. Ulardan ninachi uchun qanot, quyonchani quloqlarini, baliqchani suzgichlarini, jo'ka (lipa) daraxtining urug'laridan kosmonavtlarning antennalari, hayvonlarning

panjalari; tarvuz, qovun, kungaboqar va shu kabi o'simliklarning urug'laridan o'yinchoqlarning ko'zlarini yasash mumkin. Urug'larni kuz faslida yig'ish kerak.

**Na'matak, ryabina.** Turli qiziqarli o'yinchoqlarni shipovnik va ryabina mevalaridan ham tayyorlash mumkin. Bu maxsuslotlarni eng yaxshi sifati ularni ish jarayonida qo'llash mumkinligida. Bu mevalar bilan ishlash juda oson.

Bunday materiallar bilan yoz faslida ishlash juda qulay, chunki yangi mevalarni gugurt cho'plari, archa ignalari bilan birlashtirish osondir.

Ularini uzoq muddat saqlab bo'lmaydi, chunki mevalar qurib, qotib, o'z shaklsini yo'qotadi.

Ulardan turli hayvonchalarni, kichik gnomchalarni, taqimchoqlarni yasash mumkin.

**Mak.** Ish jarayonida bu o'simlikning mevalari qo'llaniladi, yupqa devorli yengil qutichalar. Ular dumaloq shaklda bo'lib savatchalar, idishlar va boshqa turli narsalarni yasashda qo'llaniladi. Ularni igna bilan teshishda juda ehtiyot bo'lish kerak, chunki juda mo'rt bo'lib, tez sinib, parchalanib ketishi mumkin.

**Kuvshinka.** Uning mevalari nozik bo'yinli ko'zachalarga o'xshaydi. Ularni hayvonlarning boshi, idish va boshqa o'yinchoqlarning muhim detallari sifatida qo'llash mumkin. Yig'ilgan material ishdan avval quritiladi. Ularni quruq va salqin joyda saqlash maqsadga muvofiq.

**Makkajo'xori popuklari.** O'yinchoqlar yasashda ularning ham o'rni beqiyos.

*Estetik zavq beruvchi bu masalliq bilan ish faoliyatini tashkil etishda, bolalar o'z hududlarida o'zlari uni yetishtirsalargina amalga oshirish mumkin! Faqat uni donlarisiz ishlatish kerak!*

Makkajo'xoridan qushlar, otlar, qayiq va boshqalarni yasash mumkin. Bolalar makkajo'xorini endi yetilgan paytda ishlatishlari maqsadga muvofiq, chunki bu holda masalliq bilan ishlash osonroq, bolalar o'zlari mustaqil tarzda uni kesishlari, gna bilan teishlari mumkin. Chunki quriganidan so'ng u qotadi va undan foydalanish qiyinlashadi.

Makkajo'xori mevasidan ajratilgan barglardan ham narsalar yasashda foydalanish mumkin. Ular yumshoq bo'lib, ishlov berish ham oson. Undan quyoncha, sichqoncha, ninachi, qo'g'irchoq, shuningdek turli lentalar, sumkalar, belbog'lar, kitob uchun asoslar yasash mumkin. Narsa yasashdan oldin ular quritiladi, so'ng nam matoga 2,3 soatga o'rab qo'yiladi, undan keyin ish uchun kerakli bo'lgan miqdorda olinadi.

**Somon.** Bu material bilan ishlash yoqimli: u silliq, egiluvchan va shirin ifor taratadi. Ulardan narsa yasashda nafaqat bug'doy, balki tariq va guruch somonlari ham ishlatiladi. Somonchalar tekis va urinmagan bo'lishi kerak. Ularning ishga yaroqsiz qismi kesib olib tashlanadi. Somonlarni uzunligi bo'yicha taxlab, keyingi yoz fasligacha shunday saqlash maqsaga muvofiq. Ularni qo'llashdan avval bir sutkaga usti yopiladigan idishda issiq suvga solib qo'yiladi, bundan so'ng ular elastik bo'ladi.

Somondan yasaladigan o'yinchoqlar to'qish, o'rish, o'rash, bir biriga pishtirish orqali amalga oshiriladi. Applikasiyalar uchun somonni ikki qismga ajratib, so'ng izli qog'ozga yopishtiriladi. Somonning turli ranglarini olish uchun turli darajada qizdirilgan dazmol bosish kerak. Somonni sekin asta, yoriq qoldirmasdan yopishtirish kerak. Natijada somondan butun qism hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan qism ustiga qalamda rasm tushuriladi. Rasmni pichoq yordamida kesib olinadi, tayyor bo'lgan shakllarni mato, kardonga yoki yog'ochga yopishtiriladi. Bu somon bilan ishlashning eng sodda shakli.

Agar somon turli tusda bo'lsa buni ham inobatga olish kerak. Somonni turli ranglarga bo'yash mumkin. Uni PVA kleyida yopishtirish osonroq. Somondan noodatiy, chiroyli o'yinchoqlar hosil bo'ladi.

**Rogoz.** Janubning qamishzor soylarda o'sadigan yumshoq va mayin jigarrang tusdagi bambuklardir, ular ko'llar, ariqlarning bo'yida o'sadi. Rogoz gullari o'yinchoqlar uchun qiziqarli material hisoblanadi, ulardan g'aroyib ko'rinishdagi hayvonlarni, shuningdek turli narsalarni yasash mumkin.

**Rogoz barglari** (ingichka va uzun) ni ham o'yinchoqlar yasashda qo'llash mumkin, faqat makkajo'xori barglariga ishlov bergan kabi.

**Tomosha qovoqlar.** Tomosha qovoqlar turli bodom va oxra rangda bo'ladi. Ularni shuningdek ertakdagi yalmog'izlarning tanasini yasashda foydalanish ham mumkin; ular yaxshi saqlanib qoladi va quriganida ham shaklini yo'qotmaydi.

**O't o'lanlar.** Turli narsalarni yasashda o't o'lanlardan ham foydalanish mumkin, lekin shuni unutmaslik kerakki, ular quriganda sinuvchan bo'lib qoladi. O't o'lanlardan narsalarni birlashtirib boylashda foydalanish mumkin.

**Mox.** Turli narsalar yasashda moxdan tabiiy rang, tabiiylik, tabiat ko'rinishini berish uchun qo'llaniladi, moxni turli kleylar bilan yopishtirsa bo'ladi.

**Qush patlari.** Ish jarayonida turli hajm, rang va ko'rinishdagi patlardan foydalansa bo'ladi, lekin ularni ishlatishdan avval yuvib tabiiy ko'rinishiga qaytarish kerak.

**Chig'anoqlar.** Daryo, dengiz va ariq bo'ylarida jonivorlari tashlab ketilgan chig'anoqlarni uchratish mumkin, ularning ko'pchiligi tashqi ko'rinishi, shakliga ko'ra turlichadir.

O'yinchoqlarni yasash uchun chig'anoqlarni yig'ish bolalar bilan tarbiyachilarning hamkorlikdagi ekskursiyalari mobaynida amalga oshiriladi. Yig'ilgan chig'anoqlar kichik chiyotka bilan yuvib, so'ng quritiladi. Qurigan chig'anoqlar ko'rinishi va hajmi bo'yicha saralanadi. Ularni turli haroratli sharoitda saqlash mumkin.

Chig'anoqlardan turli hayvonlarni yasash mumkin. Shuningdek qo'shimcha vosita sifatida ham foydalanish mumkin.

#### **Qo'shimcha materiallar.**

O'yinchoqlar yasashda shuningdek qo'shimcha vositalaran ham foydalaniladi.

**Qog'oz.** Yozuv, plakat, qoplama, gulqog'oz, afisha, ko'chirma va pergament qog'ozlarni ajratish mumkin. Bu qog'ozlarning barchasini qalinligi, tusi, qo'llanilishiga ko'ra farqlanadi. Bolalar kesish, yopishtirish, buklashga qulay bo'lgan rangli qog'ozlar bilan ishlashni yaxshi ko'rishadi.

**Zar qog'oz.** O'yinchoqlarni bezatish va qoplash uchun qo'llaniladigan yupqa metall listlarga aytiladi.

**Plastilin.** Bu materialdan osonroq bo'lgan o'yinchoqlarni qismlarini bir biriga yopishtirishda foydalanish, shuningdek tabiiy materiallardan narsalarni yasashning boshlang'ich bosqichida foydalanish mumkin.

**Simlar.** Simlar o'yinchoqlarning qismlarini birlashtirishda, somon o'yinchoqlarning asosini yasashda foydalanishi mumkin. Eng qulay sim 0,35, 0,29 mm dagisidir. Asos uchun 1 – 1,5 mm diametrdagi qalinroq sim kerak.

**Iplar.** Ularni eng yaxshisi qalin va ranglilaridan foydalanish zarurdir (№10).

**Yelim.** Turli markadagi kleylar kerak: PVA oq kleyi va boshqalar. Ammo maktabgacha yoshdagi bolalar bilan PVA yelimini ishlatish maqsadga muvofiq.

**Rangli matolar.** Turli matolarning qiyqimlari ham narsalar tayyorlashda juda muhim.

Qo'shimcha materiallarning har bir turidan foydalanish bolalarning ijodkorligi, mahorati, zukkoligi, ularning tasavvurini rivojlanishi darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Qo'shimcha materiallar sifatida shuningdek mayda toshlar, uzum danaklari, leska va boshqalarni ishlatish mumkin.

Qo'shimcha materiallar uchun alohida quti tayyorlab qo'yish muhimdir.

### **Instrumentlar**

Turli narsalar yasashda materiallardan tashqari instrumentlar ham kerak bo'ladi.

**Shilo.** Shilo tutgichining qalinligi taxminan 5 – 7 sm, diametri – 1,5 – 2 sm bo'lishi; igna qismining uzunligi 3 – 3,5sm. Shilo yo'g'on emas, lekin mustaxkam materialdan yasalgan bo'lishi kerak.

**Qaychilar.** Bolalarga ish uchun o'zlarining qo'llariga mos keladigan kichkina, qulay qaychilar kerak.

**Pichoq.** Kichkina, o'tmas uchli, qining uzunligi 13-15 sm li pichoq tavsiya etiladi.

**Igna.** Yo'g'onroq, tikuv ignasi kerak, i salfetskada yoki ip g'altagiga kirgizib qo'yilgan holda saqlash lozim.

**Qora qalam.** O'yinchoqlarning konturini chizish uchun kerak; masalan matreshkaning sochlari va xokazolar uchun. Turli yumshoqlikdagi qalamlardan foydalish mumkin (eng maqbuli 2M).

**Bo'yoqlar.** O'yinchoqlarni ba'zi qismlarini bo'yash uchun kerak. Alohida idishdagi, guash bo'yoqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu juda quyuq bo'yoq bo'lib foydalanishdan avval suv bilan aralashtirish kerak.

**Mo'y qalamlar.** Yumshoqlari bo'yash uchun, qattiqrog'i esa kley uchun. Bo'yash uchun yumshoq № 4 va № 6 mo'yqalamlari foydali. Chizishdan oldin ishlash usullarini yodga olish kerak: mo'yqalamni suvga botirib olish, chiziqlarni bir marotabada chizish, tolalar yo'nalishi bo'yicha yurgazish kerak, aks holda ular chigallashadi. Rasm chiroyli chiqishi uchun kistochkani o'z vaqtida kraskaga botirib turish; bir joyni bir necha marta bo'yamaslik kerak.

Yelim uchun ham maxsus mo'yqalam kerak. Yelim yoramida qismlarni bir biriga yopishtirish osonroq kechadi.

## **4. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda og'zaki metoddan foydalanish va uning mohiyati.**

**Tayanch iboralar:** og'zaki metod, tarbiyachining hikoyasi, ifodali nutq, suhbat, kirish suhbat, yakuniy suhbat

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachining hikoyasidan tabiat haqidagi badiiy kitoblarni o'qishdan, suhbatdan foydalaniladi.

Ogʻzaki metodlardan foydalanish bir qator vazifalarni hal etadi. Soʻz yordamida kuzatishlar va tabiatdagi mehnat jarayonida egallangan, bolalarga maʼlum boʻlgan tabiat hodisalari va hayvonlar hamda oʻsimliklar hayotiga tegishli faktlar haqidagi bilimlar konkretlashadi, toʻldiriladi, aniqlanadi. Ogʻzaki metodlar yoʻli bilan bolalar yangi hodisalar va tabiat predmetlari haqidagi bilimlarni egallaydilar (masalan, bahorgi suv toshqini, yovvoyi hayvonlarning oʻrmondagi hayot tarzi va shu kabilar). Bunday hollarda ogʻzaki metodni koʻrgazmali metod bilan qoʻllash, rasmlardan, diafilm va kinofilmlardan foydalanish zarur. Soʻz tabiatda mavjud boʻlgan aloqa va bogʻliqliklarni chuqurroq tushunishga, anglashga yordam beradi.

| Tarbiyachining hikoyalari va ularga qoʻyilgan talablar                 | Suhbat uning turlari      | Badiiy adabiyot va unga qoʻyilgan talablar          |
|------------------------------------------------------------------------|---------------------------|-----------------------------------------------------|
| <i>Ilmiyligi, bolalar yoshiga mos tabiatshunoslikka oid, jonliligi</i> | <i>Kirish<br/>Yakuniy</i> | <i>Tarbiyaviyligi, Hissiyotlilik, Jonli-obrazli</i> |

Shunday qilib, tarbiyachining ogʻzaki metodlarni qoʻllashi bolalarning tajribasi doirasidan chetga chiquvchi bilimlarni shakllantirish imkonini beradi.

Ogʻzaki metodni qoʻllashda tarbiyachi, eng avvalo ifodali nutqqa ega boʻlishi zarur.

*Ifodali oʻqish – oʻqilayotganga oʻz munosabatini intonatsiya orqali ifoda etish, uni hissiy taʼmir nuqtai nazaridan baholash demak. Eslatib oʻtamiz, nutqni egallashning qonuniyatlaridan biri bola tomonidan nutqning hissiy (emotsional) ifodaliligini tushunishdan iborat. Intonatsion ifodalilikni bola deyarli instinktiv darajada oʻzlashtiradi. Psixologlarning kuzatishlaricha, bola ilk yoshidayoq, hali unga qaratilgan nutq mazmunini tushunmay turib, uning intonatsiyasi umumiy xarakterini baholaydi (hisni ijobiy yo salbiy deb baholaydi va unga mos ravishda reaksiya qiladi).*

Ogʻzaki metod va usullarni qoʻllash yordamida bolalarning tabiat haqidagi bilimlari tizimlashtiriladi va umumlashtiriladi, tabiatshunoslikka oid tushunchalari shakllantiriladi.

Ogʻzaki metodlardan foydalanishda tarbiyachi bolalarning nutqni tushunishga boʻlgan qobiliyatlarini, uzoq muddatli ixtiyoriy diqqatlarini va soʻz orqali berilayotgan mazmunga diqqatni qarata olishlarini, shuningdek bolalarda muhokama, aniqlash, tizimlashtirishda u yoki bu hodisalarni aniq va yorqin tasavvurlarning bor-yoʻqligini eʼtiborga oladi.

Badiiy adabiyotni oʻqish boʻyicha mashgʻulotlarni oʻtkazish metodikasi va uning qurilishi mashgʻulot turi, asar mazmuni va bolalarning yoshi bilan belgilanadi. Mashgʻulot strukturasi uch qismdan iborat, deyish mumkin. Uning birinchi qismida asar, uning asosiy maqsadi bilan tanishtirish amalga oshiriladi, badiiy soʻz yordamida bolalarning toʻgʻri va yorqin idrok etishi taʼminlanadi. Ikkinchi qismda oʻqilganlar haqida suhbat oʻtkaziladi, bundan maqsad mazmun va adabiy-badiiy shaklni, badiiy ifoda vositalarini aniqlashtirish. Uchinchi qism matnni takror oʻqishdan iborat, bundan hissiy taassurotni mustahkamlash va idrokni chuqurlashtirish koʻzlanadi.

Bu oʻrinda ham bolalarga bilimlarni anglashlarida yoki aniqlashlarida koʻmak beruvchi koʻrgazmalilikdan foydalanish mumkin va maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyachining tabiatga oid ertak va hikoyalarni oʻqib berishida soʻzning aniq, ravon qoʻllashining ahamiyati, hikoyani bolalar uchun mutolaa qilishning qimmati shu bilan aniqlanadi-ki, u maʼlum taʼlimiy vazifani hal etar ekan, maktabgacha yoshdagi bolalarning tajriba va qiziqishlarini nazarda tutgan holda tuziladi hamda maʼlum yoshdagi guruh bolalariga moʻljallanadi. Uning badiiy adabiyotni oʻqishga nisbatan afzalligi mana shundadir. Hikoyani idrok etish bolalar uchun anchagina murakkab aqliy faoliyatdir. Bola kattalarning nutqini eshitishi va tinglay olishi, hikoya davomida uni anglab olishi, ogʻzaki tasvir asosida yetarlicha jonli obrazlarni aktiv tasavvur qilishi, tarbiyachi hikoyasidagi voqea-hodisalarning bir-biriga bogʻliqligi hamda munosabatlarni aniqlash hamda tushunishi, hikoya mazmunidagi yangilikni oʻzining avvalgi bilimi bilan qiyoslab koʻrishi lozim. Bularning barchasi tarbiyachining tabiat haqidagi hikoyasiga boʻlgan talablarni belgilaydi.

Hikoyada maʼlum qilinayotgan bilimlar ishonchlilik, ilmiylik talablariga javob berishi lozim. Tarbiyachi biror narsani bolalarga aytishdan oldin hikoyadagi voqealarning aniqligi, toʻgʻriligini tekshiradi. Hikoya qiziqarli, yorqin dinamik syujetli, emosional boʻlishi lozim. Syujetsiz hikoyalar, ortiqcha tasvirlashlar bolalarning eʼtiborini jalb qilmaydi, esda qolmaydi.

Tilning jonliligi, obrazlilik va konkretlilik - tarbiyachining hikoyasiga qoʻyiladigan mutlaq talabdir. Bunday hikoya faqat bola

ongigagina emas, balki hissiyotiga ham ta'sir etadi, uni uzoq vaqt eslab qoladi. Biroq, jonlilik va obrazlilik quruq maqsad bo'lib qolmay, balki hikoya mazmuniga bo'ysunishi kerak. Qahramon nomidan aytiladigan hikoyalarni bolalar yaxshi idrok etadilar.

Bolalarga turli maqsadlarda: ularga tanish bo'lgan hodisalar, hayvonlar, o'simliklar haqidagi bilimlarni kengaytirish maqsadida; yangi hodisalar, faktlar (kattalarning tabiatdagi mehnati; qushlarni qo'riqlash va o'rgatish, yovvoyi o'simliklarni himoya qilish va shu kabilar) bilan tanishtirish maqsadida hikoya qilib berish mumkin. Bunday holda hikoya albatta illyustratsiya materiallari — foto suratlar, rasmlar, diafilmlar ko'rsatish bilan qo'shib olib boriladi. Ko'rgazmaliksiz hikoyaga bolalarning qiziqishi susayadi, hamda u bolalar tomonidan yaxshi idrok etilmaydi.

**Shuni e'tiborga olgan holda quyidagi talablar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.**

a) badiiy asarni o'qish va taniqli rassom asarlaridan reproduksiyalarni namoyish qilish;

b) o'qish (yaxshisi, she'riy asarni) va musiqiy asar bilan birlashtirish.

v) Ko'rgazmali materiallardan foydalangan holda o'qish va hikoya qilish:

g) o'yinchoqlar bilan o'qish yo hikoya qilish (ertakni takror o'qish, «Uch ayiq» ertagi o'yinchoqlar va ular bilan harakatlarni ko'rsatish bilan birga olib boriladi);

d) stol teatri (karton yo faneradan, masalan «Sholg'om» ertagi bo'yicha);

ye) qo'g'irchoq teatri orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun hikoyaning davomiyligi 15-20 daqiqadan oshmasligi kerak.

Hikoya uchun tarbiyachi xilmaxil material: tabiatga oid shaxsiy kuzatishlari, ajoyib kishilarning hikoyalari, tabiat hodisalari haqidagi ocherklar, tabiatshunoslarning yozuvlari va hikoyalari, ilmiy materiallardan foydalanadi.

**Suhbat.** Didaktik vazifalardan kelib chiqqan holda suhbat ikki turga - oldindan o'tkaziladigan suhbatlar va yakuniy suhbatlarga bo'linadi. Oldindan o'tkaziladigan suhbatlarni tarbiyachi kuzatishlar, ekskursiyalardan oldin qo'llaydi. Bunday suhbatning maqsadi - bo'lajak kuzatishlar bilan mavjud bilimlar o'rtasida aloqa o'rnatish maqsadida bolalarning bilimni aniqlashdir.

**Yakuniy suhbat** bilib olingan faktlarni tizimlashtirish va aniqlashtirishga, mustahkamlashga yo'llanadi. Bu suhbatlar mazmunan turli

darajada bo'lishi mumkin: birovlar kuzatiladigan ob'yektni tor doirada kuzatilgandan so'ng; masalan, issiq o'lkalarga uchib ketuvchi qushlar haqida yoki yovvoyi hayvonlarning o'rmonda qishlashi va hokazolardir: boshqalari hodisalarning keng doirasini qamrovchilarni: masalan, mavsumlar haqida suhbatlar) - bolalarning jonsiz tabiat hodisalari, o'simliklar hayoti, hayvonlar, kishilarning mehnati haqidagi bilimlarini tizimlashtirish maqsadida o'tkaziladi.

Suhbatning samaraliligi bolalarning oldindan qanday tayyorlanganligiga bog'liqdir. Suhbat - bu ular bilan o'tkazilgan ishning yakunidir. Shuning uchun tarbiyachi oldida bolalarda kuzatishlar, mehnat faoliyati, o'yinlar, tabiatshunoslik kitoblarini o'qish, hikoyalar orqali tasavvur hosil qilish vazifasi turadi. Suhbatni bolalarda nima haqida aniq tasavvur bo'lsa, faqat shu narsa yuzasidan o'tkazish mumkin.

Tarbiyachi suhbatning ta'limiy maqsadini aniq tasavvur qilishi lozim: qanday mazmunni aniqlash va konkretlashtirish kerak, umumlashtirish va tizimlashtirish uchun qanday muhim aloqalarni ajratib ko'rsatish lozim, bolalarni suhbat yakunida qanday umumlashtirish va xulosaga olib kelish kerak.

Suhbat hodisa, faktlarni taxlil qilishdan, ularning xususiyatlari, belgilari, hodisalar o'rtasidagi muhim aloqa hamda munosabatlarni ta'kidlashdan boshlanadi. Bunday taxlil umumlashtirishga o'tishni ta'minlaydi, tarqoq faktlarni tizimga soladi.

Suhbatning birinchi qismida tarbiyachining bolalarga bergan savollari taxlilni va bolalarni umumlashtirishga tayyorlashni ta'minlaydi. Masalan: «Qaysi qushlar birinchi bo'lib uchib keladi? Qora qarg'ani qanday tanib oldik? Biz ularni qaerda ko'rganmiz? Qora qarg'alar dalada nima qilayotgan edi? Qora qarg'alar nima yeydi?» So'ng keyingi savol beriladi: «Nima uchun qora qarg'alar boshqa qushlardan oldin uchib keladi?» (boshqa qushlar - chug'urchuq, qaldirg'och va shu kabilar haqida ham shunday savollar beriladi).

Bolalarni qorning himoya qiluvchi xususiyatlari va o'simliklarning qishdagi holati bilan tanishtirishdan oldin «O'tloqda qor ostida» hikoyasini o'qib berish mumkin. Bolalar o'simliklar qishda halok bo'lmasligini, faqat o'sishdan to'xtashlarini bilib oladilar. Bu hikoyadan olingan ma'lumotlarni tekshirish sayrlar vaqtidagi kuzatish uchun vazifa bo'lib qoladi.

Kuzatishlar jarayonida bolalarga maqollar, matallar, topshiriqlar, kichik she'rlar tavsiya etiladi. Bularning obrazli tili hodisaning xususiyatlarini, predmetning ma'lum sifatlarini ajratib ko'rsatish, tabiatni

estetik idrok etishni kuchaytirish imkonini beradi. Qishda muz, qor, ob-havoni kuzatayotganda tarbiyachi topishmoq va maqollardan foydalanadi.

Kuzatishlar jarayonida tabiatshunoslikka oid adabiyotlardan foydalanish bolalarga o'rab turgan tabiat dunyosini to'g'ri idrok etish va tushunishlarida, uni o'z bilimlari bilan bog'lay olishlarida yordam beradi. Bu maqsadda V. V. Biankning "O'rmon gazetasi", N. Sladkovning "Yozda zag'izg'onlar" dan olingan qisqa ma'lumotlar foydalidir.

Tabiat to'g'risidagi kitoblarni tarbiyachi bolalarga kuzatishdan keyin ham o'qib beradi. Bunday holatda badiiy asarlar ko'rilganlarga yakun yasash, to'ldirish, kuzatishni chuqurlashtirishga, bolalar diqqatini tabiat hodisalarini kelgusida ham idrok etish uchun yo'llashga yordam beradi.

Bolalar tabiat to'g'risidagi kitoblarni o'qishi, uni o'qib bo'lgandan keyingi suhbat tabiat bilan tanishtirishning mustaqil metodi ham bo'lishi mumkin. Kitob o'qilgandan so'ng o'tkaziladigan suhbatda bolalarga asar ma'nosini tushunishlarida, uning mazmunini to'liqroq va chuqurroq o'rganib olishlarida yordam berish zarur.

Shuning uchun suhbat o'qilgan matnni gapirib berish asosida tuzilmasligi kerak. Bu o'rinda asosiy e'tiborni hodisalar o'rtasidagi aloqani ochib berishga, faktlari anglashga qaratish lozim. Ilgari egallangan bilimlar to'plami bolalarning yangi axborotlarni egallab olishlariga ta'sir etadi.

Mana shundan kelib chiqib, suhbatda shaxsiy bilim bilan yangi bilimlar o'rtasidagi aloqani o'rnatish zarur. Suhbatga qo'yiladigan so'zsiz talab - bolalarda badiiy obrazlardan olingan taassurotlarning bevositaligini saqlab qolishdir. Bunga savollarni qahramon shaxsi orqali berish, savollarda hikoya, ertak obrazlarini qo'llab erishish mumkin.

## **5. Tabiat bilan tanishtirishning amaliy metodi va tabiatshunoslikka oid o'yin turlari.**

**Tayanch iboralar:** o'yin, ibtidoiy jamoa, mehnat, psiholog,

Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o'yin bilan o'tadi. O'yin - maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bulib hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub'ekti sifatida shakllana boshlaydi. O'yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog-psihologlar, faylasuflar, sosiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga karatib kelgan.

O'yin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq yuzaga kelgan bo'lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi.

Ibtidoiy jamoa qabilalari o'z o'yinlarida ovchilik, urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Masalan, o'sha davrdagi ba'zi qabilalarning sholi sepish jarayoni o'yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilardi.

Ba'zi hollarda esa o'yin mehnat qilish istagi orqali yuzaga keladi. Masalan, ovchi tyulenni ovlash uchun uning oldiga hayvonga o'xshab sudralib, sirpanib boradi.

Ayrim hollarda esa bola o'z o'yinida oldin kattalar mehnatiga taqlid qiladi, keyinchalik ularning mehnatida qatnashadi. O'yin yosh avlodni mehnatga tayyorlaydi. Bolalar o'yinini bunday tushunish birinchi marta K. D. Ushinskiy tomonidan ta'riflab berilgan edi. U o'z asarlarida bolalar o'yinining mazmuni ularning hayotdan olgan taassurotlari bilan belgilanib, ular shaxsining shakllanishiga ta'sir etadi, deb yozadi. Bu fikrni P. F. Lesgaft ham tasdiqlab, bolalar o'z o'yinlarida tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Shunday qilib, o'yinning ijtimoiy voqea ekanligini, o'yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg'or olim va pedagoglar o'zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar.

Tarbiyachilar bolalar o'yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishlari lozim:

1) o'yin bilan mehnat o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish;

2) o'yinda bolalarning bo'lajak mehnat jamoasiga xos bo'lgan jismoniy va ahlokiy jixatlarini tarbiyalash.

Shu tariqa o'yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy faoliyatdir; o'yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi; o'yin ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ongli faoliyat bo'lib, uning mehnat bilan ko'p umumiyligi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat kiladi. O'yin faoliyati asosida boladagi o'quv faoliyati rivojlanadi, bola qanchalik yaxshi o'ynasa, u maktabda shunchalik yaxshi o'qiydi.

Bolalar o'yinining tarixi, tabiati, uning rivojlanish qonuniyatlari L. S. Vigotskiy, A. N. Leontev, D. B. Elkonin, A. V. Zaporozes kabi psihologlar va ularning davomchilari ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topdi A. V. Zaporozes bolalar o'yinini ilk yoshdan boshlab kuzatib borishi natijasida uni harakatga keltiruvchi sabablar, rivojlanish qonuniyatlari, har xil yosh bosqichlarida bolalar o'yinining o'ziga xos tomonlari, mazmuni va tuzilishini o'rganish zarurligini ta'kidlaydi.

Ilk yoshli bolalar o'yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o'yin bo'lib, u narsa - buyum - o'yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo'l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir.

Keyingi bosqich aks ettirish o'yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o'yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta'lim-tarbiyaviy ishlarini ma'lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o'z o'yinlarida qo'llay boshlaydilar.

Bu yoshdagi bolalar o'yini mazmuni juhatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi.

Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o'yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola qo'lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish kerakligini aks ettiradi. Masalan, qoshiq bilan ovqat yeyiladi, piyoladai choy ichiladi, karavotda yotiladi, qo'g'irchoqni «onasi» erkalaydi va hokazo. Shuning asosida syujetli-rolli o'yinning dastlabki qirralari yuzaga kela boshlaydi.

Navbatdagi bosqich rolli o'yin bo'lib, unda bolalar o'zlariga tanish bo'lgan kattalar mehnati va kishilarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradilar.

Bolalar o'yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi to'g'risidagi ilmiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o'yin faoliyatiga rahbarlikning aniq sismavzuli tavsiyalarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi.

Shunday qilib, bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik jarayonida o'yinning tutgan o'rni juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi. Zero:

o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;

-o'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir:

- o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;

- o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir;

- o'yin bolalarni atrof-tabiatga munosabatlarining shakllanish ilk bosqichidir;

- o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

Taniqli pedagog-olimlarning olib borgan tadqiqotlari o'yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o'yinning mazmuni, tashkil etilishi,

tuzilishi, bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o'yinining rivojlanish darajasiga ta'sir etish mumkinligini ko'rsatdi.

Bolalar o'yini o'zining mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir, shuning uchun uni quyidagicha turkumlarga ajratiladi:

1) Ijodiy o'yinlar.

2) Qoidali o'yinlar.

Ijodiy o'yinlarni bolalar o'zlari o'ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yin qoidasini bolalar o'zlari o'yin jarayonida belgilashadi. Ijodiy o'yinlarga dramalashgan o'yinlar, qurilish o'yinlari, tabiiy materiallar bilan o'ynaladigan o'yinlar kiradi.

Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqaviy o'yinlar, ermak o'yinlar.

Bolalarga ta'lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o'yinni tanlay bilishi, unga to'g'ri rahbarlik qilish "Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim va tarbiya dasturi"da belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi.

Psixologlar o'yinni maktabgacha ta'lim tashkiloti yoshi davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi.

O'yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. O'ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin.

Shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o'yinga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatdan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlarini rivojlantirish uchun esa o'z navbatida yaxshi tashkil qilingan bolalar jamoasi zarur bo'ladi.

O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sismavzusida, maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomondan tarbiyalashda katta o'rin tutadi.

O'yinda yosh organizmga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlilik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sismavzusida o'yin munosib o'rin egallaydi. Atoqli pedagog va shifokor Ye. A. Arkin o'yinni ruhiy vitamin deb bekorga aytmagan.

O'yin ta'lim va mashg'ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib juda katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ijodiy o'yinlarda muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi, bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurni, xayolni, diqqatni, xotirani faollashtirini talab qiladi. Bola masalalarni mustaqil hal qilishga o'rganadi, o'ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o'ylab topadi, o'z bilimlaridan foydalanish va uni so'z bilan ifodalashni o'rganadi.

O'yinda aks ettirilayotgan narsani bilib olishga qiziqish uyg'onadi. Ko'pincha o'yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini, bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Bolalarda kattalarning mehnatiga, ijtimoiy hayotga, kishilarning qahramonona ishlariga qiziqish sari ularda bo'lajak mutaxassislik, yaxshi ko'rgan qahramonlariga taqlid qilish kabi dastlabki orzular paydo bo'ladi.

A. V. Zaporozhes o'yinning ahamiyati haqida gapirar ekan, o'yinda tevarak-atrofdagi predmet va voqealarning umumlashgan tipik obrazlari sismavzusini yaratish qobiliyati rivojlanadi, keyin ular har xil qilib o'zgartiriladi. Bolaning kelajakdagi rivojlanishi uchun xayol yoki obrazli tafakkurning bunday rivojlanish xususiyati bebaho qimmatga egadir, deydi.

Ijodiy o'yinni tor didaktik maqsadlarga bo'ysundirib bo'lmaydi, bu o'yin yordamida juda katta tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi.

Qoidali o'yin bolaning sensor rivojlanishini, tafakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqatini va xotirasini, har xil harakatlarini muntazam ravishda mashq qildirib borish imkonini beradi. Har bir qoidali o'yin ma'lum didaktik maqsadga ega bo'lib, bolani umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolaning yosh xususiyatlariga mos keladi. Qiziqarli o'yin bolaning aqliy faolligini oshiradi, o'yinda bola mashg'ulotdagiga nisbatan murakkabroq masalani hal qilishi mumkin. Bu - ta'lim butunlay o'yin shaklida bo'lishi kerak degan gap emas. Ta'lim turli-tuman usullar va metodlarni qo'llashni talab etadi. O'yin ta'limning shakllaridan biri bo'lib, boshqa bir metod bilan qo'shib olib borilgandagina yaxshi natija beradi, bular kuzatish, suhbat, o'qib berish va hokazolardir.

Bola o'ynayotib, o'z bilimidan foydalanishga, uni har xil sharoitda ishlata bilishga o'rganadi. Ijodiy o'yinlarda bolalarning fantazyasi, buyum yasashi, tajriba qilishiga keng yo'l qiladi.

O'yinda aqliy rivojlanish bilan bog'liq holda axloqiy sifatlar ham shakllanadi. O'yin jarayonida yuz bergan kechinmalar bola ongida chuqur iz qoldiradi, shuning uchun o'yin bolada yaxshi hislarni, ulug'vor orzular

va intilishlarni, sog'lom qiziqishlarni tarbiyalashga yordam beradi. O'yinda bola o'z xulqini boshqarishga, qiyinchilikni yengishga, o'z maqsadiga qat'iy turib yetishishga o'rganadi.

O'yin mustaqil faoliyat bo'lib, bu jarayonda bolalar o'z tengdoshlari bilan aloqa qilishga kirishadilar. Ularni umumiy maqsad, unga erishishdagi umumiy kechinmalar birlashtiradi. Shuning uchun o'yin do'stona munosabatlarni tarbiyalashda, jamoa hayoti malakalarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Birgalikdagi o'yin bilan birlashgan kichik bolalar jamoasida murakkab munosabatlar vujudga keladi. Tarbiyachining vazifasi har bir bolani faol o'yinga jalb qilish, bolalar o'rtasida do'stlikka, haqqoniylikka, o'rtoqlarini javobgarlikni sezishga asoslangan munosabatlar o'rnatishdan iboratdir. O'yinni bolalar o'z ixtiyorlari bilan o'ynaydilar, ammo boshqa hech bir faoliyatda o'yindagi singari bolalarning hulqi bilan bog'liq bo'lgan qat'iy qoida yo'q. Bunday qat'iy qoida ijodiy o'yinga ham, qoidali o'yinga ham, qoidani bolalar o'zlari o'rnatadigan o'yinga ham tegishlidir. Mana shuning uchun ham o'yin bolalarni intizomli qiladi, ularni o'z harakatlari va fikrlarini qo'yilgan maqsadga bo'ysundirishga o'rgatadi.

O'yin mehnat tarbiyasi vazifasini bajarishga ham yordam beradi. Bolalar o'z o'yinlarida har xil kasbdagi kishilarni aks ettiradilar, bu bilan ular kattalarning harakatigagina taqlid qilib qolmay, shu bilan bir qatorda ularning ishiga, mehnatga bo'lgan munosabatlarini ham aks ettiradilar. O'yin bolada ko'pincha mehnat qilish xohishini uyg'otadi, o'yin uchun kerakli narsalarni tayyorlash va yasashga majbur qiladi. O'yinda hozirgi zamon bolalariga xos bo'lgan texnikaga qiziqish paydo bo'ladi va rivojlanadi, bolalar har xil mashinalar yasaydilar va texnik o'yinchoqlar bilan o'ynaydilar.

O'yin estetik tarbiyaning muhim vositasidir. O'yinda ijodiy xayol, fikrlash qobiliyati yuzaga keladi va rivojlanadi. Yaxshi tanlangan o'yinchoq badiiy didni tarbiyalashga yordam beradi. Harakatli o'yinlarda harakatning go'zalligi va maromi bolalarni o'ziga maftun qiladi.

O'yinning katta tarbiyalovchi ahamiyati o'z-o'zidan amalga oshmaydi. O'yin befoйда, hatto zararli bo'lishi, ba'zan yomon qiziqishlarni, yomon hislarni uyg'otishi mumkin. Tarbiyachi o'yin yordamida bolalarni har tomonlama rivojlantirish vazifasini amalga oshirish uchun unga muntazam ravishda ta'sir etib borishi zarur.

Bu vazifani hal etishda o'yin bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim tarbiyaviy ishning hamma tomonlari bilan bog'langan bo'lishi kerak. O'yinda bolalarning mashg'ulotlarda olgan bilim va malakalari aks etadi va

rivojlantiriladi, ular orqali esa bola hayotga o'rgatiladi. Ikkinchi tomondan, o'yinda tarbiyalangan sifatlar faoliyatning boshqa turlariga ko'chiriladi.

O'rta Osiyo madaniyati tarixida oilada farzand tarbiyasiga juda katta e'tibor karatilganligi, mashhur allomalardan Abu Nasr al Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Ilos Hojib Ahmad Yugnakiylar o'z asarlarida xalqimizga xos bo'lgan farzand tarbiyasi muhim omillari ustida fikr yuritganlar.

Xalq pedagogikasini o'rganish davomida olimlarning farzand ta'lim - tarbiyasi va odob – axloikka oid asarlarida, bolalarni tarbiyalashda tarbiyaviy ishning eng ta'sirchan uslubi – o'yin shaklidan juda keng foydalanganligini ko'ramiz. O'tmish pedagog olimlaridan P.F.Lesgaft, K.D.Ushinskiy tomonidan o'yin nazariyasi ishlab chikilgan. O'yinning mehnat jarayoni asosida paydo bo'lganligi va uning yosh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi roli, o'yin mazmunining bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyatini K.D.Ushinskiy asoslab berdi.

V.G.Plexanov san'atning kelib chikishini tadkik kilayotganda bolalar o'yinlariga katta e'tibor qaratadi. Uning fikricha, kishilik tarixida o'yinlar san'at kabi mehnat paydo bo'lgandan so'ng va uning asosida vujudga kelgan. U, "O'yinda kattalarning mehnat faoliyati o'z aksini topadi, o'yin mehnat farzandi, u mehnatdan oldin paydo bo'lgan hodisadir", - deb yozgan edi.

Jamiyat hayotida mehnat jarayonida bolalar kattalar mehnatiga taqlid qilish orkali uynaydilar, xuddi shu o'yin keyinchalik bolalarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda muhim boskich bulib hisoblanishini asoslab, o'yinni obrazli, hayotni hakkoniy aks ettiruvchi jarayondir, degan edi V.G.Plexanov.

P.F.Lesgaft "Bolaning dastlabki o'yini tevarak – atrofdagi voqea - hodisalarga taqlid kiladi, o'yin ijtimoiy voqelikni aks ettiradi", - deb izohlagan edi.

Buyuk psiholog D.V.Elkonin o'yinning kelib chikishida yangi g'oyani ilgari suradi jamiyatning dastlabki taraqqiyotidayok bolaning kattalar hayoti va mehnatida ishtirok etishi bolalarning mehnat qilishlari uchun qulay o'yinchok mehnat kurollari ishlab chikilgan. O'yinchok qurollar paydo bo'lishi natijasida rolli o'yinlar paydo bo'ladi. D.V.Elkonin kattalar mehnatida ishtirok etish orqali bolada mehnat qilishga intilish hissini uyg'otish zarurligi g'oyasini isbotlab bergan.

Tabiatning oddiy hodisa va predmetlari haqida bolalarning tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o'tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda xilma-xil o'yinlardan keng foydalaniladi. Bu o'yinlarda bolalar

sezuvchanlik tajribasini orttiradilar, egallagan bilimlarini ijodiy o'zlashtiradilar.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda didaktik, harakatli va ijodiy o'yinlardan foydalaniladi.

**Didaktik o'yinlar.** Didaktik o'yinlarda bolalar o'zlarida tabiatdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o'simliklar haqida mavjud bo'lgan bilimlarni aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. Ko'pgina o'yinlar bolalarni umumlashtirish hamda klassifikasiya qilishga o'rgatadi. Didaktik o'yinlar xotira, diqqat, kuzatuvchanlikning o'sishiga yordam beradi, bolalarni mavjud bilimlardan yangi sharoitlarda foydalanishga o'rgatadi, turli aqliy jarayonlarni aktivlashtiradi, lug'atni boyitadi, bolalarda birgalikda o'ynash ko'nikmasini tarbiyalashga yordam beradi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda predmetli, stol — bosma va og'zaki didaktik o'yinlardan foydalaniladi.

Predmetli o'yinlar - barglar, urug'lar, gullar, mevalar, sabzavotlar bilan o'ynaladigan "Ajoyib qopcha", "Mevalar va ildizlar", "Shoxdagi kimning bolachalari" va shu kabi o'yinlardir. Bu o'yinlarda bolalar aktiv muloqotda bo'ladigan predmetlarning xususiyat hamda belgilari haqidagi tasavvurlar aniqlanadi, chuqurlashtiriladi hamda boyitiladi.

Bolalarda predmetlarni tekshirish ko'nikmasi shakllanadi, ular sensor etalonlarni egallay boshlaydilar. Predmetli o'yinlar ayniqsa kichik va o'rta guruhlarda keng qo'llanadi. Bu o'yinlar bolalarga tabiat predmetlarining o'zidan foydalanish, ularni qiyoslash, predmetda sodir bo'layotgan sifat o'zgarishlarini aks ettiruvchi ayrim tashqi belgilaridagi o'zgarishlarni qayd qilish imkonini beradi. Predmetli o'yinlarni bolalarning barcha yoshdagi guruhlari bilan ham, shuningdek yoshini hisobga olgan holda, bir oz murakkablashtirib individual holda ham o'tkazish mumkin. Murakkablashtirish, bilimlarni kengaytirish va tafakkur operatsiyalari hamda harakatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Stol bosma o'yinlari — "Zoologiya lotosi", "Botanika lotosi", "Yilning to'rt fasli", "Kichikintoylar", "Mevalar", "O'simliklar", "Barglarni terib ol", juft rasmlar va shu kabilardir.

Bu o'yinlar bolalarning o'simliklar, hayvonlar, jonsiz tabiat hodisalari haqidagi bilimlarini tizimlashtirish, aytilayotgan so'zga ko'ra predmetning obrazini tiklash ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi. O'yin so'z bilan birgalikda olib boriladi, so'z yo rasm idrok etilishidan oldin kela- di, yoki o'yin bilan uyg'unlashib ketadi.

Bundan o'yinlar har kungi ishda ozchilik bolalar bilan o'tkaziladi.

Og'zaki o'yinlar: "Nima uchadi, yuguradi, sakraydi", "Suvda, havoda, yerda" "Kerak - kerak emas" va shu kabilar hech qanday jihoz talab qilmasligi tufayli juda maqbuldir. Ular u yoki bu predmetlarning faoliyatlari hamda harakatlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash, bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida o'ynaladi. Bu o'yinlar diqqatni, zehnilikni, reaksiya tezligini, ravon nutqni rivojlantiradi.

Tabiatga oid o'yinlarni o'rganish barcha didaktik o'yinlar uchun umumiy bo'lgan qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi.

### ***Kichik guruhlarda***

***Birinchi bosqichda*** bosqichda tarbiyachi o'yinni bolalar bilan o'ynaydi. O'yin davomida u bir qoidani aytib, uni shu zahotiy oq tatbiq qiladi. Takroriy o'yinda qo'shimcha qoidalarni aytadi.

***Ikkinchi bosqichda*** tarbiyachi o'yinda aktiv qatnashmaydi, chetdan rahbarlik qilib, o'yinni yo'llab turadi. Uchinchi bosqichda bolalar mustaqil o'ynaydilar.

***O'rta guruhda*** O'yinga o'rgatish usuli o'zgaradi. Avval tarbiyachi o'yinning mazmunini aytib, oldindan bir - ikkita muhim qoidani ajratib ko'rsatadi. O'yin davomida u bu qoidalarni yana bir bor ta'kidlaydi. O'yin harakatlarini ko'rsatadi, qo'shimcha qoidalarni beradi. Keyingi bosqichda bolalar mustaqil o'ynaydilar. Tarbiyachi o'yinni kuzatib turadi, xatolarni to'g'rilaydi, ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf qiladi, o'yinga qiziqish susaygan vaqtda tarbiyachi o'yinning boshqa variantini taklif qiladi.

***O'yin mashqlari va o'yin - mashg'ulotlar.*** Aytib o'tilgan o'yinlardan tashqari bolalar bilan bo'ladigan ish jarayonida ko'p miqdorda o'yin mashqlaridan; "Bargiga qarab daraxtni top", "Ta'midan bilib ol", "Xuddi shunga o'xshash gulni top", "Sariq bargni olib kel" va boshqalar foydalaniladi. O'yin mashqlari predmet va hodisalarni sifati hamda xususiyatlariga ko'ra farqlashga o'rgatadi, kuzatuvchanlikni o'stiradi. Bu o'yinlar butun guruh bolalari bilan yoki ularning bir qismi bilan o'tkaziladi. O'yin mashqlari kichik va o'rta guruhlarda alohida ahamiyatga egadir.

Didaktik o'yinlar o'yin - mashg'ulotlar; "Ajoyib qopcha", "Gul do'koni" va shu kabilarni ham o'z ichiga oladi. Ular ma'lum programma mazmuniga egadir. O'yin shakl o'yin, mashg'ulotlarga qiziqarlik kiritadi. O'qitish o'yin qoidalari, o'yin harakatlari orqali bevosita olib boriladi.

O'yin - mashg'ulotlardan kichik va o'rta guruhlarda foydalaniladi, katta guruhlarda esa u mashg'ulotning bir qismi hisoblanadi.

***Harakatli o'yinlar.*** Tabiatshunoslik karakteridagi harakatli o'yinlar<sup>11</sup> hayvonlarning xatti-harakati, ularning hayot tarziga taqlid qilish bilan

<sup>11</sup> Акбарова Р.Т. «Мактабгача ёшдаги болаларни ўсимликлар билан таништирувчи дидактик ўйинлар» -

bog‘liq bo‘lib, ba‘zilarida jonsiz tabiat hodisalari aks ettiriladi. Bular “Ona tovuq va jo‘jalar”, “Mushuk va sichqonlar”, “Quyosh va yomg‘ir”, “Bo‘rilar va qo‘ylar” va shu kabi o‘yinlardir.

Bolalar bu o‘yinlarda harakatlarga, tovushlarga taqlid qilib, bilimlarni chuqurroq egallaydilar; o‘yindan zavqlanish bolalardagi tabiatga bo‘lgan qiziqishni chuqurlashtiradi.

**Ijodiy o‘yinlar.** O‘yinda bolalar mashg‘ulot, ekskursiya, kundalik hayot jarayonida olingan taassurotlarni aks ettiradilar, kattalarning tabiatdagi mehnati: parrandachilik fabrikasi, chorvachilik mollari fermasi, issiqxona va shu kabilardagi ishlari haqidagi bilimlarni egallaydilar, bunda ularda mehnatga ijodiy munosabat shakllanadi, ular kattalarning tabiatdagi mehnatining ahamiyatini anglab oladilar.

Ijodiy o‘yinlarning mustaqillik xarakteri tarbiyachiga ulardan bolalarni yangi bilim, malaka va ko‘nikmalarga o‘rgatish metodi sifatida foydalanish imkonini bermaydi. Biroq tarbiyachi bolalar qaysi bilimlarni yetarlicha egallaganliklarini, yetarlicha to‘liqligini, qaysilarini yana aniqlash, kengaytirish lozimligini bilib olishi uchun ijodiy o‘yinlarni diqqat bilan kuzatib borishi kerak.

Tarbiyachi tabiatshunoslik mazmunidagi ijodiy syujetli - rolli o‘yinlarni boyitib, ekskursiyalar, sayrlar vaqtida bolalarning kattalar mehnati haqidagi bilimlarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, diafilmlar ko‘rsatadi, kitoblar o‘qib beradi. O‘yinning rivojlanishiga turli kasb egalari mehnatkashlari - sut sog‘uvchi, bog‘bon, kombaynchining hikoyasi alohida ta‘sir ko‘rsatadi. Kattalar bilan jonli muomala bolalarda ularning mehnatiga nisbatan qiziqish uyg‘otadi va o‘yin mazmunini boyitadi.

Tabiatshunoslik mazmunidagi ijodiy o‘yinlarni avj oldirish uchun sharoit yaratish zarur: o‘yinchoqlar nabori - qishloq xo‘jalik mashinalari, hayvonlar va shu kabilar kiritiladi.

Ijodiy o‘yin turlaridan biri tabiiy materiallar: qum, qor, loy, mayda toshchalar, so‘ta va shu kabilar bilan o‘ynaladigan qurilish o‘yinlaridir. Bunda bolalar ijod qilar ekan, materiallarning xususiyatlari va sifatlarini bilib oladilar. Bu o‘yinlarni boshqarish lozim. Har bir yosh guruhida yilning har bir fasliga oid tabiiy material bilan o‘ynash uchun sharoit yaratiladi. Bular qum maydonchalari hamda qum stollari, qum va qor bilan o‘ynash uchun shakl to‘plamlari, odamlar va hayvonlarning rezinkadan yasalgan shakllari, uy, daraxtlarning fanerdan yasalgan siluetlari, butalar, shoxchalar, chakamug‘, metall karkaslar bo‘lib, bular yordamida tabiatdagi harakatlar

mazmuni ijod qilinadi, qorda «rasm» chizish uchun muhrchalar, rangli muz yasash uchun uskunalar va shu kabilardir.

Tarbiyachi bolalarga o'yinda tabiiy materiallarni tanlashda va ulardan foydalanishda yordam beradi, ulardan foydalanish usullarini ko'rsatadi.

## **6. Tabiatda bolalar mehnatlari va ularni tashkil etish texnologiyasi.**

**Tayanch iboralar:** tabiatdagi mehnat, mehnat jarayoni, mehnat faoliyati, harakatlarini faollashtirish, tabiat burchagi, yer maydonchasi, mehnat shakllari.

Bolalarni tabiatdagi mehnat faoliyati jismoniy rivojlanish uchun sharoit yaratadi, harakatlarini faollashtiradi, turli organlarni harakatlarini faollashtiradi, asab tizimini barqarorlashtiradi. Bu mehnat jarayonida, boshqa mehnatdan farqli o'laroq aqliy va irodaviy harakatlar birlashadi. Bolalarning aqliy va hissiy rivojlanishi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Tizimli jamoaviy mehnat bolalarni birlashtiradi, ularda mehnatsevarlik va ishiga nisbatan mas'uliyat hissini shakllantiradi, ularga quvonch hissini beradi. Maydonchada (egatda, bog'da), tabiat burchagida ishlab bolalar qishloq xo'jalik inventarlari bilan ishlashni o'rganadilar, o'simliklarni parvarish qilishni o'rganadilar, o'simliklarni o'sishi va rivojlanishi bo'yicha ko'plab ma'lumotlar oladilar.<sup>12</sup>

Tabiatdagi mehnat bolalarda kuzatuvchanlik, qiziquvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi, bolalarda qishloq ho'jaligiga va bu mehnat bilan shug'ullanuvchi insonlarga nisbatan hurmatni rivojlantiradi. Tabiatdagi mehnat unga nisbatan muxabbatni orttiradi. Tabiatni sevish - bu Vatanimiz boyligiga boylik qo'shish, jonli tabiatga xurmat bilan qarash, mehnat natijasini ehtiyot qilishdir.

Tabiat burchagida o'simliklari o'stirish va jonzotlarni parvarish qilish o'z ichiga polizni yaratish va ekinlarni o'strishni, gullar ekishni, meval daraxtlarni parvarish qilishni o'z ichiga oladi.<sup>13</sup>

Atrofdagilarning mehnatini kuzatish bilan birgalikda, bolaning o'z mehnat faoliyatini shakllantirishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim massasalarida bolalar mehnat qilishlari uchun tabiat burchaklari,

---

<sup>12</sup> Расулхўжаева М.А. “Мақтабгача ёшдаги болаларни табиатда ижтимоий - фойдали меҳнатга ўргатишнинг педагогик асослари” Мақтабгача ва бошланғич таълимнинг долзарб муаммолари. Ҳалқаро илмий-амалий конференция Тошкент.: 2020 йил 103-105 бетлар

<sup>13</sup> Расулхўжаева М.А. “Мақтабгача ёшдаги болаларни табиатда ижтимоий - фойдали меҳнатга ўргатишнинг педагогик асослари” Мақтабгача ва бошланғич таълимнинг долзарб муаммолари. Ҳалқаро илмий-амалий конференция Тошкент.: 2020 йил 103-105 бетлар

maydonchalari, gulzor va bog'lar yaratilgan bo'ladi. Tabiat burchaklarida akvariumda olmaxonlar, baliqlar, katakda qushchalar ham bo'ladi. Bularning barchasi bolalarni gullar va jonzotlarni parvarish qilishga o'rgatadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining turli yosh davridagi bolalarda bunday mehnat ko'nikmalarini shakllantirish dasturlarini ko'rib chiqamiz. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarni kattalar aytgan vazifalarni qilishga o'rgatishadi: tarbiyachi yordamida baliqlarni, qushlarni, quyonchalarni ovqatlantiriga, gullarni sug'orishga, yirik gullarning barglarini artishga, gullar ekishga, poliz ekinlarini yig'ishga o'rganadilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining o'rta guruhida tarbiyachi bergan vazifalarni mustaqil tarzda amalga oshiradilar. Ularda maqsadga erishish uchun harakatchanlikni, yengil jamoaviy mehnat ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Bu yoshdagi bolalarni sekin asta o'simliklarning sog'lom o'sishi uchun sharoit (ma'lum tuproq, quyosh nuri, issiqlik, namlik va x.k.) yaratishni o'rgatish lozim. Shu bilan birgalikda bolalar mehnatdan zavq olishlarini ham unutmaslik kerak.

Yuqori guruhdagi bolalarga (5-7 yosh) ishni tarbiyachining iltimosi bilan emas, balki o'z hoxishi bilan bajarishga, bu ishlarni ehtiyotkorlik bilan, mehnat qurollarini avaylashga, ishlab bo'lganidan so'ng yig'ib qo'yishga, barcha bilan barobar ishlashga, yoqimsiz mehnatdan qochmaslikka, ishlarni kelshib bajarishga, atrofdagilarga yordam berib, do'stona munosabatda bo'lishga, ishini sifatli bajarishga o'rgatish kerak. Shu bilan birgalikda bolalarni o'simliklar va jonivorlarni parvarish qilish bo'yicha fikr doirasini rivojlantirish, ularni to'g'ri parvarish qilish va rivojlanishi inobatga olishni o'rgatish kerak.

Tabiatdagi mehnat o'z xususiyatiga ega. Bu maktabgacha yoshdagi bolalarning yagona samarali mehnat faoliyatidir. Uning yakuniy maqsadi—o'simliklar, gullar va ekinlarni yetishtirish bo'lib, bu mehnat bola uchun tushunarli bo'ladi, lekin unga erishish oson emas qo'l mehnati singari (o'yinchoq yasaysan va uni darrov o'ynashing mumkin).

Maqsad ma'lum muddatga yo'naltirigan bo'lib boladan kundalik faoliyatda chidam va bardosh bilan mehnat qilishni talab etadi.

Bolalarda kundalik, bir xil lekin juda zarur bo'lgan ishga barqaror ijobiy munosabatni qanday shakllantirish mumkin? Har qanday ishning samarali sharoiti mehnatni to'g'ri tashkil etishdir. A.S.Makarenkoning fikricha yaxshi tashkil etilgan mehnat jarayonidagina bola zavq olishi mumkin.

Bolalar faoliyatini tashkil etishning turli shakllari mavjud. Amaliyotda mashg'ulotlar eng keng tarqalgan usul hisoblanadi. Mashg'ulotlar tabiat burchagida, polizda va egatda tuproqni almashtirish, chopish, ariqlarga

ajratish, kavlash, parvarish qilish, hosilni yig'ish orqali amalga oshiriladi. Bunday mashg'ulotlar jarayonida bolalar o'simliklar hayoti haqida birlamchi bilimlarini o'zlashtiradilar, ularni o'stirish uchun qanday sharoit bo'lishi kerakligini bilib oladilar, zaruriy mehnat bilim va ko'nikmalarini egallaydilar va ular keyinchalik kundalik hayotdagi malakalariga aylanib boradi.

Mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish bo'yicha bilimlarni nafaqat maxsus tashkil etilgan mashg'ulotlarda, balki kundalik ishlarda ham berib borish kerak. Tarbiyachi bolalar bilan ishlash jarayonida ularni aniq maqsadga yo'naltiradi, ular qanday natijaga erishishlarini aytib o'tadi, zarur bo'lgan vaziyatda kerakli usullarni ko'rsatib beradi, ma'lumotlarni berib boradi, buning barchasi mehnatni amalga oshirish jarayonida bajariladi.

Masalan, bolalarni o'simliklarni parvarish qilishga o'rgatib, ularda mehnatsevarlikni tarbiyalab, pedagog bolalarda sekin astalik bilan o'simliklarni o'stirishni ahamiyatini ham tushuntirib beradi, ma'lumotlarni berib boradi, lekin buni asosiy maqsad qilib qo'ymaydi.

Bolalarni o'simliklarni va jonivorlarni parvarish qilish kabi mehnat jarayonida, ularni kattalar bilan hamkorligi asosiy o'rin egallaydi. Bunday ish tarbiyalanuvchilarga harakatlanish yo'nalishini (tananing harakati, er chopish jarayonida oyoq va qo'llarning harakatlarini), harakatlanish kuchini (masalan, yer chopish, sug'orish jarayonida qo'l va oyoqlarni birgalkdagi harakati) aniqlab olishga yordam beradi. Bularning barchasini tarbiyachi bolalar guruhi bilan avvaldan hamkorlikda ishlaganida, ularga avvaldan maydoncha ajratilgan vaziyatdagina amalga oshirish mumkin. Doimiy topshiriq olib turgan bola harakat qila boshlaydi, qiyinchiliklarni bartaraf eta boshlaydi.

Tarbiyaviy vazifalarni xal qilishning eng maqbul usullari sifatida turli topshiriqlar hisoblanadi: individual, guruhliy, uzoq muddatli, tizimli.

### **O'simliklar va jonivorlarni parvarish qilish bo'yicha mehnat mazmuni**

Tabiat burchagida va maktabgacha ta'lim tashkilotining yer maydonchasida jonivorlar va o'simliklarni parvarish qilish bo'yicha mehnat jarayonida quyidagi eng muhim jarayonlarni ajratish mumkin: jonivorlarni saqlaydigan qafaslarini tozalash (artish, qum sepish, kepak sepish va x.k.), don va suv idishlarini yuvish, jonivorlar yuvintiriladigan idishlarni yuvish, ularni suv bilan to'ldirish va boshqalar; qushlar va jonivorlarga

tarbiyachining topshirig'i yoki o'z hoxishi bilan don beish (katta bolalar), yashil maysalarni o'stirish, tashkilot hududidagi qushlarni boqish (kuz, qish fasllarida), qushlarning inlarini yasash va osib qo'yish (tarbiyachi yordamida); mayda jonzorlarning yemishini tayyorlash va ovqatlantirish (ildizlarni yuvish va kesish, ko'katlarni tayyorlash); tashkilot hududidagi uy hayvonlarini parvarish qilishda ishtirok etish (kuchuklar, tovuqlar, o'rdaklar va boshqalar); tarbiyachilarga akvariumdagi suvni almashtirish va tozalashga o'rgatish (baliqlarni tutish, ularni xona haroratidagi suv solingan tog'oraga olib turish, toshlari, chig'anoqlarini yuvish va tozalash); baliqlarni parvarish qilish (ularni ehtiyotkorlik bilan boqish, suvning eng ustki qatlamini stakan bilan olib tashlash, yangi suv quyib turish); xona gullarini sug'orish, barglarini artish, yuvish, qurigan barglari va shoxlarini olib tashlash, yerini yumshatish; urug'laridan o'simliklarni yetishtirish (tashkilot va ota onalar uchun sovg'aga); yerni yumshatish, chopish va ariq ochishda qatnashish, yordam berish; o'simlik va gullarning mayda va yirik urug'larini sepish, ularni o'stirish, o'simliklarni joyini almashtirish; o'z bog'ida gullar va ekinlarni parvarish qilish (sug'orish, yerini yumshatish, bog'lash va x.k.); kattalarga bog' va ekinzordagi ekinlarni yig'ishga yordam berish; maydonni tozalash.

Tarbiyachi har bir yosh guruhidagi bolalar uchun o'zlariga mos keladigan mehnat turlarini tanlaydilar. Ular bir tomondan bolalar qila oladigan bo'lishi, ikkinchi tomondan ularni ishlashga undashi kerak.

Mehnatni to'g'ri taqsimlash kerak. Mehnat jarayonining davomiyligi mehnat xarakteri, bolalarning yoshi va imkoniyatlarga bog'liq; masalan, urug'larni ekishda uning hajmi va ekish texnikasi muhim rol o'ynaydi, ariqlarni o'tash esa bolalardan katta diqqat va e'tibor talab etadi. Bunday jarayon katta guruh bolalariga uzoq bo'lmagan muddatga to'g'ri keladi (10 daqiqagacha). Mehnatni to'g'ri tashkil etish nafaqat uni taqsimlanishida, balki rejimiga ham bog'liq.

Mehnat jarayonini uning xarakterini inobatga olgan holda almashtirib turish kerak (turli mushaklar, taxlilatorlar guruhlarini ishlashi kerak). Kam kuch sarflaniladigan jarayonlar ko'p sarflanadiganlari bilan almashtirilib turishi kerak, ish- dam sifatida (egatlarni ochib bo'lgach, urug'larni ekish, so'ng esa sug'orish kabi). Ishni boshlashdan oldin bolalar uchun inventarlar tekshirilib turiladi. Ular bolalar qo'li yetadigan joyda, har bir bolaga yetadigan darajada bo'lishi kerak.

Bolalar uchun anjomlar ularning bo'yi, kuchi, imkoniyatlariga to'g'ri kelishi, to'g'ri tuzilgan bo'lishi kerak, masalan gul sug'oradigan idish ikkita

tutqichga, yuqoridan va yon tomondan ega bo'lishi kerak. Faqatgina shu holatda mehnat bola organizmini chiniqtirishi mumkin.

Bolalarni anjomlarni ehtiyot qilishga o'rgatish kerak (ularni to'g'ri saqlash, tozalash, yuvish, ishlatib bo'lgandan so'ng yig'ishtirish). Anjomlarni qo'llash mehnat madaniyatiga mos bo'lishi kerak: bolani ish joyini doim ozoda tutishga o'rgatish, tozalash anjomlari esa har doim qo'l ostida bo'lishiga tushuntirish kerak. Tashkilot hududida bajariladigan ish jarayonida esa gigiena qoidalarini o'rgatish kerak: kunning issiq vaqtlarida emas, balki tongda va tushdan keyin ishlashni o'rgatish kerak. Bolalarni mehnat qilishdagi pozasi ham to'g'ri bo'lishi kerak. Yerni yumshatishda tana to'g'ri bo'lishi, suv tashishda ikki qo'llab ushlash va x.k.

Jonivorlarni parvarish qilish esa bolalarda mas'uliyat hissini tarbiyalashga yordam beradi (baliqlarni o'lib qolmasigi uchun oziqlantirib turish kerak).

Yanada kuchli tarbiyaviy effektini bir jonvorni uzoq muddat parvarish qilish beradi: qushlarni parvarish qilish (tuxumdan chiqqan holatan boshlab o'zi tuxum qo'yadigan vaqtgacha) va xokazo. Jonvorni uzoq muddat parvarish qilishini kuzatgan bola, qanday kuzatish kerakligini, ularni o'sishi va rivojlanishi borasidagi birlamchi bilimarni oladi. Bularning barchasi bolada ehtiyotkoronalik va e'tiborni rivojlantiradi, mehnat ob'yektiga qiziqishni uyg'otadi.

Bolalarning mehnati kutilayotgan natijaga olib kelishi uchun tarbiyachining o'zi jonivorlarni qanday parvarish qilish, ularni nima bilan oziqlantirishni bilishi kerak, shundan so'ng tabiat burchagida bolalarni mehnatini to'g'ri tashkil etish lozim. Buning barchasi juda muhim, chunki tabiat burchagida bir xil ishni takrorlanishi qiyin. Turli jonivorlar va o'simliklar turlicha parvarishni talab qiladi.

Tabiat burchagida mehnatni tashkil etishning yetakchi usuli navbatchilik hisoblanadi: bolalar kichik guruhchalarga bo'linib (3,4 boladan) 3 kundan 5 kungacha vaqt oralig'idagi vazifalarni bajaradilar. Bundan tashqari ma'lum bir o'simlik yoki jonvorni parvarish qilish bo'yicha uzoq muddatli individual topshiriqlar ham bo'ladi (2,3 hafta muddatga). Guruhlarni shunday tuzish kerakki, malakali bolalar xali ko'nikmalarga ega bo'lmagan bolalar bilan birlashtirib qo'yilishi kerak. Bolalar ishga "kirishganida" navbatchilarning ish majburiyatlari va qoidalar taqsimlanadi: navbatchilikka o'z vaqtida kelish, mehnat faoliyatlari ketma ketligini bilish, bolalar to'planganida ishni o'z vaqtida boshlash, ish qurollaridan to'g'ri foydalanish va x.k.

Agar bolalar ular uchun yangi bo'lgan jonivorlarni parvarish qilsalar, tarbiyachi ularning mehnat jarayonini boshqaradi, ular bilan birga amalga oshiradi, bolalarga ularning majburiyatlarini tushunishlariga yordam beradi, kattalardek tartib bilan ish qilishni o'rgatadi; qiynalayotganlarga o'z vaqtida yordam beradi, ularga ishonch hissini singiradi, mehnatga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Har bir maktabgacha yosh davri bolalarining tabiatdagi mehnat jarayoni imkoniyatlarini, ushbu mehnat turini tashkil etish usullarini va ularni boshqarishni ko'rib chiqamiz.

### **Jonivorlar va o'simliklarni parvarish qilish bo'yicha mehnat mazmuni. Kichik yoshdagilar (3 yoshli bolalar).**

Bu yoshdagi bolalarning imkoniyatlari cheklangan bo'lib, tabiatning hamma uchun ma'lum bo'lgan hodisalari bilan tanishtirish jarayonida mehnat tarbiyasi ham berib boriladi.

3 yoshli bolalarning aqliy va mehnat tarbiyasiga tabiatda 2 ta asos xizmat qiladi: bolalarni mustaqillikka intilishi va kuzatuvchanlikni shakllantirilishi. Bolalarni tabiat bilan tanitirish bo'yicha dasturiy talablar bu yoshda ko'rgazmali amaliy ta'lim sifatida amalga oshiriladi.

Tarbiyachi bolalarga bilimlarni reja asosida berib boradi va ularda zaruriy ko'nikmalarni shakllantiradi, ularning oldiga aqliy va amaliy vazifalar beradi. Materiallarni, harakatlanish usullarini tushuntirib, ko'rsatib oldinga qo'yiladigan vazifaarni xal qilish yo'llarini ochib beradi, harakatda ko'rsatgan holda bolalarning faoliyatini maqsadga erishishga yo'naltiradi; tushuntirishlarni bolalarning idroki, harakatlari va nutqiga bog'laydi.

Pedagog taqdim etilayotgan materiallarni ko'rgazmali tarzda, qo'yayotgan talablarni esa aniq va tushunarli qilib berishi kerak. Masalan, o'simliklar bilan tanishtirishda bolani ko'rgazmali harakatli faoliyatga undashi lozim (gulning poyasini ko'rsat, uning uzunligini qara, barglari kichkina, guli dumaloq, sharga o'xshaydi, gulni ko'rsat, uni hidlab ko'r, gulni poyasini uzun qilib yulib ko'r va x.k.), tarbiyachi shu tariqa bolalarga idrok xususiyatlarini o'zlashtirishga yordam beradi.

Amaliy harakatlar, tashkilot hududidagi o'simliklar bilan bolalarni tanishtiradi, tizimlashtiradi, o'simliklar to'g'risidagi bilimlarini boyitadi (o'tlar, daraxtlar, gullar). Ular sh tariqa yangi bilimlarini va hissiyotlarini boyitadi. Bolalarni mehnatga o'rgatishda asosiy rolni tabiiy materiallarning xususiyatlari bilan tanishtirish hisoblanadi. Bu yoshdagi bolalar yil mobaynida ularning hissiyotlarini boyitishga yordam beruvchi turli tabiiy vositalar bilan ishlashlari mumkin. Qum, suv, qor bilan ishlashda bolalar ularning xususiyatlari bilan tanishadilar (quruq qum to'kilib ketadi, nam qumdan narsa yasash oson; suvda baliqlar, o'rdaklar suzib yuradilar va x.k.).

Suv bilan o'ynaganda bolalarda turli hissiyotlar uyg'onadi (suv haroratini o'zgartirish mumkin). Bolalar sovuq, illiq va issiq suvlarni his qiladilar. Bolalarning e'tiborini xavo haroratining o'zgarishiga qaratish lozim: quyosh chaqnaib turibdi, yomg'ir yog'yapti, qor yog'yapti, shamol yeladi. Kattalarning mehnat jarayonini kuzatishni tashkillashtirish mumkin (qorni qanday yig'adilar, daraxtlar qanday ekiladi va x.k.).

Hayvonlarni kuzatish jarayonida bolalarga ularni parvarish qilish bo'yicha oddiy topshiriqlar beriladi (qushlar uchun don sepish, baliqlarni oziqlantirish va x.k.). Bolalar bu ishlarning zaruratini va uni qanday bajarish kerakligini bilib oladilar (tarbiyaning nazorati ostida). Masalan: "Sen menga baliqlarni oziqlantirishga yordam berasan. Bu ularning doni.". Tarbiyachi ozuqa sepib, bolalar takrorlanishini ham taklif etadi. Kichik yoshdagi bolalarning bilish faoliyati amaliy mehnat faoliyatida shakllanadi.

Tarbiyachi ishni shunday tashkil etishi kerakki, bolalarning harakatlari tirik mavjudotning zaruriy holatlarini faollashtirishi kerak (masalan, quyunchalar, mushukchalarni ovqatlantirishni o'rgatish kerak). Bola jonivorlar o'zini qanday tutishini yuzaki idrok etgan holda ularning qanday harakat qilishini tushunishni boshlaydi (qanday ovqatlanadi, suzadi, uchadi va x.k.), ularda hayvonlarning tana a'zolarini alohida qismlarining harakatlanishini taxlil qilish ko'nikmalari shakllanadi (tumshuq, til, qanot va boshqalar). Shu tariqa, bolalar amaliy faoliyatlardan bilish jarayonlari sifatida foydalana boshlaydilar.

Bolalar kattalarning mehnat faoliyatlarini bilishlari va ularni aytib bera olishlari lozim. Bunga bolalar guruhlari bilan o'tkaziladigan turli tizimli kuzatishlar yordam beradi. Bolalar bilan xona gullarini yuvish jarayonini kuzatib turib ularga quyidagilarni aytilish mumkin: barglarni ular toza va chiroyli bo'lishi uchun yuvish lozim. Maqsad bolalar uchun aniq, unga erishish yo'llari esa ko'rgazmali va tushunali bo'lishi kerak. Barglardan changni qanday qilib to'g'ri tozalash kerakligini ko'rsatib berish kerak. Ularni ko'rsata turib tushuntirish ham kerak. Bolalarning diqqatini mehnat natijasiga qaratish ham muhim: barglar yuvilgandan so'ng qanday o'zgardi.

Bola faoliyatni tarkibiy tomonini tushuna boshlaydi. Ba'zi bolalarga bu ishlarni amalga oshirib ko'rishni taklif etish mumkin. "Tarbiyachi - bolalar qarang barglarni qanday yuvish kerak. Avval o'rganib oling keyin o'zingiz yuvasiz. Hozir menga Olya va Sasha yordam berishadi". Tarbiyachi bolalarni sekin asta oddiy ishlarni bajarishga undayi. Tashkilot hududida barglarni yig'ishlari, tabiat burchagida gullarni sug'orishlar mumkin. Pedagog to'g'ri suv quyishni ham o'rgatadi. Kattalarning harakatlariga taqlid qilib, bolalar amaliy ko'nikmalarga ega bo'la boshlaydilar. Xatto

kichik topshiriqlarni bajarish orqali ham tarbiyachi bolalarni mehnat faoliyatiga bog'laydi: "Qushchani chiroyli sayrash uchun ovqatlantiramiz"; "O'simliklarga qurib qolmasliklari uchun suv quyamiz". Sayr davomida esa bolalarga gullarni uzmaslikni tushuntirish kerak.

**Jonivorlar va o'simliklarni parvarish qilish bo'yicha mehnatning tarkibi. Kichik yoshdagilar (4 yoshli bolalar).**

4 yoshli bolalarda o'simliklarni o'stirish, jonivorlarni parvarish qilishga qiziqishni tarbiyalanadi, ularni bajarishni elementar vositalarini o'rgatiladi. Oddiy ishlar (yirik urug'larni ekish, o'simliklarga suv quyish, jonivorlarni ovqatlantirish va x.k.) bolalar uchun zavq manbaiga aylanishi kerak. Tabiat burchagidagilar bilan bolalar yil mobanida tanishib boradilar. Shuning uchun mehnat borasidagi bilimlarini to'liqroq va tizimliroq bo'ladi.

Oson topshiriqlarni bajarish kundalik ishga aylanib qoladi. Tarbiyachi barcha bolalar usllarni yaxshi o'zlashtirishlari uchun ish rejasida qaysi bolani o'ziga yordamga chaqirishni, ishni qanday tashkil qilishni rejalashtiradi. Bolalarga mehnat urollaridan foydalanib bo'lgandan so'ng ularni o'z joyiga olib qo'yishni ham o'rgatish kerak.

Tabiat burchagiga barglari yirik, yuvilishi oson, ko'p gullaydigan simliklar qo'yiladi. Bu yerda akvarium ham bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jonivorlarni parvarish qilish asosan ularni ovqatlantirishdan iborat bo'ladi, chunki bolalar jismoniy jixatdan bu ishni uddalay oladilar.

4 yoshli bolalarga qushlarni parvarish qilish kerakligi tushuntiriladi: don, o't bilan oziqlantirish, toza suv berishni, don idishiga don sepishni, suv idishiga suv quyishni, ularni katak ichiga qo'yishni o'rgatiladi. Baliqlarni parvarish qilishda qoshiqcha bilan oziqasini olib, suvni ifloslantirmasdan sekin solishni, akvarium suvini o'zgartirganda toshlarni yuvishni o'rgatish mumkin. Bolalarga asta sekin gullarga suv quyish, urug' sepish, barglarni artish va yuvish, tuvaklarni artishni o'rgatib boradilar.

Mehnat jarayoniga ongli munosabatni tarbiyalash uchun o'simliklarni parvarish qilish va ularni ekish ishlarini birlashtirish, tabiiy materiallar (qum, suv, qor va x.k.) bilan o'ynash, ular bilan turlicha ishlarni amalga oshirishlari uchun imkon berish juda muhim. Faoliyatni tashkil etish jarayonida materiallar xususiyatini inobatga olish juda muhim (qup sochiluvchan; u quruq va nam bo'ladi, nam qumdan narsa yasash mumkin; loy yopishqoq; qor muzdek, eruvchan bo'ladi; ilq havoda u yopishqoq bo'ladi, undan qor bola va boshqalarni yasash mumkin).

Bolalarni o'simliklarni parvarish qilishga o'rgatish ularni sug'orishga to'g'ri o'rgatishdan boshlanadi. Tarbiyachi quruq yerni nam yerdan

ajratishni, natijada qaysi o'simlikni sug'orish kerakligini o'rgatadi. Shu bilan birgalika agar o'simliklar namligini yo'qotsa ular qurib, barglari, poyasi so'lib qolishini ham o'rgatish kerak.

Tuvak ostidagi idishda suv ko'rinmaguncha sug'orish kerak. Bu yoshdagi bolalar quyi qismi shoxlab ketmagan gullarni sug'orishlari mumkin.

Bu yoshdagi bolalar bilan kattalarning hamkorlikdagi faoliyati tizimli ko'rinishda bo'ladi. Vaqti vaqti bilan tarbiyachi bolalarni umumiy ish uchun birlashtiradi, masalan, gul bargalarini yuvish (yiliga 3,4 marta). Bunda bolalarning e'tiborini o'simliklarga ehtiyotkorona munosabatga qaratish kerak: har bir bargni avaylab, sindirib qo'ymasdan yuvishni.

Mazkur ishni amalga oshirishni qalin va katta artishdan boshlash lozim (masalan, fikus, limon va boshqalar): "Barglarda chang ko'p bo'ladi. O'simliklarni ular toza, chiroyli va yaxshi o'sishlari uchun yuvib turish kerak. Bugun biz sizlar bilan shu ishlarni bajaramiz. Men sizlarga barglarni qanday yuvishni ko'rsataman. Sochiqni xo'llab, uni suvi tommasligi uchun yaxshilab siqib, yozamiz; so'ng bir qo'limiz bilan bargni ushlab ikkinchisi bilan sochiqni ushlab bargni pastki qismidan tepasiga qarab sekin artamiz. Sochiqni qaytadan yuvib keyingi bargni tozalaymiz".

O'simliklarni iliq suv bilan yuvish kerak. Bolalar suv avvaliga toza bo'lganini, so'ng kir bo'lganini ko'rishlari mumkin. Har bir bola bu ishni amalga oshira olishi uchun gullar yetarli bo'lishi kerak.

Tarbiyachi topshiriqni bajarish ketma ketligini yodga olishni taklif etadi, ular topshiriqni ongli tarzda bajara olishlari uchun. Tarbiyachi tushuntirishlarini davom ettirib "Endi men aytganimdan topshiriqlarni bajaramiz" deydi.

Kichik guruhlarda bosqichli faoliyat olib boriladi, ya'ni bolalar tarbiyachining bosqichma bosqich aytgan topshiriqlarini bajarib borishadi. Mashg'ulot yakunida tarbiyachi quyidagi gaplarni aytishi lozim: "Ishlaringizni bajarib bo'lganingizdan so'ng sochiqlarni yuvib qo'ying. Keyingi safar yana shu ishlarni bajarganimizda ular toza turishlari uchun". Sayrdan qaytgach ham bolalarning diqqatini oyna oldida turgan gullarga qaratish lozim "Sizga o'simliklar yoqdimi? Ularni birga ozaladik a?" deb, ular bajargan ishlaridan zavq olishlari uchun.

Avvaliga bolalarga bir xil topshiriqlar beriladi, ularning barchasi yoki gullarni changini tozalayilar, yoki ularga suv quyadilar, yoki urularni ekadilar. Turli topshiriqlar ularni chalg'itadi, chunki ular do'stlari bajarayotgan ishni bajarishni istaydilar. Yil oxiriga kelib bola o'ziga berilgan topshiriqni bajarishni boshlaydi, qolgan bolalar nima ish

bajarishayotganidan qat'iy nazar. Tashkilot hududida o'simliklar o'smaydigan vaqtlarda bolalarni ayniqsa o'zlari o'stirgan xona o'simliklari quvontiradi.

Suli urug'larini qushlar bo'lgan vaziyatdagina ekish lozim. Bu barcha bolalar uchun umumiy maqsad hisoblanadi: yam yashil o'tlarni o'stirib qushlarga beriladi. Ishning boshida tarbiyachi bolalarga unib chiqqan suli o'tini beradi, bolalar qushchani ovqatlantirib ko'rish imkoniga ega bo'lishlari uchun. Ish natijasini oldindan ko'rish bolalarda ishini bajarish istaini uyg'otishga yordam beradi.

Bunday vaziyatda harakat qilish jarayoni emas, balki natijani taqqoslash ham ahamiyat kasb etadi. Urug' sepishni bir necha bor amalga oshirish mumkin. Takroriy urug' sepish jarayoni bolalarning bilimlarini boyitadi va malakalarini oshiradi. Bolalar urug'larni individual tarzda o'z qutilariga ekadilar. Bu ish shunisi bilan qulayki, unda bolalar bir birlari bilan bellashmay ishning natijasini baholaydilar. Shu bilan birga bolalarda ish jarayonida ma'lum ketma ketlikka amal qilish to'g'risidagi tasavvur shakllanadi.

Urug'larni ekishdan oldin tarbiyachi har bir bola uchun alohida qutichalar tayyorlashi, urug'larni har bir stolga 2 ta likopchaga solib chiqishi, bolalar bilan tuproq tayyorlashi, sug'orish uchun suv tayyorlashi kerak. Tarbiyachi urug'larni qanday ekish kerakligini tushuntirib beradi: "mana bu biz ekadigan urug'larni ularni ushlab ko'rishingiz mumkin". Ekish jarayoni bolalar uchun 2 bosqichdan iborat: urug'larni tuproqni kavlab solish va sug'orish. Tushuntirish qisqa va tushunarli bo'lishi kerak.

Tarbiyachining amalga oshirayotgan harakatlari tushuntirishlariga mos bo'lishi lozim: "urug'larni tuproq ichiga chuqur kiritish kerak; bir urug'ni olib tuproqqa ekaman, ikkinchisini olib uning yoniga va shu tariqa davom etamiz". "Bittadan urug' olaman" degan iborani bir necha marotaba takrorlash juda muhim, bolada shu tariqa ko'nikmalar shakllantiriladi. Bolalarga avvaliga bittadan, individual tarzda murojaat etish kerak.

Tarbiyachi bolalarga urug'larni ekishga, ularni ko'mib qo'yishga va suv quyishga yordam beradi.

Mashg'ulot yakunida tarbiyachi qutillardagi belgilarga bolalarning diqqatini qaratishi lozim, chunki har bir bola o'z o'simligini kuzatib boradi. Bolalarga o'simliklarini deraza tokchasiga qo'yish taklif etiladi: "O'simliklarimizga tekda quyosh nuri tushadi, ularni sug'orib turishimiz oson bo'ladi" deyiladi. Mashg'ulot yakunida bolalarni albatta rag'batlantirish lozim: "Barakalla sen ishingni juda yaxshi bajarding!",

“Ofarin o’simliklaringiz quyuq va chiroyli bo’lib o’sadi”. Mashg’ulotni bunday yakunlash bolalarda keyingi safar ham ilash istagini uyg’otadi.

Dekabr-yanvar oylarida bolalar piyoz ekadilar. 3-4 yoshli bolalarning ishini bajarishi ko’p hollarda natija bilan mos keladi. Shuning uchun bola ongli tarzda o’zi tushunguniga qadar, unga o’simliklarni parvarish qilish, sug’orish kerakligini o’rgatib borish kerak. Kichkina bolalar ba’zi hollarda bir joyga ko’p suv quyib yuboradilar, natijada esa urug’lar tuproq yuzasiga qaytib chiqadi. Bolalarga shuni tushuntirish kerakki sulini butun quti bo’yicha sug’orish, piyozni esa o’zagi bo’yicha sug’orish kerak. O’simliklar suvga to’yinishi uchun suvni sekin-asta, shoshmasdan, suvni singishiga qarab quyish kerak. Bu ularning diqqatini rivojlantirib, shoshqaloq harakatlarini oldini oladi.

Fevral-mart oylarida noxot, loviyalarni dekorativ maqsadlarda ekish mumkin. O’simliklar aprel oyi yakunida gullaydilar. Tarbiyachi gullarning illyustrasiyalarini qanchalik chiroyli ochilishini ko’rsatishi mumkin. Quti ustiga yopishtirilgan gullarning illyustrasiyalarini tabiiy gullar ochilgancha qoldirish mumkin. Ekin ekish bo’yicha ishlar tashkilot bog’ida amalga oshiriladi. Bahor faslida bolalarni tashkilot hududida loviya va boshqa o’simliklarni ekishga taklif etadilar.

Tarbiyachi bolalarga loviyaning katta, yaltirab turuvchi urug’larini ko’rsatadi. Urug’larni tuproq orasida ochilgan kavakka solib, uni tuproq bilan ko’mib, suv quyish kerakligini tushuntiradi. Ishni yengillashtirish maqsadida ekin ekiladigan egatlarda 8-10 sm oraliqda cho’plar bilan belgilab chiqiladi. Tayoqchalar o’rniga bolalar belgilangan chuqurlikda kavaklarni ochishlari kerak (har bir bolaga 3-5 tadan vakav to’g’ri keladi). Tushuntirish va ko’rsatish ishlari har bir yangi ishni bajarishdan oldin amalga oshiriladi, chunki bolalar birdaniga barcha ma’lumotlarni esda olib qololmaydilar, natijada bir ishga qiziqib keyingisini unutib qo’yishlari mumkin.

Takroriy mashg’ulotlarda bolalarda bajaradigan ishlariga nisbatan ishonch hissi paydo bo’ladi. Har bir bajariladigan ishni takroriy qisqa tushuntirishlardan, tarbiyachi sekin-asta umumiy tushuntirishlarga o’tadi. U faqatgina bolalar bajarishlari kerak bo’lgan ishlarni eslatib turadi: “O’simlikni o’rganganingdek sug’or”, “Urug’larni avval ekkanimizdek ekib chiq” kabi. Bunday usul bolalarni ishni qanday boshlash kerakligini, ularni qaysi tartibda amalga oshirishni yodga olishga undaydi.

Ekish va sug’orishdan tashqari bolalarni yerni yumshatish va begona o’tlardan tozalash ishlarini ham kuzatishlari mumkin.

Bolalarni bunday ishlarga ba'zi hollarda va bilish faoliyatini oshirish uchungina undash mumkin. Masalan loviyalar ekilgan egatdagi yovvoyi o'tlarni tozalashda tarbiyalanuvchilar loviya qaysi, yovvoyi o't qaysi ekanligini ajratishni boshlaydilar. Ular o'zlari qanday o'tligini so'ray boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning savollariga javob berib, 3-4 xil yovvoyi o'tni ko'rsatishi kerak. Bolalar ularni tezda ajratishni o'rganib oladilar.

O'simliklarni farqlash va nomlarini aytish kabi oddiy mashg'ulotlar bolalarning xulq-atvorlarida ham o'zgarishlarni namoyon qila boshlaydi: ular atrofdagi tabiatga ahamiyat bera boshlaydilar; sayr paytida turli o't-o'lanlarni farqlaydilar; o'zlariga tanish bo'lgan o'simliklarni uchratganlarida zavqlanadilar, uni tomosha qilib ko'radilar. Ko'p hollarda notanish bo'lgan o'simliklarni ko'rganlarida ularning nomalariga ham qiziqadilar.

Shuningdek katta guruh bolalari hirmonni yig'ishini kuzatadilar va o'zlari ham bu faoliyatda ishtirok etadilar: piyoz, sabzi, lavlagilarni kavlab oladilar, kungaboqar donlarini yig'adilar, polizdagi chiqindilarni tozalaydilar va x.k. chiqindilarni maxsus joyga aravachalarda tashib qo'yadilar.

Bolalar bilan qish faslida qolgan qushlarni ham kuzatish mumkin. Har kuni bir vaqtda tozalangan va qum sepilgan yerga, yoki maxsus joyga don sepib qo'yish kerak.

Bahor faslida qushlar uchun inlar tayyorlanadi va tashkilot hududi bo'ylab joylashtiriladi. Tabiat burchagida yashovchi qushlarni yoz faslida tashkilot hududiga maxsus kataklar yasab joylashtirish mumkin. Agar tashkilotda tovuqlar bo'lsa bolalar ularni parvarish qilishni kuzatadilar, o'zlari don va suv berishni o'rganadilar. Bolalar quyonchalarni parvarish qilishda ham ishtirok etadilar. Ularga o't yulib kelishni va quyonchalarga berishni taklif qilish mumkin.

Bolalar faslga oid mehnat faoliyatlarida ham ishtirok etadilar. Qish fasllaridagi sayrda tarbiyachi bilan birgalikda yo'laklarni qordan tozalashlari mumkin. Bolalarga tozalash ishlaridan keyin atrof toza va o'ynash uchun qulay bo'lishini tushuntirish kerak. Qish faslida bolalarning e'tiborini qor qoplagan daraxtlar va butalarga qaratish lozim. Ularga qor qoplagan daraxtlar kun isiganda qori erib suvga aylanishini, daraxtlar esa uni to'yib ichishini tushuntirish mumkin.

**Jonivorlar va o'simliklarni parvarish qilish bo'yicha mehnatning tarkibi. O'rta yoshdagilar (5 yoshli bolalar).**

Bu yoshdagi bolalarda tabiat hodisalari va predmetlariga nisbatan barqaror qiziqish, o'simliklarni o'stirish va jonivorlarni parvarish qilish bo'yicha mehnatga nisbatan anglangan munosabat shakllantiriladi.

Tabiat hodisalarini kuzatib bolalar tanish bo'lgan predmetlarni harakterli alomatlariga ko'ra guruhlariga ajrata boshlaydilar. Tashkilot xududidagi qushlarni kuzatib ular: kun sovuq, ozuqa yo'q va ularga don berish kerakligini anglaydilar. Bu guruhda bolalar mehnatini tashkil etish usullari o'zgaradi; kattalarning topshiriqlaridan tashqari, ular tabiat burchagidagi kundalik ishlarini ham amalga oshirishlari lozim.

Yil boshidan boshlab tarbiyachi ularni o'simliklarni sug'orish, yerni yumshatish, jonivorlarni boqish kabi tizimli ishlarga undaydi. Bunday mehnat jarayonida pedagog bolalarda u yoki bu ishni o'z vaqtida bajarish kerakligini anglash va harakat qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Avvaliga 2-3 tadan boshlani ishga undaydi, so'ng ular navbatchilik qila boshlaydilar.

Topshiriqlarni berishda bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olish muhim: diqqati beqaror bolalar bolalarga yengil ishlarni topshirish va xokazo. Boshlagan ishini oxiriga yetkazishni biladigan bolalarga murakkabroq ishlarni berish mumkin. Ba'zi hollarda bolalarga individual topshiriqlar ham beriladi: ulardan ba'zilariga ma'lum gullarni parvarish qilish yoki shu kabi ishlar. Individual topshiriqlarni bajarish mustaqillikni oshiradi, o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini bajarish ishtiyoqini rivojlantiradi. Bunga ishni bajarib bo'lgan bolalar tengdoshlariga qaysi ishni qanday bajarganlarini aytib berishlari ham yordam beradi.

Ekinlarni parvarish qilib, bola ularni tizimli tarzda kuzatib boradi, ularga mas'uliyatli yondashish ko'nikmasini shakllantiradi. Bolalarga o'simliklarni yaxshi unib-o'sishi uchun qulay sharoit yaratish muhimligini tushuntirish kerak. Tarbiyachi bolalarga mehnatning har bir jarayonini mohiyatini tushunishga, zarur vaziyatda kerakli bo'lgan ishlarni ongli bajarishlarini anglashlariga yordam berishi kerak. 5 yoshli bolalarni xali sug'orish ko'nikmalarini shakllantirilishi davom etadi: o'simliklarni zarur bo'lganda sug'orish; xona haroratidagi suv bilan sug'orish; o'simlikning tuproq qismini bir xilda namlash, shu bilan birgalikda qaysi o'simlikka ko'proq suv quyish kerakligi ham tushuntiriladi.

Bolalar o'simlik qanchalik katta bo'lsa, shunchalik ko'proq suv quyish kerakligini tushunadilar. Shu bilan birgalikda bolalarni tuproqning namlik darajasiga qarab sug'orishni o'rgatish kerak. Bolalar quruq tuproq qattiq va maydalanuvchan bo'lishini, nam tuproq esa to'q rangda bo'lishini o'rganishlari lozim. Malakalari ortib borgan sari bolalar o'zlari gullarga suv quyish zaruratlarini anglay boshlaydilar.

Shuningdek bolalarga bahor faslida o'simliklar o'sishi tezlashishini, yangi barglar va shoxlar paydo bo'lishini aytib o'tish ham kerak. Ularga suv yanada ko'proq ketishini ham bildirish lozim.

Bolalar gul barglarini artish, yuvish kerakligini o'zlashtirib bo'lganlar. Yerni yumshatishni o'rgatishda esa, qattiq tuproq suvni yaxshi o'tkazmasligini, o'simlikka ziyon yetkazishini, yerni sekin-astalik bilan yumshatish kerakligini o'rgatiladi. Avvaliga bir-biridan uzoqda joylashgan o'simliklarning tuprog'i yumshatiladi. Bu ish bolalardan e'tibor, diqqat va chidamlilikni talab qiladi, shuning uchun faolroq bolalar bunga biroz qiyinaladilar. Agar ishni tizimli tarzda o'rgatilsa ular o'z harakatlarini nazorat qilib, o'simliklarga ziyon yetkazmaslikni ham o'rganadilar. Shuningdek bolalarni o'simliklarning qurigan shoxlari va barglarini olib tashlashga o'rgatish ham mumkin.

O'simliklarni tabiat burchagida ular bir biriga xalaqit bermaydigan qilib joylashtiriladi. Bolalar ularni xajmi, tuzilishiga qarab ajrata olishlari uchun turlicha gullar bo'lishi maqsadga muvofiq.

Tabiat burchagida bolalar tarbiyachi nazorati ostida jonivorlarni ham parvarish qiladilar. Ular qaysi jonvorga qanday ozuqa kerakligini, qanday nomlanishi, qayerda va qanday saqlanishini bilishi kerak. Tarbiyachi nazorati ostida bolalar ozuqa tayyorlaydilar: karam va o'tlarni maydalaydilar, baliqlar va qushlarga ozuqalaridan beradilar. Ular ozuqalarni qay maxal va qanchadan berishni ham bilishlari kerak. Jonivorlarning harakatlarini ham kuzatishlari lozim: qushcha tinimsiz sayrasa doni yoki suvi bo'lmasligi mumkin; baliqcha suv yuzasiga chiqyapti, demak unga kislorod yetishmayapti. Jonivorlar sog'lom bo'lishlari uchun inlarini tozalab turish, idishlarini iliq suvda yuvib toza ovqat va suv solish kerak. Agar tovuqlar bo'lsa ularga bolalar don sepadilar.

Akvariumni tarbiyachi tozalashini kuzata turib bolalar toshlar va chig'anoqlarni yuvib turishlari mumkin. O'rta guruhlarda akvariumdagi baliqlarning turi ham ko'payadi.

Tabiat burchagida hamkorlikdagi tozalash ishlarini tashkil etib, bolalarga ishlarni taqsimlab berish mumkin: jonivorlarning idishlarini yuvish, barglarni artish, tuvakdagi o'simliklarning tuproqlarini yumshatish va xokazo.

Yilning ikkinchi yarmida yangicha tizimli faoliyat- navbatchilik boshlanadi. Bolalarning navbatchilikda ishlashga tayyorligi tabiat burchagidagi ishlarni bajarilishini ta'minlaydi. Navbatchiliklarni rejalashtirishga bag'ishlangan mashg'ulotlarda tarbiyachi navbatchilarning majburiyatlarini, tabiat burchagidagi har bir o'simlik va jonivorni qanday

parvarish qilish kerakligini, barcha talablarni bajarishning zarurligini tushuntirishi kerak.

Bolalarda o'zlari o'stirgan o'simliklar ayniqsa katta qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun birgalikda tabiat burchagida o'simliklarni ekish va parvarish qilish juda muhim. Bu yoshda ishlarni ongli bajarish, oldinga qo'ygan maqsadiga erishish ko'nikmalari shakllanadi. Bolalarning o'z malakalariga tayanishi bajarayotgan mehnat faoliyatlarini yaxshiroq anglashlari va harakat qilishlarini kuchaytiradi.

Bunda mehnatning natijalarini ega tushirish zarurati yo'q. Tarbiyachi bila birgalikda bolalar ekin ekish uchun mos keladigan tuproqni tayyorlaydilar, uni qutilarga oylashtiradilar, urug'larni ekib, ularni sug'oradilar. Ish jarayonida tarbiyachi bajariladigan faoliyatni eslatib, ko'rsatib turadi, bolalarning faoliyatlarini maqtaydi va rag'batlantiradi.

Bolalar o'simliklarni tabiat burchagidagi jonivorlarga berish uchun ekadilar. Bahor faslida bolalarni chopilan yerlarni yumshatishga, egatlarni tayyorlashga, ularni toshlardan tozalashga o'rgatish kerak.

Bolalar shuningdek yirik va mayda urug'larni ekishlari; ularni sug'orishlari va yerini yumshatishlar mumkin. Maktabgacha yoshdagi o'rta guruh bolalarning mehnat faoliyatini tarbiyalashda bir nechta bosqich kuzatiladi. Avvaliga bolalarda bunday faoliyatga nisbatan qiziqish bo'lmaydi, ular mehnatdan bosh tortadilar, lekin jarayonga nisbatan qiziqish sekin asta namoyon bo'la boshlaydi.

Keyinchalik o'yin va mehnat faoliyatidagi qiziqishlarning o'rni alamashib boradi, bolalarda mehnat faoliyatiga nisbatan munosabat orta bolaydi. So'ng aynan mehnat faoliyati shakllanadi, xech qanday o'yinlarga chalg'imaيدigan, ishning maqsadi aniq, natijasiga nisbatan qiziqish yuqori bo'ladigan. Tabiat burchagidagi o'simliklarni parvarish qilish bo'yicha bilimlarini tashkilot hovlisida bajaradigan bilimlari bilan birlashtirib bo'lmaydi.

Hovlida bajariladigan mehnat jarayonida bolalar o'yin faoliyatiga o'tishga qiziqishlari kuzatiladi. Ular bajariladigan isha deyarli befarq qaraydilar. Tarbiyachining gaplarini asosan yuzaki tinglab ish qurollarini oladilar va asosan faoliyatnin yuzaki qismini bajaradilar (erni yuzaki kavlaydilar; sug'orilishi kerak bo'lgan o'simliklarni chala sug'oradilar va x.k.). Ularning harakatlari o'yin sifatida namoyon bo'ladi.

Bolalarni mehnat faoliyatiga qiziqtirish uchun tarbiyachi bolalar bilan bajargan ishining natijasini ko'rsatish kerak, 3 ta boladan iborat guruhchalar bilan ishlaganda tarbiyachi bolalarga ma'lum mehnat jarayonining natijalarini aniq ko'rsatib, tushuntirib bera oladi: urug' ekish uchun to'g'ri

kavlangan kavak, yaxshi yumshatilgan yer, chiroyli tozalangan maydon, to'g'ri sug'orish va boshqalarni.

Avvaliga bolaning qancha ish qilgani, ishini oxiriga yetkazishi muhim emas. Asosiysi bola mehnat jarayonida ishtirok etishi, kuch sarflanishini his qilish muhim. Bolani asosan ish jarayonining o'zi qiziqtiradi, ishlash istagi esa aynan o'simlikni parvarish qilish bilan bog'liq emas. Shuning uchun mehnat jarayonlarini bajarishda ba'zan uzilishlar bo'lib turadi: bola jarayonni to'xtatib o'ynab ketish va qaytib kelib ishini davom ettirishi mumkin.

Mehnatning natijasini ko'rib bolalar kattalarga qarab ishlarini bajarishga harakat qiladilar. Lekin bu ishlarda ham bolalarni birinchi o'rinda faoliyatning natijasi emas, balki aynan jarayoni hisoblanadi. Bolalar bir joydagi yerni uzoq yumshatishlari, bitta gulni bir necha bor sug'orishlari mumkin. Ular tarbiyaining topshiriqlarini tinch tinglaydilar, uning harakatlariga ahamiyat beradilar, taqlid qila boshlaydilar, to'g'ri ishlash usullarini ko'rsatishni so'raydilar. Ishni shunday rejalashtirish kerakki, har bir bola qanday ishni bajarishi kerakligini bilishi kerak.

O'rta guruh bolalariga beriladigan topshiriqlarni jiddiy o'ylab chiqish, uni taqsimlash juda muhim, chunki bolalar ishdan charchaganlaridan so'ng ishning natijasidan zavqlanishlari lozim. Tashkilot hududidagi o'simliklarni parvarish qilishga nisbatan qiziqishni ushlab qolish uchun bolalarga o'simliklarni rasmini emas balki tarbiyachi bilan o'stirilgan gullarning natijasini ko'rsatish kerak.

Masalan, o'simliklarga suv quyishda bolalar o'simlik tuprog'ini, gulning holatini ham inobatga olishni o'rganishlari kerak. Shuning uchun mehnat jarayonlarini amalga oshirishda ma'lum ish nima uchun va qanday bajarilishi kerakligini aytib o'tish lozim. Ishning mohiyatini tushungach bolalar mehnatga o'zgacha munosabatda bo'la boshlaydilar, o'zaro hamkorlik, yordam, nafaqat o'zi yetishtirgan o'simliklarga nisbatan, balki umuman barcha o'simlik olamiga muxabbat uyg'onadi.

Ekin maydonchasida ishlashda bolalarni ekinlarni yovvoyi o'tlardan tozalash jarayoniga ham jalb qilishadi. Begona o'tlardan tozalash jarayonida bolalar ularni tanib olishadi. Begona o'tlardan tozalash ishlari bolalar bilan ularga tanish bo'lgan o'simliklarni o'tlashda o'tkazishadi.

Bolalarga o'tlash ishlari ob havoga, o'simliklarning umumiy holatiga qarab amalga oshirilishi tushuntiriladi.

Shu tariqa bolalar ishlarni mustaqil tarzda ham bajara boshlaydilar. Kuz faslida ular ekinlarni, yirik urug'larni yig'ishtirishni, ularni turlariga qarab

ajratish va umumlashtirishni o'rganadilar: "ekinlar", "urug'lar" va ularning o'ziga xos xususiyatlari: rangi, shakli, xususiyatlari.

Mevali bog'larda mevalarni yig'ishni o'rganadilar, pishgan va xom mevalarni rangi, xajmiga qarab ajrata boshlaydilar. Bog'ni parvarish qilishda ular daraxtlarni o'rashni, ularga suv quyishni o'rganadilar.

Qish faslida qor yoqqanidan so'ng yo'laklarni tozalaydilar, o'zlarining o'yin maydonlarida qorlarni turli o'yinlar uchun yig'adilar. Qishga qoladigan qushlar, ularning ozuqalari haqida bilimlarga ega bo'ladilar. Tarbiyalanuvchlar qaysi qushlar ko'proq kelishini, qaysi ozuqa ko'proq yoqishini, qancha yeyishlarini kuzatadilar. Yangi kelgan qushlarni o'zlariga tanish bo'lganlari bilan taqqoslaydilar, ularga ozuqa tayyorlaydilar. Bolalar qushlarga don sepiladigan stollarni qordan tozalashlari, bahor fasllarida ularni oziqlantirishni davom ettirishlari lozim.

**Jonivorlar va o'simliklarni parvarish qilish bo'yicha mehnatning tarkibi. Katta yoshdagilar (6 yoshli bolalar).**

Katta guruhlarda bolalar yanada murakkabroq vazifalarni bajarishni boshlaydilar. Har bir bolaning mehnati ularning u yoki bu jarayonga munosabatiga qarab emas, balki ma'lum malakalarni o'zlashtirishiga qarab ham baholanadi. Tabiat burchagida jonivorlarni parvarish qilish ham tarbiyachining nazorati va uning ishtiroki asosida amalga oshiriladi. Bunday sharoitlarda bolalar zarur bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirib, yilning ikkinchi yarmidan boshlab jonivorlarni mustaqil parvarish qilishlari ham mumkin. Katta guruhga bolalar ma'lum bilimlarni o'zlashtirgan holda keladilar, jonivorlarni va o'simliklarni parvarish qilish bo'yicha malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Shuning uchun tarbiyachi yilning boshidan ularni mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ular o'zlari qaysi jonvor yoki o'simlikni parvarish qilishlarini kelishib olishlari mumkin. Pedagog bunday vaziyatda bolalarning o'zlariga bildirib qo'ymasdan parvarish qilish obyektiga yo'naltiradi, ular jonivorlar va o'simliklarga extiyotkorona munosabatda bo'lishlarini nazorat qiladi, tartib bilan ishlashlarini kuzatadi va boshlagan ishlarini oxiriga yetkazishlariga qaraydi.

Ishni shunday tashkil etish kerakki, bolalar ishni yakunlaganlarida tarbiyachiga buni aytishlar va natijasini tekshirishlarini so'rashlari kerak. Avvaliga bolaning bajargan ishi kun yakunida baholanadi. Bolalar butun guruhga jonivorlarni va o'simliklarni qanday parvarish qilganliklarini, nima yangiliklarni o'zlashtirganlarini aytadilar. Shuning uchun ba'zida tabiat burchagini barcha bolalar bilan birga kuzatish maqsadga muvofiq. Bu qiziqishni yanada kuchaytiradi va bolalarda bajaradigan ishiga nisbatan mas'uliyat hissini ortishiga yordam beradi. Bolalarning ishlarini baholashda

o'simliklarning va jonivorlarning holatini qanchalik yaxshi ekanligiga e'tibor qaratish mumkin, bunda bolalar bajaradigan ishlaridan yanada ko'proq zavq oladilar.

Vahti vaqti bilan bolalar butun guruh bilan birgalikda tabiat burchagini tozalaydilar: xona gullarini yuvadlar, akvariumni tozalaydilar va x.k. ishni shunday tashkil etish kerakki bolalar ishlarini bir vaqtda yakunlashlari va o'zaro kelishib ishlashlari kerak. Kalendar rejada tarbiyachi bolalalarni guruhlariga bo'lib ular bilan ishlarini rejalashtiradi. Katta guruhlarda bolalar 3, 4 kunlab navbatchilik qiladilar. Navbatchilarning soni bajariladigan ish ko'lamidan kelib chiqadi.

Tabiat burchagida bolalar uchun qiziq bo'lgan o'simliklarni o'stirish kerak. O'simliklar rangi, xajmi, tuzilishiga ko'ra o'zaro mos bo'lishi kerak. Ular turlicha parvarish usullarini talab etadi. Masalan, ba'zi gullar ko'proq suv, ba'zilari kamroq suv talab qiladi. Tarbiyachi ularni barchasini parvarish qilish usullari va xususiyatlarini bilishi kerak.

Sug'orish ishlarini amalga oshirishda bolalar "tanlov" usulini tanlaydilar. Shunday o'simliklar borki ularni tashqi ko'rinishiga qarab sug'orish kerakmi bilib bo'lmaydi. Tayoqcha bilan yerini kavlab ko'rish mumkin, tuvak ostidagi likopchadagi suv gulga suv quyish shart emasligini bildiradi.

Bu yoshdagi bolalarni gullarni sug'orishga o'rgatishni davom ettiradilar, o'simliklarning biologik xususiyatlariga bog'liq, qishki vaqtga o'tishni inobatga olgan holda. O'simliklarni sug'orish qoidalarni ular o'zlashtirgan bilimlari asosida sug'organlarida foydalanishlari mumkin. Tuvakdagi o'simliklarning tuprog'ini zarur hollarda yumshatishlari ham mumkin. Shuningdek tuproqni ham turlicha yumshatish mumkinligini bilib oladilar. Agar o'simliklarning ildizlari yuzaga yaqin joylashan bo'lsa, ularni *yanada ehtiyotkorlik bilan yumshatish kerak. Bolalar o'simliklarni oziqlantirishni ham o'rganishlari lozim, shu bilan birgalikda oziqlantirilgan o'simliklar oziqlantirilmaganlariga qaraganda yaxshiroq gullashi va o'sishini kuzatishlari mumkin.*

Bolalar o'simliklarni ozoda saqlash bo'yicha yangi bilimlarni o'zlashtiradilar va avval o'zlashtirgan bilimlarini mustaxkamlaydilar. Ular mayda va nozik gullarga suv sepib tozalashni, tukli barglarni chiyotka bilan ohista tozalashni o'rganadilar. Tarbiyalanuvchilarga o'simliklarga havo va quyosh kerakligini tushuntiriladi. Ba'zi o'simliklar quyosh nurini ko'proq yaxshi ko'radilar, ba'zilari esa aksincha soyada yaxshi o'sadilar. Bu bilimlarni o'zlashtirgan bolalar gullarni qaerga qo'yish kerakligini biladilar.

Bolalar tabiat burchagi ob'yektni parvarish qilish zaruratni yaxshiroq tushunishlari uchun tarbiyachi ularga mustaqil topshiriqlar taklif qiladi (nima qilish kerak? Nima chun? Ularni qanday qilib qoida bo'yicha bajarish mumkin?) va ularni nazorat qilib boradi (erni yumshatini, o'simliklarni sug'orishini va yuvishini), shu bilan birgalikda bolalarni ob'yektga extiyotkorona munosabatda bo'lishlarini taklif qiladi.

Qish-bahor faslidagi ekin ekish jarayonida bolalar turli ekin materiallari bilan tanishadilar (o'simlik piyoz, urug'i va boshqalar). Bu ularning ekish va parvarish qilish bo'yicha bilimlarini mustaxkamlaydi.

Katta guruhlarda piyozlarni ekish va urug'larni sepish ishlarini navbatchilarga topshiriladi.

Bolalar bilan gullaydigan o'simliklarning piyozlarini o'stirish muhim: masalan lola, nargis, giasint gullari. Yetiltirilgan piyozlarni tuvaklarga sentyabr oyining boshidan oktabr oyining oxiriga qadar amalga oshiriladi. Tarbiyachi bu vaziyatda bolalarning malakasiga qaraydi: ularga piyozlarni qanday ekish mumkinligini aytib berishni taklif etadi. Bolalar o'zlashtirgan bilimlarini yodga olib lavlagi, sabzi kabi ekinlarni ekib, tabiat burchagidagi jonivorlar uchun yegulik yetishtiradilar.

Gullaydigan o'simliklarning urug'laridan don sifatida ham, yangi o'simliklarni ekish sifatidagi urug' uchun ham foydalanadilar. Poliz ekinlarining ham urug'larini sepadilar (asosan karamsimonlar oilasiga mansub o'simliklarning). Jonivorlarni parvarish qilishni esa ko'rsatib berish va tushuntirish orqali amala oshiriladi. Baliqlarni oziqlantirishda bolalar quyidagi qoidalariga amal qilishlari kerak:

- Baliqlarni bir vaqtda oziqlantirish (ertalab);
- Baliqlarni quruq va tirik ozuqa bilan boqish;
- Ozuqani ma'lum o'lchovda berish (bir baliqqa 1,2 ta don);
- Suvni ifloslantirib yubormaslik uchun ozuqani maxsus joyga sepish.

Topshiriqlarni qiziqarli kuzatishlar bilan bog'lash mumkin ("Baliqlarni ovqatlantirdik, ko'raylikchi qaysi ozuqani yaxshi ko'rib yeyishar ekan"). Baliqlarni parvarish qilish ko'nikmalarini hosil qilish uchun akvariumni tozalash ishlariga ham jalb qilish kerak. Shu tariqa tarbiyachi bolalarni guruhiy ish yordamida oldinga qo'yilgan maqsadga erishishga, keyinchalik esa mustaqil tarzda tabiat burchagidagi jonivorlarni parvarish qilishga o'rgatadi. Tabiat burchagi yil davomida boshqa turli jonivorlar bilan boyitiladi (quyoncha, olmaxon, qushchalar). Bolalar jonivorlarni tomosha qiladilar, ulaning xususiyatlarini o'rganadilar, parvarish qilish qoidalarini o'zlashtiradilar. Bolajonlar tarbiyachi bilan birgalikda ularning kataklarini tozalaydilar, tuproqlarini almashtiradilar, havosini o'zgartiradilar.



Tabiat burchagidagi qushlarni parvarish qilishda qanday ozuqa bilan, qachon oziqlantirishni o'rganadilar: kuniga ikki maxal turli ozuqa bilan, har kuni toza suv quyib, ularni uchib turishga qo'yib yuborish kerakligini o'zlashtiradilar. Qishloq hududlarda bolalar kolxozchilarning parrandalarni va uy hayvonarini parvarish qilish va ko'paytirish, ularga qishlashi uchun yopiq joylarni qurish, bu jonivorlardan qanday tabiiy maxsulotlarni (sut, tuxum, go'sht, yung) olishini kuzatadilar. Yerga qanday qilib ishlov berilishini, ekinlarni qanday ekish va xirmonni yig'ishtrilishini kuzatadilar. Kattalarning mehnatini kuzatish ko'rgazmali vosita sifatida xizmat qilib, parvarish qilish ob'yektiga yanada extiyotkorona munosabatda bo'lish, atrofdegilar uchun xizmat qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

#### **7. Oddiy tajribalar, ularning mazmuni, bolalarda izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish.**

**Tayanch iboralar:** hodisalar, elementar, tajriba, ehtiyoj, qiyoslash, o'yin, mehnat, tarbiyachi rahbarligi, yorug'lik, namlik, issiqlik.

Bolalar hodisalarni, predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqa hamda munosabatlarning sabablarini aniqlashlarni uchun elementar tajribalardan foydalaniladi. Tajriba maxsus tashkil etilgan sharoitlarda o'tkaziladigan kuzatishdir. U predmet yoki hodisaga aktiv ta'sir etishni, ularni qo'yilgan vazifaga muvofiq o'zgartirishni nazarda tutadi. Bu o'zgartirishda bolalar faol ishtirok etadilar.

Tajribadan o'yin, mehnat yoki maxsus mashg'ulotlar jarayonida paydo bo'lgan bilish vazifalarini hal qilish usuli sifatida foydalaniladi, biroq bunda boshqa usullardan (kuza- tishlar, evristik suhbat) foydalanishning imkoni bo'lmasligi mumkin. Vazifani tarbiyachi o'rtaga tashlaydi, biroq u bolalar tomonidan ham o'rtaga tashlanishi mumkin. Vazifa tushunarli va aniq ifodalangan bo'lishi lozim. Bilish, vazifasining hal etilishi maxsus izlanishni: taxlilni, ma'lum va noma'lum ma'lumotlarni qiyoslashni talab

qiladi. Taxlil natijasida bolalar hodisalarning sabablari haqida fikrlarini - taxminlarini aytadilar, hal qilish usulini - tajriba sharti va tashkil etilishini tanlaydilar.

Tajriba shartining muhokamasi tarbiyachi rahbarligi ostida o'tadi. Tajribaning hamma shartlari tenglashtirilishi va faqat ulardan bittasi - tajribaning natijasiga ta'sir etadigan alohida ajratilishi, bolalarga ko'rsatilishi hamda ular tomonidan tushunilishi lozim. Tajriba uzoq muddatli



qiyoslanadigan yoki qisqa muddatli kuzatish tarzida o'tkazilishi mumkin. Uzoq muddatli qiyoslanadigan kuzatishda natijalar kechik- tirilganligi tufayli tajribaning ayrim alohida harakterli bosqichlarini rasm sxemalarda qayd qilish lozim. Agarda vazifa qisqa muddatli kuzatish jarayonida hal etiladigan bo'lsa, tajribaning natijalari

darhol muhokama qilinadi: bolalar bilan birgalikda tajriba o'tadigan sharoit taxlil qilinadi, natijalar qiyoslanadi, xulosalar chiqariladi.

Uzoq muddatli harakterdagi tajriba davomida tarbiyachi bolalarning qiziqishlarini sodir bo'layotgan o'zgarishlarga jalb qilib turadi, ularni nima uchun tajriba o'tkazilayotganligini anglashlariga olib keladi.



Tajribaning yakunlovchi qismi olingan tajribalar asosida xulosalar chiqarishdir. Tarbiyachi bolalarni mustaqil xulosalar chiqarishga undaydi.

Tajribalarni tashkil etish jarayonida tirik ob'yektni halok bo'lishiga olib kelmaslik, ularning hayotiy muhim ko'rinishlarini buzmaslik qerak.

Shuning uchun ham sezilarli o'zgarishlar paydo bo'lishi bilanoq (masalan, qorong'i joyda o'simliklarning nihollari sarg'ayadi va so'lib qoladi) sharoitni darhol o'zgartirish zarur.

### **Bolalar bilan tajribani tashkil etishning usuli.**

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan o'simlikning o'sishi uchun yorug'lik zarurligi haqidagi bilimni egallab olganlaridan so'ng o'tkaziladi. Bolalar oldiga bilish harakteridagi vazifa qo'yiladi. «Suli» qaerda yaxshi o'sadi: qorong'i joydami yoki yorug' joydami?» o'rta tashlangan

tahminini muhokama qilib, tarbiyachi bolalarni tekshirishga undaydi — tajribani uyushtiradi. Unib chihqan sulili ikki tuvak (yashik)ni joylashtirilganligi turlicha bo'lgan sharoitga qoyiladi: bittasini - qorong'i joyga, ikkinchisini quyosh nuri yaxssh tushib turadigan deraza tokchasiga joylashtiriladi.

O'simliklar joylashtirilgan sharoit bolalar bilan muhokama qilinadi. Barcha sharoitlar (o'simliklarning bo'yi, miqdori, yashiklarning katta-kichikligi, sug'orish vaqtidagi suvniig miqdori) bir xilligi, faqat yoritilganlik darajasiniig har xilligi aniqlaiadi. O'simliklarning ko'rinishidagi o'zgarishlar yuzasidan uzoq muddatli kuzatishlar o'tkaziladi va bu o'zgarishlarning sabablari aniqlanadi. Bolalar tajriba davomidagi eng



aniq ko'ringan o'zgarishlarning rasmini chizib boradilar.

Tajriba yakunida, o'zgarishlar aniq bo'lib qolganda, tarbiyachi bolalarga o'simliklarni qiyoslashni va xulosalar

chiqarishni taklif qiladi.

Olingan xulosalarni tasdiqlash uchun qorong'iroq joyda o'sgan o'simlikni yorug' joyga qo'yiladi. Sodir bo'layotgan o'zgarishlar yana ta'kidlanib muhokama qiliadi.



Tajribalardan bolalarni qum, suv, tuproqning xususiyatlari bilan tanishtirishda foydalaniladi. Ularning yordamida suvning bir agregat holatdan ikkinchisiga o'tish sabablari, o'simlikning o'sishi uchun zarur bo'lgan sharoit aniqlanadi, shuningdek hayvonlarning ba'zi xatti-harakatlari tushuntiriladi.

Tajribalar yordamida ko'pgina bilish harakteridagi vazifalarni hal etish mumkin: o'simlik qaerda yaxshiroq o'sadi: issiq joydami yoki sovuq joydami? O'simlik sovuq joyda o'sa oladimi? Agar suv sovuqqa qo'yilsa, u nima bo'ladi? Qorni xonaga olib kirilsa-chi? va shu kabilar.

Tajribalar ko'pincha maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan bo'ladigan ishda qo'llanadi. Kichik va o'rta guruhlarda tarbiyachi ayrim

izlanish harakatlaridan foydalanadi. Masalan, o'rta guruhda mushukni kuzatish davomida, bolalar mushuk qanday ovqatni afzal ko'radi degan xulosaga kela olishlari uchun tarbiyachi ularga mushukning oldiga sabzi, konfet, go'sht qo'yishni taklif etadi.

Yoki, mushuk eshitadimi yoki yo'qmi degan savolga javob topish uchun tarbiyachi mushukni pichirlab chaqirishni, timoq bilan stolning ustini tirnab qitirlatishni taklif etadi va so'ngra bolalardan so'raydi: "Mushuk eshitadimi? Uni eshitishini qaerdan bilding? Nimasi bilan eshitadi?"



"Mushuk qaysi qog'ozda go'sht, qaysi qog'ozda non o'ralganligini hididan bila oladimi?" deb so'rash mumkin. Shundan so'ng yechim usulini taklif etadi: "Ikkita bir xil qog'ozdan biriga go'sht, ikkinchisiga nonni o'rang-da, mushukning oldiga qo'ying". Shundan so'ng tarbiyachi "Mushuk go'sht qaerda turganligini bildimi? U buni qanday bildi?" deb so'raydi.

Kichik va o'rta guruh bolalari bilan boshqa hayvonlarni kuzatishning navbatdgisini tashkil etar ekan, tarbiyachi o'sha bilish harakteridagi vazifalarni qo'yadi, bolalarni esa yechim usulini mustaqil topishga undaydi.



O'rta guruhda bilish harakteridagi vazifalarni hal etiladigan bo'lsa, izlanish harakatlari bolalarning deyarli barcha kuzatishlariga kiritilishi lozim.

Ayrim izlanish harakatlarida maktabgacha katta yoshda ham o'yin, mehnat, kuzatishlar jarayonida

foydalaniladi.



### ? Nazorat savollari

1. Tabiat bilan tanishtirish metodlari necha guruhga bo'linadi va ular qanday guruhlar?
2. Kuzatish uslubining mohiyati nimada?
3. Tabiat bilan tanishtirishda tabiiy jismlarning ahamiyati Qanday?
4. Kuzatish necha xil bo'ladi? Ular haqida gapirib bering? ahamiyati

materiallardan foydalanishniig

5. Amaliy uslub va uning turlari haqida gapirib berish
5. Tabiatda bolalar mehnatining ahamiyati qanda
6. Og'zaki metodni ta'riflang.
7. Tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachining badiiy adabiyotni o'qishidagi ahamiyatining roli?
8. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda qaysi tamoyilga tayaniladi?

**Amaliy topshiriq.**

O'zbek halq yozuvchilari hamda xorij bolalar adabiyotshunoslarni tabiatga oid ertak, hikoya, she'rlarini to'plash. Ularni taxlil qilish.

## V BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING ISH SHAKLLARI


### V.1. Tabiat bilan tanishtirishda mashg'ulot turlari.


V.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'lkamiz tabiati bilan tanishtirishda ekskursiya mazmuni va turlari va uni tashkil etish metodikasi.

**Tayanch iboralar:** takomillashtirish vazifalari, mashg'ulot, mujassam mashg'ulot yangi bilim, bilimlarni aniqlash, bilimlarni shakllantirish, bilimlarni mustahkamlash, metodni tanlash.

MTT larni ish faoliyatini yanada takomillashtirish vazifalarini ijobiy hal qilishda, ta'lim mazmuni amalga oshirish shakllaridan samarali foydalanish ta'lim-tarbiya berishning dolzarb maqsadlaridandir.

MTT ta'lim berish shakllari belgilangan tartib, qoidalarga amal qilgan holda bolalar faoliyati tashkil etiladi.





Bolalarni tabiat bilan tanishtirish shakllaridan foydalanishga qo'yiladigan talablar:

1. Mashg'ulotlarni maqsadiga ko'ra jamoa, guruh va yakka tartibda tashkil etish.
2. Bolalarni yoshi va psixologik xususiyatlariga mosligi.
3. Mashg'ulot shakllaridan foydalanishda mavzuga ko'ra xalq lirikasi va qadriyatlardan foydalanish.
4. Mashg'ulot shakllari - innovasion texnologik usullardan foydalanish.

Mashg'ulot va unga qo'yilgan pedagogik talablar. Mashg'ulot – ta'lim jarayoni mazmuni, ta'lim shakli, ta'lim metodlari hamda vositalari, bolalarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash, chuqur bilim dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish xilma-xil shakllarda: mashg'ulotlarda, ekskursiyalarda, kundalik hayotda, kuzatishlarda, suhbatlarda hamda mehnatda amalga oshiriladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari bilimlarni bolalarning imkoniyati hamda tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda shakllantirish imkonini beradi. Tarbiyachi rahbarligida o'tadigan mashg'ulotlarda bolalarda dastur talablariga muvofiq elementar bilimlar shakllanadi, asosiy bilish jarayonlari va bolalarning qobiliyatlari ma'lum bir tartibda rivojlantiriladi. Kundalik hayotda kuzatish, o'yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yigilib boradi. Mashg'ulotlar ularga aniqlash va tizimlashtirish imkonini beradi.

### **Mashg'ulot uning turlari**

| Yangi bilim beruvchi | Bilimlarni aniqlovchi | Bilimlarni mustahkamlovchi | Noa'anaviy mashg'ulot |
|----------------------|-----------------------|----------------------------|-----------------------|
|----------------------|-----------------------|----------------------------|-----------------------|

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari bilimlarni bolalarning imkoniyatlari hamda atrof muhit tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda amalga oshirish imkonini beradi. Tarbiyachi rahbarligida o'tadigan mashg'ulotlarda guruhlarning barcha bolalarida dastur talablariga muvofiq oddiy ilmiy bilimlar shakllanadi, asosiy bilish jarayonlari va bolalarning qobiliyatlari ma'lum tizim hamda izchillikda o'stiriladi Kundalik hayotda kuzatish, o'yin mehnat vaqtida bolalarning shaxeiy bilimlari qo'yib boriladi.

Mashg'ulotlar ularni aniqlash, tizimga solish imkonini beradi. Bolalarni mashg'ulotlarda o'qitish turli metodlarda amalga oshiriladi. Uslub mashg'ulotning turiga, uning maqsadiga ko'ra aniklanadi. Ayrim mashg'ulotlarda boshlang'ich bilimlar shakllantiriladi. Shu maqsadda tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko'rsatish, badiiy asarlarni o'qish, diafilm, kinofilmlarni ko'rsatishdan foydalanadi.

Boshqa mashg'ulotlarda esa bilimlar aniqlanadi, kengaytiriladi, chukurlashtiriladi. Yuqorida keltirilgan usullardan tashkari mazkur mashg'ulotda bolalarning tabiatdagi mehnatidan ham foydalaniladi. Mashg'ulotning yana bir muhim vazifasi - bolalar bilimini umumlashtirish tizimga solish.

Mashg'ulotlar barcha yosh guruhlarda tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari haftada 2 marta o'tkaziladi.

Mashg'ulotga tayyorlanish hamda uni, o'tkazishda mashg'ulotning tuzilishi uslubini to'g'ri tanlash ta'limiy vazifalar harakteri, tabiiy ob'yektning xususiyatlari va bolalarning yoshiga bog'liqdir. Masalan yovvoyi hayvon haqidagi bilimini shakllantirish yaxshisi diafilm, kinofilm ko'rsatish hayvonlar. o'simliklar bilan tanishishni esa ularni bevosita kuzatish orqali amalga oshirgan ma'qul.

Kichik yoshdagi bolalarning mashg'ulotlarida kuzatish o'yin uslubidan foydalanib amalga oshiriladi. Og'zaki uslubdan asosan maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan bo'ladigan mashg'ulotlarda foydalaniladi. Tanlangan uslub dastur vazifasining to'liq, bajarilishini va bolalarning faol aqliy faoliyatlarini ta'minlashi lozim. Mashg'ulot o'tkazishga tayyorlanar ekan tarbiyachi ishlash uchun qanday ko'rgazmali kurollar tanlashni rasmlar, gerbariylar, tabiat kalendarlarni tuzishni rejalashtiradi.

Bolalarni mashg'ulotlarda o'qitish turli metodlarda amalga oshiriladi. Metod mashg'ulot turi, uning asosiy maqsadiga ko'ra tanlanadi.

Mashg'ulotlarning bir xillarida boshlang'ich bilimlar shakllantiriladi. Shu maqsadda tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko'rsatish, badiiy asarlarni o'qish, hikoya, diafilm va kinofilmlarni ko'rsatishdan foydalanadi. Boshqa mashg'ulotlarda esa bilimlar kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi.

Aytib o'tilgan metodlardan tashqari bu mashg'ulotlarda bolalarning tabiatdagi mehnatidan ham foydalaniladi. Uchinchi turdagi mashg'ulotlarning asosiy vazifasi bilimlarni umumlashtirish hamda bir tizimga solishdir. Shuning uchun suhbatlar, didaktik o'yinlar, umumlashtiruvchi kuzatishlardan foydalaniladi. Bolalar egallagan bilimlarini mehnat va o'yinlarda amalda ko'llaydilar.

Mashg'ulotlar kichik va urta yosh guruhlarda bir oyda 1 martadan, katta

guruhlarda esa haftada 1 martadan o'tkazildi. Ekskursiyalar o'rta guruhdan boshlab tashkil etiladi. Barcha guruhlarda qo'shimcha sifatida maqsadli sayrlar o'tkaziladi.

**Tarbiyachining mashg'ulotga tayyorgarligi.** Mashg'ulotning samaraliligi tarbiyachining tayyorgarlik darajasiga bog'likdir. Tarbiyachi mashg'ulot mavzusini va ahamiyatini belgilab, mavzu buyicha tabiatshunoslik bilimlarini to'ldirishi, so'ng mashg'ulot vazifalarini dastur asosida ishlab chiqishi lozim.

Bunda tarbiyachi "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi vazifalariga, bolaning qobiliyat darajasiga hamda tevarak-atrofdagi tabiiy muhitga tayanadi. Mazkur mashg'ulot mazmunini tanlashda uning ish tizimidagi o'rni (mashg'ulotda boshlang'ich bilimlarni shakllantirish jarayoni sodir bo'lyaptimi yoki ular boyitilib bir tizimga solinyaptimi, bilimlarni qo'llashi mashq qilinyaptimi va shu kabilarni aniqlash lozim. Bu o'rinda tarbiyachi darsning maqsadi va mazmuniga qarab turli metodlarni qo'llaydi.

Tarbiyachi qanday metod va uslublar qo'llamasin ulardan kompleks, bir-birini to'ldirgan holda foydalanishi, bu asosiy maqsad o'rganilayotgan tabiat jismlari va hodisalarning bolalar tomonidan qabul qilib olinishini yaxshilashga hamda tabiat haqidagi tushunchalarning to'g'ri shakllanishiga xizmat qilishi kerak. Mashg'ulotda hal etiladigan tarbiyaviy vazifalar tabiatga ijobiy, extiyotkorona, g'amxo'rona, estetik munosabatlarni shakllantirishga yo'llanadi.

Mashg'ulotga tayyorlanish hamda uni o'tkazishda uning tuzilishini to'g'ri aniqlash muhimdir. Metodni tanlash ta'limiy vazifalar xarakteri, tabiiy obyektning xususiyatlari hamda bolalarning yoshiga bog'liqdir. Masalan, yovvoyi hayvonlar haqidagi bilimni shakllantirishni yaxshisi diafilm, kinofilmlar ko'rsatish orqali, tabiat burchagidagi hayvonlar va o'simliklar bilan tanishishni esa ularni bevosita kuzatish orqali amalga oshirgan ma'qul. Kichik yoshdagi bolalar mashg'ulotlarida kuzatish, o'yin metodlaridan foydalaniladi. Og'zaki metoddan, asosan, maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda foydalaniladi.

Tanlangan metod dastur vazifasining to'liq bajarilishini va bolalarning faol aqliy faoliyatini ta'minlashi lozim.

Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan o'qitish metodlarining xilma-xilligi tarbiyachidan puxta sharoit yaratishni talab qiladi; hayvonlar, xonaki o'simliklar, rasmlarni ko'rish uchun bolalar yarim doyra qilib o'tqaziladi. Bu bolalarning mashg'ulotda faol ishtirok etishlariga imkon beradi. Agar mashg'ulotda tarqatma materiallardan foydalanilsa, ya'ni har bir bolaning qo'lida kuzatish obyekti bo'lsa, bolalarning o'z stollari atrofida o'tirganlari

ma'qul. Ba'zan guruh xonasida mehnat malakalarini tarbiyalashga bagishlangan mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bunday holatda bolalarni to'rtburchak shaklida joylashtirish maqsadga muvofikdir. Shunda bolalar tarbiyachi kuzatadigan ish usullarini yaxshiroq ko'rishga ega bo'ladilar.

Tarbiyachi mashg'ulot o'tkazishdan oldin bir qancha ko'rgazmali qurollar, ya'ni jonli va jonsiz tabiat jismlari (gerbariyalar, yil fasllari, tabiat manzaralari tasvirlangan kalendarlar, toshlar, foydali hashorotlar, o'simliklar va ularning qismlari, mayda hayvon va boshqalar)ni tayyorlab qo'yadi. Chunki ko'rgazmali qurol bolalarga o'rganilayotgan narsani bir necha sezgi a'zolari bilan qabul qilib olish imkoniyatini beradi, ya'ni ular narsani ko'ribgina qolmasdan, uning xususiyatini (masalan, tirnab ko'rish, bolgacha bilan urib ko'rish orqali narsaning mo'rtligini, egish bilan qayishqokligini, egiluvchanligini va hokazo) sinaydilar. Mashg'ulot, asosan, quyidagi tartibda olib boriladi;

- ish maqsadini e'lon qilish;
- tarbiyachi yo'riqlar berishi;
- topshiriqni tushuntirish;
- ko'rgazmali qurollar ustida ishlash;
- kuzatish;
- o'tkazilgan ish natijalarini tushuntirish ;
- suxbat;
- xulosa chiqarish;
- rasmlar chizish.

### **1-mashg'ulot. O'rik daraxti bilan tanishtirish maqsadida meva bog'iga o'tkaziladigan ekskursiya**

**Dasturi mazmuni.** Bolalarni o'rik daraxti bilan tanishtirish. O'rik daraxtining muhim belgilari haqida tushuncha hosil qilish. Bolalarga sensor tarbiya berish. Tipik belgilari buyicha farq qilish asosida o'simliklarning muhim belgilarini ajratish va aytib berishga, shu muhim belgilariga ko'ra o'simliklarni daraxt, buta va o't guruhlariga ajratishga o'rgatish, Guruh predmetlarning umumiy tipik belgilarini ajratish asosida bolalarda o'simliklarga umumiy yondashishni shakllantirish buyicha dastlabki aniq tushunchalar xosil qilish. Bolalarni o'rik o'simligining hayot sharoiti bilan tanishtirish va ana shu bilimlar asosida o'simliklarning o'sish joyini aniqlash va madaniy hamda yovvoyi holda usuvchi o'simliklarni farq qilishga o'rgatish.

Bolalarni o'simliklarni muayyan reja buyicha kurib chiqishga odatlantirish. Bolalarni axlosiy va estetik tarbiyalashga yordam berish, tevarak-atrof tabiati go'zalligiga muhabbat, muhofaza qilishga intilish, zavqlanishni tarbiyalash.

**Mashg'ulotning borishi:** Tarbiyachi butun guruh bolalari bilan gullayotgan daraxt yoniga boradi. Bolalarga o'simlikni ko'rsatib so'raydi. Bu nima?

Bolalarning javobi.

Tarbiyachi aniqlashtiradi, to'ldiradi, bolalarning javobini umumlashtiradi. Bu - o'simlik.

Shundan keyin bolalarga murojaat qilib - "Bu o'simlik kanday ataladi?"- deb so'raydi.

Bolalarning javobi.

Tarbiyachi. Bu o'simlik o'rik daraxti, u juda baland buyli, sershox. Kim aytadi, bu o'simlikda qanday organlar bor? Siz, bolalar organ so'zini bilasizmi?

Bolalarning javobi.

Tarbiyachi. Organ, bu demak, bitta yaxlit predmetning qismlari, bu jonsiz predmetlarda qismlar deb ataladi. Masalan, mashinada - kuzov, bort, kabina, g'ildirak, rul va boshqalar. Detallar (qismlar) - mashina qismlari deb ataladi, odamda va hayvonlarda esa organlardir. Masalan, odamda tana, bosh, qul, oq, burun, ogiz, kuz, quloq va boshkalar organlar deb ataladi. hayvonlarda ham organlar bor, o'simliklarda xam biz organlar deb ataymiz, chunki o'simlik ham jonli. Demak o'rik usimligida qanday organlar borligini kim aytadi.

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. O'rik usimligida tana bor. Uning tanasi qanaqa?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. O'rik daraxtining tanasi baquvvat, yo'gon, u yorilib-yorilib ketgan kul rangdan-jigar ranggacha pustloq bilan qorejagan. Kim aytadi, bolalar, o'simlikka pustloqning nima keragi bor? (Bolalarga o'rik tanasini quchoqlash va qo'l bilan pustlogg'ini ushlab ko'rish taklif etiladi).

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. Po'stloq; o'simlik uchun, odam uchun kiyim-bosh bo'lgani singari, o'simlikni qattiq issiqdan va sovuqdan saqlaydi. Tanadan nima o'sib chiqadi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. O'rik daraxti tanasidan juda ko'p shoxlar o'sib chikadi, shoxlarda esa nimalar bor?

Bolalarning javobi.

Tarbiyachi. O'rik daraxti shoxlarida juda ko'p barg va gullar bor. O'rik daraxtining barglari shakli, rangi, kattaligiga ko'ra qanaqa?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. O'rik daraxtining barglari yirik bo'lmay, tuxumsimon shaklda bo'lishini tushuntiradi. Nima uchun bargar tuxumsimon deyiladi, tishchalari ko'p miqdor barg chekkalari tishchali, barglar yashil rangda (gerbariydan barglarni ko'rsatadi, ammo hozir o'rik daraxti xali barglar chiqarmagan. Keling ko'raylik, o'rik daraxtining shoxlarida yana nimalar bor ekan?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. To'g'ri, shoxlarda kurtaklar, ochilgan gullar bor. Kurtaklar gul va barg kurtaklardan iborat, gul kurtaklardan gullar, barg kurtaklardan esa barglar paydo bo'ladi (ulardan qaysilari barg kurtak, qaysilari esa gul kurtak ekanligini ko'rsatadi va qaysi belgilariga ko'ra ularni farq qilish mumkinligini aytadi). Gul kurtaklar dumaloqroq, yirik bo'lib, ulardan gullar o'sib chiqadi, barg kurtaklar esa chuziq, mayda bo'ladi deb, ularni hamma bolalarga ko'rsatadi. Bunda qaysilari gul kurtak, qaysilari esa barg kurtak ekanligini bolalar bilan birga tassoslaydilar va anislaydilar. Hamma kurtaklar, ularni sovuqdan himoya qiluvchi qobiflar bilan qorejagan bo'ladi. O'rik gullari qanaqa rangda bo'ladi, kim aytadi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. O'rik daraxtining gullari och pushti rangda. Har qaysi guldagi tojibarglar fancha?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. Har qaysi gulda beshtadan tojibarg bo'ladi (bitta gulni olib, hap qaysi tojibargni ko'rsatadi va bolalar bilan birga sanaydi). Keyin 3 - 4 ta bolaga turli gullardagi tojibarglarni sanashni taklif etadi va bolalar bilan birga, o'rik daraxtining gullari, beshtadan tojibargga ega deb yakunlaydi. O'rik daraxtining tojibargi qanday shaklga ega?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. O'rik daraxtining tojibarglari til shakliga ega. Chunki ular tilchaga uxshaydi. Ulardan qanday xid keladi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. O'rik daraxti gullarining hidi nozik, xushbuy. O'rik daraxtining gullaridan nima hosil bo'ladi? Kim aytadi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. O'rik daraxtining gullaridan shirin, sersuv mevalar hosil bo'ladi. O'rik mevasini kim kurgan. Uning shakli, rangi va mazasi sanasa?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. O'rik daraxtining mevalari dumaloq shaklda, rangi sariq yoki zarg'aldoq, oq mevalari ham bo'ladi, ular sershira, shirin. Meva etining ichida nima bo'ladi? (Rangli rasmdan o'rikning turli navlarini ko'rsatadi).

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. Meva eti ichida danagi bor. Endi kim aytadi, bu qanday o'simlik? Daraxtmi? Butami? yoki O'tmi? Biz qanday o'simliklarni daraxtlar deb ataymiz? qandaylarini esa buta yoki uo't deymiz? Ko'p yillik poyalari yog'ochlangan, juda yirik o'simliklar daraxt deb ataladi? Yong'oq o'rik, olma, olcha, behi, tut va boshqalar meva daraxtlardir. Dub, zarang, chinor, terak va boshqalar manzarali daraxtlardir. Butalar shu bilan daraxtga uxshaydiki, bular ko'p yillik o'simlik.

Ularda yog'ochlangan qattiq poyalar - tanalar, butada bitta emas, balki bir qancha bo'ladi. Odatda butalar daraxtlarga qaraganda past bo'ladi. Masalan: atirgul, sren, qora smorodina, na'matak, zirk. Chala butalar ham bor. Masalan, shuvoq yantoq va boshqalar. Yashil o'simliklarning ko'p qismini o'tlar tashkil etadi, o'tlar daraxt va butalardan shu bilan farq qiladiki, ularda har yili hamma yer ustki qismlari qurib qoladi. Masalan: zubturm, yalpiz, lola, lola qizg'aldoq acham biti, bug'doy, arpa, kartoshka, pomidor, bodring, qovun va boshqalar.

Shunday qilib, daraxtlarda, butalarda, chala butalarda va o'tlarda usha organlar - ildizlar, poyalar, barglar, gullar, urug'li mevalar bo'ladi.

Tarbiyachi. Qanday o'simlikni biz daraxt deymiz, takrorlang (bolalar takrorlaydilar). Endi aytingchi, siz yana qanday daraxtni ko'rdingiz va bilasiz? (bolalar birma-bir aytadilar).

(Bolalarning javoblarini aniqlashtiradi, umumlashtiradi). O'rik daraxti madaniy o'simlikmi yoki yovvoyi holda usuvchi o'simlikmi? Kim biladi, madaniy o'simlik yoki yovvoyi holda usuvchi o'simlik nima?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. Odamlar ekadigan va o'stiradigan o'simliklar madaniy o'simliklar deyiladi. O'zi o'sib, rivojlanadigan

Tarbiyachi. O'simliklarni yovvoyi holda usuvchi o'simliklar deyilib, u yovvoyi so'zidan olingan. O'rik daraxti madaniy o'simlik, Shuning uchun uni odamlar utqazadi va ustiradi. O'rik daraxti esa qaerda usadi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. O'rik daraxti bog'da usadi. Bog'da o'sadigan hamma o'simliklarni bir so'z bilan qanday atash mumkin?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. Bog'da o'sadigan hamma o'simliklar bog' o'simliklari deb ataladi. O'rik daraxti ham bog'da o'sadi, demak o'rik daraxti qanday o'simlik?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. To'g'ri, o'rik daraxti — bog' o'simligi. Siz yana qanday bog' o'simliklarini bilasiz?

Tarbiyachi bolalarning faol ishtirokini maqtaydi.

## **2-mashg'ulot: Maqsadli sayr-bog'ga ekskursiya.**

**Maqsad.** Bolalarni shaftoli daraxti bilan tanishtirish. O'simlikning muhim belgilari haqidagi tushunchani mustahkamlash. Bolalarni sensor tomondan tarbiyalash. Bolalarga shaftoli daraxtining muhim belgilari haqida tushuncha berish. O'simlikni izchillik bilan kuzatishga o'rgatish. Shaftoli daraxtini tashqi belgilariga ko'ra ajratishni, uni boshqa o'simliklardan farq qilishga o'rgatishni davom ettirish. Shaftoli daraxtining organlari va xossalarini aniq aniqlash va so'zlar bilan ifodalashga o'rgatish va shu asosda ana shu o'simlik haqida to'liq tasavvurni shakllantirish. Ba'zi muhim belgilar asosida, shaftolinig daraxtga tegishli ekanini aniqlashni o'rgatishni davom ettirish. Shaftoli daraxtining (madaniy o'simlik) hayot sharoiti hamda usish joyi (bog' o'simligi) haqida tushuncha berish.

**Mashg'ulotning borishi.** Tarbiyachi butun guruh bolalari bilan shaftoli daraxti oldiga keladi va bolalarga: [Bu nima? deb savol beradi.

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. Bu o'simlik. Bu o'simlik qanday ataladi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. Bu o'simlik — shaftoli. U qacda o'sadi? Kim aytadi: bog'dami, daladami yoki polizdami?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. Shaftoli daraxti bog'da o'sadi. Eslanglar bog'da yana qanday daraxt o'sadi?

Bolalarning javoblari. O'rik daraxti.

Tarbiyachi. To'g'ri, siz yana o'rik daraxtini xam bilasiz. U ham bog'da o'sadi, qani eslangchi, bog'da o'sadigan o'simlik qanday atalar edi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. Bu o'simliklar bog' o'simligi deb ataladi. Shaftoli daraxtida qanday organlar bor?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. Shaftoli daraxtida ham, o'rik daraxtidagi singari ildiz, yer yuzasida esa yug'on, baquvvat tanasi bor. Tanasi pustloq bilan qorejagan. Pustlog'i qora rangda, g'adir-budur. Daraxtga po'stloq nima uchun kerak?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. To'g'ri po'stloq o'simlikni issiqdan va sovuqdan saqlaydi. Shaftoli daraxtida yana kuplab shoxlar, barglar, gullar bor (daraxtning har qaysi organini ko'rsatadi). Shaftoli daraxtining barglari qanaqa? Diqqat bilan kurib chiqing. Barglar kanala rangda, qanday shaklda va kattalikda? (Bolalar savollarga izchillikda javob qaytaradilar).

Tarbiyachi. Shaftoli daraxtining barglari o'rik daraxtniki singari yashil rangda, shakli cho'ziq, ba'zilar bir- muncha bujmaygan. (Bargni barmoq bilan siypalab bolalarga xam shunday qilishni taklif etadi). Garant, shaftolining gullari qanaqa? Qanday rangda? Qanday shaklda? Qanday kattalikda? Ularning hidi qanaqa? (Har qaysi savolga bolalar izchillikda javob qaytaradilar).

Tarbiyachi. Shaftoli daraxtining gullari och pushti rangda, mayda, har qaysi gulda beshtadai tojibarg bo'ladi (bolalarning o'zi tojibarglarni sanaydilar va hamma gullarda beshtadan tojibarg bulishiga ishonch hosil qiladilar). Yana qaysi o'simlik gulida beshtadan tojibarg bo'ladi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. To'g'ri, o'rik gulida ham beshta tojibarg bo'ladi. Tojibarglar tilcha shaklida, xushbuy hidlidir (bolalarga xidlab kurish taklif etiladi). Shaftoli gullaridan nima xosil bo'ladi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. Shaftoli gullaridan sershira, shirin mevalar hosil bo'ladi. Shaftolini kim yeb kurgan? Uning shakli, rangi, mazasi qanday?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. Shaftoli mevasining mazasi nordon-shirin, rangi har xil bo'ladi. U shaftolining naviga boglik: ular sargish-qizil, sarik;, tus qizil, yashil-sariq rangda bo'ladi. Shakli esa yopgan non singari dumaloq va yassi bo'ladi (hamma navlarni rangli rasmdan ko'rsatadi). Shaftoli daraxti madaniy o'simlikmi yoki yovvoyi holda usuvchi o'simlikmi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. Shaftoli daraxti ham o'rik daraxti singari madaniy o'simlikdir. Shuning uchun ham odamlar uni xuddi o'rik daraxti singari ekadi va parvarish qiladi. Shaftoli daraxtmi? Butami yoki o'tmi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. Shaftoli-daraxt. Shuning uchun ham unda xuddi o'rik daraxtidagi singari kup yillik yogochlangan tana» bo'ladi. Mavzuni mustahkamlash uchun savollar beriladi:

Biz bugun qanday daraxt bilan tanishdik?

Shaftoli daraxtini boshqacha qanday atash mumkin?

Shaftoli daraxtida qanday organlar bor?

Siz yana qanday o'simliklarni bilasiz?

### **3-mashg'ulot. Shaftoli daraxti haqida suhbat**

**Dastur mazmuni.** Bolalar o'tgan mashg'ulotda shaftoli o'simligining tashqi belgilari, uning bog' o'simliklariga tegishli ekanligi haqida bilimni o'zlashtirganliklarini, ularning daraxt o'simligi ekanligini aniqlay olishlarini kuzatish.

**Jihozlar.** Shaftoli daraxtining shoxi.

**Mashg'ulotning borishi:** Bolalar o'tgan safar men sizlarga qaysi o'simlik haqida gapirib berganim esingizdami.

Bolalarning javoblari (shaftoli daraxti).

Tarbiyachi.

Shaftoli daraxtining gullari qanaqa rangda edi?

Har qaysi gulda qancha tojibarg bor?

Shaftoli daraxtining barglari qanaqa?

Shaftoli daraxtining mevalari qanday ataladi?

Shaftolining mazasi qanaqa?

Shaftoli mevasi qanday rangda bo'ladi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Bolalarning bilimini aniqlashtiradi, to'ldiradi va umumlashtiradi. O'tgan gal men sizga shaftoli daraxti haqida gapirib bergan edim. Shaftoli daraxtining gullari och-pushti rangda, har qaysi gulda beshtadan tojibarg bulishini aytgandim. Shaftoli barglari mayda va mevasining ta'mi ko'pincha bir oz nordon-shirin bo'ladi. Bu shaftoli naviga bog'liq. Ular sarg'ish-qizil, sariq, yashil-sariq, tuq-qizil rangda bo'ladi. Endi bolalar bu yoqqa qarang. Bu qanday daraxtning shoxi?

Bolalarning javoblari. Bu shaftoli daraxtining shoxi.

Tarbiyachi. U sizga o'tgan gal ko'rsatilgan shoxchaga o'xshaydimi? Agar o'xshasa, nima bilan o'xshaydi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. Bu ham shaftoli daraxtining shoxi. O'tgan gal unda gullar, har qaysi gulda besh donadan pushti rang tojibarg bo'lgan edi. Endi esa tojibarglar yuq ular tukilib ketgan, ichida mayda mevalar qolgan, ular asta-sekin usa boshlaydi va yozda yoki kuzda katta dumaloq va yassi bo'lib qoladi. Biz o'tgan gal ko'rgan shoxchadagi barglar qanaqa bo'lgan edi?

Bolalarning javoblari. (Kichkina).

Tarbiyachi. O'tgan gal shoxchadagi kurtaklar mayda edi. Endi esa undan o'sib chiqqan barglar katta, uzun, uchli, lansetsimon, tuq yashil rangda. Bolalarga murojaat qiladi. Bolalar, kimning esida, shaftolining tanasi qanaqa? Shoxlari qanday? Shaftolining pustlog'i qanaqa rangda?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. Bolalarning javoblarini aniqlashtiradi, to'ldiradi va umumlashtiradi. Shaftolida tana bitta bo'lib, u yo'g'on, baquvvat bo'ladi. Tanadan chiqadigan shoxlar ham baquvvatdir. Bu shoxlar bir necha dona bo'lib, asosiy shoxlar hisoblanadi. Har qaysi asosiy shoxda juda ko'p mayda shoxchalar bor. Po'stlog'i to'q-qizil, jigar rangda. Shaftoli daraxti qayerda o'sadi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. Bolalarning bilimini aniqlashtiradi, tzo'ldiradi va umumlashtiradi. Shaftoli daraxti bog' o'simligi. U bog'da o'sadi.

Bolalarga savollar.

Siz yana qanday madaniy o'simliklarni bilasiz?

Yana qanday meva daraxtlarini bilasiz va ular qayerda o'sadi?

#### **4 - m a s h g ' u l o t . Shaftoli va o'rik daraxtlarini taqqoslash.**

**Maqsad:** Bolalarning o'simliklarning muhim belgilari haqidagi tushunchalarini mustahkamlash. O'tgan mashg'ulotlarda olgan bilimlarini ikkita o'simlikni taqqoslash yo'li bilan mustahkamlash. Bolalarni o'xshashlik va farqlanish belgilariga ko'ra narsalarni taqqoslashga o'rgatish.

Jihozlar. Gullayotgan shaftoli va o'rik daraxtini tasvirlovchi rasmlar?

**Mashg'ulotning borishi.** Bolalar stol yoniga o'tiradilar, ularni yarim doyra qilib utqazish mumkin. O'simliklarning rasmlari ko'rinadigan joyga osib quyiladi. (Bolalar uchun).

Tarbiyachi bolalarga savollar bilan murojaat qiladi:

Bu yerda nima tasvirlangan?

Bolalarning javoblari (o'simlik).

Bu o'simlik qanday ataladi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. To'g'ri, bu o'simlik shaftoli daraxti deb ataladi. Rasmdagi boshqa tasvirni ko'rsatadi va so'raydi. Bu esa nima?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. Bolalarning javoblarini aniqlashtiradi, to'ldiradi va umumlashtiradi. Bu o'rik daraxti. Kim aytadi, bu daraxtlarda nima bir xil?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. To'g'ri, o'rik xam, shaftoli ham o'simlik. Ular yana qaysi jixatdan o'xshaydi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. O'rik va shaftoli daraxtining yerda ildizi bor. Usish va rivojlanishi uchun bu ildizlar yordamida tuproqdan oziq va suv oladi. Ularning yo'g'on, baquvvat tanasi xam bor. Tanadan katta shoxlar chiqadi, ularda mayda shoxchalar juda ko'p. O'rik va shaftolida yana barglar, gullar bor, keyin esa ana shu gullardan mevalar hosil bo'ladi. Ular yana qaysi jixatdan o'xshaydi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. To'g'ri, o'rik va shaftolining tanasi pustlok; bilan qorejagan, ulardagi pustloq tuq rangda, g'adir-budur. Ular yana qaysi jihatdan o'xshaydi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. O'rikda ham, shaftolida ham barglar yashil rangda. O'rik va shaftolining gullari esa qanaqa?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. O'rik va shaftoli daraxtining gullari pushti rangda, har qaysi gulida beshtadan tojibarg bor, ular bir xil tilsimon shaklga ega. Bu daraxtlar yana qaysi jixatdan o'xshaydi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi. O'rik ham, shaftoli ham yog'ochlangan ko'p yillik o'simlik. O'rik ham, shaftoli ham madaniy o'simlik, shuning uchun ularni odamlar o'stiradi. O'rik va shaftoli yana qay jixatdan o'xshaydi?

Bolalarning javoblari.

**Tarbiya chi.** To'g'ri, o'rik va shaftoli yana shu jixatdan o'xshashki, ular bog' o'simligi. Tarbiyachi bir-ikkita bolaga shu ikki o'simlikning aynan bir-biriga o'xshash tomonlari haqida so'zlab berishni taklif qiladi. Bolalarning aytganlarini anislashtiradi, to'ldiradi va umumlashtiradi, keyin esa u «Endi esa siz hammangiz yana ana shu o'simlikka e'tibor berib qarang va ular qanday jixatdan bir-biriga o'xshash ekanligini aytib bering» deb murojaat qiladi.

**Bolalarning javoblari.**

**Tarbiyachi.** Bolalarning javoblarini aniqlashtiradi, to'ldiradi, umumlashtiradi. So'ngra bolalarga daraxtlarning balandligi, tanasining rangi va sifati, barglarning kattaligi, gullar, mevalarni aniqlashga yo'naltirilgan qushimcha savollar beradi. Bolalar savollarga izchillikda javob qaytaradilar.

**Tarbiyachi.** Bolalarning javoblarini aniqlashtiradi, to'ldiradi, umumlashtiradi. O'rik daraxti shaftolidan baland, tanasi esa shaftolinikiga qaraganda yo'g'on bo'ladi. Barglari ham turli shaklga ega. O'rik barglari tuxumsimon shaklda, shaftolida esa chuziqroq va bir oz bujmaygan (ko'rsatadi). Shaftoli gullari yiroqroq va rangi tipik; pushti rangda, o'rik gullari esa maydaroq va rangi och pushti rangda bo'ladi. Mevalari xam mazali, yirikligi buyicha har xil bo'ladi (bolalar bilan birga taqqoslab, rasmdan ko'rsatadi). Shundan keyin tarbiyachi 1—2 bolaga ikkita o'simlikning hamma farq qiladigan tomonlari haqida so'zlab berishni taklif etadi. Tarbiyachi bolalarning javoblarini aniqlashtiradi, to'ldiradi va umumlashtiradi. O'rik va shaftoli o'simliklarida har xilliklar ham bor. Ammo bir xilliklar juda ko'p. Ularda eng asosiy bir xillik nimada?

**Bolalarning javoblari.**

**Tarbiyachi.** To'g'ri, o'simlik ildizlari yerga o'sib kiradi, bir joydan ikkinchi joyga siljimaydi, ovoz chiqarmaydi, ildizlari, tanasi, barglari, gullari, mevalari, yashil rang barglari bo'ladi.

**Mashg'ulot oxirida:** «Mevalariga qarab o'simlikni top» degan didaktik uyin o'tkaziladi.

**Mashg'ulot mazmuni.** Mevali o'simliklar haqidagi bilimni mustahkamlash.

**Kerakli jihozlar.** Bolalarga tanish bo'lgan turli xil mevali daraxtlarning 2—3 qismga bo'lingan mevalari tasvirlangan rasmlar.

O'yinning borishi. Bolalar qismlardan iborat rasmlarni olib, bu mevalar qanday ataladi, ular qaysi daraxtning mevasi, ularning rangi va ta'mi qanaqa, nima uchun ishlatilishini aytib beradilar.



Mashg'ulot so'nggida tarbiyachi bolalarning malaka va ko'nikmalarini, ularning mashg'ulotga munosabatlarini, qiziqishlarini pedagogik jihatdan baholaydi. Baholarning differensiyalashuvi bolalarning yoshiga bog'liq bo'ladi.

## **2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'lkamiz tabiati bilan tanishtirishda ekskursiya mazmuni va turlari va uni tashkil etish metodikasi.**

**Tayanch iboralar:** o'lka, o'simlik va hayvonlarni yashash sharoiti, ekskursiya, ekskursiyaga tayyorlanishi,

Ma'lumki, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tarbiyachi xilma-xil: og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarni qo'llaydi. U o'simlik va hayvonlarni, ularning yashash sharoitlarini namoyish qiladi. Bu narsalarni oddiy mashg'ulotlarda ko'rsatib bo'lmaydi. Shuning uchun tabiat bilan tanishtirish metodikasida mashg'ulotlarni to'ldiruvchi maxsus shakllar qo'llaniladi.

Ekskursiya bolalarni tabiat bilan tanishtiruvchi mashg'ulotlar turidan biridir. U tabiat bilan tanishtirish metodlarining ko'rgazmali metodiga kiradi. Ekskursiya vaqtida bola tabiat hodisalarining mavsumiy o'zgarishlarini tabiiy sharoitda kuzatishi, tabiatning insonning hayot va talablariga muvofiq o'zgarayotganini hamda atrofimizdagi jonli va jonsiz tabiatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlar to'grisida bilimlar to'plashga imkon beradi.



Ekskursiya mashg'ulotlarining afzalligi yana shundaki, unda bolalar o'simlik va hayvonlarni ular yashaydigan muhitda ko'rish hamda tabiatda mavjud bo'lgan o'zaro aloqalar haqida dastlabki

dunyoqarash, tasavvurlarini, olamni materialistik tushunishni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tarbiyachi rahbarligida o'rmon, dala, daryo va ko'l qirg'oqlariga uyushtirilgan ekskursiya bolalarning diqqatini jalb qiladi, tabiat burchagida olib boriladigan keyingi kuzatishlarga xilma-xil material to'plashga sharoit yaratadi. Ekskursiyalar bolalarda kuzatuvchanlik, tabiatni o'rganishga qiziqishini o'stiradi. Ular narsalarni sinchiklab kuzatish va uning harakterli xususiyatlarini qayd qilishga odatlanadilar.

Tabiatning go'zalligi bolalarda estetik hissiyotlarning o'sishiga yordam beradi. Shu asosda ona tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish shakllanadi.

Ekskursiyalar mazmuniga ko'ra shartli tarzda ikki turga bo'linadi: tabiatga uyushtiriladigan ekskursiya - bog, o'rmon, daryo.

o'tloq, shuningdek, hayvonot bog'i, botanika bog'iga (bular turli mavsumda o'tkaziladi) ekskursiyalar hamda qishloq xo'jalikekskursiyasi - dala, parrandachilik fabrikasi, bog', ekinzor va shu kabilarga kattalarning mehnati bilan tanishish maqsadida uyushtiriladigan ekskursiyalar.

Ekskursiya mashg'ulot turi sifatida o'rta, katta hamda tayyorlov guruhlarida o'tkaziladi. Har bir ekskursiya uchun barcha bolalar egallashlari shart bo'lgan dastur mazmuni belgilanadi.

Tarbiyachining ekskursiyaga tayyorlanishi. Tarbiyachi ekskursiyani rejalashtirar ekan, ekskursiya mavzusi hamda maqsadini aniq belgilaydi. Ekskursiya o'rnini, unga boriladigan qulay (bolalarni charchatmaydigan, ular diqqatini asosiy maqsaddan chalg'itmaydigan) yo'lni belgilaydi. Ekskursiya o'rnini belgilashda bolalarning jismoniy imkoniyatlarini (piyoda yuriladigan ekskursiyalar kichkintoylar uchun faqat yaqin masofalargagina uyushtirilishi mumkin), shuningdek, mavsumni, yo'lning xususiyatlarini, ob-havo holatini hisobga olish zarur.

Ekskursiya uyushtiriladigan joy tarbiyachiga qanchalik tanish bo'lmasin, u bir-ikki kun oldin o'sha joyni ko'rib chiqishi lozim. Bo'lajak ekskursiya joyida bo'lgan tarbiyachi marshrutni aniqlaydi kerakli ob'yektni topib, joyini ko'rib chiqish lozim, bolalar kuzatishlarni mustakil olib borishlari hamda dam olishlari mumkin bo'lgan joyni belgilaydi.

Ekskursiyani o'tkazishdan oldin tarbiyachi uni o'tkazish usullarini atroflicha o'ylab ko'radi va ekskursiya qiziqarli o'tishi uchun oldindan she'r, topishmoq, makollarni tanlab ulardan foydalanadi,

**Bolalarni ekskursiyaga tayyorlash.** Ekskursiyadan bir necha kun oldin mashg'ulotga qiziqish uyg'otish tasvirlarni jonlantirish maqsadida tarbiyachi ular bilan kichik suhbat o'tkazadi, ya'ni ekskursiya vazifalarini

qo'yadi, topshiriq va vazifalarni taqsimlaydi, ekskursiyadagi xulq-atvor qoidalari bilan tanishtiradi, shuningdek, anjom-aslaha va jixozlarni tayyorlaydi.

Tabiatshunoslik ekskursiyasi. Tabiatshunoslik ekskursiyasi kirish suhbat, jamoa bo'lib kuzatish, bolalarning individual mustaqil kuzatishlari, tabiatga oid materiallarni to'plash, bolalarning dam olish vaqtida to'plagan materiallar bilan o'ynashi va yakuniy qismlarni o'z ichiga oladi. Bolalarni ekskursiya o'tkaziladigan joyga olib kelgandan so'ng tarbiyachi qisqa suhbatda ekskursiyaning maqsadi va vazifalarini eslatadi. Shundan so'ng ular tabiatdagi narsa va hodisalarni kuzatishga

Ekskursiyaning asosiy qismi o'zaro jamoa kuzatuvidir. Bunda mashg'ulotning asosiy qismi hal qilinadi. Tarbiyachi bolalarga narsa va hodisalarning xarakterli xususiyatlarini anglab olishlariga yordam beradi. Bunga turli usullar (savol va topshiriqlar, she'rlar, tadqiqotchilik harakatlari, o'yin usullari)ni qo'llash orqali erishiladi. Tarbiyachi kuzatishlarni o'z hikoyasi hamda tushuntirishlari bilan to'ldiradi.

Kuzatishda asosiy e'tibor jism va hodisalarni yaxshilab ko'rishga, ularni qiyoslashga, tabiat hodisalari o'rtasidagi aloqalarni tushuntirib beradigan savol va topshiriqlarga -.

Kuzatish jarayonida hikoya, she'r va topishmoqlarni qo'llash foydalidir. Ekskursiya jarayonida tarbiyachi bolalarning bilish faoliyatiga rahbarlik qiladi. Bunda og'zaki (hikoya, suxbat tushuntirish) ko'rgazmali va amaliy metodlardan foydalanadi.

Ekskursiyaning asosiy qismi tugagach, bolalarning individual mustaqil kuzatishlarga qiziqishlarini qondirish va tabiatshunoslikka oid materiallarni to'plash uchun imkoniyat berish zarur. Birok material to'plash uchun topshiriq berishda, tuplangan material miqdorini qat'iy cheklash lozim, bu *bolalar e'tiborini faqat ma'lum o'simlik va hayvonlarga qaratish va bundan tashkari tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni tarbiyalash uchun ham kerakdir.*

Bolalar mustaqil ishlayotgan vaqtda, tarbiyachi ham yordam berib turishi lozim. Ba'zan o'simlikni qanday kavlab olishni quruq novdani qanday qirgishni va shu kabilarni ko'rsatib turishi kerak. Dam olish vaqtida to'plagan materiallar saralanadi jildlarga, savatchalarga joylanadi, ba'zilaridan o'yin va mashqlarda foydalaniladi.

Qishloq xo'jalikekskursiyasi. Qishloq xo'jalikekskursiyalari xilma-xildir; dala (er haydash, ekish, hosil to'plash), o'tloq (mol boqish, xashak o'rish) bog'i, ekinzor, mevazor, ferma, botanika bogi, issiqxona, parrandachilik fermasi va boshqa ekskursiyalardir. Ekskursiya insonning

tabiatga ta'sirini, ya'ni o'simliklarni o'stirishni va hayvonlarni boqish ko'rgazmali tarzda ko'rsatish imkonini beradi. Bu yerda bolalar asosiy mehnat jarayonlarining bir nechtasi bilan tanishadilar.

Ekskursiyalarning uziga xosligi shundaki, bola inson faoliyatini ham, u ta'sir etayotgan tabiatni ham kuzatishi mumkin.

Qishloq xo'jalikobyektiga uyushtiriladigan ekskursiya suxbat bilan boshlanadi. Qishloq xo'jalikekskursiyalariga tayyorlanishda tarbiyachi kuzatish obyektini bilan oldin o'zi tanishadi, ekskursiya o'tkazishi uchun ruxsat oladi, ekskursiya vaqti, bolalarning mehnatda qatnashishlari haqida kelishib oladi va bolalarning ma'lum ishda band bo'lgan kattalar bilan bo'ladigan suxbatining mazmunini belgilaydi. Ekskursiya yakunida mazkur obyekt ishi haqidagi taassurotlar umumlashtiriladi.

**Ekskursiyadan keyingi ish.** Ekskursiyada olingan bilimlar mashg'ulotlarda, o'yinlarda, tabiat burchagida o'tkaziladigan kuzatishlarda kengaytiriladi va mustahkamlanadi. Ekskursiya yakunida to'plangan materiallarni tabiat burchagiga joylashtirish (masalan, o'simliklarni vazalarga, gul tuvaklarga solish, jonivorlarni akvarium, terrarium, sadaklarga joylashtirish), o'simlik va hayvonlarni kuzatuv ostiga olish zarur. Ekskursiyadan 2-3 kun o'tgach, tarqatma material, rasm solish, loy va plastilindan narsalar yasaladi, tabiiy materiallardan foydalanib didaktik o'yinlar, mashg'ulotlar o'tkaziladi. Badiiy adabiyotlar o'qiladi, bolalarning ekskursiyadan olgan taassurotlari haqidagi hikoyalari tinglanadi. Mashg'ulot yakunida umumlashtiruvchi suhbat o'tkaziladi.



Tabiatshunoslik ekskursiyalari ma'lum tizimga muvofiq o'tkaziladi. Ularni tabiatda bo'ladigan mavsumiy o'zgarishlarga qarab ayni bir obyektning o'ziga yilning turli fasllarida uyushtirish maqsadga muvofikdir.

Masalan, bahor mavsumida maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan vazifalarni asta-sekin murakkablashtirgan holda istirohat bogiga 3 marta ekskursiya uyushtirish lozim.

Bu ekskursiyadan maqsad - bolalarni bahorgi o'zgarishlar bilan tanishtirish, ularni ko'rish hamda tabiatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning sababini tushunish ko'nikmalarini o'stirishdir.

Qishloq xo'jalikekskursiyalarini kattalar mehnatining ayrim turlari

bilan tanishtirish maqsadida epizodik tarzda o'tkazish lozim.

Ekskursiyani uyushtirish guruhdagi mashg'ulotni uyushtirishga Karaganda qiyinrokdir, shuning uchun uning muvaffaqiyatli utishi tarbiyachi va bolalarning puxta tayyorlanishlariga bog'liq bo'ladi.

### **3. Bolalarning o'lkashunoslik tasavvurlarini shakllantirishda sayr va ularni tashkil etish metodikasi.**

**Tayanch iboralar:** o'lkashunoslik tasavvurlari, sayr, tabiat hodisalari, sayrdan foydalanish,

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda sayrdan keng foydalaniladi. Sayr vaqtida tasavvurlarni shakllanishi uchun uzoq, muddat talab qilinadigan tabiat hodisalari bilan tanishtirish imkoniga ega bo'ladi. Tabiat hodisalari kundalik kuzatishlar tasodifiy bo'lmasligi lozim, Bularni tarbiyachi oldidan rejalashtirishi lozim. Sayr vaqtida gulzor va ekinzorlarda katta ishlarni amalga oshirish mumkin. Ekinzor va gulzordagi ish uchun bolalarni mashg'ulot maqsadiga ko'ra uyushtiriladi.

Kichik guruhdan boshlab maqsadli sayr uyushtiriladi. Bu sayrlarda bolalarni yorqin tabiat hodisalari bilan tanishtiriladi. O'rta, katta guruhlarda bir necha kun, ba'zan xaftalab davom etadigan hodisalarni kuzatish mumkin. Bu kuzatishni uzok, muddatli kuzatish deyiladi. Sayrlarda ob-havonn, osmonni, o'simliklar gullarni, xazonrezlik, hayvonlar hayotidagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Bu turdagi kuzatishlar uzoq muddatli kuzatishlar deyiladi. Katta, tayyorlov guruhdarining bolalari sayrdagi kuzatishlarini tabiat kalendarida aks ettiradilar. Ular bu kalendarida jonsiz tabiat, hayvonlar, o'simlik hayotidagi yorqin mavsumiy o'zgarishlarni, kishilarning mehnatlarini aks ettiradilar.

Sayr - maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ijtimoiy - foydali mehatga o'rgatishning asosiy mezonidir.

Sayr jarayonida tabiatda bajariladigan mehnat jarayonida egallangan bilim, ko'nikma va malakalar mehnat tarbiyasida pedagogik faoliyatning yakuniy natijasi emas, balki inson qobiliyatining rivojlanishi, ya'ni, mehnatga bo'lgan layoqatini rivojlantirishning samarali vositasidir.

Bolalarning tabiatda ijtimoiy foydali mehnat faoliyati ma'lum bilimga ega bo'lishi bilan birga ularni ma'naviy - ahloqiy shakllanishi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tabiat ob'ektlarida olib borilgan mehnatlar jarayonida olgan bilimlarini uyda sinab ko'radilar, Umumiy

mehnat jarayonida bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotining hovlisi, tomorqalari, xonalaridagi o'simligu hayvonlarni parvarish qilish haqidagi bilimlari mustahkamlanadi, shuningdek, ular tashkilotchilik malakalariga ham ega bo'ladilar.

**? Nazorat savollari**

1. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish qanday shakllarda olib boriladi?
2. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda amaliy mashg'ulotlar qanday ahamiyatga ega?
3. Mashg'ulotga tayyorlanishda nimalarga ahamiyat berish kerak?
4. Amaliy ishlarni bajarishda tarbiyachining vazifalari nimalardan iborat?
5. Mashg'ulotlar qanday tartibda olib boriladi?
6. Tabiat bilan tanishtirishda ekskursiya qanday ahamiyatga ega?
7. ekskursiya necha turga bo'linadi?
8. Ekskursiyada to'planadigan materiallardan qaysi mashg'ulotlarda foydalanish mumkin?
9. Ekskursiyaning muvaffaqiyatli o'tishi nimalarga bog'liq?
10. Sayrlarni tashkil etish qanday amalga oshiriladi va unga qo'yilgan asosiy maqsad nimadan iborat?

**Amaliy topshiriq**

Ekskursiya va sayrlarni tashkil etishda ota-onalar bilan hamkorlikni o'rnatishni nazariy bayon eting.

**? "Men sayrni tashkil etsam " mavzusida esse yozing**

## **VI BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TABIAT BURCHAGINI TASHKIL QILISH**

**VI.1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat burchagini tashkil etish va unga qo'yiladigan talablar**

**VI.2. Tabiat burchagida joylashtirilgan tirik ob'ektlarni parvarish qilishda tarbiyachining bilim va malakalarini ahamiyati.**

**VI.3. Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlari bolalariga tabiat burchagida joylashtirilgan o'simlik va hayvonlarni biologik xususiatlarini o'rgatish metodikasi**

### **1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat burchagini tashkil etish va unga qo'yiladigan talablar**

**Tayanch iboralar:** tabiat burchagi, cheklangan miqdor, ekologik guruh, xususiyatli belgi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish u bilan doimo bevosita munosabatda bo'lishni talab qiladi. Buni ta'minlovchi shartlardan biri bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida jonli tabiat burchagini bo'lishidir. Bolalarni tabiat bilan uzviy, davomli va tizimli tarzda tanishtirish ularda jonli tabiat burchagida yashovchilar haqida chuqur va puxta bilimlarni, mehnat, malaka hamda ko'nikmalarni hosil qilish, kuzatuvchanlikni o'stirish uchun sharoit yaratadi. Ana shu malaka va ko'nikmalar asosida tabiatga ehtiyotkorona munosabat ham, unga qiziqish ham tarbiyalanadi.

Tabiat burchagi bolalarning diqqatini burchakda yashovchi bir necha hayvonlarga, ularning o'ziga xos belgilariga qaratish va shu bilan bolalarning chuqur, mustahkam bilimga ega bo'lishlariga imkon yaratadi. Tabiatda bolalar uchratadigan hayvon va o'simliklarning xilma-xilligi ular hayotidagi umumiy, ahamiyatli hamda qonuniy tomonlarni ajratib ko'rsatishni qiyinlashtiradi. Cheklangan miqdordagi maxsus tanlangan ob'yekt bilan tabiat burchagida tanishtirish bu murakkab hamda muhim vazifani hal etish imkoniyatini beradi. Tabiat burchagida yashovchilarning yaqinligi ham ahamiyatlidir. Bolalar, masalan, akvariumdagi baliqlarni yaxshilab ko'rish, ularni uzoq muddat davomida kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar.



Jonli tabiat burchagi uchun o'simlik va hayvonlarni tanlashda bir qator talablarni nazarda tutish lozim. Ular quyidagilardir:

- o'simlik yoki hayvon u yoki bu ekologik guruhga xos bo'lishi lozim. Bunda bolalarni o'simlik va hayvonlarning katta guruhi uchun harakterli bo'lgan, asosiy, o'ziga xos belgilari, yashash sharoitlari bilan tanishtirish imkoni yaratiladi;

- tabiat burchagida yashovchilarni parvarish qilish, qilinadigan mehnatning sifati, harakteri, unga sarflanadigan kuch va vaqtiga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshiga mos (tarbiyachining ishtiroki va rahbarligi ostida) bulishi lozim. Shuning uchun «beor» o'simliklar va ovqatni tanlamaydigan hayvonlar tanlanadi;

- tabiat burchagidagi hayvon va o'simliklar tashqi ko'rinishidan yorqin, jozibador, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning xali unchalik barqaror bo'lmagan diqqatini o'ziga jalb qila oladigan bo'lishi kerak;

- tabiat burchagida bu turdagi o'simlik va hayvonlarning bir necha xili mavjud bo'lishi lozim. Chunki bolalar kuzatish obyektida faqat umumiy belgilarnigina emas, balki o'ziga xos xususiyatli belgilarni ham ko'ra olishlari kerak. Bu bolalarning tirik organizmlarning xilma-xilligi hamda takrorlanmasligini bilib olishlariga yordam beradi;

- tabiat burchagida o'simlik va hayvonlar tamoman xavfsiz bo'lishi, bolalarning sogliqlariga hech qanday zarar yetkazmasligi lozim;

- o'simlik va hayvonlarning bolalar tashkiloti binosidagi hayot faoliyati, usishi va rivojlanishida binoning doimiy haroratini, karbonat angidrid gazining konsentrasiyasini, quruqligini, shovqin-suronning mavjudligini hisobga olish lozim.

## **2. Tabiat burchagida joylashtirilgan tirik ob'yektlarni parvarish qilishda tarbiyachining bilim va malakalarini ahamiyati.**

**Tayanch iboralar:** tirik ob'yeht, xona o'simliklari, qalamcha poya, suv quyish, purkash, yuvish, yumshatish,

Tabiat burchagidagi xona o'simliklarini saqlash ularni sug'orish,

purkash, yuvish, tuprog'ini yumshatish, almashtirish, bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, oziqlantirish, kesish, ko'paytirish, zararkunandalarga qarshi kurashishda tarbiyachi quyidagilarni bilishdan iboratdir.

**Suv quyish.** O'simlikka xona haroratidagi suv quyiladi. Vodoprovod suvi tarkibidagi xlorini yo'qotish uchun uni ochiq idishda ushlab turiladi. O'simlik rivojlanayotgan va gullayotgan vaqtda unga xona haroratidan 2°S ortiq bo'lgan suv quyiladi. Agar gultuvak tagida suv yigilib qolgan bo'lsa va ikki soat davomida unak teshigi orqali shimilib ketmasa, u to'kib tashlanadi.

**Purkash.** Purkash ko'pgina o'simliklarni parvarish qilishning muhim qismi hisoblanadi. Chunki u o'simlikning suv bilan me'yorida ta'minlanishiga yordam beradi. Purkaganda o'simlik qishda ham xuddi yozdagidek ko'm-ko'k bo'lib turadi.

Iliq suv bilan purkab turilganda o'simlik novdalari va barglari tezroq o'sadi, kurtak chiqaradi.

**Yuvish.** O'simlikni changdan tozalash uchun iliq suv bilan muntazam yuvib turish lozim. O'simlik dush tagiga yoki togoraga Qo'yib yuviladi, bunda tuvakdagi tuproq ivilib ketmasiigi uchun uning usti kleyonka bilan yopib ko'yiladi. Tikanli kaktuslarni yuvishdan oldin changlari yumshoq cho'tka bilan tozalanadi. Egilgan bargli o'simliklarni yuvish mumkin emas, ularni changi mayin mo'yqalam bilan tozalanadi. Gultuvaklar yiliga 3-4 marta sovunlab, qaynoq suv bilan qattiq cho'tka yordamida yuviladi.

**Yumshatish.** Yumshatish — bu suvsiz sug'orishdir. U suv quyilgan kunning ertasi: a alalga oshiriladi. O'simlik ildizlari zarar yetkazmaslik uchun tuvak chetlaridagi tuproq kupi 1-1,5 sm chuqurlikda yumshatiladi.

**Ko'chirib o'tqazish va ko'chat qilish.** Ko'chirib o'tqazish tuvak torlik qilganda o'simlik ildizini yopishib turgan tuproq bilan birgalikda boshqa tuvakka o'tkazishdir. Tuvak tagiga yangi tuproq solib, o'rtasiga ko'chat o'tqaziladi. Bunda qolgan tuproq bilan joyga solinadi. Ko'chat qilishda esa o'simlik ildiziga yopishib turgan uyum bir 03 tozalanadi va eski tuproqni bir qism olib tashlanadi. Yangi tuvak eskisidan 3-4 sm kattaroq bo'lishi kerak. Ko'chat qilishni bahorda, o'simlik o'sishni boshlamasdan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

**O'g'itlash.** O'simliklarning me'yorida oziqlanishlari uchun ularni o'g'itlab borish zarur. Buning uchun bolalar bogchasi sharoitida mineral o'g'itlardan foydalangan ma'qul. O'simlik ko'chat qilib o'tqazilgandan so'ng o'sa boshlagach yoki ildiz olgach o'gitlanadi. O'g'itlashdan bir necha soat oldin o'simlikni yaxshilab sug'orish lozim.

**Kesish.** O'simlikning chiroyli ko'rinishi va sershox bo'lishi uchun

uning o'sishini muntazam boshqarib turish lozim. Buta hosil qilish maqsadida, yon shoxchalar o'sishi uchun asosiy shoxning uchi qirqiladi, yon shoxchalar 10-15 sm ga yetganda ularning ham uchi qirqiladi. Kesishda o'tkir pichoqsan foydalanilib, kurtak tepasidan qirqiladi va kesilgan joyga maydalangan ko'mir sepiladi. Yorongul, fuksiya, rozana va shu kabilar kesiladi.

**Ko'paytirish.** Xona o'simliklarini poya va barg qalamchalari, bachkilari, piyozi, butani bo'lish, parvarish qilish va shu kabilar orqali ko'paytirish mumkin.

**Qalamchalar yordamida ko'paytirish.** Qalamchalar poya va bargdan bo'lishi mumkin. O'simliklarning ko'pchiligi (tradeskansiya, begoniya, fikus, aukuba xina, pelargoniya) poya qalamchalaridan ko'payadi, bunda o'sib turgan novdadan 2-3 bo'g'imli novda qirqib olinadi. Pastki kesik shunday bo'g'imning tagida bo'ladi. Qalamcha suvga solib qo'yiladi yoki tuvakka ekiladi, bunda pastki kesik qumga ko'milib turishi kerak. Ekilgan qalamchalar usti oyna bilan yopilib, kuniga 2 marta pulverizator yordamida suv purkab turiladi. Begoniya-reks, sansevera, uzambar gunafshasi barg qalamchalaridan ko'payadi. Begoniya-reksning bargi (pastki tomoni)ni tomirlari tarqalgan joydan olmos bilan kesiladi va nam qumga o'tqaziladi. Kesilgan joylar qum bilan siqib qo'yiladi.



### 3. Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlariga bolalariga tabiat burchagida joylashtirilgan o'simlik va hayvonlarni biologik xususiyatlarini o'rgatish metodikasi

**Tayanch iboralar:** hayvon va o'simliklar, tabiat burchagiga joylashtirish, tabiat burchagida yashovchilar, akvarium, terrarium,

Hayvon va o'simliklarni tabiat burchagiga joylashtirishda, birinchi

navbatda, ularning biologik xususiyatlari hamda ehtiyojlariga e'tibor berish lozim. Masalan, ba'zi xona o'simliklari (chiroqqul, kaktus va boshqalar) quyosh nurini ko'proq bo'lishini talab qiladi, shuning uchun ularni eng yorug' joyga qo'yish lozim, ba'zilar esa (masalan, uzambarg gunafshasi) tik tushib turuvchi quyosh nuriga bardosh bera olmaydi. Shu bilan birga jonli tabiat burchagi kuzni quvontirishi, bezashi lozim. Bunda, ob'yektni shunday joylashtirish kerakki, bolalar ularning yoniga bimalol kela olishlari, kuzata olishlari va unda mehnat qila olishlari mumkin bulsin.

Tabiat burchagida yashovchilarni doimiy va vaqtincha yashovchilarga ajratish mumkin. Doimiy yashovchilarga xona gullari, qafasdagi qushlar, akvariumdagi baliqlar, katta guruhlarda esa hayvonlar kiradi. Vaqtincha yashovchilarga qisqa muddatga olib kiriladigan mahalliy o'lka o'simligi, hayvonlar, dastlabki bahorgi gullar, kuzda qiyg'os gullaydigan gulxonadagi dekorativ o'simliklar, xonadagi manzarali o'simliklar, hashorotlar va shu kabilar kiradi.

### **Turli yosh guruhlari bolalarini o'simliklar, hayvonlar va qushlarni parvarish qilishga o'rgatishning mohiyati.**

**Kichik yosh guruhining tabiat burchagi.** Kichik guruh tabiat burchagi uchun o'simlik va hayvonlarni tanlashda eng avvalo bolalarning narsalarni idrok etish xususiyatlari, shuningdek, ta'limiy masalalar nazarda tutiladi. Kichikintoylar 2-3 xil o'simlikni bilib olishlari va ularning asosiy qismlarini (bargi, poyasi, guli) farqlay olib, nomlarini aytishlari lozim.

Ikkinchi kichik guruhdagi bolalar o'simliklarni parvarish qilishga jalb qilinadilar: ular o'simliklarga suv quyadilar (suvni kattalar tayyorlab beradi, qancha quyish lozimligini ham ular ko'rsatishadi), nam latta bilan o'simliklarning barglarini artadilar. Hayvonlarni kuzatar ekanlar, bolalar hayvonlarni tashqi aniq belgilariga: gavda qismlari, harakatlanish xarakteri, chiqaradigan ovozlari va hokazolarga ko'ra tanib olishni, tanasining asosiy qismlarini farqlashni o'rganib oladilar. Tarbiyachi bolalarni kuzatishga, savolni anglashga, diqqatni kuzatilayotgan narsaga qaratib, uncha murakkab bo'lmagan harakatlaridan foydalanishga, kuzatish jarayonida berilgan savollarga javob qaytarishga o'rgatadi.

Kichik yosh guruhning tabiat burchagiga asosiy qismlari (poyasi, bargi) aniq ifodalangan va yorqin, qiyg'os hamda uzoq gullaydigan o'simliklar joylashtiriladi. Masalan: xina, azaliya, fuksiya, xitoy atirguli va hokazolar. Aytib o'tilgan turlardan yil davomida kuzatish uchun 3-4 o'simlik tanlanadi. Ularning ba'zilar 2 nusxada bo'lishi lozim. Bular ichidan bolalar bir xil o'simliklarni topib, ajratib ko'rsatishni o'rganadilar.

Kichik guruh tabiat burchagiga akvarium joylashtiriladi. Akvariumga

kichkintoylarning idrok etish xususiyatlaridan kelib chiqib, chiroyli rangdagi, yilning ko'p qismida faol yashaydigan, ozuqani shoshib-pishib yeydigan baliqlarni tanlash lozim (masalan, oddiy tilla baliq, tilla yoki kumush rangdagi tovon baliqlar). Kichik yosh guruhlarining tabiat burchagida qushlarni ham saqlash mumkin. Qushning patlari chiroyli, o'zi xushchaqchaq bo'lishi, ovqat tanlamasligi, qafasda ham sayrashni maqsadga muvofiqsir. Konoreyka xuddi shunday qushlardandir, Biroq imkon bo'lsa, sa'va, snegirni saqlash lozim. Kichik yosh guruh tabiat burchagida sutemizuvchilarni doimo saqlash mumkin emas.

O'rta guruh tabiat burchagi. O'rta yosh guruhdagi bolalarda narsalarning xususiyat va sifatlarini (shaklining xilma-xilligi, rangi, kattaligi, sathining harakteri va shu kabilar) ko'ra olish malakasi hosil qilinadi. Bolalar solishtirib ko'rishning murakkabroq usullarini egallaydilar, narsalarning farqi va o'xshashligini aniqlashni, ularni u yoki bu belgilariga ko'ra umumlashtirishni o'rganadilar. O'simlik va hayvonlar haqidagi bilimlar murakkablashadi. Bolalar o'simliklarning xususiyatlarini aniq farqlashni boshlaydilar, ularning hayotlari uchun zarur bulgan sharoitlari bilan tanishadilar. Shu bilan bolalar ko'rganda taniydigan hamda nomlarini biladigan o'simliklar soni ortib boradi.

To'rt yoshga qadam qo'ygan bola hayvonlar bilan tanishar ekan, ularning tashqi ko'rinishi, tuzilishi, harakat qilishi, ovqatlanishining o'ziga xosligini va dastlabki bog'liqlik - harakat qilish harakteri oyoqlarining tuzilishiga bog'liq ekanligini bilib oladi. Jonli tabiat burchagida yashovchilarni parvarish qilish jarayonida bolalar unchalik murakkab bo'lmagan ko'nikmalarni egallaydilar, bular - o'simlikni toza saqlash, uni to'g'ri sug'orish, suvdon va oxur (donxo'rak)larni yuvish, ozuqa berish kabi. Bu yoshdagi bolalar o'simlik va hayvonlarni kuzatar ekanlar, ularning o'sishi va rivojlanishidagi o'zgarishlarni qayd qiladilar.

O'z kuzatishlarini to'g'ri gapirib berishni o'rganadilar. O'rta yosh guruhdagi bolalarning jonli tabiat haqidagi dunyoqarashlarini kengaytirish maqsadida tabiat burchagining aholisini to'ldirib, boyitib turish talab qilinadi. Xona o'simliklari turli shakl va hajmdagi barglarga ega bo'lishi lozim, chunki bolalar o'simliklarni ozoda saqlashning o'zlari uchun yangi bo'lgan usullarini egallaydilar, egilgan barglarni mo'yqalam bilan artadilar, gullarga suv purkaydilar.

Bunda bolalar parvarish qilish usulini barglarning harakteriga: kattaligi, mikdori, sathining harakteri, pishiqligiga ko'ra aniqlashni o'rganadilar. O'rta yosh guruh jonli tabiat burchagida doimiy yashovchilar sifatida sutemizuvchilarni ham saqlash mumkin. Bu yoshdagi bolalar ularni

parvarish qilishning oddiy malakalarini bemalol egallay oladilar. Xatti-harakatiga ko'ra qiziqarli bo'lgan dengiz cho'chqasi va siriya og'naxonlarini joylashtirish maqsadga muvofikdir. Ularni parvarish qilish qiyin emas, ular vaqt va muhitga osoy moslashadigan jonivorlardir.

Katta yosh guruh tabiat burchagi. Katta yosh guruhida narsalarni kuzatish, solishtirib ko'rish, ularni turli belgilariga qarab umumlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish davom ettiriladi. Kuzatishlarning asosiy mazmuni o'simlik va hayvonlarni o'sishi hamda rivojlanishini, ularning mavsumlarda o'zgarishlarini aniqlashdan iborat bo'ladi. Bolalar o'simlik o'sishi uchun yorug'lik, nam, issiqlik, tuprokdan oziqlanishini, turli o'simlik turli mikdordagi yorug'lik va namlik talab qilishini bilishlari kerak.



Bolalarni o'simliklar, ularning tashqi tuzilishining xususiyatlari, faqat barglarigina emas, balki poya va gullarining ham xilma-xilligi bilan tanishtirish davom ettiriladi. O'simliklarni parvarish qilish usuli asosida barg va poyalarni harakteriga kura aniqlash, o'simlikni ozoda saqlash ko'nikmasi mustahkamlanadi. O'simliklarni o'rganishda ularni ko'paytirishning ba'zi usullari, jumladan, poyasini «qalamcha» qilib ko'paytirish haqidagi bilimlar ham kiritiladi.

Bularning barchasi jonli tabiat burchagini yangi o'simliklar - xilma-xil poyali, chirmashadigan, yoyilib o'sadigan yoki tik poyali, piyozli, kartoshka piyozli va shu kabilar bilan to'ldirib borishni talab qiladi. Tradeskansiyaning 2-3 xil turi, xona uzumi, plyush, chirmashuvchi fikus, aloe, zigokakfus, epifilyum, siklatnen, primula, amarillis, kliviya kabilar shular qatoriga kiradi. Bu o'simliklarning shakli va barglari, poyasi, gullari harakteriga ko'ra xilma-xil bo'lib, quyosh nuri va suvga ehtiyojlari ham turlichadir.

Katta guruh bolalarining jonli tabiat burchagi uchun hayvonlarni tanlashda asosiy vazifa hayvonlarning yashash muhit sharoitlariga moslashish xususiyatlari haqidagi boshlangich bilimlarni shakllantirishni ta'minlashdir.

Akvariumda issiqsevar, tirik tutiladigan va ikra tashlaydigan baliqlar guruhi - mechenoses, skalyariy, guppi va shu kabilarni saqlash maqsadga muvofikdir.

Katta guruh tabiat burchagida toshbaqaning istalgan turini saqlagan yaxshi.



Odatda, bu jonivor qishda qisqa muddatli uyquga ketadi. Agar toshbaqa tabiat burchagida bir necha yildan beri yashayotgan bo'lsa u uxlamasligi mumkin, biroq U bu davrda lanj bo'lib qoladi, ozuqani istar-istamas yeydi. Bunday holatning sababini hamda uning yashash uchun mos sharoitni faqat maktabgacha ta'lim yoshidagi katta bolalar tushunishlari va yaratishlari mumkin.



Sutemizuvchilarni tanlash ham juda xilma-xildir. Bu guruh burchagida «dengiz cho'chqasi»dan tashqari tipratikan, olmaxon ham bo'lishi kerak. Olmaxon tabiat burchagida yashovchi boshqa sutemizuvchilarga nisbatan mavsumlarda o'z hayot tarzini ko'proq o'zgartiradi. Bu o'zgarishlar hayvonlarning tabiatdagi hayot sharoitlariga bog'liqligini maktabgacha ta'lim yoshidagi katta bolalar bilishlari kerak.

Maktabgacha tayyorlov guruhining tabiat burchagi. Tayyorlov guruhida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning asosiy vazifasi ularda tabiat olamidagi muhim bog'liqliklar - o'simliklarning kompleks sharoitlarga (namlik, issiqlik, yorug'lik va shu kabilar), hayvonlarning tashqi tuzilishi va hayot tarzi, yashash muhitiga bog'liqligi haqida elementar bilimlarni shakllantirishdir. Bolalar turli mavsumlarda o'simlik va hayvonlar hayotida sodir bo'layotgan doimiy takrorlanuvchi o'zgarishlar, ularning o'sish va rivojlanishining asosiy davrlari bilan tanishadilar.

O'simliklar dunyosi haqidagi bilimlar mazmuniga ularni kupaytirishning ba'zi usullari haqidagi bilimlar kiritiladi. Bolalar narsalarning muhim, umumiy belgilarini ularning o'zgaruvchanligiga ko'ra bilishlari kerak. Shunga ko'ra o'simlik va hayvonlarni tanlashda faqatgina tuzilishining xilma-xilligiga emas, balki muhitning ma'lum sharoitlarga moslashganligiga ham e'tibor beriladi. Bolalar o'simliklarni sug'orish (suvning miqdori va sugorishning takrorlanishi) o'simlikning tabiatdagi yashash muhitiga (tropik botqoqliklar va soy, changalzorlar, quruq cho'l va dashtlar), shuningdek, yil fasllariga bog'liqligini anglab olishlari uchun jonli



tabiat burchagiga, yilning 10 oyi davomida juda nam tuproqda o'sadigan papirusni, suvni kam talab qiladigan va onda-sonda sugoriladigan kaktusni (1-2 turini), namga ehtiyoji katta bo'lgan pirimula, tradeskansiyani hamda o'rtacha sug'orishni talab qiladigan uzambarg gunafshasini qo'yish zarur. Qishda ko'pgina subtropik o'simliklar sug'orishni uncha ko'p talab qilmaydi.

Tabiat burchagidagi o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi

shini tabiiy sharoitdagi o'sish sharoitlari bilan aloqasi haqida boshqa o'simliklar ham, ayniqsa, liliya va amarillis oilasiga taalluqli bo'lgan - amarillis, kliviya, krinitm, dratsena, gemanus va shu kabilar dalolat beradi. Mazkur o'simliklar uchun qishning birinchi davri - tinchlik davri bo'lib, bu vaqtda sug'orish deyarli to'xtatiladi.

Xona o'simliklarini ko'paytirish usullari xilma-xildir: yorongul, begoniya-reks, sanseera va boshqalar novdalaridan, aspi dietra, asparagus kabilar butoqchalaridan ko'paytiriladi.

"Tirik tug'iluvchi" o'simliklardan - toshyorar, xlorofitum, briofillyum bolalarda katta qiziqish uyg'otadi.

Akvariumdagi baliqlar ham (ularning 2-3 turi bo'lishi kerak) mahalliy suv havzalaridagi issiqsevar baliqlardir. Bu guruhlarining har biri, garchi unchalik murakkab bo'lmasada, boqishda alohida sharoit talab qiladi.

Maktabgacha tayyorlov guruhining tabiat burchagida tutqunlikda bola o'chadigan qushlarni, yozda esa maydonchada tovuq, o'rdaklarni (mahalliy sharoitga ko'ra) boqish maqsadga muvofikdir. Sutemizuvchilardan tabiat

burchagida istalgan jonivor, ayniqsa, hayot tarzi mavsumga muvofiq o'zgaradiganlarini (tipratikan, olmaxon), maktabgacha ta'lim tashkiloti hovlilarida esa katta bolalar quyonlarni parvarishlab boqishlari mumkin.

Tabiat burchagida joylashtirilgan tirik ob'ektlarni parvarish qilishda tarbiyachining bilim va malakalarini ahamiyati.

### **"O'simliklarni qalamchalardan yetishtirish" mashg'ulotining taxminiy ishlanmasi**

Piyozdan ko'paytirish. Amaralis, krinum, gemantus, zafran-tes piyozdan ko'payadi. Piyoz boshida kurtaklar paydo bo'lib, ulardan piyozchalar o'sib chiqadi. Ko'chat qilinishda ular eski piyozboshdan ehtiyotkorlik bilan ajratilib, tuvakka ekiladi va xuddi piyozbosh singari parvarish qilinadi.

Bachkilardan ko'paytirish. Yer ustidan deyarli to'liq shakllangan yosh o'simliklar shaklidagi bachkilarni hosil qiluvchi o'simliklar (toshyorar, xlorofitum) juda oson ko'payadi. Bu bachkilar asosiy o'simliklardan qirqib olinib, kichik tuvaklarga o'tqaziladi.

Ildizpoyadan ko'paytirish. Bu usuldan o'simliklarni ko'chat qilib ekishda foydalaniladi. Ildizpoyadagi tuproq silkitib tushiriladi va uni o'tkir pichoq bilan har bir bo'lakda, juda bo'lmaganda 1 -2 kurtak yoki nihol va ildiz qoladigan qilib qism- larga ajratiladi. Aspidistra, sansevera, siperus ildizpoyadan ko'payadi.

**Terrariumda yashovchilarni boqish.** Terrarium turlari. Toshbaqa, kaptakesak, baqa, qurbaqalarga mo'ljallangan terrariumlarning tagiga 5-6 sm qalinlikda tuproq va qum solinib, ko'proq qismiga chim o'tqaziladi. 1-2 ta yassi tosh solib qo'yilsa yaxshi bo'ladi. Terrariumdagi «suv havzasi» o'rmini tog'orachadagi suv bajaradi. Agar terrariumda qurbaqa yoki toshbaqa saqlansa, gultuvak parchalaridan uy (yashirinish joylari) yasash lozim. Qisddan o't- o'lanlardan uzun, ingichka bargli xona o'simliklari, sulii, salat barglari qo'yiladi.

Tirik tugiluvchi kaltakesaklar, baqa, qurbaqalarga mo'ljallangan terrarium toshbaqalar terrariumiga o'xshash bo'ladi: uning tagiga qum solinadi, usti esa o'rmon yo'suni bilan qoplanadi va 1 - ta tosh, po'stloqli yo'g'on shox solib qo'yilsa yaxshi bo'ladi. aqalar uchun tuvak parchalaridan yashirinadigan joy qilinadi. usin orasiga kichikroq suv havzasi joylanadi. Qishda aspidistra, plyush, paporotnik o'simliklarini kuyish maqsadga muvofikdir. Terrariumda asrash unchalik murakkab emas.

Suv vaqti-vaqti bilan almashtirilib, suv idish muntazam yuvilib turiladi.

Bir yilda 2-3 marta terrariumni, undagi tuprok-kum ustini, devorlarini tozalab turish kerak. Terrariumdagi O'simliklar xona O'simliklaridek parvarish kilinadi. Terrariumda yashovchilar past temperaturada harakatchanligini yo'kotadi va ovkat yemay qo'yadi. Bunday hollarda terrariumni elektr lampochkalari bilan isitish lozim. Jonivorlarni 25-30°S haroratda nimrang margansovka eritmasida, boshini suvga tikmay, 20-30 soniya chumiltirish maqsadga muvofikdir.

Agar jonli tabiat burchagida kurbaka, baka, kaltakesaklarning yashashi uchun normal sharoit yaratishning iloji bulmasa, hayotini saklab kolish maqsadida ko'zda ularni ko'yib yuborish kerak.

Sudralib yuruvchilar hamda suvda va kuruklikda yashovchilar terrariumda saklanadi. Tayyor terrariumlardan tashkari turli idishlardan, eski akvariumlardan foydalanish mumkin. Ularning ustidan doka yoki mayda metall turkoplash kifoyadir. Terrariumlar hayvonlarning biologik xususiyatlariga moslab tayyorlanadi.

Kuruklikda yashovchi toshbaka. Toshbaka salat, kokiut barglari, sabzi,



1-чаккон kaltakesak



3-данит тошбакеси



2-тарокли тритон



4-бака

sholgom, xom kartoshka bulaklari bilan bokiladi. U tarvuz po'sti, pomidor, ba'zi mevalarni va nonni yaxshi kurib yeydn. Gox-goxida kiyma gusht berish kerak. Bu toshbaka ozukani kuyousa yaxshi yeydn. Ozuka yozda har kuni, qishtda 1-2 kun oralatib beriladi. Ozuka suvli bulsa, toshbaka suv ichmaydi. Botkok toshbakasi go'sht, mayda balik, chuvalchang, suv shillik kurti bilan oziklanadi va ozukani fakat suvda yeydn.

**Takimon.** Un qurti, chuvalchang, tirik hashorotlar va ularning

lichinkalarini yeydi. Qishtda unga chivin g'umbagi, uzun kilib kesilgan xom gusht beriladi. U suvni yaxshi kuradi.

Tirik bola tugadigan kaltakesak takimondan ko'ra maydarok narsalar (tutgan o'ljalari) bilan oziklanadi.

Baka va kurbaka tirik ozuka: hashorotlar, chuvalchanglar, mollyuskalar hamda xom go'sht bilan bokiladi. Bunda go'shtni tayokcha uchiga ilib, kurbakaning ko'zi oldida kirmirlatib turish kerak.

### **? Nazorat savollari**

1. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tabiat burchagining ahamiyati kanday?

2. Kichik guruh tabiat burchagida nimalar aloxida o'rin tutadi? Bu yosh guruh tabiat burchagida kanday o'simlik va hayvonlar saklanadi?

3. O'rta yosh guruh tabiat burchagida kuzatishlar o'tkazish uchun kanday hayvonlar tanlanadi?

4. Katta yosh guruh tabiat burchagida baliklarning kanday turini saklash mumkin? Hayvonlarnichi?

5. Maktabgacha tayyorlov guruhi tabiat burchagiga kanday o'simlik va hayvonlar tanlanadi?

6. Turli yosh guruh tabiat burchagida o'simliklar kanday parvarish kilinadi?

7. O'simliklarni kupaytirishning kanday turlarini bilasiz?

8. Terrarium nima ?

9. Turli yosh guruh terrariumlarida kanday hayvonlar saklanadi?

10. Qushlar uchun donxo'rak va inlar kanday yasaladi?

## **VII BOB. YER MAYDONCHALARINI TASHKIL QILISH VA ULARNING TURLARI**

### **VII.1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yer maydonchasi**

### **VII.2. Bolalarni madaniy ozuqa ekinlari bilan tanishtirish.**

### **VII.4. Yer maydonchalarida hayvonlarni saqlash uchun shart-sharoitlar**

#### **1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yer maydonchasi**

**Tayanch iboralar:** yer maydoncha, daraxt, buta, ekin, gulxona, gazon, rabatka, atrofdaqi qurilish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yer maydonchasi bo'lib, bolalar ko'p vaqtlarini o'sha yerda o'tkazadilar. Maydoncha - o'yinlar, sayrlar, mashg'ulotlar o'tkaziladigan butun yil davomida o'simlik va hayvonlarni kuzatadigan joydir. Maydonchada daraxtlar, butalar, ekinzor, gulxona, mevali daraxtlarning bo'lishi katta ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bolalar tarbiyachi bilan birga o'simliklarni o'stiradilar, ularni parvarish qiladilar, o'sishi va rivojlanishi haqida aniq tasavvurlarga ega bo'ladilar. Bolalarga o'simliklarni pavarish qilish jarayonida, tuproqqa ishlov berishda zarur bo'ladigan oddiy asboblardan foydalanish ko'nikmasi hosil bo'ladi hamda tabiatga unda yashovchilarga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kabi hislatlar tarbiyalanadi. Maydonchani chiroyli, nafasatli bszatilishi bolalarda badiiy va go'zallikni his qilish, vatanparvarlik kabi nozik hislatlarni tarbiyalaydi.

Bolalarda o'z o'lkasini sevisi, o'z o'lkasining tabiatini bilishi katta ahamiyatga ega. Shu maqsadda maydonchaga ekiladigan daraxtlar o'simliklar mana shu o'lka tabiatiga, iqlimga mos bo'lishi zarur.

Ekinzorni tashkil etishda dastur mazmunidan kelib chiqqan holda bir guruh uchun poliz ekinlari tanlanadi.

**Yer maydonchani tashkil etish.** Maydonchani atrofdaqi qurilishlardan ajratish zarur. Buning uchun maydoncha atrofida chiroyli butalardan yashil devor hosil qilinadi. Bu maqsadda daraxtlar ekib, ikkinchi qatoriga esa butalar o'tqazish ham mumkin. Bunday to'siq sovuq shimoli-sharqiy shamollar, shahar shovqini, tutun hamda ishlab chiqarish gazlaridan yaxshi himoya qiladi. Maydonchani ko'kalamzorlashtirishda qanday daraxtlar ekishni o'ylab ko'rish lozim. Mazkur joyda ko'p tarqalgan o'simlik (daraxt)larni ekish lozim. Ular balandligi, shoxlarining formasi, barglarining

joylashishi va shakliga ko'ra xilmaxil (erta gullaydigan, barg yozish bilan birgalikda gullaydigan, kech gullaydigan) bo'lishi lozim. Daraxt va butalar gul va to'pgullariining xususiyatlari, meva va urug'larinnng etilishi muddatlariga ko'ra xilma-xil bo'lishi kerak. Bundan tashqari, o'simlik (daraxt)larni ekishda ularning meva va urug'larni, ayniqsa qishda, jalb qilishi e'tiborga olinadi.

**Daraxtzorlarni tashkil etish shakllari.** Daraxt va butalar guruhi soya tushib turishi lozim bo'lgan gazonlar, yo'lkalarning tutashuv joylari, maydoichalar, hovuz va shu kabi joylar atrofiga ham eqilishi mumkin, Atrofiga daraxtlar ekilgan alleylar, sharoit imkon bersa, kichik daraxtzorlar hosil qilish maqsadga muvofiqdir. Maydonchadagi daraxtlar: *zarang* (o'tkir bargli, shumtol bargli, tatar zarangi), *arg'uvon*-mayda bargli, qayin - yumshoq tukli va so'galli, terak - xushbo'y hidli, *jilog'och* - yevropa jilog'ochi, oddiy *qoraqarag'ay*, *chetan*, *eman* - yozgi va qishki. Daraxtlarning ko'pchiligi urug'dan, terak - vegetativ, asosan qalamchadan ko'payadi. Maydonchadagi butalar: oddiy va venger *sireni*, bog' *yasmini* va *chubushnik*, *spireya* (bodrezak bargli, tol bargli, chetan bargli), na'matak, kumushsimon jiyda, sariq akasiya. Butalarni yaxshisi kuzda yoki bahorda kurtak yozilishiga qadar ekish lozim. Butalarni urug'idan va vegetativ (qalamcha, parxksh, ildiz bachkilar) ko'paytiriladi.

**Gulxonalarni tashkil etish.** Gul o'simliklarini ekishning eng ko'p tarqalgai formasi klumba, rabatka (yo'l yoqalab ketgan gulzor) va gazon (maysazor)lardir. Gulzorni bezashda manzarali o'simliklarni to'g'ri tanlash (balandligi, gulining shakli va rangi, gullash vaqtiga qarab) muhimdir. O'simliklarning yorug'lik, tuproq va namga bo'lgan talabni ham e'tiborga olish kerak. O'simliklarni tanlaganda klumbada erta bahordan to kech kuzgacha gul ochilib turishi nazarda tutilishi lozim. Erta bahorda ochilgan gulga ega bo'lish uchun kuzda yerga piyozli o'simliklar — *lola*, *narsiss* (chuchmoma) ekiladi yoki iyul oyida *kapalakgul*, *zag'chako'z*, *dastagullar* ekilib, erta bahorda ular doimiy joylariga ko'chirib o'tqaziladi. Bahorda *zag'cha ko'z* va *narsiss*, kapalakgul va chuchmomalardan chiroyli gulxonalar qilinadi. Erta bahorda gullovchilar gullab bo'lgach, shu gulxonaga yozda gullaydigan o'simlik ko'chatlari ekiladi. Zag'chako'zlar olib tashlanadi, lola va narsisslar o'z joyida qoladi. Kapalak gullarini yoz oxiridan kech kuzgacha gullaydigan astralar bilan almashtirish mumkin.

## **2. Bolalarni madaniy ozuqa ekinlari bilan tanishtirish.**

**Tayanch iboralar:** madaniy ozuqa, yer maydoncha,

Kichik guruh uchun urug'lari xomligicha iste'mol qilish mumkin bo'lgan: sabzi, rediska tavsiya etiladi.

O'rta guruhda ham xuddi shular ekiladi. Biroq; imkoni boricha,; ikki xil navi ya'ni qizil va oq rediska ekiladi. Maqsad bolalar ularni solishtirib o'xshash va farqli tomonlarini anglamog'i lozim

Katta guruhda bolalar uchun tavsiya etilgan barcha sabzavot o'simliklari ekiladi.

Gulzorni tashkil etishda, maktabgacha ta'lim tashkilotining tabiiy sharoitini hisobga olgan holda, erta bahordan to kech kuzgacha gullaydigan o'simliklar tanlanadi.

Masalan:lola,narsiss (chuchmoma), kapalakgul, qo'qongul kabi gullar tanlanib, ularni markaziga baland bo'yli, chetlariga past bo'yli gullar tanlanadi.

**Turli yosh guruhlarida yer maydonchalarini tashkil etish metodikasi.** Kichik guruh uchun ekinzor maydoni har bir bolaga 1 kv m hisobidan (yo'lkalarni ham qo'shib) tashkil qilinadi. O'rta guruh bolalari uchun norma 1,5 kv.m gacha, katta guruh bolalari uchun 1,5 kv. m. dan 2 kv. m. gacha oshiriladi. Ekinzor xajmi mahalliy sharoitga ko'ra boshqacha bo'lishi ham mumkin.Ekinzor uchun ajratilgan maydonchalarda eni 60 sm va qator oralari 50 — 60 sm li pushtalar qilinadi. Bundan tashqari eni 1,5 m gacha bo'lgan markaziy yo'lka ham qilinadi. Ish asboblari shu yo'lka qo'yiladi. Bolalarning dam olishlari, mashg'ulot o'tkazish va kuzatishlari uchun stol va skameykalar qo'yiladi:-Ekinzor atrofi past bo'yli o'simliklar bilan o'raladi. Bular - navro'zgul, kapalakgul, yer tuti, past bo'yli astra, shuningdek zemlyanika bo'lishi mumkin. Atrofi o'ralgan ekinzor chiroyli ko'rinishga ega bo'lishi bilan birga, guruhlarni birbiridan tabiiy ajratib turadi.

Kichik guruhlar ekinzori o'yin maydonchasining yonida bo'ladi. Bu tarbiyachiga bolalar bilan ishlashni o'yin bilan birga qo'shib tashkil qilishga imkon beradi. O'rta va katta guruhlarning ekinzori umumiy bo'ladi. Ekinzorning umumiy bo'lishi ko'n miqdordagi o'simliklarni o'stirish va kuzatish imkonini beradi hamda takror ekishga ehtiyoj qolmaydi.Maydonchada sabzavotlardan: *pomidor, rediska, piyoz, petrushka, no'xat karam (boshkaram, gulkaram), sabzi, sholg'om,*

*lavlagi, bodring, qovoq* ekiladi. Ko'p yilliklardan ravoch ekiladi. Sabzavot o'simliklarining navi ko'p. Maydonchada mazkur joy uchun rayonlashtirilgan ekinlar o'stiriladi. Kichik guruh ekinzorlarida tez o'sadigan va eng avvalo, xom holatida iste'mol qilinadigan o'simliklarni ekish lozim. Bular piyoz, sabzi, rediskadir. Katta guruh bolalari ular uchun salat, sabzi, sholg'om urug'larini sepib berishlari mumkin. O'rta guruh ham xuddi shularni ekadi, biroq imkoni boricha ikki xil navini ekish kerak, masalan, boshdor salat va barg salat, nant sabzisi va kartoshka, qizil va oq rediska.

Sabzavotlarni solishtirib, bolalar ularning umumiy belgilarini va farqlarini topishlari mumkin bo'ladi. Yuqoridagilardan tashqari ismaloqni ham o'stirish mumkin. Katta guruhlar ekinzorida bolalar MTMSi ekinzori uchun tavsiya etilgan sabzavot o'simliklarining barchasi ekiladi. Bu o'rinda urug' va ko'chatdan ko'payadigan sabzavotlar o'stiriladi. Bu karamning bir necha turlari (boshkaram, gulkaram, kolrabi, bryussel karami), pomidor, bodriig, qovoqdir. Bulardan tashqari kungaboqar, bir oz kartoshka ham ekiladi.

**Sabzavotlarni ekish va ko'chat o'tqazish.** Ekishga tanlangan urug'lar yuqori navli, yaxshi ekish xususiyatlariga ega bo'lishi kerak. Ekiladigan urug'larning asosiy sifat ko'rsatkichi — uning unib chiqishi, tozaligi va namining pastligidir. Nihollar paydo bo'lishini tezlashtirish uchun urug'lar namlanadi va undiriladi. Sabzi, piyoz, lavlagi urug'lari 1-2 sutka, bodring, karam, rediska, salat, qovoq urug'larni -8 - 12 soat, no'xat - 2 - 6 soat suvda saqlanadi. Ekish muddatlari. O'simliklarni ekish muddatlari turlichadir.

Sovuqqa chidamli ekinlar — sabzi, petrushka, salat, rediska, ukrop dala ishlari boshlanishi bilanoq, mayning birinchi yarmida ekiladi, chunki bu o'simliklarning nihollari bahorgi sovuqlarga bardosh bera oladi. Soyabonguldoshlarning urug'lari (sabzi, petrushka, ukrop) va piyoz tez upmaydi, shu sababli ularni, tuproqning ustki qatlami qurimasdan oldin unib chiqishlari uchun, boshqa ekinlardan ancha oldin ekiladi. Tuproq temperaturasi 5-6 yosh bo'lganda piyoz, kartoshka, sholg'om, turup urug'i ekiladi, shuningdek karam ko'chati ham o'tqaziladi. Issiqsevar ekinlar — bodring, qovoq, kabachki, pomidor, loviya tuproq 10°gacha isiganda, bahorgi sovuqlar xavfi tugaganda akiladi. Sabzavotlardan erta hosil olish uchun qishki ekishlardan foydalaniladi. Ularning urug'i erta unib chiqmasligi lozim. Shuni hisobga olib ekiladi. Chunki erta unib chiqqan nihollar sovuqdan nobud bo'lishi mumkin. Bunday ekish, odatda oktabrning ikkinchi yarmida

amalga oshiriladi. Qish oldidan rediska, petrushka, sabzi, salat, ukrop, ismaloqni ekish mumkin.

Bolalarni maydonchadagi ish faoliyati ekinlarni ekishdan ko'ra ancha avvalroq boshlanadi. Tarbiyachi bolalar bilan bu yil nima qilishini, nimalar ekishini, bu ishlarni qanday amalga oshirishlarini suxbatlashib tushuntirib beradi.

Urug'larni ekishdan avval guruhga poliz ekinlari va gullarning urug'lari olib kelnadi. Bolalar ularni ko'rib, tomosha qilib, bu urug'lardan nimalar yetilib chiqishini aytib beradilar. So'ng tarbiyachi bir likopcha oladi, uning



ustiga paxta qo'yadi, paxtaning ustiga urug'ni qo'yib ustian suv quyadi va bolalarga "Qai endi ko'ramiz, urug'miz qanday qilib uyg'onar ekan".

Urug'larning bir qismi ekish uchun olib qo'yiladi, har bir bola uni ko'rib chiqishi va yetilib chiqadigan urug'lar bilan solishtirishi uchun.

Urug'larni o'sishini kuzatib borish bolalarni ular borasidagi bilimlarini mustaxkamlayi, bir holatdan boshqasga qanday o'tishini kuzatadilar. Tarbiyalanuvchilarda bunday kuzatuvlardan so'ng o'zlari o'simlik va gullarni yetishtiri istagi uyg'onadi; bolalar iloji boricha tezroq ishni boshlashga harakat qila boshlaydilar.

Biroq, bolalarning birlamchi mehnat jarayonlarida asosiy ehtiyoj jarayonga tezroq kirishish va harakat qilishdir. Bolani "mustaqil" ishlash ishtiyoqi, uning yakuniy natijasi ko'proq qiziqtiradi.

Barcha bolalar maydonchada ishlashni xohlaydilar, lekin ularning harakatlari ham o'rta guruh bolalarinikiga o'xshab, noaniq, shoshqaloq, o'yinga o'tib ketadigan bo'ladi. Natijada bolalarning ishi yakuniga yetmaydi ular, sifatli ish bajarishga harakat qilmaydilar, o'simliklarni nobud bo'lishini ham o'ylamaydilar. O'simlikarni yetishtirish bo'yicha ish faoliyatining asosiy xususiyati ham shundan iboratki, yakuniy natijaga erishish oraliq. Ma'lum ketma ketlikda bajariladigan ishlarga bog'liq bo'ladi (avvaliga yerni





tayyorlab olish, so'ng urug'larni ekish, ularni sug'orib borish, yerni yumshatish va x.k.).

Har bir oraliq faoliyat o'zining maqsadi va natijasiga ega, bu esa o'z navbatida bola mehnat jarayonidagi faoliyatining sifatiga, harakatlariga bog'liq bo'ladi.

Boshlang'ich ishlarda bolaning menat jarayoniga qizqish va intilshini vaqtida anglab, ularning o'simliklarni o'sishidagi rolini tushuntirib berish juda muhim.

Katta guruh bolalari bilan meant jarayonini shunday tashkil etish kerakki, bu ish bola uchun hayotiy zarur ko'nikmaga aylansin. Mehnat faoliyatining birinchi kunlaridan boshlash har bir tarbiyalanuvchi butun guruh oldida mas'uliyat kasb etadigan ma'lum ishga ega bo'lishi kerak.

Mehnatni tashkil etishning asosiy usullari, davomiy va tizimli topshiriqlar hisoblanadi. U yoki bu ish 3-4 kishidan iborat bolalar guruhga topshiriladi. Har bir zvenoda ish navbatchilar tomondan amalga oshiriladi. Bolalarni gruhlarga ajaratishda ham ularni individual xususiyatlarini inobatga olish kerak. Bir guruhga harakatchan va erinchoq bolalarni birlashtirish lozim.

Maydonchada deyarli barcha bolalar ish bilan mashg'ul bo'ladilar. Tarbiyachi ham bolalar bilan birga ishlaydi. Ish asosan kechk payt amalga oshiriladi, salqin kunlara esa kunduz kuni 12-15 daqiqadan 20-30 daqiqagacha, anaffuslar bilan davom etadi. O'simlkarni parvarish qilish bo'yicha kundalik faoliyat natijasida bola o'yin harakatlari bunga to'g'ri kelmasligin, yakuniy natijani bermasligini tushunadi.



O'simliklarni ekish bo'yicha ishni yerni tayyorlashdan boshlanadi. Bolalar yerni ikkinchi marta kavlanishida ishtirok etailar (birinchisi faqat kattalar tomondan amalga oshiriladi). Bolalarga yerni qanday yumshatish kerakligi tushuntiriladi: belkurakni yerga chuqur kirgizib kavlash; belkurakni bir gal chap, boshqa safar o'ng oyoq bilan kirgizish kerakligi; kavlashda ortga yegilish, oldinga egilib kavlangan yerni bosib tashlamaslik; xaskash bilan kavlangan yerni tekislab chiqish, ortiqcha o'tlardan tozalash. Bunday qoidalarni bolalarning o'zi bilan gaplashib kiritish kerak: ishni nimadan boshlash va qanday amalga oshirish lozim. Avvaliga ishni tarbiyachi ko'rsatib berishi so'ng bolalarga taklif qilishi mumkin. Yerni kavlash va yumshatish jarayonida bolalarni yer ostidagi hashorotlarga ham e'tiborini qaratib, ular nima ekanliini, qanda foydasi va zarari boligin gaplashib olish ham mumkin.

Tuproq tayyorlanib bo'lgach bolalar o'zlariga tanish bo'lgan urug'larni ekishni boshlaydilar. Avvaliga bolalar tarbiyachi bilan birgalikda urug'larni ekishni eslaydilar: yirik urug'larni bittadan ekish kerak; maydaroqlarini ham bittadan, bir xil masofada joylashgan kavaklarga ekish; mayda urug'larni tuproq bilan aralashtirib ekish; kavaklarni bir xil masofada kavlash; urug'larni solgach tuproq bilan yopib chiqish; suvni sekin asta urug'lar qaytib chiqmaydigan qilib quysh kerak.

Bolalar bu usullarni yaxshiroq o'zlashtirishlari va tushunishlari uchun ularga urug'larni ekish joylarini qanday farqlash mumkinligini ko'rsatish, oraliq masofani 2-3 barmoq oralig'idagi masofani olishni o'rgatish kerak.

Aniq va tushunarli topshiriqlar bolalarni ishga diqqatini qaratib uni sifatli bajarishiga yordam beradi. Ularning ishlarini tekshirishda harakatlarining asoslanganligini so'rash kerak: nima uchun ular aynan shunday bajardilar.

Mayda urug'larni ekish bolalar uchun biroz qiyinlik qiladi. Tarbiyachi agar urug'larni tuproq bilan aralashtirib ekilsa, bir joyga kamroq urug' tushushishini, agar faqat urug'ni o'zi ekilsa u ko'payib ketishini tushuntiradi. Bolalar tarbiyachi bilan urug'larni ekadilar, tuproq bilan ustini berkitadilar, agar kun juda issiq bo'lsa soya bilan to'sadilar.

Bolalar o'simliklarning ko'chatlarini ham ekadilar. Ish jarayoni bolalarning o'simliklarning ko'chatiga, ildizlariga mos kavaklar kavlashni, ular suv quyib suvini singishini kutishni, tuproq bilan yopib chiqishni o'rganadilar.

Gullarning ko'chatlarini ekishda ham bolalar bilan qaerga va qaysi gulni ekishni kelishib olish kerak. Bunday takliflar bolalarning ish faoliyatidagi faolligini oshiradi, gullarni yaxshiroq o'rganishlariga undaydi.

Bolalar gullarga ziyon yetkazmasdan sug'orishni o'rganadilar. Ekindagi o'simliklarni sug'orayotganlarida ham sekin asta, ularni bosib olmasdan, galma galdan sug'orishlarini nazorat qilish kerak. Avvaliga sug'orish ishlarini o'yin shaklida amalga oshirishlari ham mumkin. Bu normal holat.

Katta guruh bolalarining mehnat yo'nalishlarini shakllantirish nisbatan tezroq amalga oshiriladi. 2-3 marta sug'orishdan keyin bolalar o'zlari ishlarini rejalashtirib amaga oshira boshlaydilar. Sug'orish jarayonida bolalar yerning va o'simliklarning xususiyatiga qarab sug'orishni o'rganadilar, bundan tashqari yerni namlikni ushlab qolish xususiyatin ham anglay boshlaydilar. Buning uchun bolalarga qumli va tuproqli yerni bir xilda sug'orib bo'lmasligini ko'rsatish kerak. Qumli yerda suv turmay tez singib ketadi, tuproqli yer esa yuzasi loy bo'lib suvni sekin shimadi.

Bolalarga nima uchun turli yer suvni turlicha shimishini ko'rsatib beriladi. Uchta ichi ko'rinadigan idishga 3 xil yer solinadi va preslanadi, ustidan suv quyib ko'rsatiladi. Bolalarning suvning singishiga qarab uni xususiyatini anglay boshlaydilar.



Sug'orishda bolalar o'simliklarning xajmi va ob havoni ham unutmashlari kerak. Tarbiyachi sug'orishning sifatini nazorat qiladi va bolalarni o'zlari qachon yetarli bo'lishini anglashlariga yo'naltiradi. Bolalar yerning umumiy holatini kuzatib uni yumshatish kerakligini ham kuzatib boradilar. Ular yomg'irdan keyin yerda suvni yashi o'tkamaydigan qatlam

hosil bo'lishini ko'radilar. Shuning uchun yerni yumshatib turish kerak. Ba'zida birinchi bor yerni yumshatishda bolalar o'simlikni sindirib qo'yishlari yoki yulib olishlari mumkin. Bola o'simlikning joyini bilishi, yerni qanday yumshatish kerakligini anglashidan tashqari o'z kuchini ham boshqara olmasligi mumkin.

Bola bir xil kuch sarflar ekan o'simlikning tagini, atrofini, chuqurroq joylarni ham yumshatadi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarga avval kengroq yerlarni, so'ng kichikroq yerlarni yumshatishni berib ko'rish mumkin. Yumshatish ishlarini katta, bir biridan uzoqroq joylagan va nisbatan baquvvatroq o'simliklarning yeridan boshla kerak. Bola o'simliklarning joylashuvini inobatga olib o'z kuchini yo'naltiradi. Bu tarzda tizimli ishlar bolalarning bilim va malakalarini rivojlaniradi. Biroq bolalarning mehnatga qiziqishi sekin so'nib boradi. Chunki bolalar o'simliklarni nima uchun yetishtirilishini to'liq anglamagan bo'ladilar. Bundan tashqari mehnatning natijasi ham ular uchun katta ahamiyat kasb etmaydi. Bolalarni yerni yumshatish, sug'orish ishlariga qiziqishlarini oshirish uchun mustaqil larini ham ko'paytirish kerak.

Har bir bola o'zi mustaqil ish bajaradigan kunini intizorlik bilan kutadi. Bolalar ishlarni qoidasi bo'yicha bajarishga harakat qiladilar, o'zaro gaplashib fikr alamashadilar. Chalg'ishlar ham ishini yakuniga yetkazishga halaqit qilmaydi. Mustaqil bajargan ishlari o'z kuchlariga ishonch hosil qildirib, qiziqarli va qiziqish uyg'otmaydigan ishga ham mas'uliyatli munosabatda bo'lishga undaydi.

Bu bosqichda tarbiyachi oldinga qo'yilgan maqsad bola uchun to'g'ri kelishini nazorat qiladi; ularga yaxshi bilmagan ishlarini bajarishga yordamlashadi; o'simliklarni o'sishidagi o'zgarishlarni kuzatib borishni eslatib o'tadi; ishning sifatini nazorat qiladi; ba'zida bolalarning o'zlarini nazorat qilishga undaydi.

Mehnat jarayonlarini bajara turib bolalar egatlarni o'tlash kerakligini ham bilib oladilar. Bu ekinlarni ortiqcha o'tlardan tozalash uchun kerak.

Avvaliga bolalar ekinlarni va ortiqcha o'tlarni ajratishga qiynaladilar. Ekinlarni o'sishi vaqtida bolalarning e'tiborini barcha o'simliklar bir xil emasligiga qaratish kerak. Bolalarga egatlarni o'tashni o'rgatish frontal mashg'ulotlarda amalga oshiriladi.

Avvaliga bolalar xali ko'nikmaga ega bo'lmaganliklari sababli o'tlarni ustki qismini yulib olib ildizini qoldiradilar. Bu ish uchun tayoqcha berish ham mumkin. Albatta o'tlash boladan koordnasion va mayda qo'l motorikasini yaxshi ishlashini talab qiladi. Barcha bolalardan yaxshi ishlashi talab qilib ham bo'lmaydi.

Bolalar yovvoyi o'simliklar va ekinlarni ajrata olishlari uchun tarbiyachi asosiy farqlarini qoldirib qolgan o'tlarni tozalab chiqishi mumkin.

Tarbiyachi bir kun avval bolalar ololmaydigan eng mayda o'tlarni o'tab qo'yishi lozim. Bolalarni tarbiyachining ishini kuzatishga yo'naltirish, ularning savollariga javob berish kerak. Bunday zerikarli va mashaqqatli ishni bajarish istagini saqlab qolish uchun bolalarda yovvoyi o'tlarga nisbatan salbiy munosabatni saqlab qolish zarurdir. Bo'lajak ishni kutish va birinchi natijalarni namoyon bo'lishi tarbiyalanuvchilarda yanada katta qiziqish uyg'otib, ularni yanada yaxshiroq parvarish qilish istagini uyg'otadi.

Bolalar barcha mehnat jarayonlarini o'zlashtirganlaridan va mustaqil ishlashni boshlaganlaridan so'ng, ularni mustaqil tarzda har bir o'simlik uchun qanday parvarish kerakligini anglashni o'rgatish kerak. Bunda tarbiyachi ishni boshlashdan avval bolalar bilan birgalikda nima qilish kerakligini aniqlab oladi.

Tarbiyachi. Yerni nam yoki quruqligini qanday aniqlash mumkin?

Bolalar. Ushlab ko'rish kerak.

Tarbiyachi. To'g'ri (bolalar bilan bir xovuch tuproq qo'lga olib siqib ko'rishadi). Nam yer sochilib ketmaydi, quruq tuproq esa sochilib ketadi. .. Bizning tuprog'imiz nam. Xo'sh nima qilishimiz kerak. Egatlarda yovvoyi o'tlar bormi.

Bolalar (o'simliklarni ushlab ko'radilar, tomosha qiladilar). Biroz bor.

Tarbiyachi. Mana bugun siz ularni tozalaysiz, bo'lmasa o'simliklarimiz qurib nobud bo'lishadi. yomg'irdan so'ng yer nam bo'ladi va ularni tozalash oson.

Bolalar. Ular bizning ekinlarimizni bo'g'ib qo'yishyapti.

Bolalar shu tariqa o'simliklarga qanday yordam berish mumkinligini aniqlaydilar; navbatchiliklarida egatlarni ko'zdan kechirib ertangi kunda qilinadigan ishlarini ham belgilab chiqishlari mumkin.

Bolalar qaysi ish jarayonni bajarish kerakligini aniqlash va ishlashni boshlaganlaridan so'ng, ularning o'zaro munosabatlarini ham rivojlantirish kerak. Har bir kichik guruhlar (3-4 bola) dan navbatchilarini bir-birlariga yordam berishga o'rgatish lozim. Ular doimo o'zaro kelishib ishlarini bajaradilar, begona o'tlarni tozalaydilar; bundan so'ng bajarilgan ishlarni muhokama qiladilar, keyingi safar bajaradigan ishlarini kelishadilar. Shu bilan birga mustaqillik mustaxkamlanadi, tartib intizomlik ortadi, jamoaviylik ruhi ortadi.

O'rta guruh bolalari o'zaro munosabatlarni o'zgarishi mehnat natijasining o'zgarishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ish jarayonida

quyidagicha ish sodir bo'ldi, o'rta guruh bolalari ekan rediska ko'proq va kattaroq bo'ldi. Xirmonni yig'ib bo'lganlaridan so'ng ikkala guruh hosilini hisoblaganda o'rta guruh bolalarida har bir bolaga 3 tadan rediska, kichik guruh bolalarida har bir bolaga 2 tadan, katta guruhlarda esa faqat 1 tadan to'g'ri keldi. Bolalar bunday ishga juda xayron bo'lishadi. Ular tarbiyachidan so'rab, kim qanday ekanini surishtirib, eslaydilar.

Shundan so'ng ular o'zlarining va do'stlarining ishlarini kuzata boshlaydilar. Ikkinchi marta ekilgan ekinlarni barcha bolalar kuzata boshladilar. Bir kuni begona bolalar sabzi va noxotlarni yulib ketishganidan so'ng ular navbatchilik tuzib egatlarni qo'riqlay boshladilar. Ular xirmonni maktabgacha ta'lim tashkilotining barcha bolalariga saqlab qolishga harakat qildilar. Shu tariqa ularda hamkorlikda ishlash motivlari uyg'ondi. Katta guruhlarda ishning natijasiga qarab individual yoki guruhiy tarzda baholash mumkin.

Individual rag'batlantirishni tarbiyachi kundalik tarzda qo'yib boradi, guruhiy bahoni esa vaqti-vaqti bolalarning o'zlari qo'yadilar. Odatda, bolalar yangi mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirganlaridan so'ng amalga oshiriladi. Butun jamoa tomonidan baholash – rag'bat yoki bajarila olmagan ishlarni aytish ularning xulqida ijobiy namoyon bo'ladi. Bolalarda mehnatga nisbatan ko'nikma va malakalarni eng yaxshi shakllantiruvchi vosita bu kuzatuvdir. Ularni o'simliklarni o'sishidagi qandaydir o'zgarishlar bilan solishtirish va butun guruh bilan taqqoslash lozim. Bolalar o'simliklarni o'sishi, gullashi, meva solish jarayonini kuzatishlari mumkin.

Hosilni yig'ish. Bu jarayonda bolalar ekinlarni shoshmasdan yig'ishni, faqatgina pishganlarini yig'ib o'simlikning o'ziga ziyon yetkazmaslikni o'rganadilar. Ular dalalarda xirmon ishlarini yig'ishda ishtirok etadilar.

Hosilni yig'ish bolalar uchun yaxshi kayfiyat bag'ishlaydigan tadbirdir. Poliz ekinlarini va mevalarni yig'ish qoidalarini bolalar biladilar. Lekin urug'larni yig'ishda biroz qiynaladilar. Shuning uchun ularga urug'larni yig'ishni ko'rsatib berish kerak. Yig'im-terim ishlarida bolalar o'simliklarni kuzatadilar, o'zlariga tanish bo'lgan urug'larni ko'radilar, turli shakldagi qutichalarni ko'radilar va boshqalar. Urug'larni ajratib rasmi yopishtirilgan qutichalarga solib chiqiladi.

Katta guruhlarda bolalar o'z mehnatlarining natijalarini qo'llay boshlashlari mumkin (turli salatlar tayyorlashlari).

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ekinlar va mevalarni qishki quritilishida ishtirok etadilar: bodringlarni yuvadilar, tarbiyachi bilan birga ularni bankalarga berkitadilar, pomidorlarni yetilishi uchun taxlab chiqadilar.

Kuz faslida yer maydonchalarini tozalash ishlarini, qishga tayyorgarlikni boshlaydilar. Bolalar barglarni to'playdilar, qolgan o'tlarni yuladilar, atrofnı tozalaydilar. Yerda qoladigan o'simliklar barglar bilan yopiladi, ustidan esa qor yog'adi. Katta guruh bolalarini ularni parvarish qilishga o'rgatishda davom etadilar; bolalar qushlarning qanday hayot kechirishini bilishlari kerak. Qushlar o'zlarining foydali ishlarini qishda ham davom ettirishlarini ko'rsatish kerak; ya'ni zararkunandalarni yeydilar.

Shu tariqa, 6 yoshdagi bolalar tarbiyachining rahbarligida yangi ko'nikmalarni hosil qiladilar, jarayonlarni taxlil qilib, ular orasidai bog'liqliklarni tushuna boshlaydilar.

Bolalarni tabiatdagi mehnat jarayoni nafaqat tarbiyaviy ahamiyatga, balki maktabga tayyorlovchi ta'limiy xususiyatga ham egadir. Bolalarda qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, sabab oqibat aloqalarini tushunish, mustaqil fikrlash ko'nikmalari hosil bo'ladi. Katta guruh bolalarning aqliy salohiyatlari shundan iboratki, ular kuzatilayotgan hodisalarni kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish qobiliyatiga ega, shuningdek tarbiyachi yordamida ba'zi jarayonlarni o'zaro bog'liq bo'lmagan holatlarini ajrata oladilar. Bu guruhda mehnat faoliyatlari doirasi kengaytiriladi. Bolalarni mehnat faoliyatining qiyinroq shakllariga undaydilar, berilgan ishga nisbatan mas'uliyat hissini shakllantiradilar, mehnatga qiziqish va muxabbatni rivojlantiradilar, uning natijasiga intiluvchanlik shakllanadi, atrofdagilar bilan birgalikda baravar ishlash ko'nikmalari shakllanadi, vazifalarni kelishi, teng taqsimlab ishlay boshlaydilar. Ishni tarbiyachining taklifi bilan emas o'zlarining hoxishi bilan bajarishni boshlaydilar.

Bolalar o'simliklarning o'ziga xos xususiyatlari, ularni ekish va parvarish qilish haqida ma'lum bilimlarga egalar. Shuning uchun b davrda tabiat burchagidagi mehnat faoliyatini bajarish ko'nikmalari orttiriladi.

6 yoshli bolalar tarbiyachining eslatishlarisiz o'zlari gullarga suv quyish kerak ekanligini bilishlari kerak. Ular o'simlikning tashqi ko'rinish xususiyatlariga qarab ularni bajaradilar: ularni ko'zdan kechiradilar, barglari, shoxlari va tuproqni ushlab ko'radilar. Guruhga yangi o'simlik olib kelishda bu xususiyatlarni inobatga olish juda muhim. Tarbiyachi bolalar bilan birga uni ko'zdan kechirishi, gulning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirishi lozim. Shu holda bolalar ishga mas'uliyat bilan yondashadilar.

Tarbiyachining nazorati ostida bolalar nafaqat sug'orish kerakligini, balki aynan qaysi o'simliklarni sug'orish kerakligini anglaydilar. Lekin bolalarga shuni ham aytib o'tish kerak, ba'zi o'simliklarni tashqi ko'rinishlariga qarab sug'orish kerakligini bilib bo'lmaydi, masalan kaktus.

Uni kuzatib bolalar u doim tikka turishini, suvsiz ham ko'p vaqt yashay olishini bilib oladilar.

Sug'orish turli usullarda amalga oshiriladi: eshitib idrok etish asosida, gul tuvagiga chertib ko'rganda chiqadigan ovozga ko'ra (jarangdor tovush quruq yerdan, bosiqliq tovush nam yerdan chiqadi), ushlab ko'rish, tuvakning haroratiga ko'ra (quruq yer iltij, nam yer sovuqliq bo'ladi). Birinchi o'rinda suvsevar gullar sug'oriladi, tagidagi likopchasida suv ko'rinmaguncha quyiladi.

Agar o'simliklar katta tuvalarda bo'lsa, suvning miqdori yerning xususiyatiga qarab aniqlanadi. Tarbiyachi bolalardagi mehnatga nisbatan yangicha yondashuvlarni rag'balantirib, ularda o'simliklarga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirishi kerak.

Bolalarda yerni yumshatish ishlari ham qiyinchilik tug'dirmaydi. Yerni yumshatishdan oldin zarur bo'lgan alomatlarini tuvakdagi yerni kuzatish orqali anglaydilar. 7 yoshli bolalar to'g'ri yumshatish ko'nikmalarini hosil qilgan bo'ladilar: tayoqchani musht qilib yoki qalamdek emas, balki yuqori qismidan ushlaydilar. Tayyorlov guruhlarida mehnat ko'ikmalarini tarbiyalash tizimli tarzda tabiat burchagidagi ishlarni bajarish bilan davom ettiriladi.

O'simliklarni o'stirish bo'yicha mehnat faoliyati odamlarga quvonch ulashish ishtiyoqli bilan bog'liqli bo'lishi kerak (sakkiz marotaba turli gullarni o'stirish, boshqa guruhlar, ayniqsa kichik guruhlarining gullarini ko'paytirish uchun). Bolalar ekiladigan materiallarni extiyot qilishlari, ularning ko'nikmalariga o'simlikning o'sishi bog'liqligini tushunishlari kerak.

Ekib bo'lgach yosh novadalarini parvarish qilish qoidalarini gaplashib oladilar.

Bolalar o'zlarining yutuqlarini uning to'g'ri bajarishlari bilan bog'lashlari uchun, tarbiyachi yangi ekilgan o'simliklarni kuzatishni taklif qiladi, agar barglarni chiqarishni boshlasa demak o'simlik yashab ketgan.

Xona gullarini bolalar ularning orasida ortiqcha o'tlar yo'qligiga ham tekshiradilar va tarbiyachiga ularni tozalashga yordam beradilar. Bu yoshdagi bolalarni o'simliklarni oziqlantirishga ham o'rgatish kerak. Bolalarga o'simliklarni o'sishi va rivojlanishi uchun ularning ahamiyatini, ko'rsatib berish orqali ularni oziqlantirish usullari shakllantiriladi. Masalan, bolalarga urug'larni qanday yetilishini ko'rsatish mumkin. Agar ildizlari sog'lom bo'lib, yerga yopishib qolmagan bo'lsa u holda shu tushakning o'ziga o'rganilgan o'simliklarni ekish mumkin. Agar ildizlari tuvakka tiqilib qolgan bo'lsa u holda kattaroqli bo'lgan idishga o'tkazib ekish tavsiya etiladi.

Ba'zi o'simliklarni kuz faslida hovlidan xonadagi tabiat burchagiga olib kiriladi. Fevral oyida esa qor ostida qolgan ba'zi piyozli o'simliklarni tabiat burchagiga olib kirib ularni uyg'otiladi. Qayta ekilgan o'simliklar tezroq va yaxshiroq o'sa boshlaydilar.

Fevral oyida shuningdek ba'zi gullarning urug'ini qog'oz stakanchalarga ekish ham mumkin, ularni ko'chat qilib so'ng tuvaklarga yoki hovliga ekiladi. Jonivorlarni parvarish qilish ishlari ham davom etadi, bolalar quyonlar, qushlar, qurbaqa va toshbaqalarni parvarish qilish va oziqlantirishni davom ettiradilar. Bolalar tabiat burchagidagi barcha jonzotlarni o'ziga xos xususiyatlarini bilishlari juda muhim.

Mehnat jarayonida bu yoshdagi bolalarning jonivorlarni parvarish qilish bo'yicha qoidalariga amal qilish davom etadi. Bu qoidalarda nima qilish, qanday qilish va nima uchun qilish kerak degan savollarga javob yotadi. Qoidalar bolalarni xato qilishdan saqlaydi, lekin ular to'siq ko'rinishida bo'lmasligi kerak; ular bolalarni mantiqiy xulosaga olib keladi: nima uchun shunday bajarish kerak.

Tarbiyalanuvchilar ularning parvarish qilishlariga tabiat burchagidagi jonivorlar tobe ekanligini anglaydilar. Bu ularning mehnatni bajarish zaruratini, maqsadga intiluvchanlik va mas'uliyatini orttiradi. Masalan kabutarlarning polaponlari paydo bo'ldi. Tarbiyachi bolalarga endi kabutarlarni yanada yaxshiroq parvarish qilish kerakligini, ularning suvi va donini borligini tekshirib turish kerakligini tushuntiradi, chunki endi kabutar faqat o'zini emas balki polaponlarining ham qornini to'ydirishi kerak. Bolalar jonivorlarni parvarish qilishlarida ularning nima yeyishlariga e'tibor qaratishlari va ularga o'zlari yeydigan ovqatlarni tayyorlashlari kerak. Tarbiyachi mashg'ulotlar mobaynida bir nechta bolalar bilan terrariumni tozalashni ko'rsatadi. Qolgan bolalar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan mashg'ulotda ishtirok etadilar. Tarbiyachi bunday mashg'ulotlarda terrariumda yashovchi qurbaqa va kaltakesaklarni qaerdan topib va keltirishganini, ular qanday sharoitda yashaganlarini eslab, ularga shunday sharoitlarni yaratishga harakat qiladilar.

Bolalarni terrariumni tozalikda saqlashga undaydilar: chiqindilarni olib tashlaydilar, terrarium oynalarini nam sochiq bilan artib turadilar. Terrarium sifatida eski akvariumni ham qo'llash mumkin, faqat ustiga qopqoq bilan yopib qo'yib. Shuningdek faner qutidan ham foydalanish mumkin, uning bir devori o'rniga oyna qo'yib, qopqog'i o'rniga sim setka bilan yopish mumkin. Bir tomonidan 1-2 sm diametrli o'yiqlar qilish mumkin, ulardan tirik pashshalar kirib kaltakesak va qurbaqalar oziqlanishi mumkin. Ostiga yirik dengiz qumi, yarmiga tuproq solib ekinlar ekib qo'yish mumkin.

Terrariumda kaltakesak va qurbaqalar uchun kichik xovuz ham kerak. Shuningdek ular yorug' va issiqdan berkina olishi uchun ham joy kerak.

Bolalar sayrdan qum, tuproq, ozuqa va hashorotlarni yig'ib keladilar. Ular bu jonivorlarni ham tabiat burchagida, ham tabiiy sharoitlarda kuzatadilar; masalan kaltakesak iliq havoda ovqatlanishini, qurbaqa esa tirik hashorotlarni yeyishini va x.k. Toshbaqalar uzoq hayot kechirishini, qishda uxlashni yoqtirishlarini, sabzi, karam, olma yeyish va sut ichishini biladilar. Quyunchalarni parvarish qilib, ular bolalarini parvarish qilishlari uchun tinch joy kerakligini, ularni somon bilan berkitib boqishlarini bilib oladilar.

Bolalarda mehnatga nisbatan muxabbatni saqlab qolish, kattalarning va do'stlarining mehnatini hurmat qilishni saqlab qolish kerak. Ular bajariladigan ishga hissiy va psixologik jixatdan tayyor bo'lishlari uchun imkon qadar kattalarning mehnat samaradorligini ko'rsatib berish muhim. Bolalar bilan turli hiyobon va bog'larga, ekinzorlarga sayrlar ham uyushtirish mumkin. Bolalar xaqiqiy katta egatlar qanday bo'lishini katta miqdordagi o'simliklar qanday eqilishini ko'rishlari mumkin. Issiqxonalarda bolalarga o'simliklar va ekinlarni o'sishini ko'rish mumkin. Issiqxona ishchilaridan ekinlarning xususiyatlarini aytib berish, ularni ko'rsatishni ham iltimos qilish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti yer maydonchasidagi kundalik ish faoliyati ma'lum ko'rinishlarga qarab guruhlariga ajratiladi va mehnat jarayonlari ketma ketligi aniqlanadi: ekin uchun yerni tayyorlash; ekinlarni va urug'larni ekish; parvarish qilish; xirmonni yig'ish va undan foydalanish. Ekinzorda mazkur guruh bolalari bilan ishlarni boshlashda yerni chopig'idan boshlash kerak. Katta guruh bolalari kabi tayyorlov guruhlari ham ishlarni rejalashtirishda, ularni amalga oshrishda ishtirok etadilar, lekin deyarli qiyinchiliklarga uchramaydilar. Asosiysi tarbiyachi ular bilan ishlab, bilimlarini mustaxkamlab borishi kerak.

Tayyorlov guruhi bolalarida ishini bajarisha mustaqillik va mas'uliyatni oshirish uchun mehnatni taqsimlash mumkin. Yerlarni tayyorlash bo'yicha boshlang'ich ishlarda guruhdagi bolalarni bir nechta guruhlariga ajratib, bir xil hajmdagi ishlarni yuklash maqsadga muvofiq.

Urug'larni ekishda quruq va namlantirilgan urug'larni ekib solishtirish mumkin, bunda namlantirilgan ekinlarning o'sishi tezroq va jadalroq amalga oshiriladi.

Tarbiyachining bolalarni o'simliklar bilan tanishtirishdagi eng asosiy masala bu malaka hisoblanadi. Ular bolalar mustaqil tarzda ekinlarni ko'zdan kechirishlari, nima uchun u yoki bu holat yuzaga kelishi anglashlari,

yangiliklarni mustaqil o'zlashtirishlari mumkin, bu faoliyatni rivojlantirishning muhim asosi hisoblanadi.

Bolalar o'simlik va jonivorlarni hayotiy zarur ko'nikmalarini o'zlashtirishlarida ularni bunday sharoitlardan mahrum qilishlari mumkin emas. Bunday usullar tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatga qarshi munosabat hisoblanadi. Yanada yaxshiroq natijalarga erishish uchun bu yoshdagi bolalarda aralash tarzda ekinlarni ekishni o'tkazish mumkin. Rediska avvalroq yetiladi va uni yig'ib bo'lgandan so'ng sabzi kuchga kirishni boshlaydi. Bolalar urug'larni turli usullarda sepadilar.

Novdalarni ekishda avvaliga bolalarga osonroq usullarini o'rgatish lozim: masalan tayyor qutichalardagi o'simliklarni, bu qutichalar o'zlari ekilganda chirib ketadi, so'ng tuxum po'stlog'idagi ekinlarni, undan keyin esa tuprog'i bilan ekishni o'rganadilar.

Yirik bargli va tanasi bilan baquvvat ko'chatlarni nozik ko'chatlarga qaraganda ekish osonroq. Ayniqsa karamlarni ekish juda qiyin. Uni tuproq bilan to'liq yopib bo'lmaydi. Ko'chatlarni ekishning usullarini bolalar bilishlari lozim.

Bolalar bu usullarni sekin asta o'zlashtirib boradilar. Bolalar ko'chatlarni issiqdan himoya qilishda ularning ustini qog'oz qalpoqchalar bilan yopadilar, sug'oradilar va yerini yumshatib boradilar.

Shu tariqa bolalar o'zlari yerning suvni singish xususiyatiga qarab sug'orishni boshlaydilar. Ularning aytishicha karam ekilgan egatlarda suv tez singib ketadi, kartoshka ekilgan egatlarda esa suv sekinroq singadi.

Yerni yumshatishda bolalar katta qiyinchiliklarni ham boshdan kechirmaydilar, lekin ishni boshlashdan avval ular bilan ekinlarning eqilishi to'g'risida gaplashib olish kerak: bir biridan alohidami, yoki yaqin ekilganmi. Bundan tashqari, o'simliklarning ildizi qanday chuqurlikda joylashganini bilish kerak. Bu tashqi va ichki alomatlariga qarab bolalar o'zlarining harakatlarini boshqaradilar. Ular ma'lum ishga tegishli bo'lgan ish qurollarini tanlaydilar.

Bolalar egatlarni ular o'sishining turli bosqichlarida amalga oshiriladi, ularning turlari bilan qiziqadilar. Shuning uchun ularni bir vaqtning o'zida ekinlar va yovvoyi o'tlarni ajratishga o'rgatish lozim.

Sekin-asta ish jarayonida ular eng kichik farqlariga qarab ham ajrata boshlaydilar; masalan, xidli moychechakning barglari xidsiz moychechaknikidan farq qilishini anglaydilar; sabzining barglari yam yashil va x.k. bu shundan dalolat beradiki, tayyorlov guruhi bolalar ekinlarni yovvoyi o'tlardan tozalash bo'yicha ish jarayonida eng kichik farqlarga



Bolalarni zararkunadalar bilan kurashishga o'rgatish mumkin: sovunli suvlar bilan yuvish yoki ularni qo'l bilan yig'ib chiqish. Bolalarda jizzakilik va yomon sifatlarni yuzaga keltiruvchi usullarni qo'llashga yo'l qo'ymaslik kerak.

Tayyorlov guruh bolalari parvarish qilish usullarini bilganliklari sababli, ularga doimiy tarzda eslatib turish shart emas. Ularni ba'zi yangi gullar va ularning rivojlanishi bilan tanishtirish mumkin.

Sentyabr boshida piyozli o'simliklarni ekiladi. Oktabr oylarida ko'p yillik o'simliklarning piyozlarini kavlab olib, ularni tekshirib, qutiga teriladi, ustidan tuproq sepib qorong'i yer to'laga saqlab olib qo'yiladi.

Bolalar ba'zi o'simliklarni butalab o'tkaziladi. Kuzda ularga o'simliklarning yetilgan urug'larini yig'ib olishni o'rgatish kerak. Oktabr oyi boshida-gullaydigan o'simliklarni (fleks, vodosbor, delfinium va boshqalar) eqilishini, noyabrda poliz ekinlarini ekishni (petrushka, sabzi, ukrop, salat barglari, shavel va boshqalar) amalga oshirish mumkin. Qish faslida bolalar egatlarda qor bo'lishini kuzatib boradilar.

Bolalar bog'ni parvarish qilish bo'yicha barcha mehnat jarayonlarida ishtirok etadilar. Mevali bog'larda ish yil mobaynida amalga oshiriladi. Bahor faslida bog'ni chiqindalardan tozalaydilar, yangi nihollarni sug'oradilar, tarbiyachiga yordam beradilar.

Erta bahorda bolalar bog'ni parvarish qilishning yangi jarayonlari bilan tanishadilar: daraxtlarni oqlashni, ortiqcha shoxlarni kesishni boshlaydilar. Bolalarga har bir ishning zaruratini ko'rsatib va tushuntirib berish kerak: qurigan shohlarni va quyosh nuri tushishiga xalaqit beradigan ortiqcha shohlarni kesish kerak. Bolalarga ortiqcha shohlarni qanday kesish kerakligi tushuntiriladi, shu holda mevalar yirik va mazali bo'lib pishadi. Shuningdek bolalarga barglarni to'plash va yoqish ishlari ham tushuntiriladi. Bolalar yerga to'kilgan qurigan, dog'lar tushib ketgan barglarni to'plab tayyorlab qo'yilgan chuqurga to'kiladi. Chunki zararkunanda qumirsqalar aynan barglar ostida berkinadilar va bog'ga zarar yetkazadilar, shuning uchun ularni to'plash va tashlab yuborish kerak.

Yozda qurigan shohlarni, barglarni yig'ishtiradilar, agar kerak bo'lsa butalar va daraxtlarni sug'oradilar, xirmonni yig'ishda ishtirok etadilar, ekinlarni tagini yumshatadilar.

Kuz faslida qulupnay ekish uchun tarbiyachi bilan birgalikda egatlarni tayyorlaydilar: yerni 20—25 sm qilib kavlaydilar, xokondozecha bilan chuqurlar kavlaydilar bir biridan 20 sm uzoqlikda, chuqurlarga qulupnay chirindilarini soladilar, ustidan tuproq sepib, ko'chatning atrofini maxkam yopib chiqadilar va zararkunandalarni terib tashlayilar. Tarbiyachi

zararkunandalarni qanday qilib topish va bartara etish mumkinligini ko'rsatib beradi.

O'simliklarni qishga tayyorlash bo'yicha kattalarning ishlarini kuzatish bolalarda, bog'bonlar o'simliklarni asrab avaylashda muammolarni boshdan kechirishlari uchun sharoit yaratishlarini tushunadilar. Bolalar bilan daraxtlar va butalarni qishki fasllara yopish ishlarini bir necha marotaba kuzatish kerak, ular qish faslida agar yer yalang'ochlanib qolsa xatto eng katta daraxtlarning ildizlari ham muzlab qolishi mumkinligini tushunishlari lozim.

Bolalarning bu mavzular bo'yicha bilimlarini tekshirish uchun quyidagicha savollar berish mumkin: buni nima uchun qilish kerak? Qanday bajarish kerak? Shu asosda tarbiyachi bolalar ishning moxiyatini yaxshi tushunganliklarini, to'g'ri bajarayotganlarini tushunadi. Bolalar nafaqat barglarni daraxt ostiga to'plash kerakligini, balki xaddan ziyod ko'p barglar ham zarar yetkazishi mumkin ekanligini tushunishlari lozim; ko'p miqdorda qor yoqqanida daraxt shoxlari og'irlikni ko'tara olmay sinib ketishi mumkin, shuning uchun shoxlardagi qorlarni tushirib turish kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining maydonini qordan tozalab turish bolalarning doimiy ish faoliyati bo'lishi kerak. Qor yog'ganidan so'ng bolalar jamoaviy tarzda maydonni tozalash mumkin: bir guruh bolalar qorlarni yig'adilar, boshqalari chang'ilarda tashib ketadilar, uchinchi guruh esa supurgilar bilan tozalaydi. Bolalar shuningdek butalarni ham qishga tayyorlaydilar: masalan maymunjon butasini bog'lab yuqori qismini yerga qaratib bog'laydiar, bu ularni sovuq urushidan saqlaydi.

Yosh novdalarni ham sovuqdan va kemiruvchilardan saqlash kerak, kemiruvchilar daraxt poyasi va shoxlaridagi po'stloqni yeyishadi. Butalarni avval quruq barglar bilan yopishadi, ular sovuq urushidan saqlaydi.

Tarbiyalanuvchilar tabiiy sharoitda ham tabiatning holati odamlarning faoliyatlariga bog'liq ekanligini tushunishlari kerak. Tarbiyalanuvchilarga bog' va o'rmonlar to'g'risida bilim berilganda, ularning nafaqat faslga oid o'zgarishlari va jonivorlar uchun tabiiy yashash makoni ekanligini aytish, balki o'rmonlarni asrash bo'yicha ham bilimlarni berish kerak. Bu bolalarda o'rmonga nisbatan munosabat va u yerda o'zini tutish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bolalar o'rmondagi daraxtlar yaxshi o'sishi va yetilishi uchun u yerdagi qurigan shoxlarni kesish va yig'ishtirish kerakligini bilishlari lozim.

#### **4. Yer maydonchalarida hayvonlarni saqlash uchun shart-sharoitlar**

**Tayanch iboralar:** yer maydonchasi, hayvonlarni saqlash, donxo'rak, qafas, parvarish qilish, yil mavsumi.

Yer maydonchasida bahor, yoz oylarida jonli tabiat burchagi tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining tabiiy sharoitini hisobga olgan holda, jonli tabiat burchagida quyonlarni, tovuqlarni, o'rdaklarni boqib parvarish qilish mumkin. Bu bolalar jonivorlarni parvarish qilish, ko'nikma masalalarini tarbiyalash, ularga nisbatan g'amgho'rlik munosabatlarini chuqurroq tarbiyalashga yordam beradi.

Maydoncha, maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar uchun yil mavsumi va fasllarning o'zgarishini kuzatadigan eng qulay joydir. Tarbiyachi bolalarni maydonchaga olib chiqib, tabiatda bo'ladigan o'zgarishlar, uning sabablari, qishlab qoluvchi va uchib ketuvchi qushlar bilan tanishtiradi. Bir so'z bilan aytganda, MTT maydonchasi bolalarning har tomonlama rivojlanishida jonli va jonsiz tabiat bilan tanishishida, o'z ona-Vatanini sevishda uni muhofaza qilish. Hayvonlarni asrash va ko'paytirishda ta'lim - tarbiya oladigan ilk maskan hisoblanadi.

**Qushlar uchun donxo'raklik va inlar yasash.** Maktabgacha ta'lim tashkiloti hovlisidagi qushlarni butun yil davomida kuzatish mumkin. Qushlarni jalb qilish usullaridan biri ularni hovlida boqishtdir. Kuz fasli yaqinlashgan sari chumchuk, karga, katta chittak, sava singari qushlar odamlar yashaydigan joylar yaqiniga uchib kela boshlaydi. Xuddi mana shu vaqtlarda hovlida donxo'rak va uyalarni o'rnata boshlash kerak. Eng oddiy donxo'rak - don tokchasidir (xajmi 50x60 sm, chetlari bir oz ko'tarilgan taxta). Uni daraxtga, deraza, yogochga osib qo'yish mumkin. Qushlarni derazadan boqishda ularni xonada ko'rib turish imkonini beradigan donxo'raklar qulaydir. Qushlar bu vaqtda o'zlari yaxshi ko'rinib tursalarda, kuzatilayotganliklarini sezmaydilar. Bunday donxo'rakni 1 litir shisha bankadan qilish mumkin. Yonboshlatib ayvon panjarasiga bog'lab qo'yilgan bunday shisha banka deraza donxo'ragi o'rnida qo'llaniladi.

Qushlar xilma-xildir. Bu yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar - qayin, otquloq urug'i va mevalaridir. Qovoq, tarvuz, urug'lari ham qushlar uchun yaxshi ozuqadir. Bu ozuqalarni katta chittak sevib yeydi. Chittaklarni qishdagi sevimli ozuqalari tuzlangan yog'dir. Qushlar oq non ushoqlarini ham yaxshi ko'rib yeydilar.



1-г'уш карга



2-сарга



3-кичик сарга



4-майна



5-спетир

Sun'iy inlar. Hovlida sun'iy inlarni ommaviy o'sish chittak, chug'urchuk, hashorotxo'r kabi qushlarni jalb qilishda yaxshi natijalar beradi.

Chittak va chug'urchuk uchun inlar ko'pincha taxtadan tayyorlanadi. Inning o'lchami uch ko'rsatkich bilan: tubining maydoni, chuqurligi (tagidan tuynugigacha bo'lgan oraliq) va tuynugining o'lchamiga ko'ra aniqlanadi. Chug'urchuqlar inining eng qulay o'lchami – 14 x14 sm, hashorotxo'rlarga - 9x9sm, chittaklarga esa - 12x12 sm dir. Chittak va chug'urchuqlarga in yasashda taxtaning qalinligi 1,5 sm yoki yaxshisi 0,5 sm bo'lgani ma'qul. Inni fanerdan yasash yaramaydi.

Yaxshi inlar quyidagi talablarga javob berishi kerak: in mustaxkam bo'ilishi, teshiklar qoldirilmasligi, tayyorlash usuli sodda. Taxtalarning faqat tashqi tomonini ranglash lozim, chunki ichki tomoni ranglansa, qushning silliq devordan chiqishi qiyin bo'ladi. Tuynuk in tomiga yaqin bo'lishi zarur. Bu oraliq taxminan tuynuk diametriga teng.

Inning tuynugi dumaloq, tomi esa olinadigan qilinadi. Qushlar inga yaxshi joylashishlari uchun ularni to'g'ri osish muhimdir. Inlar yoz va kuz faslida osiladi. Qushlar uchun inlar juda zarur chunki qishlovchi qushlar sovuq tunda shu yerda jon saqlaydi. In tuynugining yo'nalishi turli qushlar uchun turlichadir.

## VIII BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TABIAT BILAN TANISHTIRISH ISHLARINI REJALASHTIRISH

**VIII.1. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini tashkil etishda rejalashtirishning ahamiyati.**

**1. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini tashkil etishda rejalashtirishning ahamiyati.**

**Tayanch iboralar:** rejalashtirish, rejalashtirishning ahamiyati, psixik rivojlanish, aqliy tarbiya vazifalari, yillik reja, istiqbolli reja, kundalik reja.

Rejalashtirish tarbiyachiga pedagogik jarayonni tashkil etishda, ma'lum bir guruh bolalarining yosh va individual xususiyatlariga mos kelishi, tarbiyalanuvchi shaxsini shakllantirishga ko'maklashishini inobatga olishga yordam beradi.

"Tabiat bilan tanishishtirish" bo'limi bo'yicha ta'lim tarbiyaviy ishni rejalashtirishning maqsadi: bilimlar tizimini shakllantirish; bilimlar tarkibini sekin asta oshirish; amaliy ko'nikma va malakalarni, bilish faoliyati usullarini shakllantirish. Bir vaqtning o'zida tarbiyachi bolalarning psixik rivojlanish qonuniyatlarini, bilimlarini shakllanish bosqichlarini, hozirgi kunda shakllanayotgan aniq bilimlar tuzilmasini, shuningdek o'rganilayotgan tabiiy hodisalarni inobatga oluvchi, metod, usul va shakllarni maqsadli tanlashni amalga oshiradi. Tarbiyachi bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishlari tizimida aniq tuzilma, metod va shakl uchun joy topadi. Aynan shu holat bilimlarni tizimlashtirish va bilish faoliyatining zaruriy usullarini rivojlantirish imkonini beradi.

Ishlarni rejalashtirish tabiatdagi mehnat, sayr, tabiat qo'ynidagi mashg'ulotlar o'rtasidagi aloqalarni ta'minlashga yo'naltirilgan. Kundalik hayotimizda to'planadigan tabiat to'g'risidagi tasavvurlar sekin asta mashg'ulotlar davomida tizimlashtirilib, umumlashtirilib boradilar. Shu bilan birga o'zlashtirilgan bilimlar bolalarning o'yin, mehnat faoliyatlarida qo'llaniladilar. Egallangan bilimlar asosida bolalarda tabiatga nisbatan muxabbat va g'amxo'rlik munosabati shakllantiriladi.

Tabiat bilan tanishtirishni rejalashtirishning ahamiyati shuningdek dasturning boshqa bo'limlari bilan aloqalarni o'rnatish natijasida ta'limiy tarbiyaviy vazifalarni kompleks xal etishni ham o'z ichiga oladi. Tabiat bilan, san'at va musiqiy faoliyat bilan tanishtirishdagi hamkorlik samarali

estetik tarbiyani ta'minlaydi. Tabiat bilan tanishtirishda nutqni rivojlantirish aqliy tarbiya vazifalarini xal qilishga yordam beradi.

Rejalashtirishning tarkibi va shakllari. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishlari uch xil shaklda amalga oshiriladi: a) maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik rejas; b) faslchilik istiqbol reja; v) tarbiyachi ishining kalendar rejas.

**Yillik reja.** Bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishlarini rejalashtirish maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbari va katta tarbiyachi hamkorligida 1 yilga tuziladi. Rejalashtirishdan avval tashkilot rahbari va katta tarbiyachi avvalgi yilning ishlarini to'liq tahlil qilib olishlari lozim. Tahlil natijasida quyidagi savollarga aniq va obyektiv javoblarni olishlari lozim: maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari tomonidan umuman va ularning har biri tomonidan tegishli bo'limlar asosida tashkilot dasturi qanchalik o'zlashtirilganligi? Bilish faoliyatining usullari, mehnat ko'nikma va malakalari, bilimlar darajasi qay darajada o'zlashtirilganligi? Tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabat shakllanganmi? Tabiatga nisbatan qiziqish qay darajada tarbiyalangan?

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tabiat bilan tanishtirish ishlarining umumiy holatini chuqur o'rganish asosida (tashkilotda tabiat burchagining mavjudligi; bolalar bilan ishlashda foydalaniladigan didaktik vositalar; har bir yosh guruhida ishning kalendar rejasining umumiy holati; tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachilarning malakasi) bolalarni rivojlantirishda ijobiy natijalarga olib keluvchi aniq pedagogik sharoitlar aniqlanadi.

Agar kamchiliklar aniqlangan bo'lsa, ularning sabablari ham aniqlanadi. Ishlarning real holatini tushunish, yuzaga kelgan holatning sabablarini anglash, umumiy holatning taxlili bir yillik vazifalarni tuzishga yordam beradi. Keyinchalik maktabgacha ta'lim tashkilotini pedagogik jarayonini umumiy holatda mukammallashtirish ishlari ko'zda tutiladi. Shu tariqa tarbiyachilarning birida tabiiy vositalar yordamida bolalarga tarbiya berish pedagogik malakasi borligiga ko'ra uni butun tashkilot amaliyotiga singdirilishi rejalashtiriladi. Tarbiyachining bolalar faoliyatini boshqarish ko'nikmalarida kamchiliklar sezilganda, ularning malakasini oshirish ko'zda tutiladi. Asosiy savollar sifatida quyidagilarni ko'rish mumkin: "Bolalarda tabiat borasidagi bilimlarni tizimli shakllantirish" "tabiat bilan tanishtirishda faol metodlardan foydalanish", "bolalarni tabiatga ehtitkorona munosabatini tarbiyalash" va boshqalar.

Yillik rejada tabiat bilan tanishtirishning ishlarini samarali bo'lishishida aniq yo'llar belgilanadi: tarbiyachilarning malakasini oshirish maqsadida seminar va maslaxat ishlarini tashkil etish; ish malakalari

muxokama qilinadigan pedagogik kengashlar (“Maktabgacha ta’lim tashkilotining katta guruhlari bolalarida tabiatni asrash munosabatini tarbiyalash” mavzusida masalan); ochiq tadbirlar; turli yosh guruhlarida dasturni o’zlashtirishni nazorat etishni tashkil etish; tabiiy vositalar yordamida bola shaxsini shakllantirishda ota onalar bilan hamkorlik ishlarini tarkibi va shakli.

Har yili tashkilot maydonini ko’kalamzorlashtirish, tabiat burchagini kuzatish bo’yicha sharoit yaratish, tashkilotni metodik qo’llanmalar bilan boyitish rejalashtiriladi.

Yillik reja vazifalari va ularni amalga oshirish yo’llari tarbiyachilarning har bir yosh guruhidagi ish rejalari bilan uzviy bog’liq.

Tabiat bilan tanishishning faslchilik istiqbol rejasini tuzish maqsadga muvofiq bo’ladi. Buni katta tarbiyachi qolgan tarbiyachilarning hamkorligida tuzadi. Istiqbol rejaning ahamiyati topshiriq, metod va usullarni sekin asta murakkablashtirib borishga yo’naltirilgan holda bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishlarini tizimlashtirishdadir. Bunday rejalashtirishning zarurati shundaki, ko’pchilik tabiat hodisalarini (masalan, ob havoning holati, suvning agregat holati, hayvonlar va boshqalar) aniq muddatga qarab aniqlab bo’lmaydi.

Istiqbol rejada quyidagilarni aniqlash va konkretlashtirish lozim:

1. Ma’lum guruhda tabiat bilan tanishtirish ishining har bir fasl uchun rejalari;

2. Ma’lum davrda shakllantirilishi zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning tarkibi;

3. Yetakchi metod va dastur vazifalaridan iborat mashg’ulotlar;

4. Bolalar faoliyatini boshqarishning asosiy usullarini ko’rsatilgan holda tabiat burchagi va tabiat qo’ynidagi sayoxatlarning tarkibi va ularning kuzatuvlari;

5. Mashg’ulotlardan tashqari tabiat bilan tanishtiruvchi didaktik o’yinlar;

6. Qo’shimcha adabiyotlar.

Istiqbol rejalari tarbiyachiga kalendar rejani tuzishda yordam beradi.

Tarbiyachining kalendar rejasi bo’yicha tabiat bilan tanishish.

Kalendar rejani tarbiyachi bir kun yoki bir haftaga tuzadi. Qisqa muddatga reja tuzish tarbiyachining ishini yengillashtiradi, lekin tabiat bilan tanishtirish ishlarida tizimlilikni yo’qotib qo’yish xavfini ham tug’diradi. Shuning uchun, ayniqsa ishini endi boshlagan tarbiyachi kalendar rejasini bir haftaga tuzish maqsadga muvofiq. Bu tabiatdagi o’zgarishlarni inobatga olish imkonini beradi. Kun mobaynida tabiat bilan tanishtirish ertalab

(nonushtagacha), mashg'ulot mobaynida, sayrda hamda kunning ikkinchi qismida.

Kunning birinchi yarmi. Ertalabki soatda – individual yoki kichik guruhlar bilan tabiat burchagini kuzatish, mehnat faoliyatini tashkil etish (faoliyat va navbatchilik), shuningdek tabiat faoliyatiga xos didaktik o'yinlarni o'tkazish uchun juda qulay vaqt.

Rejada faoliyat tarkibi, uning maqsadi yoritiladi (bilimlarni mustaxkamlash; bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha ishlar; axloqiy sifatlarni tarbiyalash: mas'uliyat, mehnatsevarlik, tabiatga extiyotkorona munosabat).

Bolalar faoliyatini tashkil etishni, ularni boqarishni materiallari, shakllari va usullari o'ylab chiqiladi.

Topshiriqlar. Mashg'ulotlarni rejalashtirishda uni o'tkazishni asosiy metodi, mashg'ulot tarkibi, dasturi aniqlashtiriladi. Ko'rgazmali material belgilanadi, bolalar bilan individual ish inobatga olinadi.

Sayr. Sayr jarayonida bolalarni tabiat borasidagi tasavvurlari boyitiladi, o'yinlarni tashkil etish uchun mehnat ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratiladi.

Tarbiyachi ob havoni, o'simliklar va hayvonlarni, odamlarni tabiatdagi mehnat jarayonlarini kuzatishlarini rejalashtiradi. Kuzatish kunduzgi va kechki sayrda amalga oshiriladi. Ular individual va guruhliy tarzda amalga oshirilishi mumkin. Rejada kuzatuv obyekti (masalan, bahorda qorning erishi), uning maqsadi (kunning ilishi va qorning erishi orasidagi bog'liqlikni aniqlash), asosiy usullarni (tashkilot maydonining hamma qismida qor eriyaptimi, nima uchun uyning orqa tomonida erimayapti), ko'rganlarni yozib borish usullari (kuzatish kundaligiga chizib borish). Har doim ham sayr jarayonida kuzatuv obyektini oldindan aniqlab bo'lmaydi: ob havoning o'zgarib turishi, jonzotlarni uchratish ehtimolining kamligi. Bunday vaziyatda kuzatish obyektini aniq ko'rsatmasa ham bo'ladi.

Mehnat jarayoni kunduzgi va kechki sayr vaqtlariga belgilanadi. Uning tarkibi, bolalarni tarbiyalash vazifalari, shakllantiriladigan mehnat ko'nikmalari va malakalari, bolalar faoliyatini tashkil etish usullari, mehnat faoliyati uchun jixozlar va boshqalar yoritiladi. Bolalar faoliyatini boshqarish, ularni murakablashtirish (masalan, tarbiyachi tomonidan mehnat faoliyatini rejalashtirishdan mehnat tarkibi va usullarini hamkorlikda rejalashtirishga) yo'llari aniqlanadi. Sayr jarayonida mehnat butun guruh bilan, kichik guruhlarda, individual tarzda amalga oshirilishi mumkin. Bu ham rejada o'z aksini topishi kerak.

### **Tabiatshunoslikka oid o'yinlarni rejalashtirish.**

Sayr jarayonida tabiat faoliyatiga xos o'yinlar va ulardan foydalanish ishlarini tashkil etishni nazarda tutadi. O'yinning nomini, uni boshqarish usullarini, qayta o'tkazish jarayonida murakkablashtirish yo'llarini rejalashtirish kerakdir. Aloxida bolalar bilan individual ishlashni talab etuvchi o'yinlarni ham o'ylab qo'yish kerak.

Kunning ikkinchi yarmi. Kunduzgi uyqudan kechki sayrgacha va undan so'ng bolalarni tabiat burchagidagi frontal mehnati, kichik guruhlarga bo'lib ishlash, didaktik o'yinlar, bolalar uchun tabiat bilan tanishtirish kitoblarini o'qish, tabiat haqidagi filmlarni ko'rish, tabiat bilan tanishtirishga bog'liq tadbirlarni tashkil etish rejalashtiriladi.

**Tabiat bilan tanishtirish ishlarini rejalashtirishda oila bilan hamkorlikni o'rnatish.** Rejalashtirish metodi yuqorida ko'rsatilganidek. Ota onalar bolalarni tabiat bilan taishtirishda turli vositalar asosida tarbiya berish bo'yicha ishlar rejalashtiriladi.

Tarbiyachi ishining kalendar rejasini maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik va istiqbol rejalari bilan bog'lash kerak. Bolalar tomonidan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini o'zlashtirilishini tashxislash. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ta'lim tarbiyaviy ishlarini mukammallashtirish vazifalarini to'g'ri aniqlab olish uchun tarbiyachi mazkur bo'lim bo'yicha bolalarning o'zlashtirgan bilimlarini inobatga olishi lozim. Bolalarning tabiat borasidagi bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirganlik darajasini aniqlash diagnostik metodikalar yordamida aniqlanadi.

**Tabiatshunoslikka oid ishlarni hisobga olish. Tarbiyachining tabiatga oid ishlarini xisobotining ahamiyati.**

Diagnostika bolalarni u yoki bu tomondan rivojlanishini aniqlashga yordam beruvchi qisqacha sinovlar. Shu bilan birgalikda diagnostik metodikalar yordamida dastur qaysi pedagogik vaziyat yordamida samarali o'zlashtirilganini (yoki aksincha) ham aniqlash mumkin.

Ta'lim tarbiyaviy jarayonni taxlil qilishda diagnostik metodikalarni qo'llash tarbiyachining ishini yanada maqsadli va natijaviy qiladi. Bolalarning tabiat borasidagi tasavvurlarini o'zlashtirilganlik holatini tekshiruvchi diagnostik metodlar pedagogika oid ilmiy-metodik adabiyotlarda yoritilgan.

Dasturni o'zlashtirish sifati to'g'risdagi xulosalar, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik sabablarini tushunish pedagog uchun guruhiy yoki individual ishlarni rejalashtirish uchun asos bo'ladi.

Shunday qilib, tabiatning hodisalari bilan samarali tanishtirishi uchun

ishlarni rejalashtirish sifati, qo'yilgan vazifalar va olingan natijalar o'rtasidagi muvofiqlikni o'rnatish ko'nikmalari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu tariqa, tarbiyachi o'zlashtirishi kerak bo'lgan eng muhim ko'nikma bolalarni dastur bo'yicha o'zlashtirishini diagnostika qilishdir.

### **Turli mavsumlarda bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishlari.**

#### **Kuz fasliga tavsifnoma**

Ob-havodagi o'zgarishlar. Kuzda harorat asta-sekin pasayib boradi, buning natijasida o'simlik va hayvonot dunyosi hayotida o'zgarish hamda susayish ro'y beradi (o'simlik barglari sarg'ayadi, to'kiladi, ba'zi qushlar uchib ketib, boshkalari uchib keladi va xokazo).

Sentyabr kuz faslining birinchi oyidir, biroq O'zbekistonda sentyabr oyida ham yoz faslidagidek issiq bo'ladi. Sentyabr oyida havo issiq bo'lib, kechalari xarorat +7 darajagacha tushib ketadi. Kunduz kunlari esa +20 - +25 darajagacha ko'tariladi.

Oktabr odatdagidek kuz oyi hisoblanadi. Bu oyda o'lkamiz quyoshli, issiq va quruq bo'ladi, kunning birinchi yarmida harorat +7 +10 daraja bo'ladi, kunduz kunlari +15 +23 darajaga, ba'zi hollarda esa +27 darajagacha ko'tariladi.

Ana shunday juda issiq vaqtlarda o'simliklar, ayniksa, binafsha, dastagul va boshqalar ikki marta gullaydi.

Hayvonlar dunyosida ham bahorgi hodisalarning takrorlanishini ko'rish mumkin: g'urraklar g'urullay boshlaydi, to'rg'aylar sayraydi, qurbaqalar qurullaydi, ba'zi bir hashorotlarda esa kuzgi urchish boshlanadi.

Oktabr oyining ikkinchi yarmida harorat odatda pasayadi, ertalab +3 +5 daraja bo'lib, kunduz kunlari esa +16 +20 darajagacha ko'tariladi. Uzoq yillik tajriba shuni ko'rsatadiki, o'simliklarning katta qismini va ayniqsa, qishloq xo'jalik o'simliklaridan paxta, kartoshka, pomidor, bodring va boshqalarni sovuq uradigan ayozlar o'lkamizda taxminan 12-8 oktabrlarda boshlanadi.

Sovuq tushishi - bu haroratning qisqa vaqtli pasayishi bo'lib, yer qatlamlari va yer yuzasining ustki qatlamlari 0 darajadan pastroq bo'ladi. Ana shunday dastlabki ayozlar kuz faslining boshlanganidan dalolat beradi. Shimoliy kenglikdan sovuq shamol esa boshlashi bilan sovuqlar boshlanadi. Sovuq darajasi joyni relyefiga va tuproqning issiqligiga bog'liq bo'ladi.

Odatda, sovuq tushganining dastlabki kuni kunduzi ba'zi hollarda esa tunda havoning bulutli bo'lishi kutiladi. Agar kechasi osmon bulutsiz bo'lsa, yer ustki qatlamlarining bug'lanishi natijasida yerning yuza qatlami muzlaydi. Bunday sovush yer qatlamlari tegib, havoning haroratini yanada ko'prok pasaytiradi. Sovuqni dastlabki to'lqinlari o'zi koplagan barcha

xududni o'zgina muzlatadi, u faqatgina past joylarga tarqaladi va bir-ikki kun davom etadi. Agar xavo to'liqining harorati 0 darajadan past bo'lsagina, muzlash barcha xududga yoyilishi mumkin. Shunda tuproq va o'simliklar ustki qatlamlariga ertalabki shudring tushadi.

Ba'zi vaqtlarda oktabr oyida kuchli va sovuq shamollar aralash yomg'irlar boshqa daraxtlarning barglari ayrim hollarda qattiq sovuq tushgunga qadar ham ko'm-ko'k bo'lib turadi.

Qushlar va hashorotlar hayotidagi o'zgarishlar. Sentyabr-oktabr oylarida o'lkamizga go'ngqarg'alar uchib kelishadi. Biz ularni bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti bog'larida ham ko'ramiz. Ular bizga tog'lardan tushib uchib kelishadi (bu qushlar bahor va yoz fasllarida tog'larda yashaydilar).

Go'ngkarg'alar kunduz kunlari dalalarga uchib ketishadi va hosil yig'ib olingan ekin maydonlaridan don va turli begona o'tlarning urug'larini terib yeydilar. Qarg'a turli qoldiqlarni yeydi. Toshkentning chekka joylarida sentyabr o'yining ikkinchi yarmida qizilqushlar (o'rmon sayroqi qushi) paydo bo'ladi. Ba'zan ular Toshkent bog'larida aprel oyining oxirigacha bo'lishadi. Odatda ular to'da-to'da bo'lishib O'zbekistonning xavzalarida ko'chib yuradi. Sentyabr oyida qorayaloqlar, chittaklar va issiq mamlakatlarga uchib ketayotgan tilla rangli qushlarni ko'rish mumkin.

Tog' o'rmonlaridan vodiylarga tushib kelgan zag'chalarning katta to'dasini ham ko'rish mumkin bo'ladi. Zarg'aldok, qaldirg'och, bulbul, chivinxo'r qushlar, moyqurtlar, jibljibon, ko'k qarg'a va boshqa shu kabi qushlar janubdan issiq mamlakatlarga uchib ketadilar.

Qushlar uchib ketishga odatlanib qolganliklari, shuningdek, hashorotlarning (kapalak, ninachi, qo'ng'izlarning) sekin-asta yuqola borishi tufayli uchib ketishadi. Chunki bu hashorotlar ana shu qushlar uchun ozuqa bo'lib xizmat qiladi.

Sentyabr oyida laylaklar, g'ozlar, o'rdaklar va turnalar o'z inlariga yig'iladilar va uchib ketishga tayyorlanadilar.

Tovuqlar tullay boshlaydi. Ularning deyarli barcha patlari to'kilib, yangidan chiqadi. Shu bilan birga, ular qishki sovuqlarga tayyorlana boshlaydilar. Uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarda ham qish sharoitiga monand keladigan tuklar o'sa boshlaydi.

Sentyabr oyida asalarilar ham qishga tayyorlana boshlaydilar. Ular o'zlarining asal zaxiralarini uyalarining bir tomoniga olib o'tadilar, o'z uyalarini isitadilar, keraksiz teshik va yoriqlarni berkitadilar, o'z uyalaridan o'rgimchaklarni xaydab chiqaradilar. Chunki o'rgimchaklar qish vaqtida asalarilar uchun ortiqcha yuk bo'lib, asal zaxiralarini yeb qo'yishlari

mumkin. O'rgimchaklarning asalariniki kabi nishlari va jag'lari bo'lmaydi, shuning uchun ular o'zlarini ximoya qila olmaydilar, uyalarni tashlab chiqib ketib ochlikdan o'lib qoladilar. Asalarilar boshqa hasharotlar singari uzoq uxlamaydilar. Dastlabki sovuqlar tushishi bilanoq turnalar va g'ozlar janub tomonga gala-gala bo'lib uchib ketishadi. Qushlar to'dasining tuzilishi - uchib ketuvchi Qushlarning harakterli belgilaridandir.

Turnalar odatda o'tkir burchak hosil qilib, g'ozlar esa uzun qiyshiq qator, ba'zida esa burchak hosil qilib uchadilar. Yovvoyi qushlar va kakkulargina alohida-alohida uchib ketadilar. Qushlarning uchib ketishini bolalarni sayrga olib chiqqanda kuzatish mumkin. Oktabr oyining oxirlarida shaxarlar va vodiylarda sa'valar paydo bo'ladi va ular mart oyining oxirlarigacha shu yerlarda qoladi. Ular qkariqiz, otquloq urug'larini yeb kun kechiradilar. Sa'valar o'zlarining chiroyli patlari va ajoyib ovozlari bilan bolalarni o'zlariga jalb qiladilar. Bolalar sa'valarni tabiat burchaklarida parvarish qilishni o'rganadilar: toza suv, sul, arpa, pista donlarini maydalab beradilar. Shuningdek, kuz faslida zarang va shumtol daraxtlarining urug'laridan tayyorlangan ozuqalarni beradilar. Sa'valar qirilgan sabzini va bolalar qo'li bilan tabiat burchagida o'stirilgan ko'k sulini zo'r ishtaxa bilan yeydilar. Kechalari dalalardan shaxarlarga go'ngkarg'a, zag'cha va qarg'alar to'da-to'da bo'lib uchib keladi.

Haroratning pasayishi bilan hasharotlar ham asta-sekin yuqola boradi. Ularning ba'zilari o'ladi, boshqalari esa (sassiq qo'ng'iz) daraxtlarning, (chivinlar, pashshalar) imoratlarning kavaklariga kirib yashirinadilar. Ko'pgina chivinlar hazon bo'lgan barglar ostiga yashirinadilar. Ba'zi hasharotlar qish uchun tuxumlarini saqlab qo'yadilar (o'simlik biti, kapalak), boshqalar esa lichinka holatida yerda qishtaydilar (tillaqo'ng'izlar). Bolalar ochiq xavoga dam olgani chikkanlarida to'kilgan barglar tagida yotgan hasharotlarni topib oladilar.



Oltin kuz davomida uchib yurayotgan o'rgimchak uyasi ko'zga tashlanadi.

Uning kumushsimon uzun to'qimasida kichik o'rgimchak uyachalari, shuningdek, ko'chmanchi ko'ng'izlar bo'ladi. Noyabr oyida shaharda ko'plab go'ngkarg'alar, olakarg'a, zag'chalar uchib yuradi. Shaharga dala chumchuqlari uchib keladilar. Ular don izlab to'da-to'da bo'lib uchib yuradilar. Shuningdek, shaxarga tog'lardan oqboosh sa'valar, shaxar chetlaridan esa to'rg'aylar uchib keladilar.

Bog'larda ko'pgina qorayaloqlar va chittaklar paydo bo'ladi. Ular asosan, tog'lardan uchib keladi. Ko'k chumchuqlarni o'tkir ovozlari ham eshitilib turadi.

**Hayvonlar hayotidagi o'zgarishlar.** Kuz faslida qurbaqalarni vaqirlashi kamroq eshitila boradi. Bunga bolalar e'tiborini jalb qilish lozim.

Yosh tipratikanlar mustaqil hayot kechira boshlaydilar. Bolalar tabiat burchagida ularni boqadilar va parvarish qiladilar.<sup>14</sup> Shu paytlarda tog' etaklari va cho'llarda qum quyonlarni tez-tez uchratish mumkin. Kichikroq ko'rinishdagi, unchalik katta bo'lmagan bu quyonlar o'ziga xos rangga egadir. U sariq kurakli va oq rangli bo'ladi. Uning dumi uzun, dumini uchida popukchasi bo'lib, boshi esa cho'zinchoq bo'ladi. Qum quyoni qumlar orasida, saksovul o'rmonlarida va daryolar qirg'oqlaridagi to'qaylarda yashaydi.

Kuz faslida o'tlar quriganda shahar atrofidagi quyonlar yosh daraxtlarning qobiklarini, cho'llarda esa cherkes qandinm, yulg'un va shu kabi yovvoyi o'simliklarning qobiklarini kemirib tashlaydilar.

Sudraluvchi hayvonlar (kaltakesaklar, ilonlar, toshbaqalarni dong qotib uxlash davriga kiradilar. Sovuq tushishi bilan qurbaqalar xovuz tagidan balchiklar ichiga kirib ketadilar, cho'l kurbakalari esa uy atrofidagi kavaklarga kirib, uyquga ketadilar.

Tipratikanlar sovuq tushguncha o'zlarining qishki joylariga ketishadi. Ular qishda to'rt oydan ortiq uhlaydilar. Bu vaqt ichida qimirlamaydilar va hech handay ovqat ham yemaydilar. Ular ana shu uyqu jarayonida o'zlarining gavda og'irliklarining uchdan bir qismini yoqotadilar.

Ba'zi vaqtlarda bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tipratikanni qish vaqtida ham olib qoladilar. Ularni qutilarga solib, bahorgacha salqin yerda saqlaydilar. Bolalar tipratikaning uyg'onishini alohida qiziqish bilan kuzatadilar.

Ko'rshapalaklar sovuq tushishi bilan tashlandiq uylarning shiplariga

<sup>14</sup>MAKTABGACHA UNIVERSITETI YA BOSHLANÇIY TA'LIMNINGI DOLZARB MASALALARI: MUAMMO, YECHIMLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN M.A.Rasulxo'jayeva Maktabgacha ёшдагй болаларни табиятда ижтимоий-фойдали меҳнатга ўргатишнинг педагогик асослари. 103-105 betlar 2020 Farg'ona DPI

kelib, osilib olgan holda yashaydilar. Ular yoz mobaynida to'plagan ozuqa zaxiralarini qishda juda kam sarflaydilar. Agar ko'rshapalak qishda issiqroq joylarda yashasa tez-tez uyg'onib turadi.

**Qishloq xo'jalik ishlari.** Sentyabr oyida O'zbekistonning barcha xududlarida, shu jumladan, Toshkent viloyatida ham asosiy xo'jalik ishlaridan biri - paxta yig'im-terimi boshlanadi. Har bir chanog'da 3-5 pallacha bo'lib, har

bir pallachada esa paxta tolalari bilan o'rab olingan 8-9 tadan chigit bo'ladi. Paxta tolasi paxtaning eng qimmatbaho qismi hisoblanadi. Paxta tolasidan gazmollar va boshqa ko'pgina texnik maxsulotlar, chigitidan esa moy, kunjara va boshqa narsalar tayyorlanadi.

Sentyabr oyida mevali bog'larda olma, behi teriladi, uzum uziladi. Bu ishlarda bolalar ham qo'llaridan kelgancha ishtirok etishlari mumkin.

Tarbiyachilar bu paytda bahorda maktabgacha ta'lim tashkiloti xovlisiga o'tkazilgan uy o'simliklarini tabiat burchaklariga ko'chirib o'tkazadilar.

Gulzorlarda qo'qongul, hushbo'y no'xat, ajdarog'iz (gullari katta-katta bog' o'simligi), nastursiya, petuniya, sambittol, floks va tirnoqgul kabi o'simliklar urug'ini terishni davom ettiradilar bunda bolalar ham qatnashadi.

Oktabr oyida dalalarda ommaviy ravishda paxta yig'im - terimi davom etadi. Paxta chanoqlari tungi sovuq va kunduzgi issiqning keskin ta'siri natijasida ochila boshlaydi.

Dalalar va polizlarda karam, pomidor, lavlagi, baqlajon, kartoshka singari sabzavotlar yig'ib-terib olinadi. Bu kabi manzarani qishloq joylarda tez-tez uchratib turish mumkin.

Bog'larda mevali daraxtlarni qish sharoitiga tayyorlaydilar.

Yerga o'simliklar o'sishdan to'xtagan vaqtda o'g'it solinadi.

Daraxt atroflari chopib qo'yiladi, qator oralari xaydaladi. Daraxtning ildiziga yaqinroq yerlari yuzaroq xaydaladi, chunki daraxt ildizlari yerning ustki qatlamiga yaqinroq turadi.

## **O'zbekistonda "Bioekosan" va "Ekosan" jamg'armalari faoliyati**

«Bioekosan» O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligining 178-son buyrug'iga asosan 1995 yil 28 avgustda ekologiya va tabiatshunoslik markazining qoshida tashkil etilgan. Uning maqsadi respublika miqyosida ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha dasturlar, metodik qo'llanmalar, tavsiyalar yaratishdan va o'quvchi yoshlar hamda kattalar uchun turli xil mavzularda anjumanlar tashkil etish va o'tkazishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim Respublika tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi birlashgan kengashida tasdiqlangan, uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasi ishlab chiqildi

2019 yil 27 mayda Unda "Ta'lim to'g'risida" gi va "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni izchillik bilan bosqichma-bosqich ta'lim jarayoniga tatbiq qilish va shu asosida ekologik ta'limning samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish<sup>15</sup>dagi vazifalar belgilangan.

Ekologiyadan davlat ta'limi standarti yaratildi. Ekologiyadan dasturlar to'plami bir qancha metodik qo'llanmalar tayyorlandi, shuningdek, ekologiyadan test savollari ishlab chiqildi.

1993, 1997-yillarda respublikada uzluksiz ekologik ta'lim muammolari va ularning yechishga bag'ishlangan anjumanlar o'tkazildi.

1993 yildan boshlab «Tabiat kecha, bugun va ertaga» degan shior ostida o'quvchilar anjumani o'tkazib kelinmoqda.

"EKOSAN" ekologiya va salomatlik xalqaro jamg'armasi 1992 yili Ta'sisshilar konferensiyasida tashkil qilingan bo'lib, u notijorat, nodavlat (noxukumat) tashkilot hisoblanadi.

Jamg'arma faoliyatidagi konseptual asoslar:

- ekologiya va salomatlik, fan, madaniyat, tibbiyotga ishlab chiqarish faoliyatining asosiy mezon sifatida qarash;

- O'rta Osiyoda mintakaviy biosferaning yaxlitligi tamoyili asosida iqtisodiy-ekologik tizimni shakllantirish;

- ekologiya va salomatlik muammolari - xalqaro hamkorlikning bosh ustuvor bo'lishidir. Muhim ekologik muammolarni har taraflama o'rganish, ilmiy konsepsiya ishlab chiqish va ularni o'rganishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash maqsadida notijorat va nodavlat idoralari, xalqaro

<sup>15</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг 434 – сонли Қарорига илова

- Ўзбекистон Республикасида Экологик таълимни ривожлантириш концепцияси 27.05.2019 й

tashkilotlar, olimlar hamda mutaxassislarning kuchlarini birlashtirishga ko'maklashish;

- O'rta Osiyoda ilmiy asoslangan ekologik siyosatning shakllanishida ishtirok etish;

- ekologik yo'nalishdagi jamoatchilik fikrlarini tashkil qilishda faol ishtirok etish;

- ekologik tafakkur va madaniyatni tarbiyalash.

Faoliyat yo'nalishlari: atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari, sog'lom turmush tarzi, ekologiya, sanitariya-gigiena bilimlari va kasallikning oldini olishni targ'ib qilish;

- ekologik ta'lim-tarbiya va aholini atrof-muhit holati haqida xabardor qilish;

- ekologik xalokat mintaqasida yashovchi aholiga tibbiy maslaxatlar berish, davolash, kasallikning oldini olish borasida insonparvarlik yordamlari ko'rsatish;

- ekologiya va aholi salomatligini saqlashning dolzarb muammolari bo'yicha xalqaro anjumanlar, uchrashuvlar, seminarlar, simpoziumlar o'tkazish;

- ekologik inqirozga uchragan mintaqalardagi ijtimoiy-ekologik holatni o'rganish va uni yaxshilash bo'yicha hamkorlik choralari ko'rish maqsadida xalqaro missiya tashkil qilish;

- gumanitar hamkorlik masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari, xorijiy kompaniyalar bilan aloqa o'rnatish.

- tabiatni muhofaza qilish faoliyati va biznesni ekologiya - lashtirishda boshqarishning iqtisodiy uslubini joriy etish;

- ekoturizmni rivojlantirish.

Amalga oshirilayotgan loyixa va dasturlar:

- "Ekologiya va salomatlik kunlari" (aholining keng qatlami ishtirokida ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiena va targ'ibot-tashviqotga oid tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish borasidagi tadbirlar majmui);

- "Ekosan" salomatlik poezdi (ekologik nosoz mintaqada yashovchi aholiga tibbiy davolash va insonparvarlik yordamlarini ko'rsatish);

- "Ekolog" (ijtimoiy-ekologik loyixalarni amalga oshirish va insonparvarlik yordamlari ko'rsatish ishlariga qo'shimcha moliyaviy mablag'lar jalb qilish maqsadida ekologik lotareyalar chiqarish);

- "Kasallikning oldini olish va salomatlik" (kasallik haqida ogoxlantirish, idoralararo va tarmoqlarga tegishli loyixalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish orqali sog'lom turmush tarzini o'rgatish va targ'ib

qilish);

- TEO "EKOSAN" (Talabalar Ekologiya Otryadlari - talaba yoshlarni aholi yashash joylarida, maxallalarda, korxona va tashkilot xududlarida sanitariya-gigiena va kommunal foydalanish borasida tartib buzarlklarni aniqlash va u yerda tartib o'rnatish ishlariga ommaviy holda jalb etish);

- "Mash'al-EKOSAN" (ekologiya muammolari bo'yicha ilmiy- nazariy radiodasturlar sikli);

- "Intermed", "Xalq tabobati markazi" (aholi orasida xalq tabobati asoslarini tushuntirish va amalga oshirish);

"EKOSAN" dorixonalari va dorixona do'konlari (dori-darmon preparatlari va ekologik toza qishloq xo'jalik maxsulotlari savdosini amalga oshirish);

"SES-EKOSAN" (korxonalar, idoralar hamda savdo ob'yekting sanitar holati va tabiatni muhofaza qilish qonunchiligiga rioya qilinishi yuzasidan xukumat sanitariya epidemiologiya xizmatining jamoatchilik bilan hamkorlikdagi nazoratini o'tkazish).

## “Qizil kitob” haqida tushuncha

Vatanimizda yer va yer usti boyliklari, suv, oʻrmonlar, oʻsimlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish toʻgʻrisida juda koʻp muhim davlat qarorlari qabul qilingan. Ana shunday muhim hujjatlardan biri Oʻzbekiston «Qizil kitobi» hisoblanadi.

“Qizil kitob” ayrim viloyatlar, mamlakatlar yoki butun dunyo boʻyicha kelajakda xavf ostida turgan oʻsimlik va hayvonlar haqida maʼlumotlarga ega boʻlgan rasmiy hujjatdir. 1948 yili BMTning YuNESKO tashabbusi bilan tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi tuzildi. Ushbu tashkilot tomonidan maxsus komissiya tuzilib, unga yer yuzida yoʻqolib borayotgan noyob oʻsimlik va hayvon turlarini aniqlash hamda ularni saqlash dasturini ishlab chiqish topshirildi. 1948-1954 yillarda komissiya yoʻqolish xavfi ostidagi hayvonlar roʻyxatini chiqdi.

Buning uchun maxsus mezonlar ishlab chiqilib, u yoki bu turni roʻyxatga olishda, ushbu mezonlar asos boʻldi va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi tomonidan maʼqullanib, muhofazaga olish uchun oʻsimlik va hayvon turlarini ayrim turkumlarga ajratgan holda «Qizil kitob» yaratishga asos boʻldi. 1966 yili stol ustida foydalaniladigan yilnoma sifatida rangli birinchi xalqaro «Qizil kitob» nashr qilindi.

1978-1979 yillarda Oʻzbekiston Respublikasi xukumatining davlat qarorlari asosida va Fanlar Akademiyasining ilmiy kengashi tomonidan Oʻzbekiston «Qizil kitobi» taʼsis etildi. 1983 yili nashr qilingan «Qizil kitob»ning birinchi tomida 22 turdagi sut emizuvchilar, 33 turdagi qushlar, 5 turdagi sudralib yuruvchilar, 5 turdagi baliqlar kiritilgan.

“Qizil kitob”da hayvonlar soni va uning oʻzgarish sabablari, ayrim turlarining ahvoli hamda ularni koʻpayishiga, muhofaza qilish boʻyicha belgilangan hamda moʻljallangan tadbirlarga alohida eʼtibor berilgan. Shuningdek, biotexnik tadbirlar - qoʻriqfanadigan zonalar va qoʻriqxonalar barpo etish, brakonyerlarga qarshi kurashish, kishilarning ekologik bilimini oshirish taklif etilgan. Respublikamiz “Qizil kitobi”ni har 5 yilda yangilab turish koʻzda tutilgan. “Qizil kitob”dagi hayvonot dunyosining nazorati Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi zoologiya va parazitologiya instituti zimmasiga yuklatilgan. Hozirgi kunda Oʻzbekiston «Qizil kitobi»ga kiritilgan ayrim turdagi sutemizuvchilar, qushlar, sudralib yuruvchilar va baliqlar alohida nazoratga olingan. Olimlar ularni chuqurroq oʻrganishlari natijasida «Qizil kitob»ning ikkinchi nashriga «qoʻsh burun» va «qorabosh qulogʻi»ni kiritish tavsiya etilgan. Oʻzbekiston “Qizil kitobi”da faqat umurtqali hayvonlar haqida maʼlumotlar keltirilgan. Qayta chop etilgan

“Qizil kitob”ga umurtqasiz jonivor vakillari ham kiritilsa maqsadga muvofiq bo’lar edi.

O’zbekiston “Qizil kitobi”ning ikkinchi tomiga davlat muhofazasiga olingan 163 turdagi yovvoyi o’simliklar kiritilgan va muhofaza qilish xalqaro uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan klassifikasiyaga binoan 4 ta turkumga bo’lingan:

1. Yo’qolgan turlar;
2. Noyob (ma’lum kichik maydonlarda o’ziga xos sharoitlarda saqlanib qolgan, tez yoqolib ketishi mumkin bo’lgan va jiddiy nazoratni talab etuvchi turlar);
3. Yo’qolib borayotgan turlar;
4. Kamayib borayotgan turlar.

“Qizil kitob”ning yangi nashrida muhofazaga olingan o’simliklarning 300 ga yaqin turlari, ularning qaysi oilaga mansubligi, qisqacha ta’rifi, tarqalishi haqida ma’lumotlar keltirilgan, sxematik kartada o’sish joyi ifodalangan. Tabiiy sharoitda ko’payish yo’llari va nihoyat, muhofaza qilish chora-tadbirlari haqida ma’lumotlar bayon etilgan. Shunday qilib, “Qizil kitob”ning mohiyati shundaki, tabobat va hayvonot olamining noyob, yo’qolib ketish havfi ostida turgan turlar haqida ma’lumot beruvchi hujjatdir. Uning maqsadi jamoatchilik va davlat ijroiya tashkilotlarining tegishli muammolarini yechish va turlar genofondini saqlab qolishga ko’maklashishdan iborat. “Qizil kitob” Vatanimizning o’simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish borasidagi eng muhim xayrli ishlaridan biri bo’lib hisoblanadi.

# **BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR**

## **1-amaliy mashg'ulot**

### **Mavzu: O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish davlat siyosatidagi yuksak masala ekanligi**

- I. Mashg'ulotga oid topshiriq. Topshiriq maqsadi va mazmuni.
  - Talabalarni Ona tabiat inson kamolotini asosi ekanligi haqida munosabatlarini aniqlash:
    - Tabiat haqida tushuncha;
    - Tabiatshunoslik fanini rivojlanishi;
    - Tabiatni muhofaza qilishga oid me'yoriy hujjatlar;
    - Tabiatni asrash va unga mehr uyg'otish har bir fuqaro burchi ekanligi.
  - II. Topshiriqni bajarish metodikasi.
    - Talaba avval tabiat bilan tanishtirish haqidagi tayanch tushuncha va atamalarni aniqlab olishi.
      - Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasiga oid adabiyotlarni jamlab, bibliografiya tuzish.
      - Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi amaldagi holatini o'rganish.
      - Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining «Ilk qadam» davlat o'quv dasturida bolalarni tabiat bilan tanishtirish imkoniyatlarini aniqlash.
    - III. Muxokama uchun savollar:
      1. Tabiat va inson haqidagi fikringiz?
      2. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi fanining bosh g'oyasi.
      3. Tabiatga mehr uyg'otishga oid maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlardan birini tashkil qilish.
      4. Tabiat bilan tanishtirish metodikasi fanini o'rganishda sizni munosabatingiz.

## 2-amaliy mashg'ulot

### **Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat burchagi**

I. Mashg'ulotga oid topshiriq. Topshiriqni maqsadi va mazmuni.

• Tabiat burchagi haqida tushuncha, bolalarni tabiat bilan tanishtirishdagi tarbiyaviy ahamiyati.

• Tabiat burchaklari tashkil etishga qo'yiladigan talablar.

• Tabiat burchagida o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish qoidalari.

• Yer maydonchasi.

II. Topshiriqni bajarishning texnologik usullari.

• Talaba avval «Tabiat burchagi» haqidagi ilmiy, tarixiy qarashlarini aniqlab olishi.

• MTT larda mavjud tabiat burchaklarini kuzatish va qiyosiy taxlil etish.

• Turli guruhlarda tabiat burchagini tashkil qilishni o'ziga xosligini asoslash.

III. Muhokama uchun savollar:

1. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda «Tabiat burchagi»ni tashkil etishdan maqsad nima?

2. Tabiat burchagini jihozlashga gigienik, pedagogik talablar.

3. Tabiat burchagida yashovchi hayvonlarni parvarish qilish texnologiyasi haqidagi fikringiz.

4. Mavzu yuzasidan talabalarni tayyorlagan ijodiy ishlarini muhokamasi.

## **BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHGA OID NAMUNAVIY MASHG'ULOTLAR**

**Mavzu. Tabiat burchagi bilai tanishtirish. (noan'anaviy mashg'ulot)**

**Maqsad:** Bolalarning tabiat haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

Bolalarga tabiat haqida ilk ma'lumotlar berish orqali ularning qalbi va ongiga tabiatga nisbatan qiziqish hamda mehr - muhabbat uyg'otish. Guruh xonasining tabiat burchagi bilan yaqindan tanishtirish va u yerdagi jonli, jonsiz tabiatga munosabatni tarbiyalash.

**Kutilayotgan natija:** Tabiat burchagidagi xona gullariga, jonivorlarga, jonsiz jismlarga nisbatan qiziqish uyg'onadi. Mavjud bilimlari takomillashadi. Ularni parvarishlash ishtiyoqi paydo bo'ladi.

**Zarur jihozlar:** Guruh xonasidagi tabiat burchagi.

**Mashg'ulotning borishi:** Tarbiyachi tabiat burchagini bolalar kuzatishi uchun qulay va unga qo'yilgan predmetlar bilan bola bemalol ishlay oladigan holatda joylashtirishi lozim bo'ladi. Tarbiyachi bolalarning diqqatini tabiat burchagiga jalb qiladi. Tarbiyachi: Bu burchakning nomi «Tabiat burchagi».

**Tarbiyachi:** Bolalar bizni atrofimizni o'rab turgan tevarak olam - bu tabiatdir. Biz sayrga chiqsak albatta, o'tlarni, gullarni, daraxtlarni, suvni, quyoshni ko'ramiz, toza havodan nafas olamiz. Bolalar bizni o'rab turgan yashil o'simliklar olami biz nafas olayotgan havoni tozalab turadi. Hozir guruhimizdagi kichkinagina tabiat burchagi ulkan tabiatning bir bo'lakchasidir. (Burchakdagi gullarni ko'rsatib) Sizlar ko'rib turgan mana bu yashil o'simliklarning nomi nima?(Gullar)

**Tarbiyachi:** To'g'ri, bularning hammasini umumiy nomi - gullar. Ular tuproqda o'sadi, oziqlanadi, suv ichadi, nafas oladi, gul ochadi. Demak, ularning ham joni bor, ular ham yashaydilar.

Bolalar, biz bu gullarga suv quyib turishimiz lozim bo'ladi. Qani Ahmadjon sen menga yordamlashib yubor, sen gullarga suv quyasan, men esa gullarning barglarini artaman. Maftuna bilan Nazokat ham menga yordam beradilar. (Bolalar navbati bilan gullarga suv quyishadi va tarbiyachining ko'rsatmasi bilan gullarning barglarini artib chiqadilar)

**Tarbiyachi:** Bolalar, mana bu burchakdagi suratda nima tasvirlangan? (Daraxtlar, juda ko'p daraxtlar).

**Tarbiyachi:** To'g'ri, suratlarda gurkirab o'sayotgan daraxtlar, ularning tagida o'tloqlar, ariqlarda oqayotgan suvlarni ko'rib turibsizlar. Siz kurib turgan narsalarning barchasi tabiat manzarasidir. Yashil o'simlik olamidan

tashqari (suratda yana nima tasvirlangan? (Osmon))

**Tarbiyachi:** To'g'ri ko'm-ko'k musaffo osmon ham albatta, tabiatning bir bo'lagidir. Qani, kim menga aytadi, osmonda nimalar uchadi? (Samolyotlar, vertolyotlar, qushlar).

**Tarbiyachi:** Barakalla, albatta osmonda qushlar parvoz etadi, bu suratda ham parvozdagi qushlar tasvirlangan. Qushlarning juda ko'p turi bor, qani kim ularning nomlarini aytadi.

**Bolalar:** Chumchuq, to'tiqush, qarg'a, qaldir'och, musicha... Kim qushlar haqida she'r aytib beradi?

Qaldir'och, g'och - g'och,

Chiyillamay bola och.

Mening sochim jingalak,

Pista bilan bodom soch.

**Tarbiyachi:** Rahmat bolalar qushlarning och qolmasliklari uchun ularni bizlar ham boqishimiz kerak, ularga ham don, non ushoqlari, suv berib tursangiz, sizlarni juda ham yaxshi ko'rishadi, maktabgacha ta'lim bog'imizga uchib kelishadi, sizlarni ko'rganlarida xursandchilikdan sayrashadi.

**Tarbiyachi:** Tabiat burchagimizdagi mana bu sayroqi qushning nomi nima va u qaerda yashaydi?

**Tarbiyachi:** Haqiqatan ham bu qush kaklik bo'lib, o'zimizning tog'larda juda ko'p uchraydi. Qish faslida hamma narsa - o'tlar, gullar, daraxtlar qor tagida qolib ketishi sabab, tog'da yashaydigan kakliklarimiz hayoti uchun zarur bo'lgan donni topishga qiynaladilar va ular odamlar yashaydigan joylarga, yo'llarga to'da-to'da bo'lib yaqinlashadilar. Shunda ba'zi bir odamlar ularni ovlaydi, o'ldiradi, qafaslarga solib sotishadi. Ular to'g'ri qilishadimi? Bolalar: Yo'q, kakliklarni o'ldirish mumkin emas.

**Tarbiyachi:** To'g'ri, shuning uchun ham maktabgacha ta'lim tashkilotimiz «qizil kitobi»ga kaklikni ham kiritganmiz. Biz kaklikka doimo g'amxo'rlik qilamiz. Don, non ushoqlari, suv berib parvarish qilib kelmoqdamiz. Albatta. bundan keyin ham bu ishlarimizni davom ettirishimiz kerak.

Ilk qadamlar qani aytinglarchi, qish birinchi qaerga keladi?

A) shaharga V) tog'ga S) qishloqqa D) dalaga

Bu suhbat davomida tarbiyachi bolalar bilan kaklikka don berib, parvarish qiladilar.

**Tarbiyachi:** Atrofimizdagi tabiatda o'simliklar, qushlardan tashqari hayvonlar ham bor. Mana bu suratda hayvonot olami vakillari tasvirlangan. Qani, kim qaysi hayvonni taniyapti?

**Bolalar:** sigir, ot, it, mushuk, qo'y, echki, eshak, bo'ri, quyon, tulki...  
**Tarbiyachi:** Barakalla! bilag'onlar. Bu hayvonlarni topdingiz. Nomini aytgan hayvonlaringiz uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar turkumiga bo'linadilar.

Tarbiyachi mashg'ulot davomida yer va quyosh haqida ham qisqacha tushuncha beradi, o'simliklar, hayvonot dunyosida, insonlar hayotida yer, suv va quyoshning muhimligini tushuntiradi. Mashg'ulot so'ngida «quyosh va yomgir» o'yini o'ynaladi.

**Mavzu: Bolalarni mevalardan olma bilan tanishtirish.**  
**(mujassam mashg'ulot).**

**Maqsad:** Kichkintoylarga tabiatning noz-ne'matlari haqida dastlabki ekologik tushunchalar berish, kundalik hayotlarida iste'mol qilayotgan mevalarining nomlarini, ta'mi, shakli, rangini o'zaro taqqoslab, farqlashga o'rgatish.

**Kutilayotgan natija:** Bolalarni tabiat haqidagi tasavvurlari ortadi, mevalar haqidagi bilim doiralari kengayadi.

**Zarur jihozlar:** Savatda mevalar.

**Interfaol usullar:** Sayr (MTT bog'iga sayr uyushtirish).

**Mashg'ulotning borishi:** Tarbiyachi bolalar bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti bog'iga boradi, ular suhbat qurib diqqatlarini bog'ning manzarasiga jalb etadi.

Tarbiyachi: Bolalar hozir qaysi fasl? (Yoz fasli.)

Tarbiyachi: To'g'ri, bolajonlar, bugun ob-havo qanday? (Issiq, quyoshli)

Tarbiyachi: Haqiqatan ham bolajonlar, quyosh chaqrab nur sochyapti, quyosh nurlari yerni qizdirayapti, o'sayotgan gullar, maysalar ham suv ichishni xohlayapti. (Gullarga suv quyilmagan bo'lishi va ular suvsagan bo'lishi kerak) qani bolalar gullarga suv quyaylik-chi. Suvlardan maysalarga, gullarga, barglarga quysak, maysalar yashnab ketadi, gullar yanada chiroyli o'sadi, daraxtlar ko'kka bo'y cho'zib, baland o'sadi.

Bolalar: Opa, suv juda yaxshi, bizlar ham suv ichamiz.

Tarbiyachi: Ha, bolajonlar, suvning yaxshi xususiyatlari juda ko'p, atrofimizdagi olam, tabiatning hayoti uchun juda zarur. Suv biz uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Inson tomirlarida qon oqib turganidek, ona tabiatimiz uchun qon vazifasini suv bajaradi. Suvni isrof qilmaslik kerak, ariqlarda oqayotgan suvlarni isrof qilmaslik kerak. (Tarbiyachi bolalar bilan birgalikda muassasadagi mavjud daraxtlarning turlarini aytib o'tadi: nok,

anor, olxo'ri, bodom, olma). Endi sizlar bilan biz mana bu daraxt nomini, uning mevasini nima deb nomlanishini aytishimiz kerak, qani kim aytadi?

Bolalar: Bu olma daraxti, shoxlarida mevalari (olmalari) Tarbiyachi daraxtdan olma uzib bolalarga ko'rsatadi, olma qaysi rangda? (qizil)

Tarbiyachi: To'g'ri, olmaning rangini to'g'ri topdingiz sizlarga men olma terib beraman (tarbiyachi savatchaga olma terib oladi, bolalar olmadan yemoqchi bo'ladilar). Bolalar, mevalarni yeyishdan oldin nima qilishimiz kerak edi?

Aziz: Yuvish kerak edi, opajon.

Tarbiyachi: Albatta, olmalarni yuvib yeyish kerak, bo'lmasa qorinlaringiz og'rib qoladi (olmalarni suvda yuvib, bolalarga tarqatadi). Olmaning mazasi qanday ekan, kim aytib beradi? Bolalar: Shirin, shirin...

Tarbiyachi: Olma qipqizil, juda shirin meva ekan, lekin sariq, ko'k olmalar ham shirin bo'ladi. Men sizlarga hozir hikoya aytib beraman (bolalar daraxt soyasiga o'rnashib o'tirib olishadi). Sizlarga o'xshagan Munira ismli qizcha bo'lgan ekan. Bir kuni dadasi bilan sayr qilib yurganida, katta bir daraxtni ko'rib, dadasidan so'rabdi:

- Dada, bu qanday daraxt?

- qizim, bu olma daraxti, vaqti kelib u senga shirin olmalar beradi.

Kunlar o'tibdi, bahor kelib, yomg'irlar yog'ibdi, ona tabiat daraxtga suv beribdi, quyosh nurlari bilan yerni isitibdi, daraxt barg chiqaribdi, gullabdi, keyinchalik kichik-kichik olmachalar tugibdi. Shunda Munira daraxtning oldiga kelib: «daraxt olmalaringdan ber», deb so'rabdi, lekin daraxt olmalaridan bermabdi. Munira rosa xafa bo'lib yig'labdi. Shunda daraxt qizga yordam berish uchun quyoshga murojaat qilibdi. Quyosh yerni rosa qizdiribdi, olmalar katta-katta bo'libdi, qipqizarib pishibdi. Buni ko'rib xursand bo'lgan qizcha yana: «Daraxt, olmalaringdan ber», debdi. Daraxt esa olmalardan uzib berolmabdi, chunki uning qo'li yo'q ekan-da. Shunga bu safar shamolni yordamga chaqiribdi, shamol daraxtni silkitibdi, olmalar duvillab to'kilibdi. Munira xursand bo'lib, savatchasiga olmalarni terib, uyiga olib ketibdi. Olma: Men sizlarning olmangiz,

Xomligimda olmangiz.

Nortojiga o'xshab so'ng,

«Voy qornim» deb qolmangiz, - deydi.

Tarbiyachi: Mevalarni endi xomligida, yuvmasdan yemaslik kerakligini bilib oldingiz. Endi topishmoq topamiz: Izi boru, o'zi yo'q, so'zi bor-u, yuzi yo'q. (shamol) Mashg'ulot oxirida tarbiyachi bolalar bilan «nima qaerda o'sadi» didaktik o'yinini o'ynaydi.

## **Mavzu: Bolalarni kuzgi daraxt bilan tanishtirish.**

**Maqsad:** Bolalarni daraxtning asosiy qismlari (tanasi, shoxlari, barglari) haqidagi tasavvurlarini aniqlash. Barglarni rangi, katta-kichikligi, shakliga ko'ra farqlashni mashq qildirish. Daraxt, shoxlar, barglar, chiroyli, yashil, sariq, yo'g'on, ingichka so'zlarini lug'atga kiritish. Kuzgi daraxt go'zalligidan zavqlanish hissini uyg'otish.

**Kutilayotgan natija:** Bolalarda kuzatuvchanlik hissi paydo bo'ladi. Daraxtning asosiy qismlarini bilib oladilar. Barglarni rangi, katta-kichikligi, shakliga ko'ra farqlashni o'rganadilar. Kuzning qanday manzaraga ega bo'lishi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

### **Interfaol usullar:**

Savol-javob; didaktik o'yin

**Tashkil etish:** Muassasa hovlisidan bolalar bilan yoniga borish qulay bo'lgan alohida turgan daraxtni tanlash.

**Mashg'ulotning borishi:** Tarbiyachi bolalarga kuzatishga mo'ljallangan daraxtni avval uzoqdan ko'rsatib, uning go'zalligini zavq bilan tomosha qilishni taklif etadi. So'ngra daraxt yoniga kelib doira bo'lib turadilar.

Tarbiyachi: Bolalar past shoxchaga bo'y cho'zib qo'lligizni tekizib ko'ring-chi. Tarbiyachi eng pastroqda joylashgan shoxni egib bolalar barglarni yaqindan ko'rishlari uchun imkon yaratadi. Ularning ranglari qanday? Ular kattami yoki kichikmi?

So'ngra bolalar daraxt tagidan yashil, qizil, sariq barglarni toping - deb topshiriq beradi.

Sherzod sen nima olib kelding?

Uning rangi qanaqa?

Nima uchun ranglari bunaqa?

Bolalar daraxtning tanasini ko'rsating?

Endi esa shoxlarini?

Barmoqlaringiz bilan daraxt tanasini o'rab oling.

Bolalar barmoqlar bilan daraxt tanasini o'rab olish **mumkinmi? Nima uchun mumkin emas?**

Daraxtning tanasi qanday?

Bolalar endi keling ko'pchilik bo'lib daraxtni quchoqlaymiz. Shundan so'ng tarbiyachi bolalarni ma'lum masofada daraxtdan uzoqlashtirib, yana bir bor uning go'zalligidan zavqlanishni taklif qiladi.

(Kuzgi barglardan gerbariy tayyorlash topshirig'ini berish)

## **Mavzu: Piyozi ekish.**

**Maqsad:** Bolalarni bosh piyoz haqidagi tasavvurlarini aniqlash (u dumaloq, sariq, uchi, ildizlari bor). Piyoz ekish o'rgatish (chuqurchaga qo'yib, atrofidan siqish va ustiga solib, sugorish) o'simliklarni o'stirishga qiziqish uygotish piyozning xususiyatlarini, shuningdek, piyoz ekishga bo'lgan ishtiyoqlarini qondirish.

**Kutilayotgan natija:** Bolalarning piyoz haqidagi tasavvurlari mustahkamlanadi. Piyozning xususiyatlarini uni ekishni o'rganib oladilar.

**Zarur jihozlar:** Ungan piyozboshlar yumshoq tuproqli chuqurcha kavlangan tuvaklar, leykalarda suv. Stollar qator qo'yiladi, bolalar tikka turgan holda piyozboshlarni ekadilar.

### **Interfaol usullar:**

suxbat, savol-javob, amaliy ish

**Mashg'ulotning borishi:** Tarbiyachi bolalarga ko'k barglari ungan piyozboshni ko'rsatib «Bu nima?» deb so'raydi. Agar bolalar qiynalsalar, tarbiyachi piyozboshning ko'k barglarini ko'rsatib o'zi aytadi.

«Piyoz barglarining rangi qanday?» deb so'raydi. So'ngra har bir bolaga bittadan piyozbosh beradi.

Bolalar bu nima?

Piyoz po'stining rangi qanaqa?

Bolalar piyozni ushlab stol ustida yumalating. Bolalar piyozbosh dumaloq shuning uchun u juda yaxshi yumaladi. Bolalar piyozboshning shakli qanaqa ekan?

Bolalar piyozboshni tuproqqa ekamiz, undan ko'k piyoz o'sib chiqadi. Shundan so'ng tarbiyachi bolalarga chuqurchani ko'rsatadi va har bir bolaga qaytarishni taklif qiladi. Tarbiyachi piyozboshni olishlarini taklif qiladi. Piyozning dumi va boshi qaerdaligini ko'rsatadi. Bolalar tarbiyachining ketidan takrorlaydilar. Piyozboshlarni bosib, atrofiga tuproq tortib, tuproqni barmoqlar bilan bosilishini, so'ngra esa suv quyish mumkinligini aytadi. Ekilgan piyozlarni ko'rib chiqib bolalarni rag'atlantiradi.

### **Mavzu: Tovuq jo'jalari surati ustida suxbat.**

**Maqsad:** Bolalarda tovuqning bolalari - jo'jalari borligi haqidagi tasavvurni mutahkamlash: tovuq va jo'jalarning tashqi ko'rinishi hamda xatti-harakatlari (tovuq katta, oq, uning pati, dumi, qanoti bor, jo'jalar kichkina, sariq, momiqdek, tovuq va jo'jalar yuradi, yuguradi, don cho'qiydi, suv ichadi) haqidagi bilimlarni aniqlash. Lug'atlariga tovuq, momiqdek, jo'jalar, pat, kichkina, don so'zlarini kiritish. Hayvonlarni kuzatishga o'rgatish orqali qiziqishlarini orttirish, ularga ehtiyotkorona,

gamxo'rona munosabatda bo'lishni tarbiyalash.

**Kutilayotgan natija:** Bolalar tovuqning bolalari jo'jalar ekanligini bilib oladi, ular haqida tasavvurlari ortadi. Hayvonlarni kuzatishga qiziqish paydo bo'ladi. Ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni bilib oladilar.

**Zarur jihozlar:** Rasm, qo'g'irchoq.

Bolalarni yarim doira shaklida o'tkaziladi.

**Interfaol usullar:**

Suhbat Savol-javob

**Mashg'ulotning borishi:** Tarbiyachi qo'g'irchoqni ko'rsatib: «Qo'g'irchoq Lolaxon qishloqda buvisinikida mehmonda bo'ldi. U yerda ko'pgina narsalarni ko'rdi. Lolaxon sizlarga ko'rsatish uchun rassomdan dalada ko'rgan narsalarining rasmini chizib berishni iltimos qildi. Qarang bolalar mana o'sha rasm. Rasmni ko'rishga taklif etadi» bolalar rasmini kuzatayotganlarida tarbiyachi bolalarga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

Rasmda nima tasvirlangan?

Ona tovuq nima qilayapti?

Ularning jo'jalar ekanligini qaerdan bildingiz?

Sanangchi ular nechta ekan?

Jo'jalar nima qilayapti?

Tovuqning rangi qanaqa?

Jo'jalarining rangichi?

Qaysi biri katta tovuqmi yoki jo'jalarimi?

Tovuqning boshida nimasi bor?

Tovuq va jo'jalar tumshugi bilan nima qilishayapti? Ular nimani cho'qilayapti? Tovuuq va jo'jalar nimalarini cho'qishayapti? Tovuuq don topganda jo'jalarni qanday chaqiradi? Egasi tovuq va jo'jalarga don berganda ularni qanday chaqiradi?

Mashg'ulot oxirida tarbiyachi bolalar bilan «Tovuq jo'jalari bilan» o'yinini o'ynashni taklif qiladi.

**Mavzu: Xona o'simliklarini yuvish. (tayyorlov guruhi)**

**Maqsad:** Bolalarning xona o'simliklari haqidagi bilimlarini takomillashtirish. Tarbiyachi rahbarligida mehnat qilish malakalarini hosil qilish. Nam sochiq bilan o'simlik barglarini ehtiyotkorlik bilan yuvishga o'rgatish. Bolalarning o'simliklarga bo'lgan qiziqishlari va ularni parvarishlashga bo'lgan ishtiyoqlarini rivojlantirish. Xona o'simliklarini bo'lishi inson organizmi uchun zarurligi haqida tushuncha berish.

Bolalarning lugatlariga-fikus, parvarishlash, sug'orish, artish kabi so'zlarni kiritish.

**Kutilayotgan natija:** Bolalarning xona o'simliklari haqidagi bilimlari yanada takomillashadi. O'simlik barglarini ehtiyotkorlik bilan artishni bilib oladilar. Bolalarning o'simliklarni parvarishlashga bo'lgan havaslari ortadi. Lug'atlarini yangi so'zlar bilan boyitish.

**Zarur jihozlar:** Kleyonka solingan stol ustiga barglari qalin va baquvvat bo'lgan o'simliklarni bolalarga uning oldiga borishga qulay qilib joylashtiriladi. Har bir o'simlik yoniga 2-3 tadan nam sochiq qo'yiladi. Bolalar tikka turgan holda yoki yarim doira shaklida o'tiradilar

**Iterfaol usullar:**

Suhbat,savol-javob,amaliy ish

**Mashg'ulotning borishi:** Tarbiyachi bolalarning diqqatini stol ustidagi o'simliklarga jalb etib, uni ko'rib chiqishni va nomini aytishni taklif qiladi. O'simlik nomini har bir bola takrorlab chiqadi.

Bolalar fikus nimaga o'xshaydi daraxtgami yoki o'tgami? Uning rangi qanaqa?

Ular qanaqa?(ular silliq va yaltiroq)

Mana bolalar fikus bizda qanaqa katta bo'lib, daraxtga o'xshab o'sibdi. Uning barglari katta, yashil, silliq va yaltiroq.

Bolalar, biz fikus va boshqa o'simliklarni qanday parvarishlaymiz?

Tarbiyachi: Bugun bolalar biz siz bilan o'simliklarni barglarini artishni o'rganamiz. Har bir o'simlik oldida sochiqchalar turipti. Men sochiqchamni o'ng qo'limda to'g'irlab ushlab oldim. Chap qo'limda fikusni barglarini unga ozor bermasdan ehtiyotkorlik bilan qo'yaman, sochiqcha bilan artaman, keyin ehtiyotkorlik bilan orqa tomonini artaman.

Bolalarga tushuntirib ko'rsatib bo'lgach, Bolalar qarang o'simligimiz qanday toza bo'lib qoldi. Endi bolalar hammangiz yenglaringizni shimarib o'simliklar oldiga kelinglar va uning barglarini o'zingiz artib ko'ringlar. Bolalar topshiriqni bajaradilar tarbiyachi ularni kuzatib ularga maslahatlar berib boradi, zarur bo'lgan vaqtda yana ko'rsatib berishi mumkin.

Mashg'ulot so'ngida tarbiyachi bolalarga o'simlikning juda toza bo'lgani, uning barglari yaltirayotgani, endi o'simliklarga faqat suv quymasdan ularning barglarini artib turishlarini aytib Mashg'ulotni tugatadi.

**Mavzu: Istiroxat bog'iga ekskursiya. Bargiga qarab daraxtlarniig nomini aniqlash (katta yosh guruh:mujassam mashg'ulot)**

**Mashg'ulot maqsadi:** Bolalarning (daraxtlarda sariq barglar paydo

bo'lishi, o'tlar sargaya boshlashi, hasharotlar tobora kamaya borishi, qushlarni issiq o'lkalarga uchib ketishi) sanitariya kuzatish haqidagi tushunchalarini aniqlash, bolalarni bargining shakliga qarab farqlashga o'rgatish. Kuzning go'zalligini ko'ra olish malakalarini rivojlantirish.

**Kutlayotgan natija:** Bolalarda tabiatga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi.

Kuzning go'zalligini ko'ra oladilar. Estetik qobiliyatlari rivojlanadi.

Barglarining shakliga ko'ra daraxtlarni farqlay oladilar. Gerbariy to'playdilar

**Zarur jihozlar:** Ekskursiyadan oldin bolalardan qaysi fasl kirib kelganligini so'rash. Gullarning urug'larini solish uchun xaltachalar. Oldindan tayyorlangan gerbariylar uchun papka.

**Mashg'ulotning borishi:** Tarbiyachi bolalarga kuzning dastlabki belgilarini topishni taklif qiladi. Quyidagi yo'naltiruvchi savollar bilan murojaat qiladi: Yozda daraxtlarning barglari qanday rangda edi? Hozir qaysi daraxtlarda sariq rangli barglar paydo bo'libdi? Tarbiyachi:

Bog' yashnaydi bog'bon bilan.

Dala yashnar dehqon bilan.

Uy yashnaydi bola bilan.

Tog' yashnaydi lola bilan.

Tarbiyachi: Bolalar, har narsaning o'ziga yarasha gashti bor. Mana, mening qo'limda yopalokday yam-yashil barg bor. Qani, kim aytadi, bu qaysi daraxtning bargi? (yong'oq)

Tarbiyachi: To'g'ri, bolajon, endi topishmoqni toping-chi.

Qo'shaloq tovoq, ichi to'la yog'.

Yongoq bargiga o'xshash, biroq nisbatan kichikroq bargli daraxtni ko'rsatib. Qaysi daraxt ekanligini so'raydi (gilos).

Shundan so'ng tarbiyachi bolalardan gilos haqida she'r aytib berishlarini so'raydi yoki quyidagi she'rni o'qib beradi

Bilursan otim Gilos,

Shirindurman asaldan,

Suyar meni hamma soz.

Doridurman azaldan.

Meni ko'rgan kishilar,

o'zga meva xoxlamas.

Meni sevib yeganni,

Qutqazaman kasaldan.

Tarbiyachi: Eshitdingizmi, bolajonlar, gilos juda ham foydali meva ekan. Endi stol ustidagi barglardan qaysilari mevali daraxtlarniki ekanligini ajratib ko'rsatishlar va gerbariy uchun tayyorlagan papkamizning tegishli joylariga solib qo'ying.

Mevalarning urug'in ekib,

asrang o'rtloqlar, Kelajakda ulardan yaratilar gul-bog'lar.

Tarbiyachi: Ha, bolajonlar gul va mevalarning urug'larini ekib, asrashimiz lozim. Agar ularni asrab-avaylasak, kelajakda bundan ham ko'rkamroq bog'-rog'lar yaratamiz. Bolajonlar, barglar ichidan mevali daraxtlarni juda to'g'ri topdingiz. Bu daraxtlarning mevasi ming dardga davo ekan.

Bolajonlar, qani endi kim chaqqon ekan, bir nafasda kim tez ayta olar ekan?

Nosir novvoti nokni oldi – novotti nokni Nosir oldi. (tez aytish.)

Bir, ikkita bola tez aytishni aytgach bolalar bilan «Maktabgacha ta'lim tashkilotimiz bog'ida» she'rini yod olinadi.

Bog'chamizning bog'ida,

Savat-savat terdik biz,

Mehnat qildik hammamiz.

Uzum, shaftoli, anor

Naqd oltin kuz chog'ida,

Pishdi behi, olmamiz

Hosilidan yorug' yuz,

Dillar yayrab quvonar.

«Hamma tezda o'z bargiga» harakatli o'yini

Bolalar endi mana bu gullarga qarang qanday chiroyli gullar ekan bilasizlarmi? Agar bolalar bilmasalar tarbiyachi o'zi gullarning nomlarini aytadi hamda bolalarga gullarning urug'laridan urug'lar uchun xaltachalariga solishni taklif qiladi.

Mashg'ulotning yakunida tarbiyachi bolalarga endi bu tergan urug'larini qaysi faslda yer uchastkamizga ekishimiz mumkinligi to'g'risida so'raydi.

Bolalar javoblaridan so'ng faol ishtirok etgan bolalarni rag'batlantiradi.

### **Mavzu: Tabiat haqida suhbat.**

**Maqsad:** Bolalarning tabiat to'g'risidagi bilimlarini aniqlab, tabiat dunyosining rang-barangligi, o'simliklar va hayvonot olamining, jonli va jonsiz tabiatning uyg'unligi haqidagi bilimlarini kengaytirish, tabiat hodisalarini kuzatishga o'rgatish.

**Mashg'ulotning borishi:** Tarbiyachi bolalar bilan «Tabiat deganda nimani tushunamiz?» mavzusida suhbat uyushtiradi.

Feruz: Atrofimizda mavjud quyosh, oy, yulduzlar, yer, havo, suv, tog'u

toshlar, dala-qirlar, daraxtlar, o'simliklar va odamlar - bularning hammasi tabiatdir.

Tarbiyachi: Atrofimizni o'rab turgan, Feruzjon sanab o'tgan barcha narsalar tabiat yoki ekologiya deb ataladi. Tabiat shunday ajoyib narsaki, undagi jonli va jonsiz, rang-barang o'simliklar va hayvonot olamini uyg'unsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Atrofimizdagi tabiat manzarasiga bir boqing: moviy osmonda quyosh charaqlab, oq bulutlar suzib, qushlar uchib yuribdi. Daraxtlarning barglari shamolda shitirlaydi, ariqda suv jildirab oqayapti, gullar ochilgan, maysalar yashnab ko'kargan, bu go'zal tabiat qo'ynida esa inson, ya'ni siz va biz yashaymiz. Tabiatdagi hamma narsalar bir-biri bilan bog'liqdir. Tabiatning uzilmas zanjiri bo'lgan bu organizmning rivojlanishi uchun nima zarur?

Odina: Havo, suv, quyosh, yorug'lik, issiqlik, oziq-ovqat.

Tarbiyachi: To'g'ri, bular hammasi bir-biri bilan bog'liq. quyosh issiqlik yetkazib bersa, tuproq, suv qon singari o'simliklar uchun ozuqa. Daraxtlar va o'simliklar inson uchun mahsulot yetkazib bersa, inson ularni iste'mol qilib, tabiatning rivojlanishi uchun uni parvarish qiladi.

Kamola: Masalan, terak yoz davomida juda ko'p changni yutib, odamlarga toza havo yetkazib beradi.

Tarbiyachi: Daraxtlar va butalar havoni changdan tozalaydi issiq kunlarda odamlar ularning soyalarida dam oladilar daraxtlar odamlarga mevalar yetkazib beradi. O'simliklar odamlardan tashqari hayvonlar bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir. Hayvonlar o't-o'lanlar bilan oziqlanishini kim aytadi?

Kamola: Hayvonlar o't-o'lanlar, o'simliklar, ularning mevalari bilan oziqlanadi.

Tarbiyachi: To'g'ri, demak, daraxtlar hayvonot olami uchun ham ozuqa sifatida xizmat qiladi. Qushlar, hayvonlar o'simliklarga qanday foyda beradi.

Nafisa: qushlar ba'zi bir hayvonlar daraxtlarga zarar yetkazadigan qurt va hasharotlarni yeb, ularni himoya qiladi.

Tarbiyachi: Biz sizlar bilan sanab o'tgan odamlar, daraxtlar, o'simliklar, hayvonlar, qushlar - barchasi jonli tabiat vakillaridir. Chunki ular oziqlanadi, nafas oladi, o'sadi, rivojlanadi, ko'payadi va oxirida nobud bo'ladi. Ular shu xususiyatlari bilan ham jonsiz tabiat jismlaridan farq qiladi. Jonli tabiat sultoni odam o'z hayoti uchun zarur barcha narsalarni jonli va jonsiz tabiatda, mehnat jarayonida yaratadi. Lekin shu bilan birga, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish uchun inson uni yaxshi bilishi, sevishi va himoya qilishi kerak. Shu sababli keyingi vaqtda «ekologiya» degan

tushuncha paydo bo'ldi (ekologiya - ekos - uy, logos - fan, degan lotincha so'zlardan tashkil topgan). Ya'ni barcha tirik mavjudotlar uyi (tabiat haqida fan). Ekologiya tirik mavjudotlarning bir-biri va jonsiz tabiat bilan bog'liqligi, odamning tabiatdagi xulq-atvori uning tabiatga madaniy munosabati haqidagi fikri. Tabiat va inson bir-butun.

Zar gilam - zar-zar gilam, Ketaveradi, ketaveradi,  
ko'taray desam og'ir gilam. (yer.) orqasiga qaramaydi. (suv.)

Tilla sandiq ochildi - ichidan zar sochildi. (quyosh.)

Tarbiyachi; Tabiatda jismlar qattiq, suyuq va gazsimon bo'lishi to'g'risida bolalarga tushuncha beradi. Masalan, tosh, temir - qattiq jism; suv, neft, benzin - suyuq jism. Ular shaklsiz bo'lib, oqib ketishi, yoyilib yoki uchib ketishi mumkin. Havo, tabiiy gaz - gazsimon jismlar, ularning ba'zi birlaridan nafas olamiz. Ular tarqab, uchib ketish xususiyatiga ega, suyuqlik singari shaklsiz, xavo boshqa jismlardan bo'shagan barcha bo'shliqlarni egallab, ko'zga ko'rinmaydi.

Feruz: Yer, quyosh - ota-ona, doim bizga parvona,

Ular juda serfarzand, bolalari asal-qand.

Bir - biridan ortiqdir, bari bizga tortiqdir,

aralash o'g'il-qizi, ikki yuzi qirmizi.

Kamola: Qizg'ish dumaloqliq'i otasiga o'xshaydi.

Sersuv va qumoqligi onasiga o'xshaydi.

Ozoda: Alp chinorlar - polvonlar, xush qomatli o'g'lonlar,

Mevalari - nevara, o't-o'lanlar - chevara.

Gul-chechaklar - qizlardir, yerdagi yulduzlardir,

Biz ham ularga farzand, ajralmas aziz dilband.

Tarbiyachi: Rahmat, bolajonlar, tabiat jismlari haqidagi olgan bilimlarimizni juda chiroyli qilib she'riy ifodaladingiz. Endi o'zimizni test savollari orqali sinab ko'ramiz.

Yer, suv, tog'u tosh ham uxlaydimi? Uxlasa, qaysi faslda?

A) qishda; B) yozda; V) bahorda.

Hayot tashkil topgan 4 unsurlardan noma'lumini toping.

A) suv; B) havo; V) tuproq; D)...

Qishda qaysi daraxt uxlamaydi?

A) chinor; B) xurmo; V) archa

Oyna kabi yaltiraydi, issiq tegsa mo'ltiraydi?

A) oyna; B) muz; V) suv.

Tarbiyachi bolalar bilan har bir faslga xos o'zgarishlar haqida yakuniy suhbat uyushtiradi va mashg'ulotni tugatadi.

## **BOLALARGA O'QIB BERISH UCHUN BADI'Y ASARLAR**

### **Ninachi**

Yozning issiq kunlari bir ermagimiz cho'milish bo'lsa, bir ermagimiz ninachi tutish... Turfa rang ninachilar anhorning maysaga to'liq joyalarda qo'nib-uchib yurishardi. Oriq qomatlari- yu, juft-juft qanotlari biram rangdorki, go'yo quyosh nurli sochlarini ninachilarga atay qadab, xilma-xil bo'yoqqa bo'yab qo'yganday. Naykamalak rangi ularning qanotida jilva qiladi. Bo'y ufurib yotgan yalpizlarga ninachilar gala-gala bo'lib qo'nganda, go'yo ular «gullab» turganday ko'rinadi. Biz kim o'zarga ninachi tutish bilan andarmon bo'lamiz. Barmoqlarimizni qisib olamizda, sharpasiz olg'a cho'zamiz. Havoning bemajol to'lqinini sezib qolishadimi, ular nogahon yengil uchib ketishadi. Birpas lol qolamizda, tag'in o'zgasini qidirib ketamiz. Ovimiz baroridan kelsa, boshimiz ko'kka yetadi. Bir nechasini bir-biroviga maqtab, «aeroplan» qilib uchiramiz. Ular ushoqqina tanalariga o'ralgan ingichka oq ipni zo'r-bazo'r sudrab, yer bag'irlab parvoz qiladilar.

Bir kuni ninachilarning nasarmon, yashil, zangori, malla, tuslilarini uyga keltirib, otamga maqtandim. Otam bo'lsa, ularga bir sira ko'z qirini tashladiyu, so'ng beparvo shunday dedi:

- Buning yaratuvchisini so'rmagansan-da? Balchiqda ko'milib yuradi. Buzoq boshiga o'xshagan badbashara. Uning qornini yorib chiqadi ninachilarning bari...

Shunda o'zim ardoqlagan go'zallik timsolidan ko'nglim bir sira sovib ketadiyu, o'sha go'zallikni yaratgan «sir»li maxluqni o'z ko'zim bilan bir ko'rishga oshiqib qolaman.

Bu niyatimga tez orada yetdim. Guzarda cho'milayotsam, anhor yoqasidagi ko'lmakda bir nima ko'rindi. Bir oz o'tmay, yam-yashil ninachining yarim tanasi balchiqrang, isqirt suv qo'ngizining qornini yorib chikdi. Haqiqatan ham jonivorning yeryong'oqchalik keladigan vujudi juda ham jirkanch edi. Lekin, baribir, meni o'ziga rom etgan, kamalakdek serjilo ninachilardan ixlosim hech qaytmas edi.

### **Chumchuq**

(O'zbek xalq ertagi)

Chumchuq uchib ketayotib yo'ldan bir g'o'za topib olibdi. U sevinganidan g'o'zani tishlab, shoshilganicha bir kampirning oldiga olib boribdi. G'o'zani kampir oldiga tashlab:

-Chuv; chiy-chiy, - debdi. Kampir g'o'zani chuvis beribdi. Chumchuq paxtani olib boshqa bir kampir oldiga borib;

-Sava, sav, sav, - debdi. U kampir savab beribdi, so'ngra chumchuq ola chopon bo'zchi do'koni oldiga borib:

-Ig, ig, ig, to'q, to'q! - debdi. Do'kondor bo'zchi yigirib, to'qib beribdi. Chumchuq mashinachi oldiga olib borib:

-Tik, tik, tik, debdi. Mashinachi uni o'lehab, chopon tikib beribdi.

Ana endi Chumchuqboy choponni kiyib, podsho o'rqasiga uchib boribdi. Chumchuq qarasa, podsho tahorat qilayotgan ekan. Chumchuq bir qadam narida turib, podshoga;

-Mening to'nim chiroyli, mening to'nim chiroyli, - debdi.

Shunda podsho g'azabga kelib:

-Jallod, - debdi. Bosh jallod kelibdi. Podsho:

-Ana u falokat nima deyapti? O'ldir uni! - deb baqiribdi.

Bosh jallod ham qonli boltasini quloqlab, zarb bilan uribdi.

Chumchuq pirr etib devorga qo'nibdi. Bosh jallod qarasa, urgan boltasi podshoning yarmini kesib ketibdi. Podsho til tortmay o'libdi. Chumchuq bo'lsa, devorda turib, bu hodisani ko'rib quvonib ketibdi.

Shunday qilib podsho o'lib, chumchuq murodiga yetgan ekan.

### **Toshbaqa bilan Chayon**

Toshbaqa Iroqdan Xijozga borur edi. Yo'lda bir Chayonga yo'ldosh bo'ldi. Ikkisi zaruratdan hamroh bo'ldilar. Ammo Toshbaqa juda farosatli erdi, ko'p safarlarda yaxshi va yomon bilan yurib, ko'p tajriba hosil qilgan erdi. Bular keta turib, yo'lda katta bir daryoga yo'liqдилar. Hech qaerdan o'tishga ko'prik topolmadilar. Toshbaqa o'zini daryoga tashlab, qirg'oqqa o'tib oldi, g'oz va o'rdaqdek silkinib turdi. Birdan orqasiga qarasa, yo'ldoshi daryoning u qirgog'ida nayzasini gajak qilib, u yoqdan bu yoqqa yurib turar edi.

Toshbaqa: «Ey birodar, nima uchun bu tomonga o'tmaysiz? - deb so'radi. Chayon: «Ko'z yoshicha suv bo'lsa, bizni ma'zur tuting», - deb javob berdi. Toshbaqa: «Yo'ldoshlik bunday bo'lmaydi, ozgina qiyinchilik bilan do'stlikni buzish yaxshi bo'lmas, uni ham o'tkazib qo'yay», - deb ko'nglidan kechirdi. Toshbaqa bir oz harakat bilan daryoning bu qirg'og'iga o'tib oldi. «Ey birodar, seni daryodan o'tkazib qo'ygani keldim, ustimga minib ol, lekin bejo harakat qilma, o'z joningga jabr qilasan» - dedi. Chayon: «Har kim o'z maslaxatini o'zi bilur» deb Toshbaqaning orqasiga mindi. Ular daryoga tushib oldilar, bir qancha vaqtdan so'ng Chayon tebranaverdi. Toshbaqa dedi: «Bu bejo harakatdan maqsading nimadir?» Chayon dedi: «Bugun keng dalangga chiqib oldim, endi po'lat nayzam bilan kosangni bir sinay degan edim», - deb javob berdi. Toshbaqa dedi: «Sening cho'pga

o'xshash kuchsiz nayzang mening kosamga qanday kor qilsin?». Chayon dedi: «Sen bilmaysanmi, Chayonning muddaosi xoh do'stining ko'ksiga bo'lsin, xoh dushmanning orqasiga bo'lsin ishqilib, nish urishdir». Toshbaqa Chayonning bu so'zini eshitib, shunday dedi: «Do'stim, qachongacha suv yuzida xasdek suzib yuramiz, endi bu chuqur daryoning javohirlarini tomosha qilmoq kerak» - deb suvga bir sho'ng'idiki, Toshbaqa javoxirlar terdi, Chayon jon berdi.

### **QARAG'AY**

Bo'yin cho'zib Qaragay,  
Yon-atrofga  
Qarag'ay.  
Der u:  
Bacha daraxtdan  
Baland akang- Qarag'ay.

### **TERAK**

Men terakman, Terakman.  
Men hammaga kerakman  
Osmon mening yelkamda.  
Men olamga tirgakman.

### **MAJNUNTOL**

Boshim egik, Majnuntol,  
Majnuntolman, Majnuntol.  
Dam olsangiz Soyamda,  
Men sizlardan Mamnun tol.

### **GILOS**

Men gilosman, Quloq sol,  
Rangim qizil Totim bol.  
Topsang Qo'shalog'imni,  
Qulog'ingga taqib ol.

### **O'RIK**

Qantdek shirin  
Otim bor.  
Xo'p mazali  
Totim bor.  
Mag'zimga berkitgan  
Qantim bor.  
Novvotim bor.  
Qolmangiz!

### **OLMA**

Men sizlarning  
Olmangiz,  
Xomligimda  
Olmangiz,  
Nortojiga  
O'xshab so'ng  
Voy qornim, deb qolmangiz.

### **SHAFTOLI**

Sariq, oq  
Shaftoliman,  
Zarg'aldoq  
Shaftoliman,  
Maqtanib  
O'ltirmayman,

### **YoNG'OQ**

Miya kabi  
Shaklim bor.  
Boshim to'la  
Aqlim bor.  
Meni yegan  
Donishmand

Maqtanchoq  
Shaftoliman.

Bo'lur, degan  
Naqlim bor.

#### **ARChA**

Men archaman, archaman.  
Men xursandman barchadan.  
Atrofimda aylanib,  
Hech charchamang,  
charchamang!

#### **NASHVATI**

Meni derlar  
Nashvati,  
Sharbatlarning  
Sharbati,  
Mazalarning  
Mazasi,  
Lazzatlarning,  
Lazzati.

#### **Qor yog'moqda**

Sokin tun. Qor yog'yapti. Bolalarning beg'ubor qalbi to'lib-toshib oqayotgan daryoday jo'shqin. Bahorda ko'm-ko'k o'tloqlarda oppoq kapalaklarni ushlamoqchi bo'lganday har bir zarrachaga talpinishadi. Qanday zavqli-a! Ona tabiat shunday go'zal-ki, uning chiroyi hech ham tugamaydi.

Ana, qorning bir parchasi qizchaning oppoq hovuchiga ohista qo'ndi. Quvonchdan uning yonoqlari shunday yashnab ketdiki, bu daqiqalar tasviriga til o'jiz. Qor shunday beg'ubor qizchaning qo'liga tushganidan, birdan erib ketdi. Tip-tiniq shudring tomchisiga aylandi.

Bir zumdayoq hammayoq oq choyshabga burkandi. Haligina qor zarrachalarini ushlashga intilayotgan bolalar, endi undan xovuchlab-xovuchlab olib, dumaloqlab, qorbo'ron o'ynashdi.

Tun. Hamon qor yog'ardi.

#### **Tuya**

Sahro. Oltinrang qum olov purkaydi. O'rkach-o'rkach barxanlar osha vazmin odim tashlab tuya bormoqa. Uning ustida: tuyakash va anchagina yuk. Manzilgacha xiyla yo'l bosish kerak. U har zamon, har zamon uzoq-uzoqlarga bo'ynini cho'zib, «manzilga yetdiknikan» deya termulib qo'yadi. U odamlarga necha asrlardan beri holis xizmat qiladi. Sira tinim bilmaydi. Qishning izg'irin, yozning jaziramasi demaydi. Nima buyurishsa, shuni qiladi. Hatto biror marta qaysarlik qilgan emas. Yot deyishsa yotgan, tur deyishsa turgan.

Yozda hammayoqni yondiraman deb turgan Qoraqum sahrosiga ham tap tortmay kirib boraveradi. Hatto bu sahroda eng qudratli texnika ham

gohida uning o'rnini bosolmaydi. Unga na qarov, na o't-yem, na tunov joyi kerak. Shu ona Yer egasi bo'lsa bas. Yemishini ham o'zi topib yeydi, duch kelgan joyda biroz mizg'ib olsa bas.

Unga faqat bir narsa alam qiladi. Hech kim uni sevib erkalamaydi. Hatto odamlar eng yomon ko'rgan kishilarini «Tuyaga o'xshaysan-a», deyishadi. Aslida esa...

...Tuya hamon yo'lda. U manzil sari olg'a qadam tashlab bormoqda. Oldinda esa past-baland barxanlar.

### Archa

U hamisha ko'm-ko'k. Ona tuproq bag'ridan unib, quyoshning zarrin nurlarini emgan damlaridan qasamyod qilgandek bir xilda o'sadi. Uning rangi ham hech o'zgarmaydi. Ko'm-ko'k, yam-yashil...

Kunlar o'taveradi. Yilning ilk fasli - qishning izg'iriniga bardosh beradigan ham shu. Hatto novdalari oppoq qorlarga chulg'anganida baxtiyor kelinchakka o'xshab ketadi. Bahorda ham sevimli libosni o'zgartirmaydi. Faqat yangi novdalari qanot yozib uyg'onish faslini qutlaydi. Yozning jazirasida ham odamlarga zavq bag'ishlaydi.

Tabiatning to'kinchilik fasli bo'lmish kuzda hammayoq oltin rang qiyofaga kirganida, so'ngra daraxtlar o'zining to'nini tashlaganida ham, u avvalgidek yashnab turaveradi. Hech qiyofasini o'zgartirmaydi.

Hamma odamlar ham tabiatning ana shu bebaho ehsoniga o'xshasa qaniydi...

### Topishmoqlar

Bir parcha patir,  
Olamga tatir.

To'rtidir uning oyog'i,  
Temir mixli tuyog'i,  
(oy) Manzilga yetishtirar,  
Toshdan qattiq tuyog'i.

(ot)

O'tirishi toyloqday,  
O't yeyishi yilqiday.

(Chigirtka)

Qat-qat quloq,  
Dum-dumaloq.

(karam)

Tom ustida piyola,  
Atrofida gul-lola.

(oy va yulduzlar)

G'oq-g'oq-g'oq  
Dimog'im choq',  
Suvda suzib yuraman,  
Ko'p kayflar suraman.

(g'oz)

### Tomchi haqida ertak

Qishloq chekkasida, baland tepalik ustida bir tup O'rik o'sar ekan. U har yili odamlarga ko'p-ko'p meva berarkan. Ammo atrofida daraxtlar bo'lmagani uchun juda zerikarkan. Bir kun ertapab O'rik uyg'onsa, yaprog'ida bir narsa yaraq-yaraq qilib turganmish.

- Sen qanaqa qushsan? - debdi O'rik hayron bo'lib.

- Men qush emasman. Men - Tomchiman, - debdi boyagi yaraqlab turgan narsa.

- Kel, o'rtoq bo'lamiz, - debdi O'rik.

- Bo'pti.

- Ammo ketib qolmayсан, - debdi O'rik. - Bo'lmasa qushlardan ham o'rtog'im ko'p-u, hammasi kuz kelishi bilan qochib ketishadi.

- Mayli, - debdi Tomchi. - Men eng qiyin paytda sening yoningda bo'lamen.

O'rik juda suyunib ketibdi. Ikki o'rtoq kun bo'yi mazza qilib o'ynashibdi. Lekin O'rikning quvonchi uzoqqa bormabdi. Ertasiga ertalab uyg'onsa, Tomchi yo'q emish.

«Tomchi meni aldadibdi», - deb o'ylabdi O'rik hafa bo'lib. Endi shundoq deb turgan ekan, birov uni chaqiribdi.

-O'rikjon! Hoy, O'rikjon!

O'rik quloq solsa, tovush osmondan kelayotganmish. Osmonga qarasa, do'mboqqina, oppoq bulut suzib ketayotganmish.

- Meni kim chaqiryapti? - debdi O'rik shoxlarini silkitib.

- Men, sening do'stingman! - debdi bulut borgan sayin pastlab. - Men - Tomchiman.

O'rik hayron bo'libdi:

- Qandoq qilib osmonga chiqib olding?

- Meni oftob bobo bulutga chiqarib qo'ydi.

-Meniyam olib ket, - debdi O'rik xavasi kelib.

-Yo'q, sen odamlarga meva berishing kerak. Qo'rqma, men ham yaqinda qaytib kelaman.

Tomchi shunday debdi-da, bulutga minib, olis-olislariga ketib qolibdi. O'rik yana zerika boshlabdi. «O'rtog'im endi kelmaydi, deb o'ylabdi xafa bo'lib. - Osmonga chiqib, meni unutib yubordi».

Kunlar borgan sayin isib, O'rikning rosayam suv ichkisi kelibdi. Chanqaganidan yaproqlari shalpayib qolibdi. Suv ichay desa, yaqin orada bittayam ariq yo'q emish. Ohiri u shundoq chanqabdiki, hushidan ketib qolibdi.

Bir mahal birov uning yaproqlarini silagandek bo'libdi. O'rik ko'zini

ochib qarasa, yaproq ustida Tomchi turgan emish.

-Men senga yordam bergani keldim, - debdi Tomchi. U shunaqa ko'p o'rtoqlarini boshlab kelgan ekanki, O'rikning chanqog'i birpasda bosilib, yayrab yashnab ketibdi. Ikkala do'st rosa o'ynabdilar.

Kundan-kun, oydan-oy o'tib, kuz kelibdi. O'rikning yaproqlari to'kilib, yalang'och bo'lib qolibdi. Bu ham kamlik qilgandek, birdan izg'irin shamol esibdi. O'rikning a'zoyi badani muzlay boshlabdi.

- Tomchi bo'lganida yordam berardi, - deb o'ylabdi O'rik afsuslanib. Shundoq deyishi bilan osmonda bir vaqtlar Tomchini ko'tarib yurgandaka bulutlar paydo bo'libdi. Bulutlar quyuqlashaveribdi, quyuqlashaveribdi, oxiri qor yog'ib yuboribdi. Qor uning shoxlarini ko'rpadek o'rab olibdi.

-Qalay, isib qoldingmi, O'rikjon?

O'rik Tomchining tovushini darrov tanibdi. Ammo o'zini ko'rmabdi.

-Qaerdasan, Tomchi? - debdi shoxlarini silkitib.

-Qorning ichidaman, - debdi Tomchi kulib, - qarasam, sovuq qotib qolibsən. Qorni boshlab keldim.

- Endi ketib qolmaysan-a? - debdi O'rik yalinib.

- Yo'q, bahorgacha sening yoningda qolaman.

O'shandan beri O'rik odamlarga ko'p mevalar beribdi. Tomchi ellarni kezibdi. Ammo u qaerda bo'lmasin, qiyin va zarur paytda do'sti - O'rikning yoniga kelarkan.

## **BUG'DOY**

Oltin tojli

Sultonman.

Somsa, patir.

Shirmonman.

Azizdirman

Odamga,

Arzandaman

Olamga.

Yer kuylasa.

O'ynayman.

Xirmon sari

Bo'y layman.

Oy chiqqanda

Qo'noqqa.

O'xshar

Kumush o'roqqa.

## **SABZI**

Yupqagina

Po'stim bor.

Dalada

Ko'p do'stim bor.

Maqolda ham

Yoziqman,

Yotsam

Erga qapishib.

Dumginamdan

Tortishib,

Tashladilar

O'raga...

O'sha  
«Oltin qoziq»man

**Sholg'om**

Popuk bargli  
Boshim bor.  
Vazmingina  
Toshim bor.  
Dumi uzun  
Rediska -  
Menga  
Kenjatoy uka.

**BODIRING**

Iching to'la Suv, dema  
Xohlamasang, Bor, yema!  
Qondoshmana - Bananga,  
Oshqovoq esa Yangamga.

Salom  
Palov to'raga!

Yosh-da,  
Picha shoshar u -  
Bahordayoq  
Pishar u.  
Men shoshmayman  
Bag'amman.  
Shuning uchun  
Sholg'omman.

**POMIDOR**

To's-to'polon  
Bozorda,  
Yoki biron Guzarda  
Uchrab qolgan Onimda,  
O'tib ketma Yonimdan.  
Payti kelsa,  
Tortar jon -  
Menga hatto Baqlajon.  
Xullas,  
Ko'pdir urug'im,  
Shu bois Zo'r dovrugim.  
Ko'rganmisan Kinoni -

Mashhur

«Chipollino»ni?  
O'sha yerda Men ham bor.  
Nomim  
«Sinor Pomidor».

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мақтабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори 3261-ПҚ, 09.09.2017.// “Халқ сўзи”, 11 сентябр 2017 йил, 181-сон (6845).
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Мақтабгача таълим вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги Қарори (3305-ПҚ, 30.09.2017).
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мақтабгача таълим тизимини бошқаришни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони (5198-ПҚ, 30.09.2017).
4. Ўзбекистон Республикаси мақтабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори (4312-ПҚ, 08.05.2019).
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг агроф мухитни муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қонуни Тошкент.: 2019 йил 30 октябр
6. Ўзбекистон Республикаси ЎРҚ-408-сонли “Ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида”ги Қонуни Тошкент.: 2016 йил 19 сентябр
7. Ўзбекистон Республикаси ЎРҚ-409-сонли “Ўсимлик дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида”ги Қонуни Тошкент.: 2016 йил 5 август
8. “Илк қадам” мақтабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури. БМТнинг Болалар жамғармаси ЮНИСЕФнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси техник кўмаги ёрдамида яратилди ва нашр этилди. Т.: 2018 – 72 б.
9. Ўзбекистон Республикасининг илк ва мақтабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган давлат талаблари. БМТнинг Болалар жамғармаси ЮНИСЕФнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси техник кўмагида яратилди ва нашр этилди. Т.: 2018 – 56 б.
10. Акбарова Р.Т.. “Мақтабгача ёшдаги болаларни ўсимликлар билан таништирувчи дидактик ўйинлар” -Т.: ТГПУ, 2005 й.
11. Аксенова, З.Ф. Войди в природу другом. Экологическое воспитание дошкольников. – Москва: ТС Сфера, 2011. – 128 с. – (Библиотека воспитателя).

12. Бондраченко, И.В. Дидактические игры по экологии // Ребенок в детском саду. – 2011. - № 1. – С. 73-74; №2. – С. 52-53.
13. Волосникова, Т.В. Основы экологического воспитания дошкольников // Дошкольная педагогика. - 2005. - № 6.- С. 16-20.
14. Воронкевич, О.А. «Добро пожаловат в экологию» - современная технология экологического образования дошкольников // Дошкольная педагогика. - 2006. - № 3. С. 23-27.
15. Джабборовва Х.Д. Мактабгача ёшдаги болаларга экологик таълим-тарбия беришнинг хослиги. -Т.: “Ўқитувчи”, 2000 й.
16. Жуманова Ф.У Касб-хунар коллежлари ўқувчиларида экологик маданиятни шакллантириш 13.00.01. Педагогика назарияси ва тарихи педагогика фанлари номзодлик диссертацияси Тошкент:. 2010 й.
17. Йўлдошев Н.С., Авазов Ш.М.. Экология ва табиатни муҳофаза қилиш асослари. Ўқув қўлланма. -Т.: «Мехнат», 2003 й.
18. Каримов И.А. Юсак маънавият-енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2010. – 176 б.
19. Ковинко, Л.В. Секреты природы - это так интересно! - Москва: Линка-Пресс, 2004. – 72с.: ил.
20. Константинова, Т.В. Творческая игра на занятиях по экологии в ДОУ // Начальная школа: плюс до и после. - 2006. - № 1. - С.46-48.
21. Леонова, О.М. Формирование экологической культуры у детей дошкольного возраста // Дошкольная педагогика.- 2015.- № 1. – С. 16-18.
22. Маселникова Н.Н. Эколого-валеологическое воспитание дошкольников. Организация прогулок в летний период / Н.Н. Маселникова, С.В. Терехина. – Санкт-Петербург: ООО «ИЗДАТЕЛЬСТВО «ДЕТСТВО-ПРЕСС», 2013. – 96с.
23. Николаева, С.Н. Теория и методика экологического образования детей: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. - Москва: Издательский центр «Академия», 2002. - 336с.
24. Строкова, О.Н. Технология проектной деятельности как эффективная форма работы по экологическому воспитанию детей старшего дошкольного возраста // Дошкольное воспитание. – 2014.- № 10. – С. 25-28.
25. Туловсва, А. С душой к природе // Дошкольное воспитание. – 2014. - № 8. – С. 28-30.
26. Чебан, М.И. Экологические игры // Ребенок в детском саду. - 2008. - № 6. - С.50-54.

27. Содиқова Ш.А., Расулхўжаева М.А. Болаларни табиат билан таништириш методикаси. Ўқув қўлланма – Т.: “Фан ва технология” 2013

28. Г.Э.Джанпеисова, М.А.Расулхўжаева “Табиат билан таништириш методикаси” фани бўйича электрон ўқув-услубий мажмуа. № DGU 05578 Тошкент 2018.

29. Расулхўжаева М.А. Болаларни ҳайвонот олами билан таништириш орқали ахлокий сифатларини шакллантириш технологияси. Услубий қўлланма - Т.: “Илм-Зиё-Заковат” 2020.

30. NATURAL CURIOSITY: Building Children’s Understanding of the World through Yenvironmental Inquiry / A Resource for Teachers. Printed in Canada by Maracle Press Ltd., Copyright © 2011.- 180 p.

31. Suzanne Lowell Krogh. Yeducating young children. Infancy to Grade Three Western Washington University. – 2004. By McGraw – Hill, Inc, – 561 p.

32. <http://www.preschool.by.ru>  
<http://www.kindereducation.com>


33. <http://www.ranneerazvitie.narod.ru>

34. <http://www.talant.sp>

5.

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                       |            |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| KIRISH SO'ZI .....                                                                                                                    | 3          |
| I BOB.MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARNI TABIAT<br>BILAN TANISHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA TABIAT<br>HAQIDA TUSHUNCHA .....            | 5          |
| II BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA<br>TABIATSHUNOSLIK ISHLARINI TASHKIL ETISH .....                                           | 29         |
| III BOB.MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA<br>TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING MAZMUNI.....                                              | 42         |
| IV BOB.MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNI TABIAT<br>BILAN TANISHTIRISH METOD, VOSITALARI .....                                           | 66         |
| V BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TABIAT<br>BILAN TANISHTIRISHNING ISH SHAKLLARI .....                                          | 129        |
| VI BOB.MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA<br>TABIAT BURCHAGINI TASHKIL QILISH .....                                                   | 150        |
| VII BOB. YER MAYDONCHALARINI TASHKIL QILISH VA<br>ULARNING TURLARI .....                                                              | 162        |
| VIII BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA<br>TABIAT BILAN TANISHTIRISH ISHLARINI REJALASHTIRISH<br>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ..... | 183<br>220 |



**G.E.Djanpeisova, M.A.Rasulxo'jayeva**

# **TABIAT BILAN TANISHTIRISH**

***o'quv qo'llanma***

**Toshkent - "Innovatsiya-Ziyo" - 2021**

*Muharrir Xolsaidov F.B.*

*Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.  
Bosishga 24.08.2021. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.  
"Times New Roman" garniturası.  
Ofset bosma usulida bosildi.*

*Shartli bosma tabog'i 14. Nashr bosma tabog'i 14.  
Adadi 100 nusxa.*

ISBN 978-9943-6214-7-3

